

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2018*

UDK 657(075)
BBK 65.053ya7
A 15

Mualliflar:

**A. ABDULLAYEV, S. MAXMUDOV, U. RAXIMOVA,
O, MAXMUDOV, A. MAMAJONOV**

Taqrizchilar:

*Q. Muftaydinov — i.f.d., professor;
U. Sobirov — i.f.n., dotsent*

Mas'ul muharrir: *Rahimova Sh.A.*

A 15 Iqtisodiy tahlil va audit. [Matn]: darslik/A. Abdullayev [va boshq.] Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — T.: Cho'lpon nomidagi NMIU —236 b.
ISBN 978-9943-5380-4-7

Ushbu darslik hisob-kitob hamda nazorat ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida olib borish borasida dasturulamal sifatida xizmat qiladi. Undan o'zlashtirilishi ko'zda tutilayotgan ko'nikmalar birinchidan, korxona mulkining to'liqligini ta'minlashga hamda undan samarali foydalanishga olib kelsa, ikkinchidan, ishga solinmagan ichki imkoniyatlarni ochib berishga yordam beradi.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan («Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlaridan tashqari) barcha talabalar uchun mo'ljallangan.

**UDK 657(075)
BBK 65.053ya7**

ISBN 978-9943-5380-4-7

**©A. Abdullayev va boshq., 2018
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018**

KIRISH

Mamlakatimizda yuz berayotgan tub sotsial-iqtisodiy o'zgarishlarda mulkka bo'lgan munosabatning tubdan o'zgarishi, turli mulkchilikka asoslangan korxona va tashkilotlarning tashkil qilinishi, chet el investitsiyalarining jalb qilinishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda, ular o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning bajarilishini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda hisob va nazoratning alohida o'rni bor.

Hisob va nazorat yordamida har bir xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy faoliyati o'rganiladi, ularda mavjud bo'lgan mulkning to'liqligi nazorat qilinadi. Mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi, mulkdorlar sinfining paydo bo'lishi, turli mulkchilik shaklidagi ko'plab korxonalarning tashkil etilishi «Iqtisodiy tahlil va audit» fani oldiga o'zining yangi talablarini qo'ymoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining birinchi yillaridayoq buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini tashkil etish borasida ko'plab yangi huquqiy-me'yoriy hajatlar ishlab chiqildi.

Respublikamizda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» hamda «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunlar qabul qilinishi hisob va nazorat tizimining yanada rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olib, mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu darslik hisob-kitob hamda nazorat ishlarini to'g'ri va o'z vaqtida olib borish borasida dasturulamal sifatida xizmat qiladi. Undan o'zlashtirilishi ko'zda tutilayotgan ko'nikmalar birinchidan, korxona mulkining to'liqligini ta'minlashga hamda undan samarali foydalanishga olib kelsa, ikkinchidan, ishga solinmagan ichki imkoniyatlarni ochib berishga yordam beradi.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishida tahsil olayotgan («Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishlaridan tashqari) barcha talabalar uchun mo'ljallangan.

1-MAVZU. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI VA AHAMIYATI

1.1. Iqtisodiy tahlil to'g'risida tushuncha va uning ahamiyati

Tahlil – grekcha «analisis» soʻzidan olingan boʻlib, sodir boʻlgan va boʻlayotgan jarayonlarni boʻlaklarga boʻlib, qismlarga ajratib, parchalab oʻrganishni bildiradi. Toʻliqroq qilib bayon qilganda, tahlil makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyotda sodir boʻlgan va boʻlayotgan hodisa va jarayonlar toʻplamini boʻlaklarga, qismlarga boʻlib va ajratib, ularning oʻzgarishini va oʻzaro bogʻliqligini hamda oʻzgarishiga omillar taʼsirini oʻrganishni bildiradi. Oʻrganilayotgan hodisa va jarayonlarni qism va boʻlaklarga ajratishda ularning umumiylik, birlik va bogʻliqlik xususiyatlari saqlanib qolishi lozim.

Iqtisodiy tahlilni oʻz vaqtida uyushtirish va uning natijalaridan hayotda samarali foydalanish iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol oʻynaydi. Tahlil korxonalar faoliyatining barcha tomonlarida (taʼminot, ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy faoliyatlarida) sodir boʻlgan va boʻlayotgan iqtisodiy hodisa va jarayonlarning oʻzgarishini, oʻzgarishning sabablarini oʻrganadi, natijada mavjud boʻlgan imkoniyatlarni aniqlaydi, ularni xoʻjalik faoliyatiga jalb etish boʻyicha yoʻl-yoʻriqlar koʻrsatadi. Bu esa tahlilning asosiy maqsadidir. Korxonalarning boshqaruv va moliyaviy faoliyatlarini maqsadli oʻrganish, tezkor, joriy va istiqbolli tahlillarni amalga oshirish asosida, ularning holatiga har taraflama baho berish iqtisodiy tahlilning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

1.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va uning usullari

Iqtisodiy tahlil fani ham boshqa fanlar kabi oʻzining maxsus predmeti va usullariga egadir.

Iqtisodiy tahlil fanining predmeti deganda, barcha korxonalar faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar taʼsirida roʻy bergan va sodir boʻlayotgan iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari tushu-

niladi. Boshqacha aytganda, tahlil obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'lgan va bo'layotgan jarayonlarning holati va harakatini hamda ularning natijalarini o'zaro bog'liqlikda o'rganadi. Tahlil o'z predmetini o'rganishda iqtisodiy axborotlardan foydalanadi, ya'ni iqtisodiy axborotlar asosida jarayonlarning o'zaro bog'liqligi keng qamrovda o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlilning predmetida omillar asosiy o'rinni egallaydi, chunki korxonalarning xo'jalik faoliyatida yuzaga kelgan va kelayotgan hodisa va jarayonlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, ular qandaydir obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Obyektiv va subyektiv omillarning ta'sirini boshqa fanlar o'rganmaydi, faqat bularning ta'siri iqtisodiy tahlilda o'rganiladi, shuning uchun ham iqtisodiy tahlil fani predmetining negizida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar va ularning ta'sirini o'rganish bejiz qayd qilingan emas.

Xo'jalik faoliyatida sodir bo'lgan iqtisodiy jarayonlarga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, moddiy resurslar hamda ulardan foydalanish samaradorligi va h.k. Shu ko'rsatkichlarning har birining shakllanishi va o'zgarishiga ma'lum miqdordagi omillar ta'sir qiladi. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga birinchi navbatda xodimlar soni bilan mehnat unumdorligi darajasining o'zgarish ta'sir qiladi. Demak, ishlab chiqarish faoliyatida band bo'lgan xodimlar soni bilan mehnat unumdorligi ta'siri ostida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va uning o'zgarishini o'rganish iqtisodiy tahlil predmetiga misol bo'la oladi. Boshqa iqtisodiy jarayonlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar ham shunga o'xshash namoyon bo'ladi va omillar ta'siri ostida o'rganiladi.

Iqtisodiy tahlilning predmetini o'rganish usullari uning metodini tavsiflaydi. Boshqacha aytganda, predmetni o'rganishda qo'llaniladigan usullar yig'indisi tahlilning metodi hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan usullar o'z navbatida ikki guruhga bo'linadi:

1. statistik usullar;
2. iqtisodiy matematik usullar.

Keng tarqalgani statistik usullardir. Shular jumlasiga solishtirish, ko'rsatkichlar farqi, zanjirli bog'lanish, balansli bog'lanish, indeks usullari kiradi. Ular orasida iqtisodiy tahlilda keng qo'llaniladiganlari ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullaridir. Shuning uchun bu ikki usul mazmun-mohiyatiga to'xtaldik.

Ko'rsatkichlar farqi (farqlash) usuli.

Ko'rsatkichlar farqi usuli — bu hodisalar orasidagi bog'lanish funksional ko'rinishda bo'lgan taqdirda ishlatiladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, natija ko'rsatkichiga omillar ta'sirini aniqlash uchun ta'siri aniqlanayotgan omillar orasidagi farqni qolgan omillarning miqdoriga ko'paytiriladi.

Iqtisodiy hodisaning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar o'z navbatida ikki guruhga bo'lib o'rganiladi, ya'ni miqdoriy va sifatiy omillarga.

Agar hodisaning (natijaning) o'zgarishiga ikki omil ta'sir qilsa, ularning ta'siri quyidagi tartib bo'yicha aniqlanadi.

Natijaning o'zgarishiga miqdor omilining ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi miqdor omil bilan bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) miqdor omil orasidagi farqni bazis davridagi sifatiy omilga ko'paytiriladi.

Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga xodimlar sonining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(T_1 - T_0) \cdot R_0 = \pm \Delta_t.$$

Bunda: T_1 — hisobot yilidagi xodimlar soni;

T_0 — bazis yilidagi (yoki rejadagi) xodimlar soni;

R_0 — bazis davridagi o'rtacha bir xodimning ish haqi.

Natijaning o'zgarishiga sifatiy omilning ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi sifat omili bilan bazis davridagi sifat omili orasidagi farqni hisobot davridagi miqdoriy omilga ko'paytiriladi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga o'rtacha ish haqi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlashni misol qilib ko'rsatish mumkin:

$$(R_1 - R_0) \cdot T_1 = \Delta_r.$$

Bunda: R_1 — hisobot yilidagi o'rtacha bir xodimning ish haqi.

U yoki bu hodisaning o'zgarishiga bir necha miqdoriy va bir necha sifatiy omillar ta'sir qilgan taqdirda ham, yuqoridagi qoidalarga amal qilib, ularning ketma-ket joylashishi bo'yicha ta'siri aniqlanadi. Masalan, ish haqi fondining o'zgarishiga quyidagi 3 ta omil ta'sir qilsa:

1. ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T);
2. bir ishlovchiga to'g'ri keladigan kishi-soatlar soni (CH);
3. bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasi (Z).

Ushbu omillarning ko'paytmasi ish haqi fondi hajmiga teng bo'ladi:

$$T \cdot CH \cdot Z.$$

Shulardan birinchi ko'rsatkich miqdoriy omil (T); ikkinchi va uchinchi ko'rsatkichlar sifatiy omillar hisoblanadi. Demak, birinchi navbatda miqdoriy omil ta'siri, keyin sifatiy omillar ta'siri navbati bilan (ketma-ket joylashishi saqlangan holda), ya'ni quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Mehnat haqi fondining o'zgarishiga xodimlar soni o'zgarishining ta'siri:

$$(T_1 - T_0) \cdot CH_0 \cdot Z_0 = \pm \Delta_t.$$

2. Mehnat haqi fondining o'zgarishiga bir ishlovchiga to'g'ri keladigan soatlar sonining o'zgarishini ta'siri:

$$(CH_1 - CH_0) \cdot T_1 \cdot Z_0.$$

3. Bir kishi-soat hisobiga to'g'ri keladigan mehnat haqi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot T_1 \cdot CH_1.$$

Zanjirli bog'lanish usuli. Ushbu usul ham farqlash va qayta hisoblash usullari kabi o'rganilayotgan jarayonni ifodalovchi ko'rsatkichlar orasidagi bog'lanish, ya'ni natija bilan omillar orasidagi bog'lanish funksional xarakterga ega bo'lgan taqdirda ishlatiladi. Bu usulda har bir ta'sir etuvchi omilning natijaga ta'sirini aniqlash yo'li uslubiy ketma-ketlikka ega. Natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashdagi uslubiy ketma-ketlik tamoyili shundan iboratki, rejadagi yoki o'tgan yildagi ko'rsatkichlarni hisobot ko'rsatkichlari bilan navbatli almashtirishni to'g'ri belgilash lozim. Rejadagi yoki o'tgan yildagi omilli ko'rsatkichlarni

almashtirishda miqdor va sifat ko'rsatkichlarga alohida e'tibor beriladi.

Ko'rsatkichlarni qatorlashda, analitik jadval tuzishda dastlab miqdor ko'rsatkichlar, so'ngra sifat ko'rsatkichlar (joylashtiriladi). Boshqacha aytganda, dastlabki qatordagi ko'rsatkichlar haqiqiy qatordagi ko'rsatkichlar bilan joy almashib, oxirgi qatordagi haqiqiy ko'rsatkichlar holatiga keltiriladi. Bunda birinchi qator ko'rsatkichlar har doim rejadagi (bazi yilidagi) ko'rsatkichlarni (dastlabki ko'rsatkichlarni), oxirgi qator esa haqiqiy (hisobot yilidagi) ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Birinchi qator bilan oxirgi qator orasidagi qatorlar «shartli ko'rsatkichlar» hisoblanadi. Yonma-yon turgan qatorlar orasidagi o'zgarish natijaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi bir omilning ta'sir darajasini ko'rsatadi. Omillar ta'sirining yig'indisi har doim umumiy o'zgarish (natijaning o'zgarishi)ga teng kelishi kerak.

Buni ish haqi fondini tahlil etish uslubi misolida ko'rib chiqamiz. Ish haqi fondining o'zgarishiga 3 omil ta'sir qiladi:

1. ishlovchilarning o'rtacha yillik soni (T)ning o'zgarishi;
2. 1 ishlovchining o'rtacha yillik ishlagan kishi-soatlari (CH)ning o'zgarishi;
3. 1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi (Z)ning o'zgarishi.

Ushbu ko'rsatkichlarning o'zaro ko'paytmasining yig'indisi ish haqi fondining hajmiga teng bo'ladi:

$$T \cdot CH \cdot Z = \Sigma TCHZ.$$

Ish haqining umumiy o'zgarishi:

$$\Sigma T_1 CH_1 Z_1 - T_0 CH_0 Z_0 = \pm \Delta_{TCHZ}.$$

Demak, ish haqi fondining o'zgarishiga uchta omil ta'sir qiladi. Bularning ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlari (ya'ni ish haqi fondi ko'rsatkichlari) aniqlab olinadi.

I. $\Sigma T_0 CH_0 Z_0$ – bazis davridagi ish haqi fondi.

II. $\Sigma T_1 CH_0 Z_0$ – shartli ish haqi fondi (1-shartli).

III. $\Sigma T_1 CH_1 Z_0$ – shartli ish haqi fondi (2-shartli).

IV. $\Sigma T_1 CH_1 Z_1$ – hisobot davridagi ish haqi fondi.

Shundan so'ng omillar ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

1. xodimlar soni o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 CH_0 Z_0 - T_0 CH_0 Z_0 = \pm \Delta_T.$$

2. 1 kishining ishlagan soatlari o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 CH_1 Z_0 - T_1 CH_0 Z_0 = \pm \Delta_{CH}.$$

3. 1 kishi-soat hisobiga hisoblangan ish haqi darajasi o'zgarishining ta'siri:

$$\Sigma T_1 CH_1 Z_1 - T_1 CH_1 Z_0 = \pm \Delta_Z.$$

Shundan so'ng omillar ta'siri umumlashtirilib, natija o'zgarishiga baho beriladi, imkoniyatlar ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlilda statistik usullar bilan bir qatorda, matematik usullar ham qo'llaniladi. Shular jumlasiga korrelyatsiya, dispersiya, integral usullarini kiritish mumkin.

Matematik usulni qo'llash asosida:

- iqtisodiy tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o'zgarishlar va ularning ta'sirini aniq hisoblash mumkin bo'ladi;
- oddiy, an'anaviy usullar bilan hisoblab bo'lmaydigan murakkab omillar va ko'p omilli ko'rsatkichlarni to'liq o'rganish imkoniyati tug'iladi;
- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va h.k.

1.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning roli keskin oshadi, chunki erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Tahlilning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi asosiy vazifalari:

- 1) korxonaning biznes rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;
- 2) biznes rejaning bajarilishi, korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarini o'rganish;
- 3) har bir yo'nalishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning ta'sirini hisoblash va safarbar qilish;

4) mehnat, moddiy va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ko'rsatish;

5) xo'jalikning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning to'lovga qodirligiga baho berish va chora-tadbirlar ishlab chiqish.

2-MAVZU. KORXONALARNING YILLIK HISOBOTLARINING TO'G'RILIGINI TEKSHIRISH

2.1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarining o'zaro mosligini tekshirish

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lum sanaga mavjud bo'lgan mol-mulkini va ularning tashkil bo'lish manbalarini pul shaklida aks ettiruvchi maxsus jadval buxgalteriya balansi deb ataladi.

Hisobotlar va shu jumladan, buxgalteriya balansi amaldagi tartib-qoidalar va me'yoriy hujjatlariga muvofiq bosh daftar, tegishli hisob-kitob registrlari hamda yillik inventarizatsiya ma'lumotlari asosida tuziladi. Balans tuzishga qadar yil oxirida analitik schotlarning oborotlari va qoldiqlari bosh daftar schotlarining oborotlari va qoldiqlari bilan solishtirilib, o'zaro mos kelishi aniqlanadi.

Analitik schotlar bilan bosh daftar schotlari ko'rsatkichlari o'zaro mos kelgandan keyin buxgalteriya balansini tuzishga kirishiladi.

Buxgalteriya balansi ikki qismdan iborat bo'lib, uning aktiv tomonida xo'jalik mol-mulkining joylashishi, passiv tomonida mol-mulkning tashkil bo'lish manbalari ko'rsatiladi.

Balansning aktiv va passivida barcha balans moddalari ikki bo'limda guruhlariga bo'linib aks ettirilgan.

Balansning aktividagi xo'jalik mablag'lari (mulki) quyidagi ikki bo'limda aks ettirilgan:

- 1) uzoq muddatli aktivlar;
- 2) joriy (aylanma) aktivlar.

Xo'jalik mablag'larining manbalari ham balans passivida quyidagi ikki bo'limda aks ettirilgan:

- 1) o'z mablag'larining manbalari;
- 2) majburiyatlar.

Uzoq muddatli aktivlar quyidagi guruhlarini o'z ichiga oladi:

- 1) asosiy vositalar;
- 2) nomoddiy aktivlar;
- 3) kapital qo'yilmalar;
- 4) uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar.

Joriy (aylanma) aktivlar quyidagi uch guruhni o'z ichiga oladi:

- 1) zaxira va sarflar;
- 2) pul mablag'lari;
- 3) debitorlik qarzlari.

O'z mablag'larning manbalari quyidagi moddalarni qamrab oladi:

- 1) ustav kapitali;
- 2) qo'shilgan kapital;
- 3) rezerv kapitali;
- 4) taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar);
- 5) maqsadli tushumlar va jamg'armalar;
- 6) kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari uchun rezervlar;
- 7) kelgusi davr daromadlari;

Majburiyatlar o'z navbatida uch guruhga bo'linadi:

- 1) uzoq muddatli qarzlari va kreditlar;
- 2) qisqa muddatli qarzlari va kreditlar;
- 3) kreditorlik qarzlari.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining buyrug'i bilan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish qoida»lari tasdiqlangan. Ushbu hujjatga ko'ra buxgalteriya balansini tuzishda va uning to'g'ri tuzilganligini tekshirishda quyidagi bog'lanish qoidalariga amal qilish kerak:

Balans aktiv qismining I bo'limi (110-satr)ning summasi 012, 022, 030, 040, 050, 060, 070, 080, 090, 100-satrlardagi summalar yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Balans aktivining II bo'limi (310-satr)ning summasi 120, 130, 140, 150, 160, 170, 180, 190, 200, 210, 220, 230, 240, 250, 260, 270, 280, 290-satrlardagi summalarining yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Balans aktiv qismining jami I va II bo'limlarining yig'indisiga, ya'ni 110 va 310-satrlardagi summalarining yig'indisiga teng bo'-

lishi kerak. Balans passivining I bo'limi (400-satr)ning summasi 320, 330, 340, 350, 360, 370, 380-satrlardagi summalarning yig'indisiga teng bo'lishi kerak. Balans passivi II bo'limi (550-satr)ning summasi 410, 420, 430, 440, 450, 460-satrlardagi summalarning yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

Balans passivining jami (560-satr) I va II bo'limlardagi summalarning yig'indisi (400 va 550-satrlar yig'indisi)ga teng bo'lishi kerak.

Balans aktivi (320-satr) va passivi (560-satr) summolari ham yil boshida, ham yil oxirida teng bo'lishi kerak. Balans moddalari orasidagi ichki bog'liqlikdan tashqari, tashqi bog'liqlik ham mavjud. Bu bog'liqlik balansning ayrim ko'rsatkichlarining boshqa moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga mos kelishida namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, balansning ayrim satrlarida aks ettirilgan ko'ratkichlar moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida qayd qilingan ma'lumotlarga teng kelishi kerak. Balans ko'rsatkichlari 2, 3, 4, 5-shakldagi hisobotlarning ma'lumotlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, balans (1-shakl)ning 170-satri 3-ustunida «Yil boshiga» ko'rsatilgan pul mablag'lari summasi «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-shakl)ning 070-satrini 3-ustunida «Yil boshiga» ko'rsatilgan summasiga teng bo'lishi kerak. Balansning 170-satri 4-ustunida «Yil oxiriga» ko'rsatilgan pul mablag'lari summasi 4-shaklning 080-satri 3-ustunida «Yil oxiriga» ko'rsatilgan summasiga teng bo'lishi kerak. Agar shu ko'rsatkichlar o'zaro teng bo'lmasa, hisobotlardagi ma'lumotlarni noto'g'ri deb hisoblash mumkin.

Buxgalteriya balansi (1-shakl) va «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» (5-shakl) ko'rsatkichlari orasida ham uzviy bog'liqlik mavjud. Buxgalteriya balansining passiv qismida joylashgan xo'jalik mablag'larining manbalari» deb nomlangan 1-bo'limda aks ettirilgan ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlangan foyda summolari 5-shakldagi hisobot ma'lumotlariga to'liq mos kelishi kerak. Ushbu ikki hisobotda aks ettirilgan xususiy kapital turlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarning o'zaro teng kelishi haqidagi fikrlar «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning to'g'riligini tekshirish» bo'limida bayon qilingan.

Buxgalteriya balansi bilan «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» orasida ham uzviy bog'liqlik mavjud. Ushbu bog'liqlik «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi» hisobotning to'g'riligini tekshirish» bo'limida keltirilgan.

Buxgalteriya balansi bilan «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma» (2-*a* shakl)ning umumlashtruvchi ko'rsatkichlari orasida ham bog'liqlik mavjud, ya'ni ularning ko'rsatkichlari ham o'zaro teng bo'lishi kerak. 1-shakl ma'lumotlari bilan 2-*a* shakl ma'lumotlarining o'zaro tengligini quyidagi bog'lanishdan ko'rish mumkin.

Debitorlik qarzlari bo'yicha:

1-shakl 220-satr 4-ustun=2-*a* shakl 1-satr 3-ustun;

1-shakl 220-satr 4-ustun=2-*a* shakl balansga ilova jami 3-ustun.

Kreditorlik qarzlari bo'yicha:

1-shakl 460-satr 4-ustun=2-*a*-shakl 4-satr 3-ustun;

1-shakl 460-satr 4-ustun=2-*a*-shakl balansga ilova jami 4-ustun.

Yuqorida bayon qilingan tartibda hisobotlardagi ma'lumotlarning to'g'riligi tekshiriladi, to'g'riligi aniqlangandan keyin tahlilchi xo'jalikning moliyaviy ahvolini tahlil qilishga kirishadi.

2.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligini tekshirish

Moliyaviy natijalar deganda xo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki ko'rilgan zararni ifodalovchi ko'rsatkichlarni tushunmoq kerak.

«Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq moliyaviy natijalar 5 turga bo'linib hisoblanadi va tahlil qilinadi. Biz ushbu bo'limda «foyda» ko'rsatkichini bayon qilishga harakat qildik.

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda:

$$YAF = SST - IT.$$

Bunda: YAF – mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda;

SST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi (AFF):

$$AFF = YAF - DX + BD - BZ.$$

Bunda: DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlar;

BZ – asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan ko‘rilgan zararlar.

3. Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (UFF):

$$UFF = AFF + MD - MX.$$

Bunda: MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

4. Foyda solig‘i to‘langungacha bo‘lgan foyda (STF):

$$STF = UFF + FP - FZ.$$

Bunda: FP – favqulotdagi foyda;

FZ – favqulotda ko‘rilgan zarar.

5. Sof foyda (SF):

$$SF = STF - DS - BS.$$

Bunda: DS – daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BS – boshqa soliq va to‘lovlar.

Xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘lgan foyda (zarar) moliyaviy natijalar tariqasida «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»da aks ettiriladi. Ushbu hisobot (2-shakl) mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladi. Ushbu hisobot (2-shakl) 9000, 9100, 9300, 9410, 9420, 9430, 9440, 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9591, 9610, 9620, 9630, 9710, 9720, 9810, 9910-schotlar (hisobvaraqlar) ma’lumotlari asosida tuziladi.

Moliyaviy natijalar rejasining bajarilishini yoki dinamikasini tahlil etishning asosiy axborot manbayi ushbu hisobot (2-shakl)ning ma’lumotlari hisoblanadi. Tahlil qilishdan oldin ushbu hisobot ko‘rsatkichlarining to‘g‘ri tuzilganligi qayta tekshirish orqali nazoratdan o‘tkaziladi.

Shuning uchun ham ushbu hisobot ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini hamda undagi ma’lumotlarning moliyaviy hisobotning boshqa turdagi hisobot ma’lumotlariga mos kelishini tekshirib ko‘rish zarur. Buni quyidagi tartibda amalga oshirish kerak:

Birinchi navbatda ushbu hisobot ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi tekshiriladi.

Hisobotning 050-satrda aks ettirilgan «Sotishdan olingan sof tushum» summasiga to'g'riligini tekshirish kerak. Buning uchun 010-satr summasidan 020, 030, 040-satrlar summalarini ayirib tashlash kerak. Bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

Satr 050-ustun 3 = satr 010-ustun 3-satr 020, 030, 040, ustun 4.

Satr 050-ustun 5 = satr 010-ustun 5-satr 020, 030, 040, ustun 6.

Hisobotning 070-satridagi «Sotishdan olingan foyda (zarar)» summasi 050-satr summasidan 060-satr summasini ayirish orqali mos kelishi tekshiriladi, ya'ni 050-satrdagi summa bilan 060-satrdagi summa orasidagi farqqa teng bo'lishi kerak. Boshqacha aytganda, sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi orasidagi farqqa yalpi foyda summasi teng bo'lishi tekshiriladi.

Hisobotning 110-satridagi «Asosiy ishlab chiqarish faoliyati foydasi (zarar)» 070-satr summasi bilan 080, 090, 100-satrlar summolari orasidagi farqqa teng bo'ladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

Satr 110-ustun 3 = Satr 070-ustun 3-satr 080, 090, 100, 105-ustun 4+satr 100-ustun 3.

Satr 110-ustun 5 = Satr 070-ustun 5-satr 080, 090, 100, 105-ustun 6+satr 100-ustun 5.

Hisobotning 150-satridagi «Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)» asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasiga moliyaviy faoliyat foydasini qo'shib va moliyaviy faoliyat xarajatini ayirib tashlagandan keyin qolgan farqiga teng bo'ladi. Bu bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

Satr 150-ustun 3 = Satr 110-ustun 3 + satr 120, 125, 130, 135, 140, 145-ustun 3-satr 130, 135, 140, 145-ustun 4;

Satr 150-ustun 5 = Satr 110-ustun 5 + satr 120, 125, 130, 135, 140, 145-ustun 5-satr 130, 135, 140, 145-ustun 6.

Foyda solig'i to'langunga qadar bo'lgan foyda teng bo'lishi kerak:

Satr 170-ustun 3 = satr 150-ustun 3±satr 160-ustun 3, 4;

Satr 170-ustun 5 = satr 150-ustun 5 ± satr 160-ustun 5, 6.

Sof foyda teng bo'ladi:

Satr 200-ustun 3 = satr 170-ustun 3-satr 180, 190, 195-ustun 4;

Satr 200-ustun 5 = satr 170-ustun 5-satr 180, 190, 195-ustun 6.

Hisobot ichidagi o'zaro bog'lanish bilan bir qatorda, ushbu hisobotning ayrim ma'lumotlari boshqa moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'liqlikka ega.

Masalan, ushbu hisobotda ko'rsatilgan sof foyda (taqsimlanmagan tariqasida) buxgalteriya balansi (1-shakl) va xususiy kapital to'g'risidagi hisobot (5-shakl)da aks ettirilgan foyda summalari bilan bog'liqlikda bo'lishi kerak. Hisobot (2-shakl)ning 200-satr 5-ustunida ko'rsatilgan sof foyda summasi 5-shakldagi hisobotning 080-satr 6-ustundagi «Joriy yilning taqsimlanmagan foyda summasi»ga teng kelishi, 1-shakldagi hisobotning 360-satridagi 4-ustun summasi bilan 3-ustun summasi orasidagi farqqa teng kelishi kerak.

Bundan tashqari, «Mahsulotlarni sotish» hisobotlarida aks ettirilgan jami pul tushumi, jami ishlab chiqarish tannarxi, jami foydasi 2-shakldagi hisobotning tegishli ko'rsatkichlariga teng kelishi kerak. Masalan, «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish» hisoboti (7-ASK shakli) 400-satr 3, 4, 5, 6-ustunlarining summalari 2-shakldagi hisobotning 010-satri 5-ustuni, 060-satr 6-ustuni, 070-satr 5-ustuni summalariga teng kelishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, ikki hisobot ko'rsatkichlari orasidagi bog'liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

2-shakl 010-satr 5-ustun = 7 ASK shakli 400-satr 3-ustun;

2-shakl 060-satr 6-ustun = 7 ASK shakli 400-satr 2-ustun;

2-shakl 070-satr 5-ustun = 7 ASK shakli 400-satr 4-ustun 5-ustun.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi (tengligi) va boshqa moliyaviy hisobotlarning tegishli ko'rsatkichlari bilan mosligi, tengligi tekshirilib, to'g'riligi aniqlangandan keyin moliyaviy natijalarni tahlil qilishga kirishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2.3. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligini tekshirish

Moliyaviy hisobotlar bilan bir qatorda, maxsus hisobotlar ham korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganishda asosiy axborot manbayi bo'lib xizmat qiladi. Maxsus hisobotlar har xil tarmoqlar faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi, shuning uchun ham ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqa tarmoqlarning korxonalari moliyaviy hisobotlarni bir xil shaklda tuzadilar va tegishli organlarga topshiradilar, ularning maxsus hisobotlari esa bir-biridan farq qiladi.

Masalan, qishloq xo'jalik korxonalari quyidagi maxsus hisobotlarni tuzadilar:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish to'g'risidagi hisobot (7-ASK shakli);
- o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning tannarxi (9-ASK shakli) to'g'risidagi hisobot;
- chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning tannarxi (13-ASK shakli) to'g'risidagi hisobot va boshqalar.

Ushbu hisobotlarni sanoat korxonasi ham, savdo korxonasi ham va boshqa tarmoq korxonalari ham tuzmaydilar, bular faqat qishloq xo'jalik korxonalariga tegishli bo'lgan hisobotlardir, ammo ularda ham shularga o'xshash o'zlarining maxsus hisobotlari mavjud.

Maxsus hisobotlar ko'rsatkichlari ham o'zaro bir-biri bilan hamda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bilan bog'langan bo'ladi. Maxsus hisobot ko'rsatkichlari birinchi navbatda moliyaviy hisobotlar tarkibiga kiruvchi 1-shakl «Buxgalteriya balansi» va 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Bu bo'limda qishloq xo'jalik korxonalarining maxsus hisobotlaridan biri bo'lgan «Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish» to'g'risidagi hisobot (7-ASK shakli) ma'lumotlarining to'g'riligini tekshirish usullari bayon qilindi.

Hisobot (7-ASK shakli)ning 010-satri 1–9-ustunlar summasi mos holda uning 011, 012, 013, 014, 015, 016, 017, 018, 019,

020-satrlar 1–9-ustunlar summasiga teng bo‘lishi kerak. Masalan, sotilgan boshqoli va dukkakli donlar jami miqdori (010-satr 1-ustun summasi) uning 011–020-satrlar birinchi ustunda aks ettirilgan miqdorlar summasiga teng bo‘lishi kerak, xuddi shunga o‘xshash «Tannarx», «Pul daromadi», «Foyda», «Zarar» summalarining (010-satr 2–9-ustunlar) jami summolari mos holda 011–020-satrlar bo‘yicha 2–9-ustunlar summolari yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak.

Hisobotning 210-satr 2, 3, 4, 5, 8, 9-ustunlarning har birini jami summolari mos holda 010, 030–160, 161, 170, 180, 200-satrlarning 2, 3, 4, 5, 8, 9-ustunlardagi summolari yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Sotilgan qishloq mahsulotlari summasini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichlar (490-satrdagi qayd qilingan) hajmi 210, 460, 480-satrlar summolari yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak. Masalan, 490-satr 3-ustunda aks ettirilgan «Mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi (pul tushumi)» summasi 210-satr 3-ustun «O‘simlik mahsulotlarini sotishdan olingan pul daromadi», 460-satr 3-ustun «Chorvachilik mahsulotlarini sotishdan olingan pul daromadi», 470-satr 3-ustun «Sanoat mahsulotlarini sotishdan olingan pul daromadi», 480-satr 3-ustun «Boshqa mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi» summalarining yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak. Bu bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$490\text{-satr } 3\text{-ustun} = 210\text{-satr } 3\text{-ustun} +$$

$$+ 460\text{-satr } 3\text{-ustun} + 470\text{-satr } 3\text{-ustun} + 480\text{-satr } 3\text{-ustun}.$$

Jami sotilgan mahsulot tannarxi bilan o‘simlik, chorvachilik va boshqa mahsulotlar tannarxi orasidagi bog‘liqlikni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$490\text{-satr } 2\text{-ustun} = 210\text{-satr } 2\text{-ustun} +$$

$$+ 460\text{-satr } 2\text{-ustun} + 470\text{-satr } 2\text{-ustun} + 480\text{-satr } 2\text{-ustun}.$$

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishdan olingan jami foydasi hajmi uning tarkibiy qismlaridan olingan foydalar yig‘indisiga teng bo‘lishi kerak, ushbu tenglikni quyidagi bog‘liqlik bo‘yicha tekshirish kerak:

$$490\text{-satr } 4\text{-ustun} = 210\text{-satr } 4\text{-ustun} +$$

$$+ 460\text{-satr } 4\text{-ustun} + 470\text{-satr } 4\text{-ustun} + 480\text{-satr } 4\text{-ustun}.$$

Ushbu hisobot (7-ASK shakli) ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligi, umumiy ko'rsatkichlarga xususiy ko'rsatkichlarning mosligini ichki tekshiruvdan o'tkazib, to'g'riligi aniqlangandan keyin, ushbu shakl ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotning boshqa shakllari ko'rsatkichlariga solishtirilib, mos kelishi tekshirilishi kerak. Bu hisobot (7-ASK shakl) ko'rsatkichlari moliyaviy hisobotning «Moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobot» (2-shakl) ko'rsatkichlari bilan bevosita bog'langan. Ushbu hisobotlardagi mahsulotlarni sotishdan olingan jami pul daromadi (pul tushumi hajmi), sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxining jami summasi, sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) summasi ko'rsatkichlari bir-biriga o'zaro mos kelishi kerak, agar mos kelmasa, ko'rsatkichlar noto'g'ri hisoblangan deb xulosa chiqarish mumkin. Ushbu ikki hisobotda aks ettirilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan umumlashgan ko'rsatkichlar bog'liqligini, bir-biriga mos kelishligini quyidagicha ifodalash mumkin:

7 ASK shakli 490-satr 2-ustun = 2-shakl 060-satr 6-ustun;

7 ASK shakli 490-satr 3-ustun = 2-shakl 050-satr 5-ustun;

7 ASK shakli 490-satr 3-4-ustun = 2-shakl 070-satr 5-ustun.

Ushbu tengliklar mavjud bo'lsa, 7 ASK shaklidagi hisobot to'g'ri tuzilgan deb hisoblab, mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda va sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlilini amalga oshirish mumkin.

3-MAVZU: MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH VA SOTISH REJASI HAMDA DINAMIKASINING TAHLILI

3.1. Mahsulotlarning turi va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish ahvolining taqqoslama tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishini tahlil qilish uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha haqiqiy miqdorini reja bo'yicha ko'zda tutilgan miqdoriga solishtiriladi va o'zgarishi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda aniqlanib, baho beriladi. Mahsulotlar-

ning turlari bo'yicha dinamikasini tahlil qilish uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy miqdorini bazis yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi va baho beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha reja bajarilishining tahlilini paxta tozalash zavodining hisobot yili misolida ko'rib chiqamiz.

Paxta xomashyosini qayta ishlash natijasida zavod 6 xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarilishining va dinamikasining qiyoslama tahlilini *1-jadval* ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilda sanoat mahsulotining asosiy turlari – tola va chigit bo'yicha ishlab chiqarish rejasini oshig'i bilan bajarilgan. Masalan, paxta tolasi bo'yicha haqiqiy ishlab chiqarilgan miqdori rejaga nisbatan 413 tonnaga yoki 4,9% ga, chigit bo'yicha esa 420 tonnaga yoki 2,9% ga ko'p ishlab chiqarilgan. Ushbu mahsulotlarning miqdori bazis yiliga nisbatan keskin oshgan. Paxta tolasi bo'yicha 3372 tonna yoki 62,4% ga, chigit bo'yicha 6528 tonnaga yoki 76,7% ga mahsulot ko'p ishlab chiqarilgan.

1-jadval

Mahsulotlarning turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili

T/r	Mahsulot turlari	Bazis yili	Hisobot yili		Rejaga nisbatan		Bazis yiliga nisbatan	
			Reja bo'yicha	Amalda bajari-lishi	Farqi (+;-)	Bajari-lishi, %	Farqi (+;-)	Dinamika-si, %
1.	Tola	5403	8362	8775	+413	104,9	+3372	162,4
2.	Chigit	8510	14618	15038	+420	102,9	+6528	176,7
3.	Momiq	412	935	344	-591	36,8	-68	83,5
4.	Katta momiq	286	761	1175	+414	154,4	+889	410,8
5.	Urug'	48	450	64	-386	14,2	+16	133,3
6.	Kuyundi	—	2039	2027	-12	99,4	—	—

Paxta tolasi chiqimining tahlili shuni ko'rsatadiki, hisobot yilida reja oshig'i bilan bajarilgan, ammo bazis yiliga nisbatan u keskin kamaygan.

Zavodda paxtani qayta ishlashga bazis yilida 14659 tonna, hisobot yilida 27423 tonna paxta xomashyosi sarf bo'lgan.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi bazis yilida 36,9 foizni ($5403 \cdot 100 / 14659$), hisobot yilida reja bo'yicha 30,5 foizni ($8362 \cdot 100 / 27423$), haqiqatda esa 32 foizni ($8775 \cdot 100 / 27423$) tashkil qildi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, paxta tolasi bo'yicha chiqim darajasi rejaga nisbatan 1,5% ga oshgan, ammo bazis yiliga nisbatan 13,3% ga kamaygan.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, zavod paxta tolasi bo'yicha chiqimini oshirish imkoniyatidan to'liq foydalangan emas.

Mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishining tahlili bilan bir qatorda, assortimenti tahlilini ham amalga oshirish zarur. Mahsulot assortimenti deganda nima tushuniladi?

Mahsulotning tarkibi bo'yicha turlanishi mahsulot assortimenti hisoblanadi. Masalan, paxta tolasining navlar bo'yicha turkumlanishi assortimentga misol bo'la oladi.

Mahsulotlar assortimentining tahlilida ishlab chiqarish uchun rejalashtirilgan mahsulotlarning miqdori va hajmi bo'yicha bo'ladigan o'zgarishlari aniqlanib, ularga baho beriladi. Assortiment bo'yicha rejaning bajarilish darajasiga baho berish uchun yakuniy ko'rsatkich aniqlab olinadi.

Mahsulot assortimenti bo'yicha reja bajarilishini ifodalovchi yakuniy ko'rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilib, assortiment tarkibiga qabul qilingan mahsulot jami miqdori (hajmi)ning reja bo'yicha ishlab chiqarilishini ko'zda tutilgan jami mahsulot hajmiga bo'lish kerak:

$$\text{Kar} = \text{Assortimentga qabul qilingan mahsulot hajmi.}$$

Rejalashtirilgan mahsulot hajmi

Ishlab chiqarilib, assortiment tarkibiga qabul qilingan jami mahsulot miqdori (hajmi)ni aniqlashda har bir mahsulot turi

bo'yicha rejaga nisbatan sodir bo'lgan ikki holat ko'rsatkichlari hisobga olinadi.

Birinchidan, agar haqiqiy yetishtirilgan mahsulot hajmi rejaga nisbatan oshgan bo'lsa, assortimentga rejalashtirilgan mahsulot hajmi qabul qilinadi.

Ikkinchidan, agar haqiqiy yetishtirilgan mahsulot rejaga nisbatan kam ishlab chiqarilgan bo'lsa, assortimentga faqat haqiqiy yetishtirilgan mahsulot hajmi qabul qilinadi. Shu ikki holat natijasida hisobga olingan mahsulotlar hajmlarining yig'indisi assortimentga qabul qilingan jami mahsulot hajmini tashkil qiladi. Mahsulotlar assortimenti bo'yicha reja bajarilishining tahlilini paxta zavodida ishlab chiqarilgan paxta tolasi misolida *2-jadval* ma'lumotlaridan foydalangan holda ko'rib chiqamiz.

2-jadval

**Paxta tolasi navlari bo'yicha assortiment
rejasi bajarilishining tahlili**

Tola navlari	Reja bo'yicha	Amalda bajarilishi	Assortiment tarkibiga qabul qilingan mahsulot	Rejaning umumiy bajarilishi, %	Assortiment bo'yicha rejaning bajarilishi, %
1.	5340	5610	5340	X	X
2.	1160	1219	1160	X	X
3.	480	501	480	X	X
4.	480	441	441	X	X
5.	902	1004	902	X	X
Jami	8362	8775	8323	104,9	99,5

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, zavod bo'yicha hisobot yilida paxta tolasini ishlab chiqarish rejasi 104,9 foizga bajarilgan. Boshqacha aytganda, rejalashtirilgan 8362 tonna o'rniga amalda 8775 tonna tola ishlab chiqargan bo'lib, u 413 tonnaga ($8775 - 8362 = +413$ tonna) yoki 4,9 foizga oshgan. Tola bo'yicha assortiment rejasi 99,5 foizga bajarilgan. Ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibi deyarli rejaga mos keladi.

3.2. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori va hajmi bo'yicha dinamikasi yoki rejası bajarilishining tahlili qiyoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi mahsulot miqdorini rejadagi yoki o'tgan yildagi mahsulot miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Ushbu omillarning mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish», «Ko'rsatkichlar farqi», «Indeks» usullaridan foydalanish mumkin. Biz ushbu bo'limda «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, natijaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqladik.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi bazis yiliga nisbatan 3372 tonnaga oshgan. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan.

1. Qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining o'zgarishi (ekstensiv omil);

2. Tola chiqimi koeffitsiyentining o'zgarishi (intensiv omil).

Ushbu omillarning ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlandi. Omillarining ta'sirini aniqlaganga qadar quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur.

I. Q_0CH_0 – bazis yilidagi (yoki rejadagi) tola miqdori.

II. Q_1CH_0 – shartli tola miqdori.

III. Q_1CH_1 – hisobot yilidagi tola miqdori.

Bunda, Q_0 , Q_1 – mos holda bazis va hisobot yillarida qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori; CH_0 , CH_1 – mos holda bazis va hisobot yillarida paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti.

Ushbu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdorining o'zgarishi aniqlanadi va ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, tahlil qilinadi.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishini (ko'payishi yoki kamayishini) aniqlash uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori (III bog'lanish)dan bazis yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori (I bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$\Sigma Q_1 CH_1 - \Sigma Q_0 CH_0 = \pm \Delta_{Q,CH}$ – bu o‘zgarish ikki omil ta’siri ostida yuzaga kelgan.

Paxta tolasi miqdorining o‘zgarishiga qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun «shartli paxta tolasi miqdori» (II bog‘lanish)dan bazis yilidagi paxta tolasi miqdori (I bog‘lanish)ni ayirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q CH_0 - \Sigma Q_0 CH_0 = \pm \Delta_q.$$

Paxta tolasi miqdorining o‘zgarishiga paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi paxta tolasi miqdori (III bog‘lanish)dan shartli paxta tolasi miqdori (II bog‘lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 CH_1 - \Sigma Q_1 CH_0 = \pm \Delta_z.$$

Shu ikki omil ta’sirining yig‘indisi paxta tolasi miqdorining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak: $\Delta_q \pm \Delta_{ch} = \Delta_{qch}.$

Endi, yuqorida bayon qilingan «Zanjirli bog‘lanish» usulining qoidalari asosida paxta tolasi dinamikasining omilli tahlilini 3-jadvaldagi ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz.

3-jadval

Zavod bo‘yicha paxta tolasi dinamikasining omilli tahlili

T/r	Ko‘r-satkichlar	Bazis yili	Hisobot yili-da qayta ishlangan xomashyo miqdori va bazis yildagi tolasi chiqimi bo‘yicha	Hisobot yili	O‘zgarishi (+; -)	Sh.j. jami o‘zgarishi (+; -)	
						Paxta xomashyosi miqdori hisobiga	Tola koeffitsiyenti hisobiga
1.	Qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori, tonna	14659	27423	27423	+12764	X	X
2.	Paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti	0,369	0,369	0,320	-0,049	X	X
3.	Paxta tolasi miqdori, tonna	5403	10119	8775	+3372	+4716	-1344

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, zavod bo'yicha ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3372 tonna ko'paygan. Bu o'zgarish miqdoriy omilning ijobiy, sifatiiy omilning salbiy ta'siri ostida paydo bo'lgan. Miqdoriy omilning, ya'ni qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining oshishi ijobiy ta'sir qilib, paxta tolasi miqdorini 4716 tonna oshishiga olib kelgan:

$$\begin{aligned}\Sigma Q_1 CH_0 - \Sigma Q_0 CH_0 &= (27423 \cdot 0,369) - (14659 \cdot 0,369) = \\ &= 10119 - 5403 = + 4716 \text{ t.}\end{aligned}$$

Demak, qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 12764 tonnaga oshgan, natija ushbu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 4716 tonna ko'paygan.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishiga intensiv (sifatiiy) omilning o'zgarishi salbiy ta'sir qilgan. Paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 0,049 miqdorga kamaygan (4,9% ga pasaygan), natijada shu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 1344 tonnaga kamaygan:

$$\begin{aligned}\Sigma Q_1 CH_1 - \Sigma Q_1 CH_0 &= (27423 \cdot 0,320) - (27423 \cdot 0,369) = \\ &= 8775 - 10119 = -1347 \text{ tonna.}\end{aligned}$$

Agar hisobot yilida paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti kamaymasdan bazis yili darajasida saqlanib qolganda, hisobot yilida qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi 8775 tonna o'rniga 10119 tonnani tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, paxta tolasi miqdorini ko'paytirishning asosiy rezervi, paxta chiqimi koeffitsiyentini oshirish hisoblanadi, ammo zavod hisobot yilida ushbu imkoniyatdan foydalangan emas.

3.3. Yalpi mahsuloti hajmining omilli tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish o'zaro bog'langan iqtisodiy ko'rsatkichlardir.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining hajmi sanoat korxonasining faoliyatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

Sanoat mahsuloti hajmining o'zgarishi qo'llangan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishiga sababchi bo'ladi, jumladan, mahsulotni sotish hajmi, mahsulot tannarxi darajasi, foyda summasi,

rentabellik darajasi, korxonaning to'lov qobiliyati moliyaviy barqarorligi va boshqa sanoat mahsulotini ishlab chiqarish darajasiga bog'liq bo'ladi. Ishlab chiqarish hajmi yalpi va sof mahsulotlar orqali ta'riflanadi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi tovar va tayyor mahsulot bilan, sotilgan mahsulotlar hajmi esa jo'natilgan tovar mahsulotlari hajmi bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari natura, shartli natura va qiymat ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi yalpi mahsulot orqali ifodalanadi. Yalpi mahsulot hajmi resurslar va ulardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi, ushbu bog'liqlikni omillarning ta'sirini tahlil qilgan paytda ko'rib chiqamiz. Mahsulotning umumiy hajmi sof ulgurji narxlarda baholanadi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz va maxsus soliqlar chegirilib tashlangandan keyingi ulgurji narxlar bo'yicha baholanadi va maxsus hisobotda aks ettiriladi. Yalpi mahsulotning tahlili ham taqqoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi yalpi mahsulotning haqiqiy hajmi uning rejadagi hajmiga yoki bazis yilidagi hajmiga solishtirish orqali uning o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$YAM_1 - YAM_0 = \pm \Delta.$$

Bunda, YAM_1 , YAM_0 — mos holda hisobot va bazis yillaridagi yalpi mahsulot hajmi.

Ushbu formuladan omilli tahlilda foydalanish mumkin emas, chunki yalpi mahsulot hajmining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiluvchi birinchi tartibli omillar o'z aksini topgan emas (ular ko'rinmaydi). Shuning uchun yalpi mahsulot hajmini omillar ko'paytmalarining yig'indisi tariqasida aniqlab, ifodalash zarur. Ishlab chiqarilgan sanoat yalpi mahsuloti hajmi mehnat resurslari va ulardan foydalanish, asosiy vositalar va ulardan foydalanish, moddiy resurslar va ulardan foydalanish darajalariga bog'liq bo'ladi.

3.4. Tovar mahsulotlarini sotish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulotlarni ishlab chiqarishdan ko'ra ko'proq ularni sotish muammosi birinchi o'ringa chiqadi. Mahsulotlarni sotish hajmi ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun

asos bo'ladi. Mahsulot bozorgir bo'lsa, shunga yarasha ishlab chiqarish o'sadi, agar tovarning talabgori bo'lmasa, ishlab chiqarish qisqaradi. Demak, ishlab chiqarish ko'lamini rivojiga tovarning bozorgirligi ijobiy ta'sir qiladi.

Sotilgan tovarlarning hajmi ikki xil usul bilan hisoblanadi: kassali usul va hisobga olish usuli. «Kassali usul»da sotib oluvchilarga ortib jo'natilgan tovarlar puli korxonaning hisob raqamiga kelib tushgandan keyin u sotilgan deb hisoblanib, uning hajmi (summasi) aniqlanadi.

«Hisobga olish usuli»da sotib oluvchilarga tovar ortib jo'natilgan va ularning hujjatlari tegishli banklarga taqdim etilgan bo'lsa, tovar sotilgan deb hisoblanib, uning hajmi hujjatlardagi summalar bo'yicha aniqlanadi. «Hisobga olish usuli»dan aksariyat barcha sanoat korxonalari foydalanadi. Paxta zavodida ham sotilgan mahsulotlar bo'yicha ushbu usul qo'llanilib kelinmoqda.

Tahlilda mahsulotlarni sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi hamda ularning o'zgarishiga omillarning ta'siri o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Sotilgan tovar hajmining o'zgarishini tahlil qilishda «Tovar balansi» va «Sanoat mahsulotlarini sotish to'g'risidagi (25-shakl) hisobot» ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Sotilgan tovar mahsulotlari hajmi «Hisobga olish usuli» bo'yicha hisoblanganda, tovar balansi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$TM_1 + IT = SM + TM_2.$$

Bu yerda: TM_1 – yil boshidagi tayyor tovar mahsuloti qoldig'i;

TM_2 – yil oxiridagi tayyor tovar mahsuloti qoldig'i;

IT – yil davrida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymati;

SM – yil davrida sotilgan tovar mahsuloti qiymati.

Tovar balansi bo'yicha sotilgan tovar mahsuloti hajmi teng bo'ladi:

$$SM = TM_1 + IT - TM_2.$$

Demak, sotilgan tovar mahsuloti hajmining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi:

1) yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i bo'yicha hajmi (qiymati)ning o'zgarishi ($TM_1 - TM_0$);

2) ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishi ($IT_1 - IT_0$);

3) yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i bo'yicha qiymatining o'zgarishi ($TM_2 - TM_1$).

Ushbu omillarning sotilgan tovarlar hajmining o'zgarishiga ta'sirini solishtirish, ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullari orqali aniqlash mumkin.

Sotilgan mahsulotlar hajmi «Kassa usuli» bo'yicha aniqlanganda, ya'ni to'langan pul tushumi hajmi bo'yicha aniqlanganda tovar balansi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$TM_1 + IT + JM_1 = SM + JM_2 + TM_2.$$

Bunda: JM_1 – jo'natilgan tovar mahsulotlarining yil boshidagi qoldig'i;

JM_2 – jo'natilgan tovar mahsulotlarining yil oxiridagi qoldig'i.

Sotilgan tovar mahsulot hajmi (ya'ni pul tushumi hajmi) quyidagiga teng bo'ladi:

$$SM = TM_1 + IT + JM_1 - JM_2 - TM_2.$$

Demak, ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, tovarlarni sotishdan olingan pul tushumi hajmining o'zgarishiga 5 ta omil ta'sir qiladi. Ushbu omillarning pul tushumi o'zgarishiga ta'sirini ham yuqorida ko'rsatilgan usullar orqali aniqlash mumkin.

Biz «Hisobga olish usuli»dan foydalanib, paxta tolasini sotishni misolda ko'rib chiqamiz.

Sotilgan paxta tolasini dinamikasining tahlilini amalga oshirish uchun tovar balansi asosida tuzilgan quyidagi formuladan foydalanish zarur:

$$SM = TM_1 + IT - TM_2.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, sotilgan paxta tolasini hajmining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi. Ushbu omillarning ta'sirini solishtirish usuli orqali aniqlash tartibiga to'xtaldik.

Sotilgan paxta tolasini summasining (pul tushumining) o'zgarishiga yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'i o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilining boshidagi tayyor mahsuloti qoldig'idan bazis yilining boshidagi tayyor mahsulot qoldig'ini chegirib tashlash kerak:

$$TM_1 - TM_0 = \pm \Delta TM_1.$$

Hisobot yilining boshidagi paxta tolasi qoldig'i hajmi bazis yilining boshidagi qoldig'i hajmiga nisbatan ko'p bo'lsa, sotilgan paxta tolasi hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, uning ko'payishiga olib keladi. Aksincha bo'lsa, uni kamaytiradi.

Sotilgan paxta tolasi hajmi (summasi)ning o'zgarishiga yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilining oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'idani bazis yilining oxiridagi qoldig'ini chegirib tashlash kerak:

$$TM2_1 - TM2_0 = \pm \Delta TM_2.$$

Hisobot yilining oxiridagi paxta tolasi qoldig'ining hajmi bazis yilining oxiridagi qoldig'i hajmiga nisbatan kam bo'lsa, sotish hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi, natijada uning hajmini oshiradi. Aksincha bo'lsa uni kamaytiradi.

Sotilgan paxta tolasi hajmining o'zgarishiga ishlab chiqarilish tayyor mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida yetishtirilgan tovar mahsuloti hajmidan bazis yilida yetishtirilgan tovar mahsuloti hajmini chegirib tashlash kerak:

$$IT_1 - IT_0 = \pm \Delta IT.$$

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi hajmi bazis yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi hajmiga nisbatan ko'p bo'lsa, u sotish hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi, natijada pul tushumi summasi oshadi. Aksincha bo'lsa, pul tushumi kamayadi.

Endi, paxta tolasini sotish dinamikasining tahlilini «Sotilgan paxta tolasi balansi» asosida yuqorida bayon qilingan usul qoidasiga amal qilgan holda 4-jadvalda ko'rib chiqamiz.

4-jadval

Sotilgan paxta tolasi tovar mahsulotining omilli tahlili
(ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Paxta tolasining yil boshidagi qiymatining qoldig'i	Ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulot paxta tolasi	Paxta tolasining yil oxiridagi qiymatining qoldig'i	Sotilgan paxta tolasi hajmi
Bazis yili	127796	2217807	254333	2091270
Hisobot yili	254338	4902227	139466	5017099

Paxta tolasini sotish hajmining o'zgarishiga omillar ta'siri	+126542	+2684420	+114867	+2925829
---	---------	----------	---------	----------

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilida sotilgan paxta tolasi bazis yiliga nisbatan 2925829 ming so'mga oshgan. Ushbu ko'payish uch omilning ham ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Shu jumladan:

1) paxta tolasining yil boshidagi qoldig'ining oshishi hisobiga 126542 ming so'mga sotish hajmi oshgan ($254338 - 127796 = +126542$ ming so'm);

2) ishlab chiqarilgan paxta tolasi hajmining ko'payishi hisobiga sotish hajmi 2684420 ming so'mga oshgan ($4902227 - 2217807 = +2684420$ ming so'm);

3) paxta tolasining yil oxiridagi qoldig'ining kamayishi hisobiga sotish hajmi 114867 ming so'mga oshgan ($139466 - 254333 = + 114867$). Bu yerda natija minus o'rniga plus bilan chiqarilgan, sababi qoldiq kamayishi sotish hajmiga ijobiy ta'sir qilib, ko'paytiradi shuning uchun natija plus bilan qayd qilingan.

Sotilgan tovar mahsulotining umumiy hajmining tahlilini ko'rib chiqdik. Endi, tovar mahsulotining turi bo'yicha sotilgan mahsulot hajmining tahliliga to'xtalamiz.

Har bir sotilgan mahsulot turi bo'yicha hajmining o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\Sigma Q_1 P_1 - \Sigma Q_0 P_0 = \pm \Delta_{QP},$$

bunda: Q_1, Q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulot miqdori;

R_1, R_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan 1 birlik mahsulotning ulgurji bahosi.

Sotilgan mahsulot turi bo'yicha hajmining o'zgarishi quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

sotilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga;

ulgurji sotish bahosining o'zgarishi hisobiga. Ushbu omillar-ni sotilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash

uchun «Zanjirli bog‘lanish», «Ko‘rsatkichlar farqi», «Indeks» usullaridan foydalanish mumkin. Biz «Zanjirli bog‘lanish» usulidan foydalandik. Buning uchun omillar ta‘sirini aniqlashdan oldin quyidagi bog‘lanish ko‘rsatkichlari aniqlab olinadi:

I. $\Sigma Q_0 P_0$ – bazis yilida (yoki reja bo‘yicha) sotilgan mahsulot qiymati;

II. $\Sigma Q_1 P_0$ – sotilgan mahsulotning shartli qiymati;

III. $\Sigma Q_1 P_1$ – hisobot yilida sotilgan mahsulotning haqiqiy qiymati.

Shundan keyin sotilgan mahsulot hajmining o‘zgarishiga omillar ta‘siri quyidagicha aniqlanadi:

1. Sotilgan mahsulot miqdori o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun sotilgan mahsulotning shartli hajmidan (II bog‘lanishdan) bazis yilida (yoki reja bo‘yicha) sotilgan mahsulot hajmi (I bog‘lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 P_0 - \Sigma Q_0 P_0 = \pm \Delta_Q.$$

2. Sotilgan mahsulot 1 birligi bo‘yicha ulgurji sotish bahosi o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot hajmi (III bog‘lanish)dan sotilgan mahsulotning shartli hajmi (II bog‘lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 P_1 - \Sigma Q_1 P_0 = \pm \Delta_P.$$

Shu ikki omil ta‘sirining yig‘indisi sotilgan mahsulot hajmining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_Q \pm \Delta_P = \pm \Delta_{QP}.$$

Endi, yuqorida keltirilgan «Zanjirli bog‘lanish» usuli qoidasi asosida paxta zavodi misolida mahsulot turlari bo‘yicha hajmi dinamikasining omilli tahlilini ko‘rib chiqamiz.

5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, barcha mahsulot turlari bo‘yicha sotish hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan oshgan. Bu o‘zgarish omillarning ijobiy va salbiy ta‘sirlari ostida yuzaga kelagan. Jumladan, paxta tolasini sotish hajmining o‘zgarishiga ikki omil ham ijobiy ta‘sir qilgan, ya‘ni paxta tolasi miqdorining 4525 tonnaga (9487–4962) oshishi natijasida sotish hajmi 1907092 ming so‘mga, ulgurji sotish bahosining 107382 so‘mga (528839–421457) oshish natijasida tolani sotish hajmi 1018737 ming so‘mga oshgan. Natijada, shu ikki omil hisobiga tolani sotish hajmi bazis

Sotilgan mahsulotlar bo'yicha sotish
hajmining omilli tahlili

Mahsulot turlari	Bazis yili			Shartli sotish hajmi, ming so'm	Hisobot yili			Sotish hajmining o'zgarishi (+; -)	O'zgarishi	
	Miq- dori, tonna	1 t bahosi, so'm	Sum- masi, ming so'm		Miq- dori, tonna	1 t bahosi, so'm	Sum- masi, ming so'm		Miqdori hisobiga	Baho hisobiga
	Q_0	P_0	$Q_0 P_0$	$Q_1 P_0$	Q_1	P_1	$Q_1 P_1$	$Q_1 P_1 - Q_0 P_0$	$Q_1 P - Q_0 P_0$	$Q_1 P - Q_1 P_0$
Paxta tolasi	4962	421457	2091270	3998362	9487	528839	5017090	+2925829	+1907092	+1018737
Texnik chigit	7543	23699	178762	294578	12430	19718	245101	+66339	+115816	-49477
Urug'lik chigit	3586	50316	180435	108280	2152	219077	471455	+291020	-72155	+363175

yiliga nisbatan 2925829 ming so'mga ko'paygan. Texnik chigitni sotish hajmining o'zgarishiga uning miqdorining oshishi ijobiy, ulgurji sotish bahosining pasayishi salbiy ta'sir qilgan, urug'lik chigitni sotish hajmining o'zgarishiga uning miqdorining kamayishi salbiy, ulgurji bahosining oshishi ijobiy ta'sir qilgan.

4-MAVZU: MAHSULOT TANNARXINING TAHLILI

4.1. Mahsulot tannarxi umumiy hajmining tahlili

Mahsulot tannarxining umumiy hajmi ishlab chiqarish xarajatlari tariqasida namoyon bo'ladi. Tahlilda ularni kamaytirish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tahlilda ishlab chiqarish xarajatlarining rejaga va bazis yiliga nisbatan o'zgarishi sabablari o'rganiladi.

Tahlil hisobot yilida u yoki bu mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'lgan haqiqiy xarajatlarni reja ko'rsatkichlariga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Buni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\Sigma Q_1 Z_1 - \Sigma Q_0 Z_0 = \pm \Delta_{Q,Z}.$$

Bu yerda, Q_1, Q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida yetishtirilgan mahsulotlar miqdori.

Z_1, Z_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 birlik mahsulot uchun sarflangan xarajat darajasi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi bevosita ikki omil hisobiga sodir bo'ladi: ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'zgarishi hisobiga, 1 birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajatlar darajasining o'zgarishi hisobiga.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori o'zgarishining ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan uning bazis yilidagi (yoki rejalashtirilgan) miqdori orasidagi farqni bazis yilida (yoki rejalashtirilgan) 1 birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajat darajasiga ko'paytirmoq kerak:

$$(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = \pm \Delta_Q.$$

Paxta tolasini ishlab chiqarish xarajatlarini rejasi
bajarilishining qiyoslama tahlili

Navlar	Paxta tolasini, tonna				1 tonna xarajati, so'm				Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm		
	Reja bo'yicha	Haqiqiysi	Farqi (+;-)		Reja bo'yicha	Haqiqiysi	Farqi (+;-)		Reja bo'yicha	Haqiqiysi	Farqi
	Q_0	Q_1	$Q_1 - Q_0$		Z_0	Z_1	$Z_1 - Z_0$		$Q_0 Z_0$	$Q_1 Z_1$	$Q_1 Z_1 - Q_0 Z_0$
1.	5340	5610	+270		600220	575706	-24514		3205178	3229709	+24531
2.	1160	1219	+59		498627	476462	-22165		578407	580807	+2400
3.	480	501	+21		472729	455214	-17515		226910	228062	+1152
4.	480	441	-39		347319	379578	+32259		166713	167394	+681
5.	902	1004	+102		190000	171674	-18326		171377	172361	+984
Jami	8362	8775	+413		520041	498955	-21086		4348585	4378333	+29748

«1 birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajatlar darajasi» o'zgarishining ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida 1 birlik mahsulot uchun sarf bo'lgan xarajat summasi bilan uning bazis yilidagi summasi orasidagi farqni hisobot yilida yetishtirilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirish kerak:

$$(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = \pm \Delta_Z$$

Ushbu ikki omil ta'sirining yig'indisi ishlab chiqarish xarajatlari hajmining umumiy o'zgarishiga teng kelishi lozim:

$$\Delta_Q \pm \Delta_Z = \Delta_{Q,Z}$$

Shundan keyin har bir omilning ta'siriga baho berilib, xulosa qilinadi. Yuqorida keltirilgan «Ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida paxta zavodi misolida paxta tolasini ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishini omilli tahlilini 6-jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

6-jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, joriy yilda ishlab chiqarilgan paxta tolasining jami ishlab chiqarish xarajati summasi rejaga nisbatan 29748 ming so'mga yoki 0,7% ga oshgan:

$$\Sigma Q_1 Z_1 - \Sigma Q_0 Z_0 = 4378333 - 4348585 = +29748 \text{ ming so'm yoki } 0,7\%.$$

Ushbu o'zgarish ikki omil hisobiga sodir bo'lgan.

Ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori rejaga nisbatan 413 tonnaga ko'paygan, bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish xarajati hajmining 214766 ming so'mga oshishiga olib kelgan:

$$\Sigma (Q_1 - Q_0) \cdot Z_0 = (8775 - 8362) \cdot 520041 = +413 \cdot 520041 = +214766 \text{ ming so'm.}$$

1 tonna paxta tolasi xarajati rejaga nisbatan 21086 so'mga kamaygan, natijada shu omil hisobiga paxta tolasini ishlab chiqarish xarajatining umumiy hajmi 185018 ming so'mga kamaygan.

$$\Sigma (Z_1 - Z_0) \cdot Q_1 = (498955 - 520041) \cdot 8775 = -21086 \cdot 8775 = -185018 \text{ ming so'm.}$$

Omilli tahlil natijalari 7-jadvalda aks ettirildi.

7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jami xarajat hajmi 29748 ming so'mga oshgan. Bu, asosan, ishlab chiqarilgan paxta tolasining oshishi hisobiga sodir bo'lgan. Buni ortiqcha xarajat

**Paxta tolasi tannarxining rejaga nisbatan
o'zgarishining omilli tahlili (shartli ko'rsatkichlarda)**

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy bajarilishi	O'zgarishi (+;-)
1.	Ishlab chiqarilgan paxta tolasi, tonna	8362	8775	+413
2.	1 tonna paxta tolasining tannarxi, so'm	520041	498955	-21086
3.	Jami ishlab chiqarish xarajati, ming so'm	4348585	4378333	+29748
Shu jumladan, umumiy xarajat o'zgarishiga omillarning ta'siri:				
	1. Paxta tolasi miqdorining o'z- garishi hisobiga, $(Q_1 - Q_0) \cdot Z_0$	X	X	+214766
	2. 1 tonna tola tannarxining o'z- garishi hisobiga, $(Z_1 - Z_0) \cdot Q_1$	X	X	-185018

bo'lgan deb hisoblash mumkin emas, aksincha xarajat hajmi keskin kamaygan. Tannarx arzonlashgan, natijada xarajat hajmi 185018 ming so'mga kamaygan.

4.2. Tovar mahsuloti xarajatining omilli tahlili

Bir so'mlik tovar mahsulotiga bo'lgan xarajat tannarx bilan foyda orasidagi bog'liqlikni aniq ifodalaydi. Mahsulotlarni yetish-tirish uchun ketgan xarajatlarning jami summasini shu mahsulotlarning ulgurji baho bo'yicha hisoblangan hajmiga bo'lish orqali 1 birlik mahsulotiga sarf bo'lgan xarajat summasi aniqlanadi:

$$1\text{TMX} = \frac{\Sigma QZ}{\Sigma QP}.$$

Bu yerda: 1TMX – 1 birlik tovar mahsuloti xarajati;

Q – ishlab chiqarilgan natural mahsulot miqdori;

Z – 1 birlik mahsulotning tannarxi;

P – 1 birlik mahsulotning ulgurji bahosi.

1 birlik tovar mahsulotining xarajati ko'rsatkichi mahsulot tannarxi dinamikasini o'rganishda keng qo'llaniladi. Ushbu ko'rsat-

kich nafaqat xo'jalik ichidagi tahlilda, hatto xo'jaliklararo taq-qoslama tahlilda ham qo'llaniladi.

Tahlil hisobot yilidagi 1 birlik tovar mahsulotiga sarf bo'lgan xarajatdan bazis yilida 1 birlik tovar mahsulotiga sarf bo'lgan xarajatni chegirib, farqi (o'zgarishi)ni aniqlashdan boshlanadi:

$$\frac{\Sigma Q_1 Z_1}{\Sigma Q_1 P_1} - \frac{\Sigma Q_0 Z_0}{\Sigma Q_0 P_0} = \pm \Delta_{qPZ}.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, 1 birlik tovar mahsuloti xarajati darajasining o'zgarishi quyidagi 3 ta omil hisobiga yuzaga keladi:

- tovar mahsulotining hajmi va tarkibiy tuzilishining o'zgarishi hisobiga;

- mahsulot tannarxining o'zgarishi hisobiga;

- mahsulot ulgurji bahosining o'zgarishi hisobiga.

Xarajat darajasining o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini aniqlash va tahlil qilish uchun «zanjirli bog'lanish» usuli qo'llaniladi. Omillarning ta'sirini aniqlash uchun quyidagi 4 ta bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinadi:

$$1TMX_0 = \Sigma Q_0 Z_0 : \Sigma Q_0 P_0;$$

$$1TMXSH_1 = \Sigma Q_1 Z_0 : \Sigma Q_1 P_0;$$

$$1TMXSH_2 = \Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_0;$$

$$1TMX_1 = \Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_1.$$

Ushbu bog'lanish ko'rsatkichlari asosida 1 birlik tovar mahsuloti xarajatining o'zgarishi va unga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Hisobot yilidagi 1 birlik tovar mahsuloti xarajati darajasi (IV bog'lanish)dan bazis yilidagi 1 birlik tovar mahsuloti xarajati (I bog'lanish)ni chegirish orqali umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_1) - (\Sigma Q_0 Z_0 : \Sigma Q_0 P_0) = \pm \Delta_{QZP}.$$

1 birlik tovar mahsulotining birinchi shartli xarajatidan (II bog'lanishdan) bazis yilidagi 1 tovar mahsuloti xarajatini (I bog'lanishni) ayirish orqali xarajat o'zgarishiga tovar mahsuloti hajmi va strukturasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(\Sigma Q_1 Z_0 : \Sigma Q_1 P_0) - (\Sigma Q_0 Z_0 : \Sigma Q_0 P_0) = \pm \Delta_{QZ}.$$

Jami mahsulot ichida 1 tovar mahsuloti darajasi past bo'lgan mahsulot tur (nav)larining salmog'i yuqori bo'lsa, 1 birlik tovar

mahsuloti xarajati rejaga yoki bazis yiliga nisbatan kamayadi, agar aksi bo'lsa – oshadi.

Mahsulot tannarxi o'zgarishining 1 birlik tovar mahsuloti xarajatining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun ikkinchi shartli xarajat summasi (III bog'lanishi)dan birinchi shartli xarajat summasi (II bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_0) - (\Sigma Q_1 Z_0 : \Sigma Q_1 P_0) = \pm \Delta_Z.$$

Tannarx o'zgarishi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi. Tannarx darajasi pasaysa, 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati ham kamayadi va aksincha.

Baho o'zgarishining 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati (IV bog'lanish)dan ikkinchi shartli xarajat summasi (III bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$(\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_1) - (\Sigma Q_1 Z_1 : \Sigma Q_1 P_0) = \pm \Delta_P.$$

Baho o'zgarishi xarajat summasining o'zgarishiga bilvosita ta'sir qiladi. Agar ulgurji baho darajasi pasaysa, 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati oshadi va aksincha, baho oshsa – pasayadi.

Endi, yuqorida bayon qilingan «Zanjirli bog'lanish» usuli qoidasiga amal qilib, paxta zavodi misolida yetishtirilgan paxta tolasi bo'yicha 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati dinamikasining tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun *8-jadval* ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

8-jadvaldagi ma'lumotlar asosida, 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajatlari hisoblab olinadi:

Bazis davridagi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati:

$$1TMX_0 = \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma q_0 p_0} = \frac{1923559}{2217807} = 0,867 \text{ yoki } 86,7 \text{ tiyin.}$$

Hisobot yilidagi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati:

$$1TMX_1 = \frac{\Sigma q_1 z_1}{\Sigma q_1 p_1} = \frac{4378333}{4839474} = 0,905 \text{ yoki } 90,5 \text{ tiyin.}$$

Hisobot yilidagi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati bazis yiliga nisbatan 3,8 tiyinga oshgan ($90,5 - 86,7 = \pm 3,8$ tiyin).

Ushbu o'zgarishga 3 ta omil ta'sir qilgan:

1 soʻmlik paxta tolasi tovar mahsuloti xarajati
uchun zarur boʻlgan maʼlumotlar

Pax- ta tolasi nav- lari	Paxta tolasi miqdori, t		1 tonna tannarxi, ming soʻm		1 tonna bahosi, ming soʻm		Jami tannarx, ming soʻm			Jami qiymati, ming soʻm		
	bazis yili Q_0	hisobot yili Q_1	bazis yili Z_0	hisobot yili Z_1	bazis yili P_0	hisobot yili P_1	$Q_0 Z_0$	$Q_1 Z_1$	$Q_0 P_0$	$Q_1 P_1$	$Q_0 P_0$	$Q_1 P_1$
1.	3219	5610	386,3	575,7	447,5	636,6	1243545	2167143	1440557	2510475	1440557	3571260
2.	1016	1219	364,2	476,5	417,5	526,5	370040	443960	424467	508932	424467	641775
3.	450	501	427,8	455,2	388,6	502,4	192496	214327	174870	194688	174870	251724
4.	195	441	319,5	379,6	362,8	418,7	62295	140900	70738	159995	70738	184660
5.	529	1004	104,3	171,7	117,9	189,3	55183	104717	62351	118372	62351	190055
Jami	5409	8775	355,6	499,0	410,0	551,5	1923559	3071047	2217807	3492468	2217807	4839474

1-omil. «Tovar mahsuloti hajmi va strukturasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$(\Sigma q_1 z_0 : \Sigma q_1 p_0) - (\Sigma q_0 z_0 : \Sigma q_0 p_0) = \frac{3071047}{3492468} - \frac{1923559}{2217807} = 0,879 - 0,867 = +0,012 \text{ yoki } 1,2 \text{ tiyin.}$$

Demak, hisobot yilida yetishtirilgan paxta tolasi tarkibiy tuzulishida 5-navning salmog'ining oshishi natijasida 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati 1,2 tiyinga yoki 1,4% ga oshgan.

2-omil. «Mahsulot tannarxi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 p_1}{\Sigma q_1 p_0} - \frac{\Sigma q_0 p_0}{\Sigma q_1 p_0} = \frac{4378333}{3492468} - \frac{3071047}{3492468} = 1,254 - 0,879 = +0,375 \text{ yoki } 37,5 \text{ tiyin.}$$

Demak, 1 tonna paxta tolasining tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 143,6 ming so'mga (499,0–355,6=+143,6 m.s.) oshishi oqibatida 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati 37,5 tiyinga oshgan.

3-omil ulgurji bahoning o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{\Sigma q_1 p_1}{\Sigma q_1 p_1} - \frac{\Sigma q_1 p_1}{\Sigma q_1 p_0} = \frac{4378333}{4839474} - \frac{4378333}{3492468} = 0,905 - 1,254 = -0,349$$

yoki – 34,9 tiyin.

Demak, 1 tonna paxta tolasining ulgurji bahosi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 141,5 (551,5 – 410,0=+141,5) ming so'mga oshgan, natijada shu omil hisobiga 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati 34,9 tiyinga kamaygan.

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajatining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

- 1) mahsulot hajmi va strukturasi o'zgarishining ta'siri +1,2 tiyin;
- 2) mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'siri +37,5 tiyin;
- 3) ulgurji baho o'zgarishining ta'siri –34,9 tiyin.

1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati o'zgarishi (jami) +3,8 tiyin.

Demak, 1 so'mlik tovar mahsuloti xarajati ikki omilning salbiy ta'siri ostida 38,7 tiyinga oshgan, ammo bahoning ijobiy ta'siri ostida (ya'ni uning oshishi tufayli) 34,9 tiyinga kamaygan, natijada

1 soʻmlik tovar mahsuloti xarajati 3,8 tiyinga oshgan, oqibatda jami ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti uchun qancha ortiqcha xarajat boʻlgan? Buni aniqlash uchun, 1 soʻmlik tovar mahsuloti uchun boʻlgan ortiqcha xarajat summasini jami ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmiga koʻpaytirish kerak: $3,8 \text{ tiyin} \cdot 4839474 / 100 = 183900$ ming soʻm.

Demak, 183900 ming soʻmlik ortiqcha xarajat sodir boʻlgan.

4.3. Mahsulot tannarxi tarkibiy tuzilishining tahlili

Har bir mahsulot tannarxi bir necha xarajat moddalarini oʻz ichiga oladi. Tannarxning tahlili xarajat moddalari boʻyicha oʻrganishni, ularning rejaga va oʻtgan yillarga nisbatan oʻzgarishlarga baho berishni va oʻzgarish sabablarini aniqlash orqali tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini qidirib topishni taqozo etadi. Bu esa tahlilning asosiy maqsadidir. Tahlil xarajat moddalari boʻyicha mutlaq oʻzgarishni aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun har bir moddadagi xarajatlar summasi bir-biriga solishtirilib, farq aniqlanadi. Boshqacha aytganda, har bir moddada aks ettirilgan hisobot yilidagi haqiqiy xarajat summasini rejada koʻzda tutilgan xarajat summasiga yoki oʻtgan yildagi xarajat summasiga solishtirib, mutlaq oʻzgarishi aniqlanadi.

Shundan keyin har bir modda boʻyicha nisbiy oʻzgarish aniqlanadi. Buni aniqlash uchun mutlaq oʻzgarish summasini 100 foizga koʻpaytirib, rejalashtirilgan summasiga boʻlinadi.

Har bir modda boʻyicha aniqlangan mutlaq va nisbiy oʻzgarishlar bilan bir qatorda, tannarxning tarkibiy tuzilishi oʻrganiladi. Buning uchun har bir moddadagi xarajatning tannarxga nisbatan salmogʻi aniqlanadi. Buni aniqlash uchun har bir moddadagi xarajat summasini 100 foizga koʻpaytirib, natijasi tannarxning jamiga boʻlinadi. Shundan soʻng har bir modda salmogʻi boʻyicha oʻzgarishi aniqlanadi.

Buning uchun hisobot yilidagi salmogʻidan bazis yilidagi yoki rejadagi salmogʻini chegirib tashlanadi. Hisoblangan mutlaq va nisbiy koʻrsatkichlar asosida tannarx darajasiga baho beriladi va uni pasaytirish imkoniyatlari koʻrsatiladi.

Quyidagi jadvalda paxta zavodida ishlab chiqarilgan paxta tolasi bo'yicha tannarxining tahliliga to'xtalamiz.

9-jadval

I nav bo'yicha 1 t paxta tolasi tannarxining tahlili

T/r	Xarajat moddolari	Reja bo'yicha		Haqiqiy		O'zgarishi (+,-)	
		Summa-si, so'm	Salmo-g'i, %	Summa-si, so'm	Salmo-g'i, %	Sum-masi bo'yicha	Salmo-g'i bo'yicha
1.	Paxta xomashyosi	527494	93,0	535870	93,1	+8376	+0,1
2.	Ug' xarajatlari	17013	3,0	17031	3,0	-18	-
3.	Asosiy va qo'-shimcha mehnat haqi	6585	1,2	6592	1,1	+7	-0,1
4.	Ijtimoiy va tibbiy sug'urta	2456	0,4	2459	0,4	+3	-
5.	Umumishlab chiqarish xarajatlari	13740	2,4	13754	2,4	+14	-
6.	Ishlab chiqarish tannarxi	567288	100	575706	100	+8418	-

9-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1 tonna paxta tolasining haqiqiy tannarxi shartli misolga ko'ra, joriy yilda rejaga nisbatan 8418 so'mga oshgan. Ushbu o'zgarish barcha moddalardagi xarajatlar hajmining oshishi hisobiga yuzaga kelgan, shulardan 99,5 foizi faqat paxta xomashyosining xarid narxining oshishi hisobiga sodir bo'lgan.

$$8376 \cdot 100 : 8418 = 99,5\%.$$

Tannarxning tarkibiy tuzilishida deyarli o'zgarish sodir bo'lmagan.

Xulosa qilib shuni qayd qilish kerakki, 1 tonna paxta tolasi tannarxni pasaytirish uchun paxta xomashyosini qayta ishlash bilan bog'liq xarajatni kamaytirish choralari ko'rish kerak.

5-MAVZU: FOYDA VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

5.1. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash usullari

Foyda iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi bo'lib, u oshgan sayin xo'jalik moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi. Foydaning oshishi xo'jalikning iqtisodiyotiga ham, mamlakat iqtisodiyotiga ham birdek ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Foyda (zarar) hozirgi vaqtda 5 turga bo'linib hisobga olinadi va tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomda foydaning(zararning) 5 ta turi batafsil bayon qilingan:

Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda. Bu foydani aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumdan (ST) sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$YAF = ST - IT.$$

Bunda, YAF – yalpi foyda;

ST – sotishdan olingan sof tushum;

IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining foydasi. Bu foydani aniqlash uchun mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaga asosiy faoliyatning boshqa jarayonlardan olingan daromadlarni qo'shib, davr xarajatlari bilan asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlarni chegirib tashlash kerak:

$$AFF = YAF + BD - (DX + BZ).$$

Bunda, AFF – asosiy faoliyat foydasi;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromadlar;

BZ – asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan zararlar (xarajatlar).

3. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar). Buni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni qo‘shib, moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zararlarni chegirib tashlash kerak:

$$UXF = AFF + MD - MZ.$$

Bunda: UXF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD– moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (daromad);

MZ– moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zarar.

4. Soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda. Bu foyda umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga favqulodda olingan foydani qo‘shib, favquloddagi ko‘rilgan zararni chegirish orqali aniqlanadi.

$$STF = UXF + FF - FZ.$$

Bunda: STF – soliq to‘langunga qadar bo‘lgan foyda;

FF – favqulodda foyda; FZ – favquloddagi zarar.

5. Hisobot davrining sof foydasi. Bu foyda soliqqa tortiladigan daromadlar (foyda) summasidan daromad solig‘i va qonunda ko‘rsatilgan boshqa soliqlar va to‘lovlar summasini chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

$$SF = STF - (DS + BST)$$

Bunda: SF – sof foyda;

DS – daromad solig‘i;

BST – boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Rentabellik korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi muhim iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, uning darajasi qancha yuqori bo‘lsa, xarajatlar, resurslar, kapitallardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Demak, rentabellik darajasi xarajatlarga, kapitallarga va fondlarga nisbatan hisoblanadigan nisbiy ko‘rsatkichdir.

Rentabellik asosiy ko‘rsatkichlari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- sotilgan mahsulotlar rentabelligi;
- xususiy kapital rentabelligi;
- permanent kapital rentabelligi;
- aktivlar rentabelligi;
- asosiy vositalar rentabelligi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi 1 so‘mlik yoki 100 so‘mlik pul tushumi hisobiga olingan foyda darajasini ifodalaydi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi koeffitsiyentini (K_r) aniqlash uchun sotishdan olingan yalpi foyda summasini (YAF) sotishdan olingan sof tushumga (ST) bo'lish kerak:

$$K_r = \frac{YAF \cdot 100}{PK}.$$

Xususiy kapital rentabelligi sof foyda summasini (SF) xususiy kapitalning o'rtacha qiymatiga (XK) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{xkr} = \frac{SF \cdot 100}{XK}.$$

Ushbu rentabellik xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Xususiy kapital o'z navbatida 4 ta turga bo'linadi:

Ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda.

Permanent kapital rentabelligi sof foydani (SF) permanent kapitalning o'rtacha qiymatiga (PK) bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{xkr} = \frac{SF \cdot 100}{PK}.$$

Ushbu rentabellik xususiy va qarz kapitallaridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Permanent kapital xususiy kapital bilan uzoq muddatli qarz kapitalini o'z ichiga oladi.

Aktivlar rentabelligi. Soliq to'langunga qadar bo'lgan foydani (STF) aktivlarning o'rta qiymatiga (AQ) bo'lish orqali aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$K_{ak} = \frac{STF \cdot 100}{AQ}.$$

Bu koeffitsiyent aktivlardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Asosiy vositalar rentabelligi. Sof foyda summasini (SF) asosiy vositalarning o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali asosiy ishlab chiqarish vositalar bo'yicha rentabellik koeffitsiyenti aniqlanadi.

$$K_{avr} = \frac{SF \cdot 100}{AIF}.$$

Bu koeffitsiyent asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligi darajasini ifodalaydi.

5.2. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda hajmining omilli tahlili

Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foyda sof tushum summasidan, sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi.

Yalpi foydaning tahlili ko'rsatkichlarni qiyoslab, farqini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilida mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydani rejadagi foyda summasiga yoki o'tgan yildagi foyda summasiga solishtirib, o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$(\Sigma q_1 p \Sigma - \Sigma q_1 z_1) - (\Sigma q_0 p_0 - q_0 z_0) = \pm \Delta q p z$$

$$\text{yoki } q_1(p_1 - z_1) - q_0(p_0 - z_0) = \pm \Delta q p z.$$

Bunda: q_1, q_0 – hisobot va bazis yillarida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (q_0 – yoki rejadagi mahsulot miqdori);

p_1, p_0 – hisobot va bazis yillarida 1 birlik mahsulotning o'rtacha sotish ulgurji bahosi (yoki p_0 – rejadagi bahosi);

$q_1 p_1$ – hisobot yilida sotishdan olingan sof tushum;

$q_0 p_0$ – bazis yilidagi (yoki rejadagi) sof tushum;

$q_1 z_1$ – hisobot yilidagi sotilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi summasi;

$q_0 z_0$ – bazis yilidagi (reja bo'yicha) sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi summasi.

Ushbu formulalardan ko'rinib turibdiki, har bir mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishiga uch omil ta'sir qiladi:

- sotilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi;
- sotilgan 1 birlik mahsulotning o'rtacha ulgurji sotish bahosining o'zgarishi;
- sotilgan 1 birlik mahsulotning o'rtacha tannarxining o'zgarishi.

Yalpi foydaning o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini aniqlash va ularga baho berish uchun ko'rsatkichlar farqi usulidan

foydalaniladi. Yalpi foydaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi.

Sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishining yalpi foydaning o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan miqdori (q_1) bilan bazis yilida sotilgan mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni ($q_1 - q_0$) bazis yilida 1 birlik mahsulotni sotishdan olingan foyda ($p_0 - z_0$) summasiga ko'paytiriladi:

$$(q_1 - q_0) \cdot (p_0 - z_0) = \pm \Delta q.$$

O'rtacha ulgurji sotish bahosi o'zgarishining yalpi foyda summasi o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi o'rtacha sotish bahosi bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) o'rtacha sotish bahosi orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga ko'paytirildi:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \pm \Delta p.$$

«O'rtacha tannarx o'zgarishi»ning yalpi foyda summasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 birlik mahsulot tannarxi bilan bazis yilidagi (yoki rejadagi) 1 birlik mahsulot tannarxi orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga ko'paytiriladi:

$$(z_1 - z_0) - q_1 = \pm \Delta z.$$

Shu uch omil ta'sirining yig'indisi yalpi foyda summasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta q \pm \Delta p \pm \Delta z = \Delta q_{pz}.$$

Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, umumiy xulosa qilinadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, paxta zavodida paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda hajmining o'zgarishini 10-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilish mumkin.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda bazis yilda reja nisbatan 388774 ming so'mga ko'paygan:

$$(p_1 - z_1) \cdot q_1 - (p_0 - z_0) \cdot q_0 = (551,5 - 499,0) \cdot 8775 - (528,6 - 520,0) \cdot 8362 = 52,5 \cdot 8775 - 8,6 \cdot 8362 = 460687 - 71713 = +388774 \text{ ming so'm}.$$

Yalpi foydaning o'zgarishiga uch omil ham ijobiy ta'sir qilgan.

**Paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda rejasi
bajarilishining omilli tahlili**

Ko'rsat- kichlar	Bazis yili			Shu jumladan omillar ta'siri		
	Reja bo'yicha	Amalda bajari- lishi	O'zga- rishi (+,-)	Tola miq- dori o'z- garishi hisobiga	Baho o'zgarishi hisobiga	Tannarx o'zgarishi hisobiga
1. Sotilgan paxta tolasini miqdori, t	8362	8775	+413	x	x	x
2. 1 tonna tolasining sotish bahosi, ming so'm	528,6	551,5	+22,9	x	x	x
3. 1 tonna to- laning tannar- xi, ming so'm	520,0	499,0	-21,0	x	x	x
4. 1 tonna to- lani sotish- dan olingan foyda, ming so'm	+8,6	+52,5	+43,9	x	x	x
5. Yalpi foy- da, ming so'm	71913	460637	+388774	+3552	+200948	+184274

1-omil «Sotilgan paxta tolasini miqdori»ning 413 tonnaga oshishi natijasida yalpi foyda summasi 3552 ming so'mga ko'paygan:

$$(q_1 - q_0) \cdot (p_0 - z_0) = (8775 - 8362) \cdot (528,6 - 520,0) = +413 \cdot 8,6 = +3552 \text{ ming so'm.}$$

2-omil. «O'rtacha ulgurji sotish bahosining 22,9 ming so'mga oshishi tufayli yalpi foyda summasi 200948 ming so'mga oshgan

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = (551,5 - 528,6) \cdot 8775 = +22,9 \cdot 8775 = +200948 \text{ ming so'm.}$$

3-omil. «Paxta tolasining o'rtacha tannarxi» 21 ming so'mga arzonlashgan, natijada shu omil hisobiga yalpi foyda summasi 184274 ming so'mga oshgan:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = (499,0 - 520,0) \cdot 8775 = -21 \cdot 8775 = +184274 \text{ ming so'm.}$$

5.3. Sotilgan mahsulot rentabelligining omilli tahlili

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u xo'jalikning moliyaviy faoliyatiga baho berishda eng asosiy mezon hisoblanadi. U 1 so'mlik sof pul tushumi hisobiga yoki 1 so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda darajasini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, xarajatlar va resurslardan foydalanish samaradorligi shuncha yuqori bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan rentabellik darajasini o'rganish va uni oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish tahlilning eng muhim vazifasi hisoblandi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligining tahlili hisobot davridagi uning haqiqiy ko'rsatkichini rejadagi yoki o'tgan yillardagi darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. So'ngra ushbu o'zgarish qaysi omillar hisobiga sodir bo'lganligi aniqlanadi va har birining ta'sir doirasi tahlil qilinib, baho beriladi.

Sotilgan sanoat mahsuloti rentabelligi o'zgarishiga ikki omil bevosita ta'sir qiladi. Bular quyidagi omillardir:

mahsulotni sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi;

mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga ushbu omillarning ta'sirini aniqlash va baho berish uchun «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalaniladi. Omillar ta'sirini aniqlaganga qadar quyidagi uch bog'lanish ko'rinishidagi rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab olinadi:

I. Bazis yilidagi (yoki rejadagi) rentabellik ko'rsatkichi:

$$Kmr_0 = \frac{YAF_0}{ST_0}.$$

II. Shartli rentabellik ko'rsatkichi. Bu bazis yilidagi (yoki rejadagi) yalpi foyda summasini hisobot yilidagi mahsulotni sotishdan olingan sof tushum (ST)ga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$Kmr_{sh} = \frac{YAF_0}{ST_1}.$$

III. Hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik ko'rsatkichi:

$$Km_1 = \frac{YAF_1}{ST_1}.$$

Shu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin rentabellikning umumiy o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Rentabellikning umumiy o'zgarishi:

$$III-I = \frac{YAF_1}{ST_1} - \frac{YAF_0}{ST_0} = \pm \Delta_{ST, YAF}.$$

Rentabellik umumiy o'zgarishiga birinchi omil «Mahsulotni sotishdan olingan sof tushum summasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$II-I = \frac{YAF_0}{ST_1} - \frac{YAF_0}{ST_0} = \pm \Delta_{ST}.$$

Rentabellikning umumiy o'zgarishiga ikkinchi omil «Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda summasi o'zgarishi»ning ta'siri:

$$III-II = \frac{YAF_1}{ST_1} - \frac{YAF_0}{ST_1} = \pm \Delta_{YAF}.$$

Shu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{ST} \pm \Delta_{YAF} = \pm \Delta_{ST, YAF}.$$

Endi, paxta zavodi misolida paxta tolasini sotish rentabelligi bo'yicha reja bajarilishining tahlilini ko'rib chiqamiz.

11-jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta tolasi rentabelligi bazis yilda rejaga nisbatan 8,1% ga oshgan:

$$\frac{YAF_1 \cdot 100\%}{ST_1} - \frac{YAF_0 \cdot 100\%}{ST_0} = \frac{460687 \cdot 100\%}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100\%}{4420420} = 9,7 - 1,6 = +8,1\%$$

Demak, 1 so'mlik pul tushumi hisobiga reja bo'yicha 1,6 tiyinlik foyda olish ko'zda tutilgan, amalda 9,7 tiyinlik foyda olingan, natijada rejaga nisbatan 8,1 tiyinga foyda oshgan.

Rentabellik darajasining o'zgarishiga pul tushumining o'zgarishi salbiy, foydaning o'zgarishi ijobiy ta'sir qilgan.

Sof pul tushumi hisobiga rentabellik darajasi 0,1% ga pasaygan:

**Paxta tolasini sotish rentabelligi rejasining
bajarilishi tahlili**

Ko'rsatkichlar	Bazis yili		O'zgarishi (+, -)
	Reja bo'yicha	Haqiqiysi	
1. Paxta tolasini sotishdan olingan pul tushumi, ming so'm	4420420	4839474	+419054
2. Sotilgan paxta tolasining ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	4348507	4378787	+30280
3. Paxta tolasini sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	71913	460687	+388774
4. Rentabellik, %	1,6	9,7	+8,1
5. Shartli rentabellik, %	x	1,5	x
Sotilgan paxta tolasini rentabelligining o'zgarishiga omillar ta'siri:			
1) sof pul tushumi o'zgarishi hisobiga $\frac{YAF_0}{ST_1} - \frac{YAF_0}{ST_0}$	x	x	-0,1
2) yalpi foyda o'zgarishi hisobiga $\frac{YAF_1}{ST_1} - \frac{YAF_0}{ST_1}$	x	x	+8,2

$$\frac{YAF_0 \cdot 100}{ST_1} - \frac{YAF_0 \cdot 100}{ST_0} = \frac{71913 \cdot 100}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100}{4420420} = 1,5 - 1,6 = -0,1\%.$$

Demak, 1 so'mlik pul tushumi hisobiga 0,1 tiyinlik foyda kam olingan.

Foydaning o'zgarishi hisobiga rentabellik 8,2 foizga oshgan:

$$\frac{YAF_1 \cdot 100}{ST_1} - \frac{YAF_0 \cdot 100}{ST_1} = \frac{460687 \cdot 100}{4839474} - \frac{71913 \cdot 100}{4839474} = 9,7 - 1,5 = +8,2\%.$$

Demak, 1 so'mlik pul tushumi hisobiga 8,2 tiyinlik foyda oshig'i bilan olingan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, rentabellikni oshirishning asosiy rezervi foyda summasini keskin ko'paytirish hisoblanadi. Foydani keskin ko'paytirish uchun

sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yo‘llarini izlab topish zarur.

6-MAVZU. KORXONALAR MOLIVAVIY HOLATINING TAHLILI

6.1. Buxgalteriya balansi asosida korxona umumiy moliyaviy ahvolini tahlil qilish

Buxgalteriya balansi korxonaning mulki, kapitali va majburiyatlari hajmini ma’lum sanada aks ettiruvchi maxsus jadvaldir. U ikki qismdan iborat bo‘lib, uning aktiv qismida korxonaning asosiy va aylanma mablag‘lari (mulki), passiv qismida kapitali va majburiyatlari aks ettiriladi. Balans aktiv va passiv tomonlari o‘zaro teng bo‘ladi.

Korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi barcha ko‘rsatkichlar buxgalteriya balansi – netto moddalarida asosida aniqlanadi va tahlil qilinadi. Buxgalteriya balansi aktividagi moddalar «Mablag‘larning pul shakliga aylanish tezligi (likvitlik darajasi)» belgisi bo‘yicha, passividagi moddalar esa «Majburiyatlarning to‘lov mudдати darajasi» belgisi bo‘yicha maxsus guruhlariga bo‘lib o‘rganiladi. Buni quyidagi balans shaklidan ko‘rish mumkin.

Buxgalteriya balansi

Aktiv mulkning guruhlari	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv mulk manba- larining guruhlari	Yil boshiga	Yil oxiriga
1. Uzoq muddatli aktivlar (U)			1. O‘z mablag‘larining manbalari (X)		
2. Aylanma aktivlar			2. Majburiyatlar:		
2.1. Zaxira va sarflar (Z)			2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar (M)		
2.2. Debitorlik qarzlari (D)			2.2. Qisqa muddatli qarzlari vakreditlar (B)		
2.3. Pul mab- lag‘lari (P)			2.3. Kreditorlik qarzlari (K)		
Balans:			Balans:		

Buxgalteriya balansi asosida birinchi navbatda korxonaning umumiy moliyaviy holatiga baho beriladi. Buning uchun korxonaning mulki (aktivlari), kapitali va majburiyatlari (passivlari)ning tarkibi va tarkibiy tuzilishi hamda ularning o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlilda gorizontaal va vertikal usullardan foydalaniladi. Tahlilda korxona aktivlari va passivlari, ulardagi umumiy hamda tarkibiy o'zgarishlar balansning har qaysi tomoni bo'yicha alohida o'rganiladi. Gorizontaal usul yordamida aktivning har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga, passivning ham har bir bo'limi va har bir moddasi bo'yicha yil oxiridagi summasini yil boshidagi summasiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishi (ko'payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi. Balans aktivi va passivi bo'yicha moliyaviy holatning tarkibini tahlil qilish bilan birgalikda ularning tarkibiy tuzilishi ham o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir bo'lim va moddalarning balans jamiga nisbatan salmog'i aniqlanadi. So'ngra yil oxiridagi salmog'ini yil boshidagi salmog'iga qiyoslab, tarkibiy tuzilishining o'zgarishi aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Paxta zavodi misolida xo'jalikning umumiy moliyaviy holatining tahlili 12-jadval ma'lumotlari asosida keltirilgan.

12-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxona mulki hisobot yilining oxirida shu yilning boshiga nisbatan 1069700 ming so'mga yoki 33,4%ga ($1069700 \cdot 100 \cdot 3200059 = 33,4\%$) ko'paygan. Shu jumladan, uzoq muddatli aktivlar 72858 ming so'mga (72,4% ga), aylanma aktivlar 996842 ming so'm (32,2%)ga oshgan. Jami aylanma aktivlar tarkibida zaxiralarning hajmi 978170 ming so'mga (36,6% ga), debitor qarzlari 18634 ming so'mga (4,5% ga), pul mablag'lari 38000 so'mga (0,2% ga) ortgan. Mulkning tashkil topish manbayida ham o'sish sodir bo'lgan. O'z mablag'lari manbayi 215050 ming so'mga (2,8 martaga), majburiyatlar hajmi 854650 ming so'm (27,7%)ga o'sgan. Kreditor qarzlari 845213 ming so'mga yoki 29,1% ga oshgan.

Korxonaning moliyaviy holatiga baho berishda balans ma'lumotlari asosida nisbiy ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo'ladi, chunki ular asosida moliyaviy holatni yaxshilash imkoniyatlari aniqlandi.

**Korxona mulki, kapitali va majburiyatlari
dinamikasining tahlili**

Korxona aktivlari (mulki)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+;-)	Korxona passivlari (kapital, majburi- yatlari)	Yil boshi	Yil oxiri	Farqi (+;-)
1. Uzoq muddatli aktivlar	100623	173481	+72858	1. O'z mablag'lari manbalari	116663	331713	+215050
2. Aylanma aktivlar jami	3099436	4096278	+996842	2. Majburiyatlar jami	3083396	938046	+854650
2.1. Zaxira va sarflar	2674742	3652912	+978170	2.1. Uzoq muddatli majburiyatlar	181546	190978	+9432
2.2. Debitorlik qarzlari	409017	427651	+18634	2.2. Qisqa muddatli qarzlar va kreditlar	—	—	—
2.3. Pul mablag'lari	15677	15715	+38	2.3. Kreditorlik qarzlari	2901850	3747068	+845218
Balans	3200059	4269759	+1069700	Balans	3200059	4269759	+1069700

Korxonang moliyaviy holatiga baho berishda mutlaq ko'rsatkichlarga qaraganda nisbiy ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi. Nisbiy ko'rsatkichlar amaliyotda moliyaviy koeffitsiyentlar deb ataladi. Moliyaviy koeffitsiyentlarni hisoblashda mutlaq ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxona moliyaviy ahvoliga baho berishda quyidagi moliyaviy koeffitsiyentlar ko'proq ishlatiladi.

- moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- to'lovga qodirlik koeffitsiyenti;
- o'z va qarz mablag'larining o'zaro nisbati koeffitsiyenti;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti;
- moddiy aylanma mablag'lar hissasi koeffitsiyenti;
- jami aylanma mablag'larning jami mulk qiymatidagi hissasi koeffitsiyenti.

6.2. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining tahlili

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti korxonaning moliyaviy ahvoliga baho berishdagi asosiy nisbiy ko'rsatkichlardan biridir.

Bu koeffitsiyent korxonaning o'z mablag'lari manbalarining balansning jamiga nisbati tariqasida aniqlanuvchi nisbiy ko'rsatkichdir. Boshqacha aytganda, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini aniqlash uchun korxonaning o'z mablag'lari manbalarining jami summasini balansning jami summasiga bo'lish kerak:

$$K_{mm} = \frac{P1}{Bj}.$$

Bunda:

K_{mm} — moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (ko'rsatkichi);

$P1$ — Balans passividagi 1-bo'limning jami (ya'ni o'z mablag'lari manbalarining jami);

Bj — Balansning jami.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining minimal mo'tadil qiymati 0,5 va undan yuqori bo'lsa, korxona o'zini-o'zi mablag' bilan ta'minlay oladi.

Tahlil ushbu koeffitsiyentning yil oxiridagi qiymatini yil boshidagi qiymatiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi:

$$\frac{P_{1_1}}{BJ_1} - \frac{P_{1_0}}{BJ_0} = \pm \Delta_{P_1, BJ}$$

Bunda: P_{1_1} , P_{1_0} – mos holda yil oxiri va yil boshidagi o'z mablag'lari manbalari summasi;

BJ_1 , BJ_0 – mos holda yil oxiri va yil boshidagi balansning jami summalari.

Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga keladi:

- balans jami summasining o'zgarishi hisobiga;
- o'z mablag'ilari manbalarining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Ammo omillar ta'sirini aniqlashdan oldin quyidagi ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

I. $\frac{P_{1_0}}{BJ_0}$ – bazis yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;

II. $\frac{P_{1_0}}{BJ_1}$ – shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;

III. $\frac{P_{1_1}}{BJ_1}$ – hisobot yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.

Shunday keyin koeffitsiyentning o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi:

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining o'zgarishiga birinchi omil «balans jami summasi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti»dan bazis yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak.

$$\frac{P_{1_0}}{BJ_1} - \frac{P_{1_0}}{BJ_0} = \pm \Delta_{BJ}$$

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining o'zgarishiga ikkinchi omil «o'z mablag'lari manbalari» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentidan shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{P_{I_1}}{BJ_1} - \frac{P_{I_0}}{BJ_0} = \pm \Delta_{P_I}$$

Ko'rsatilgan omil ta'sirlarining yig'indisi moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining o'zgarishini ifodalaydi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining tahlili paxta zavodi misolida quyidagi jadvalda keltirilgan.

13-jadval

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining tahlili

Ko'rsatkichlar	Joriy yil boshi	Joriy yil oxiri	O'zgarishi (+,-)
1. Zavodning o'z mablag'lari manbalari (balans passividagi I bo'limning jami P_{I_i}), ming so'm	116663	331713	+215050
2. Balansning jami (BJ), ming so'm	3200059	4269759	+1069700
3. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, %.	3,6	7,8	+4,2
4. Shartli moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti $P_{I_0}; BJ_1$.	x	2,7	x
5. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining o'zgarishiga omillarning ta'siri:			
1. balans jami summasining o'zgarish hisobiga;	x	x	-0,9
2. o'z mablag'lari manbalarining o'zgarishi hisobiga	x	x	+5,1

13-jadvaldan ko'rinib turibdiki, joriy yilning oxirida zavodda moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti 4,2 punktga oshgan. Ammo bu ko'rsatkich xo'jalikning moliyaviy jihatdan mustaqil ekanligiga dalil bo'la olmaydi, chunki uning qiymati juda ham past, me'yordan 6 marta kamdir ($50:7,8=6$ marta) ushbu koeffitsiyent yil boshida ham, yil oxirida ham 50 foizdan yuqori bo'lganda xo'jalikni moliyaviy jihatdan mustaqil deb hisoblash mumkin edi.

Bu zavod kreditorlarga qaram bo'lgan xo'jalik hisoblanadi. Uning majburiyatlari 96,4% ni, yil oxirida 92,2% ni tashkil qilgan.

Yuqoridagilarga asosan, zavod qarz mablag'lari hisobiga faoliyat ko'rsatib kelmoqda degan xulosaga kelish mumkin.

6.3. Korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichining tahlili

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy ahvoriga baho berishda boshqa moliyaviy koeffitsiyentlar bilan bir qatorda to'lovga qodirlik ko'rsatkichi ham muntazam o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Bu ko'rsatkich to'lov mablag'larining to'lov majburiyatlariga nisbati tariqasida hisoblanadi va to'lov mablag'lari summasini qisqa muddatli majburiyatlar summasiga bo'lish orqali aniqlanadi:

$$K_{tq} = \frac{A_2}{P_2 - UQK - Mum} \cdot$$

Bunda:

A_2 – to'lov (aylanma) mablag'lar jami summasi;

P_2 – majburiyatlarning jami;

UQK – uzoq muddatli qarzlar va kreditlar;

Mum – muddati uzaytirilgan majburiyatlar (qarzlar).

To'lov mablag'lari tarkibiga moddiy aylanma aktivlar, pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va debitorlik qarzlari kiritiladi. Qisqa muddatli majburiyatlarga esa qisqa muddatli qarzlar, qisqa muddatli kreditlar va kreditorlik qarzlari kiritiladi. Qisqa muddatli majburiyatlar summasini hisoblashda muddati uzaytirilgan qarzlar chegirib tashlanadi.

Korxona to'lovga qodir bo'lishi uchun ushbu koeffitsiyent 2 va undan yuqori bo'lishi kerak.

To'lovga qodirlik darajasining tahlili ko'rsatkichlarni taqqoslab, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. O'zgarish 4 ta omil hisobiga sodir bo'ladi. Omillarning ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali aniqlanadi. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin 5 ta bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinishi kerak. So'ngra ular ketma-ketlikni saqlagan holda bir-biriga solishtirib, har bir omilning ta'siri aniqlanadi. To'lovga qodirlik koeffitsiyentining tahlilini paxta zavodi ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Tahlil 16-jadvaldagi ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

$$\text{I. } \frac{A_{2_0}}{P_{2_0} - UQK_0 - Mum_0} = \frac{3099439}{3083396 - 0 - 0} = 1,005 \text{ yoki } 100,5\%.$$

$$\text{II. } \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_0 - Mum_0} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$\text{III. } \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_0 - Mum_0} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$\text{IV. } \frac{A_{2_0}}{P_{2_1} - UQK_1 - Mum_1} = \frac{3099439}{3938046 - 0 - 0} = 0,787 \text{ yoki } 78,7\%.$$

$$\text{V. } \frac{A_{2_1}}{P_{2_1} - UQK_{01} - Mum_1} = \frac{4096278}{3938046 - 0 - 0} = 1,040 \text{ yoki } 104\%.$$

Tahlil koeffitsiyentlarni o'zaro qiyoslab, farqini aniqlashdan boshlanadi. Yil oxiridagi to'lovga qodirlik koeffitsiyenti (V bog'lanish)ni yil boshidagi koeffitsiyenti (I bog'lanish)ga solishtirib, uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi.

Shundan so'ng omillar ta'siri ushbu o'zgarishga quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$1,040 - 1,005 = +0,035 \text{ yoki } 3,5\%.$$

Demak, to'lovga qodirlik darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 3,5% ga oshgan, xolos.

II bog'lanish ko'rsatkichidan I bog'lanish ko'rsatkichini ayirish orqali koeffitsiyentning o'zgarishiga majburiyatlar jami hajmi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

$$0,787 - 1,005 = -0,218 \text{ yoki } 21,8\%.$$

Demak, majburiyatlarning jami joriy yilning oxirida 3938046 ming so'mni tashkil qilib, yil boshidagi hajmiga nisbatan 854650 ming so'mga yoki 27,7% ga oshgan, natijada shu omil hisobiga to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 21,8% ga pasaygan.

III bog'lanish ko'rsatkichidan II bog'lanish ko'rsatkichini chegirish orqali ushbu koeffitsiyentning o'zgarishiga uzoq muddatli majburiyatlar summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi. Ammo

zavodda uzoq muddatli qarz va kreditlar mavjud bo'lmaganligi tufayli ularning ta'siri bo'lmagan:

$$\text{III}-\text{II}=0,787-0,787=0.$$

IV bog'lanish ko'rsatkichi bilan III bog'lanish ko'rsatkichi orasidagi farq hukumat qarori bilan to'lash muddati cho'zilgan majburiyatlar summasi o'zgarishining ta'siri ko'rsatadi, ammo bunday majburiyat zavodda sodir bo'lgan emas, shuning uchun uning koeffitsiyentining o'zgarishiga ta'siri bo'lmagan:

$$\text{IV}-\text{III}=0,878-0,878=0.$$

V bog'lanish ko'rsatkichidan IV bog'lanish ko'rsatkichini chegirish orqali to'lovga qodirlik koeffitsiyentining o'zgarishiga to'lov mablag'lari jami summasi o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$1,040-0,787=+0,253 \text{ yoki } 25,3\%.$$

Demak, to'lov mablag'lari summasi joriy yilning oxirida boshidagi summasiga nisbatan 996839 ming so'mga yoki 32,2% ga oshgan, natijada shu omil hisobiga to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 25,3% ga oshgan. Shunday qilib, to'lovga qodirlik darajasi bir omilning salbiy, ikkinchi omilning ijobiy ta'siri ostida o'zgargan, qolgan ikki omil ta'sir etmagan.

Shuni qayd qilish kerakki, to'lovga qodirlik darajasida o'sish sodir bo'lgan bo'lsa ham, u mutlaqo talab darajasiga javob bermaydi, chunki korxona to'lovga qodir bo'lishi uchun to'lovga qodirlik koeffitsiyenti 2 dan yuqori bo'lishi kerak, zavodda u yil boshida ham, yil oxirida ham 1 koeffitsiyent atrofidagi miqdorni tashkil qilgan, xolos.

6.4. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasining tahlili

Xo'jalikning moliyaviy holatiga baho berishda korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti muhim hisoblanadi.

Ushbu koeffitsiyent o'z aylanma mablag'larining jamini aylanma mablag'larning jamiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Korxonaniing o'z aylanma mablag'lari summalarini aniqlash uchun korxonaning o'z mablag'lari manbalarining jami sum-

masiga (P1) uzoq muddatli majburiyatlarni (UQK) qo‘shib, uzoq muddatli aktivlar jamini (A1) chegirib tashlash kerak:

$$P1 + UQK - A1.$$

Shundan keyin xo‘jalikning o‘z aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlanish koeffitsiyenti aniqlanadi. Buni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$Ko't = \frac{P1 + UQK - A1}{A2}.$$

Ushbu ko‘rsatkich 0,1 koeffitsiyentdan kam bo‘lmasligi kerak. O‘z aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlanish koeffitsiyenti ham yil boshi, ham yil oxiriga aniqlab olingandan keyin ularni solishtirish orqali tahlil qilinadi. Tahlilda o‘zgarish tahlil qilinayotgan davrning oxiridagi koeffitsiyentidan davr boshidagi koeffitsiyentini ayirish orqali aniqlanadi. So‘ngra ushbu o‘zgarishiga omillarning ta‘siri aniqlanib, tahlil qilinadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, ushbu koeffitsiyentning o‘zgarishiga 4 ta omil ta‘sir qiladi:

1. korxona o‘z mablag‘lari manbalari hajmining o‘zgarishi ($P1_1 - P1_0$);
2. uzoq muddatli majburiyatlar (uzoq muddatli qarzlar (Q) va uzoq muddatli kreditlar (K) hajmining o‘zgarishi ($QK_1 - QK_0$);
3. uzoq muddatli aktivlar hajmining o‘zgarishi ($A1_1 - A1_0$);
4. jami aylanma aktivlar hajmining o‘zgarishi ($A2_1 - A2_0$).

Ushbu omillarning koeffitsiyentning o‘zgarishiga ta‘siri «Zanjirli bog‘lanish» usulidan foydalanib, aniqlanadi.

Ushbu koeffitsiyent tahlili 12-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Omillar ta‘sirini hisoblashdan oldin quyidagi bog‘lanish ko‘rsatkichlari aniqlab olinishi kerak:

$$I. \frac{P1_0 + UQK_0 - A1_0}{A2_0} = \frac{116663 + 181546 - 100624}{3099436} = \frac{197585}{3099436} = 0,064 \text{ yoki } 6,4\%.$$

$$II. \frac{P1_1 + UQK_0 - A1_0}{A2_0} = \frac{331713 + 181546 - 100624}{3099436} = \frac{412635}{3099436} = 0,133 \text{ yoki } 13,3\%.$$

$$III. \frac{P1_1 + UQK_1 - A1_0}{A2_0} = \frac{31713 + 190978 - 100624}{3099436} = \frac{422067}{3099436} = 0,136 \text{ yoki } 13,6\%.$$

$$\text{IV. } \frac{P_1 + UQK_1 - A_{10}}{A_{20}} = \frac{331713 + 190978 - 173481}{3099436} = \frac{349210}{3099436} = 0,013 \text{ yoki } 11,3\%.$$

$$\text{V. } \frac{P_1 + UQK_1 - A_1}{A_{20}} = \frac{331713 + 190978 - 173431}{4096278} = \frac{349210}{4096278} = 0,085 \text{ yoki } 8,5\%.$$

Ushbu hisob-kitob ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, paxta zavodida o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi yilning oxirida 8,5 foizni tashkil qilib, u yil boshidagi ta'minlanish darajasiga nisbatan 2,1% ga oshgan (8,5-6,4=2,1%).

$$\frac{P_1 + UQK_1 - A_1}{A_{21}} - \frac{P_0 + UQK_0 - A_{10}}{A_{20}} = 8,5 - 6,4 = +2,1\%.$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ijobiy va ikki omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Birinchi omil «zavodning o'z mablag'lari manbalari»ning yil boshiga nisbatan 215050 ming so'mga oshishi natijasida o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 6,6 foizga oshgan.

$$\text{II} - \text{I} = 13,3 - 6,4 = +6,9\%.$$

Ikkinchi omil «Uzoq muddatli majburiyatlar hajmi»ning yil oxirida yil boshiga nisbatan 9432 ming so'mga (190978-181546=+9432) oshishida natijasi o'z aylanma mablag'lar bilan zavodning ta'minlanish darajasi 0,3 foizga oshgan.

$$\text{III} - \text{II} = 13,6 - 13,3 = +0,3\%.$$

Uchinchi omil «Uzoq muddatli aktivlar hajmi»ning 72857 ming so'mga (173481-100624=+72857) oshishida o'z aylanma mablag'lar bilan ta'minlanish darajasiga salbiy ta'sir qilib, uning koeffitsiyentini 2,3 foizga kamayishiga olib kelgan.

$$\text{IV} - \text{III} = 11,3 - 13,6 = -2,3\%.$$

To'rtinchi omil - «Jami aylanma mablag'lar hajmi»ning 996842 ming so'mga (4096278-3099436=996842) oshishi natijasida o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 2,8 foizga kamaygan:

$$\text{V} - \text{IV} = 8,5 - 11,3 = -2,8\%.$$

Shuni qayd qilish kerakki, o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasi yil oxirida yil boshiga nisbatan 2,1% ga

oshgan bo'lsa ham, belgilangan normativdan past. Normativ bo'yicha kamida ushbu koeffitsiyent 10 foizdan kam bo'lmashligi kerak. Demak, zavod o'z aylanma mablag'lari bilan yetarli darajada ta'minlangan emas. O'z aylanma mablag'lari hajmini oshirish imkoniyatlarini topish choralarini ko'rish kerak.

6.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili

Korxonalarning moliyaviy ahvolini mustahkamlashning shart-sharoitlaridan biri, hisob-kitob ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy intizomga qat'iy rioya qilish hisoblanadi.

Moddiy ne'matlar va xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha hisob-kitoblar, umuman olganda, «Debitor va kreditorlar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar» tariqasida yuzaga keladi.

Ko'pgina korxonalarda moliyaviy ahvolning yomonlashuvi ko'p jihatdan katta hajmdagi debitorlik va kreditorlik qarzlarning to'planib qolishiga bog'liq bo'ladi. Debitorlik qarzlarning katta hajmda paydo bo'lishi korxona mablag'larini muomaladan chiqarib, o'z aylanma mablag'larining yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Natijada, kreditorlik qarzining oshishiga olib keladi, oxir oqibatda korxonalar moliyaviy holatga salbiy ta'sir qiladi. Shuning uchun ushbu jarayonni uzluksiz ravishda tahlil etib turish zarur.

Korxona tomonidan boshqa korxona va tashkilotlarga to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar kreditor qarzlari deb, korxonaga boshqa korxona va tashkilotlar tomonidan to'lanishi zarur bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik qarzlari deb ataladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarlari hisob-kitoblarning zaruriy sharti hisoblanadi. To'lov muddatining cho'zilib ketishi korxonalarning moliyaviy ahvoliga katta salbiy ta'sir qiladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning mavjud holatini o'rganish asosida ular bo'yicha aylanish davrini tezlashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Tahlilda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning holatiga, tarkibiga, tarkibiy tuzilishiga, tashkil topish muddatlariga, dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili taqqoslash usuli yordamida quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Birinchi navbatda debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi va tarkibiy tuzilishi o'rganiladi. Buning uchun, avvalo, har bir qarz turi hajmi va uning hissasi aniqlanadi.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning jamiga nisbatan har bir qarz turining hissasini shu qarz summasini 100 ga ko'paytirib, uning jamiga bo'lish orqali aniqlanadi. So'ngra hisobot davrining oxiridagi qarzlarning hajmini davr boshidagi qarzlarning hajmiga, davr oxiridagi hissasini davr boshidagi hissasiga solishtirilib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Ushbu o'zgarish mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Qarzar bo'yicha mutlaq o'zgarishini aniqlash uchun uning davr oxiridagi summasidan davr boshidagi summasi chegirilib tashlanadi. Nisbiy o'zgarishini aniqlash uchun mutlaq o'zgarish summasini 100% ga ko'paytirilib, natijasini davr boshidagi summasiga bo'lish kerak. Shundan keyin debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy holatiga baho beriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibi va tarkibiy tuzilishining tahlilini paxta zavodi misolida quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

14-jadvaldan ma'lumki, debitorlik qarzlari joriy yilning oxirida 427654 ming so'mni tashkil qilib, u yil boshiga nisbatan 18634 ming so'mga yoki 4,5 foizga oshgan ($18634 \times 100 : 409017$). Shu jumladan budjet tashkilotlarining qarzi 28195 ming so'mga yoki 34,9% ga, uyushma korxonalarining qarzlari 9432 ming so'mga yoki 5,2% ga oshgan. Boshqa debitorlik qarzlari bo'yicha kamayish sodir bo'lgan, ayrim qarzar undirib olingan. Masalan, xaridorlarning (7714 ming so'm) qarzi, xodimlarning (10997 ming so'm) qarzi to'liq undirib olingan, boshqa debitorlik qarzi 282 ming so'mga yoki 11,9% ga kamaygan. Sho'ba korxonalaridan qarzlarni undirib olish choralari ko'rilmagan, ushbu korxonalar qarzi hajmi o'zgarmasdan qolgan.

Zavodining boshqa korxona va tashkilotlarga bo'lgan kreditorlik qarzlari 845218 ming so'mga yoki 29,1 foizga oshgan.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshi		Yil oxiri		O'zgarishi (+, -)	
	Summasi, ming so'm	Salmo-g'i, %	Summasi, ming so'm	Salmo-g'i, %	Summasi, ming so'm	Salmo-g'i, %
I Debitorlik qarzarlar:						
1. xaridorlar bilan hisoblashishlar	7714	1,9	—	—	-7714	-1,9
2. budjet bilan hisoblashishlar	80862	19,8	109057	25,5	+28195	+5,7
3. xodimlar bilan hisoblashishlar	10997	2,7	—	—	-10997	-2,7
4. sho'ba korxonalari bilan hisoblashishlar	125531	30,7	125531	29,4	—	— 1,3
5. uyushma korxonalari bilan hisoblashishlar	181546	44,4	190978	44,7	+9432	+0,3
6. boshqa debitorlar	2367	0,5	2085	0,4	-282	-0,1
Jami:	409017	100	427651	100	+18634	—
II Kreditorlik qarzarlar:						
1. mol yetkazib beruvchilar	830506	28,6	1019620	27,2	+189114	— 1,4
2. budjet bo'yicha qarzarlar	—	—	191631	5,1	+191631	+5,1
3. mehnat haqi bo'yicha qarzarlar	28463	1,0	30231	0,8	+1768	-0,2
4. mulkiy va shaxsiy sug'urtalar bo'yicha qarzarlar	38197	1,3	36077	1,0	-2120	-0,3
5. budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzarlar	52588	1,8	42086	1,1	-10502	-0,7
6. sho'ba korxonalariga qarzarlar	1948316	67,2	2421497	64,7	+473181	-2,5
7. boshqa kreditorlar	3780	0,1	5926	0,1	+2146	—
Jami:	2901850	100	3747068	100	+845218	—

(845218x100:2901850). Shu jumladan, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzi 189114 ming so'm (22,8%)ga, budjetga bo'lgan qarzi 191621 ming so'm (100 foiz)ga, sho'ba korxonalariga bo'lgan qarzi 473181 ming so'm (24,3%)ga, mehnat haqi bo'yicha qarzi 1768 ming so'm (6,2%)ga, boshqa kreditorlarga bo'lgan qarzi 2146 ming so'm (55,8%)ga oshgan. Faqat ikki tur kreditorlik majburiyati bo'yicha qarzini kamaytirgan. Sug'urta tashkilotlariga bo'lgan qarzi 2120 ming so'm (5,5%)ga, budjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha qarzi 10502 ming so'm (20,0%)ga kamaygan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining umumiy tahlilidan so'ng korxonaning to'lov muddati o'tib ketgan qarzlarini maxsus tahlil etib, sabablarini aniqlash zarur. Bu tahlilni amalga oshirish uchun moliyaviy hisobot tarkibidagi 2-a shaklidagi «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqida ma'lumotnoma» ko'rsatkichlaridan foydalanish kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini undirish muddati 90 kun qilib belgilangan. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari nazoratga olinadi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarish muddati qonun bilan 3 yil qilib belgilangan. Ushbu muddatda to'lanmagan kreditorlik qarzlari yoki undirib olinmagan debitorlik qarzlari korxonaning foyda va zararlar schotiga olib boriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarining tahlili paytida aylanuvchanligiga ham alohida e'tibor berish zarur. Chunki majburiyatlarning aylanuvchanlik darajasi korxonaning moliyaviy ahvoriga baho berishda ishlatiladigan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi deganda, debitorlik qarzlarni undirib olish muddati va ularning aylanish ko'rsatkichi tushuniladi.

Bu ko'rsatkich esa majburiyatlarning necha kundan keyin naqd pulga, likvid mablag'ga aylanishini xarakterlaydi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentini aniqlash uchun mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushumni (ST) debitorlik qarzlarning o'rtacha hajmiga (DQ) bo'lish kerak:

$$K_{deb} = \frac{ST}{DQ}.$$

Debitorlik qarzlarining aylanish davrini aniqlash uchun debitorlik qarzlarining jamini davrning kalendar kunlari soniga ko'paytirib, natijasini sotishdan olingan sof tushumga bo'lish kerak:

$$Addeb = \frac{DQ \cdot 360}{ST}.$$

Shundan so'ng debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining o'zgarishi, majburiyatlarini aylanish davrining o'zgarishi hamda ularning o'zgarishiga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Debitorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1. sof tushum hajmining o'zgarishi;
2. debitorlik qarzlar summasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi 3 ta bog'lanish ko'rsatkichi hisoblab olinadi:

I. $\frac{ST_0}{DQ_0}$ – bazis yilidagi debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti;

II. $\frac{ST_1}{DQ_0}$ – debitorlik qarzlarining shartli aylanish koeffitsiyenti;

III. $\frac{ST_1}{DQ_1}$ – hisobot yilidagi debitorlik qarzlarining aylanish koeffitsiyenti.

Ushbu bog'lanish ko'rsatkichlari aniqlangandan keyin qarzlarining aylanish koeffitsiyenti o'zgarishi va unga omillar ta'siri quyidagicha aniqlanad. Debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining umumiy o'zgarishi:

$$III - I \quad \frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm \Delta_{ST,DQ}.$$

Debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga sof tushum hajmi o'zgarishining ta'siri:

$$\text{II-I } \frac{ST_1}{DQ_0} - \frac{ST_0}{DQ_0} = \pm \Delta_{ST}.$$

Debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga debitorlik qarzlar summasi o'zgarishining ta'siri:

$$\text{III-II } \frac{ST_1}{DQ_1} - \frac{ST_1}{DQ_0} = \pm \Delta_{DQ}.$$

Ushbu omillar ta'sirlarining yig'indisi debitorlik qarzlar aylanish koeffitsiyentining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{ST} \pm \Delta_Q = \Delta_{ST, DQ}.$$

Shundan so'ng kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishi tahlil qilinadi. Tahlil qilish tartibi debitorlik qarzlar aylanuvchanlik koeffitsiyentining tahliliga o'xshaydi. Bu yerda ham solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari yordamida tahlilni amalga oshirish zarur. Kreditorlik qarzlarining aylanuvchanlik koeffitsiyentining tahlilini quyidagicha amalga oshirish mumkin. Aylanuvchanlik koeffitsiyentining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_1}{KQ_0} = \pm \Delta_{IT, KQ}.$$

Kreditorlik qarzlar aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_0} - \frac{IT_0}{KQ_0} = \pm \Delta_{IT}.$$

Kreditorlik qarzlar aylanuvchanlik koeffitsiyentining o'zgarishiga kreditorlik qarzlar o'zgarishining ta'siri:

$$\frac{IT_1}{KQ_1} - \frac{IT_1}{KQ_0} = \pm \Delta_{KQ}.$$

Bunda: IT_1 , IT_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxi.

KQ_1 , KQ_0 – mos holda hisobot va bazis yillaridagi kreditorlik qarzlarning o‘rta hajmi (summasi).

Omillarning ta’sirlarining yig‘indisi aylanuvchanlik ko‘effitsiyentining o‘zgarishiga teng kelishi kerak.

7-MAVZU. QISHLOQ XO‘JALIK KORXONALARIDA MAHSULOT YETISHTIRISH REJASINING BAJARILISHI VA DINAMIKASINING OMILLI TAHLILI

7.1. Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili

Yer umummilliy boylik bo‘lib, u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

- yer mahsuldorligi ko‘rsatkichlari;
- xarajatlar qaytimi ko‘rsatkichlari.

Qishloq xo‘jalik yerlari mahsuldorligi 1 yoki 100 gektar hisobiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan o‘lchanadi. Yer mahsuldorligi quyidagi ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi:

1 yoki 100 gektar maydon hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymati (hajmi);

1 yoki 100 gektar maydon hisobiga ishlab chiqarilgan sof mahsulot qiymati (hajmi);

1 yoki 100 gektar maydon hisobiga olingan sof daromad summasi.

Qishloq xo‘jaligi yerlari mahsuldorligi ko‘rsatkichlarini davrlar bo‘yicha o‘rganishda mahsulotlar hajmini taqqoslama baho bo‘yicha hisoblash zarur.

Yer mahsuldorligi ko‘rsatkichi taqqoslama baho (yoki tannarx) bo‘yicha hisoblanganda mahsulot hajmini ekin maydoniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Taqqoslama baho tariqasida ishlab chiqarilgan mahsulotni ma‘lum bir davri bo‘lgan tannarxini yoki tahlil qilinayotgan davrlarning boshlang‘ich tannarxini qabul qilish mumkin. Shu asosida bazis va hisobot yillari uchun yalpi mahsulot hajmini hisoblab, natijasini tegishli davr ekin maydoniga bo‘lib,

yer samaradorligini aniqladik. Buni quyidagi formulalar bilan ifodalash mumkin:

$$\text{Bazis yili uchun} \quad \frac{Yerm_0}{\Sigma M_0} = \Sigma q_0 z_0 .$$

$$\text{Hisobot yili uchun} \quad \frac{Yerm_0}{\Sigma M_0} = \Sigma q_1 z_0 .$$

Bunda: q_0 – hisobot davrida yetishtirilgan har bir mahsulotning miqdori;

q_1 – bazis davrida yetishtirilgan har bir mahsulotning miqdori;

z_0 – bazis davrida yetishtirilgan har bir mahsulot 1 birligining tannarxi (taqqoslama tannarxi);

M_1, M_0 – mos holda hisobot va bazis davrdagi jami ekin maydoni;

$\Sigma q_0 z_0, \Sigma q_1 z_0$ – mos holda bazis va hisobot yillarida yetishtirilgan mahsulotlarning taqqoslama hajmi.

Hisobot yilidagi yer mahsuldorligi ko‘rsatkichini bazis yilidagi ko‘rsatkichiga solishtirilib, uning umumiy o‘zgarishi (oshgan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma q_1 \Sigma z_1}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_0} = \pm \Delta_{mq}.$$

Yer mahsuldorligining o‘zgarishi, ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, ikki omil hisobiga sodir bo‘ladi. Omillar ta’siri «Zanjirli bog‘lanish» usuli orqali aniqlanadi. Ushbu omillarning yer mahsuldorligining o‘zgarishiga ta’sirini aniqlashdan oldin «Shartli yer mahsuldorligi» ko‘rsatkichi aniqlab olinishi kerak.

Shartli yer mahsuldorligi ko‘rsatkichini aniqlash uchun bazis yilidagi yalpi mahsulot qiymatini hisobot yilidagi ekin maydoniga bo‘lmoq kerak:

$$Yerm_{sh} = \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_0} .$$

Shundan so‘ng yer mahsuldorligining o‘zgarishiga omillarning ta’siri «Zanjirli bog‘lanish» usuli orqali aniqlanadi:

Yer mahsuldorligini o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni ekin maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli yer mahsuldorligi ko'rsatkichidan bazis yilidagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} = \pm \Delta m.$$

Yer mahsuldorligining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'siri hisobot yilidagi yer mahsuldorligi ko'rsatkichidan shartli yer mahsuldorligi ko'rsatkichini ayirib tashlash orqali aniqlanadi:

$$\frac{\Sigma q_1 z_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} = \pm \Delta q.$$

Yuqoridagi omil ta'sirlarining yig'indisi yer mahsuldorligining umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart. Shundan so'ng omillar ta'siriga baho berilib, imkoniyatlar ko'rsatilishi kerak.

Dehqonchilikda asosiy mahsulotlarini yetishtirish uchun ajratilgan ekin maydonidan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 15-jadvalda keltirilgan.

15-jadval

Yerdan foydalanish tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	1 s mahsulotning bazis yildagi tan-narxi, so'm	Ekin maydoni, ga		Yetishtirilgan mahsulot, s		Yalpi mahsulot qiymati, ming so'm	
		bazis yili	hisobot yili	bazis yili	hisobot yili	bazis yili	hisobot yili
	z_0	M_0	M_1	q_0	q_1	$q_0 z_0$	$q_1 z_0$
Boshqoli ekinlar	3932	380	404	14402	18783	56626	73855
Paxta	8362	1074	1010	35997	31137	300997	260368
Kartoshka	1373	3	—	300	—	412	—
Sabzavot	3334	17	14	2605	3813	8686	12713
Poliz	1275	3	2	229	100	292	127,5
Jami:	X	1477	1430	x	x	367013	347064

Ushbu ma'lumotlar asosida yerdan foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Buning uchun birinchi navbatda 1 gektar hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmi aniqlanadi: Bazis yili uchun

$$Yerm_0 = \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_0} = \frac{367013}{1477} = 248,5 \text{ ming so'm.}$$

Hisobot yili uchun

$$Yerm_1 = \frac{\Sigma q_1 z_0}{\Sigma M_1} = \frac{347064}{1430} = 242,7 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida 1 gektar hisobiga yetishtirilgan yalpi mahsulot hajmi bazis yilida 1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmiga nisbatan 5,8 ming so'mga kamaygan:

$$\frac{\Sigma q_1 z_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_0} = 242,7 - 248,5 = -5,8 \text{ ming so'm.}$$

Demak, yerdan foydalanish samaradorligi darajasi joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 5,8 ming so'mga yoki 2,3 foizga pasaygan. Bu yuqorida qayd qilganimizdek, ikki omil hisobiga sodir bo'lgan:

- ekin maydonining o'zgarishi hisobiga;
- yetishtirilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning ta'siri aniqlanganga qadar shartli yerdan foydalanish darajasi aniqlab olinadi:

$$\frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} = \frac{367031}{430} = 256,7 \text{ ming so'm.}$$

Shundan so'ng yerdan foydalanish samaradorligining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash mumkin. Hisobot yilida ekilgan asosiy ekinlarning maydoni 1430 gektar bo'lib, u bazis yilidagi maydonga nisbatan 47 gektarga $(1430 - 1477) = -47$ ga yoki 3,2 foizga kamaygan, natijada shu omil hisobiga yerdan foydalanish samaradorligi oshgan, ya'ni 1 gektar hisobiga olingan yalpi mahsulot hajmi 8,2 ming so'mga yoki 3,2% ga oshgan.

$$\frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_0} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} = \frac{67013}{1430} - \frac{367013}{1477} = 256,7 - 248,5 = +8,2 \text{ ming so'm.}$$

Hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori bazis yilida yetishtirilgan mahsulotlarning miqdoriga nisbatan 5,5 foizga kamaygan:

$$\frac{\Sigma q_1 z_0}{\Sigma q_0 z_0} = \frac{347064}{367013} = 0,945 \text{ yoki } 94,5\%.$$

Yetishtirilgan mahsulotlar miqdorining kamayishi tufayli yerdan foydalanish samaradorligi 14 ming so'mga yoki 5,5% ga kamaygan.

$$\frac{\Sigma q_1 z_0}{\Sigma M_1} - \frac{\Sigma q_0 z_0}{\Sigma M_1} = \frac{347064}{1430} - \frac{367013}{1430} = 242,7 - 256,7 = -14 \text{ ming}$$

so'm yoki 5,5%.

Ushbu hisob-kitoblardan ma'lumki, yerdan foydalanish samaradorligining pasayishi, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining kamayishi hisobiga sodir bo'lgan.

Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'sishiga erishish zarur. Buning uchun ekin maydonining kamayishiga yo'l qo'ymaslik, ayniqsa, ekinlar hosildorligining oshishiga erishish zarur.

7.2. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili

Dehqonchilik tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori yalpi hosil deb yuritiladi. Har bir ekin turi bo'yicha hisobot yilida yetishtirilgan yalpi hosil miqdorini rejalashtirilgan miqdori bilan yoki bazis yilidagi miqdori bilan solishtirib, o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari miqdorining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar hisobiga sodir bo'ladi. Ekstensiv omil ekin maydonlarining o'zgarishi, intensiv omil hosildorlik darajasining o'zgarishi hisoblanadi. Demak, yalpi hosil miqdorining o'zgarishiga quyidagi ikki omil ta'sir qiladi:

- ekin maydonining o'zgarishi;
- 1 gektar hisobiga yetishtirilgan hosil (ya'ni hosildorlik)ning o'zgarishi.

Ushbu omillarning yalpi hosilning o'zgarishiga ta'siri «zanjirli bog'lanish», «ko'rsatkichlar farqi», «indeks» usullari yordamida aniqlanib, omilli tahlil qilinadi.

Tahlilni bevosita amalga oshirishdan oldin quyidagi 3 ta bog'lanish ko'rsatkichi aniqlab olinadi:

M_0H_0 – rejalashtirilgan (yoki bazis yilidagi) yalpi hosili;

M_1H_0 – shartli yalpi hosil. Bu ko'rsatkichni aniqlash uchun hisobot yilidagi maydonni (M_1) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) hosildorlikka (H_0) ko'paytirish kerak;

M_1H_1 – hisobot yilidagi yalpi hosil.

Ushbu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin yalpi hosil rejasining bajarilishi yoki dinamikasini tahlil qilish mumkin.

Hisobot yilidagi yalpi hosildan bazis yilidagi yalpi hosilni chegirish orqali uning umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$M_1H_1 - M_0H_0 = \pm\Delta_{mh.}$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekstensiv (miqdoriy) omilning, ya'ni ekin maydoni miqdori o'zgarishning ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi hosildan bazis yildagi yalpi hosilni chegirib tashlash kerak:

$$M_1H_0 - M_0H_1 = \pm\Delta_m.$$

Yalpi hosilning o'zgarishiga intensiv (sifatii) omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi hosil miqdoridan shartli yalpi hosil miqdorini ayirib tashlash kerak:

$$M_1H_1 - M_1H_0 = \pm\Delta_h.$$

Shu ikki omil ta'sirining yig'indisi yalpi hosilning umumiy o'zgarishiga teng bo'ladi. Yuqorida keltirilgan «zanjirli bog'lanish» usulida yetishtirilgan paxta yalpi hosili dinamikasining tahlili quyidagi jadval ma'lumotlari asosida keltirilgan.

16-jadvaldan ko'rinib turibdiki, paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 4860 s/ga yoki 13,5 foizga kamaygan:

$$M_1H_1 - M_0H_0 = (1010 \cdot 30,8) - (1074 \cdot 33,5) = 31137 - 35997 = -4860 \text{ sentner.}$$

Paxta ekin maydoni hisobot yilida 1010 ga ni tashkil qilib, bazis yiliga nisbatan 64 gektarga kamaygan, natijada shu omil hisobiga yalpi hosil 2162 sentnerga kamaygan.

**«Oltin zamin» nomli fermer xo'jaligi bo'yicha paxta yalpi hosili
dinamikasining omilli tahlili**

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi ekin maydoni va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi, (+, -)	Sh.j. o'zgarishi	
					Ekin maydoni hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1. Ekin maydoni, ga	1074	1010	1010	-64	X	X
2. Paxta hosildorligi, s/ga	33,5	33,5	30,8	-2,7	x	X
3. Paxta yalpi hosili, s.	35997	33835	31137	-4860	-2162	-2698

$$M_1H_0 - M_0H_0 = (1010 \cdot 33,5) - (1074 \cdot 33,5) = 33835 - 35997 = -2162 \text{ sentner.}$$

Paxta hosildorligi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,7 sentner ga kamaygan. Paxta hosildorligining kamayishi yalpi hosilning o'zgarishiga salbiy ta'sir qilib, uni bazis yiliga nisbatan 2698 sentner ga kamaytirilgan:

$$M_1H_1 - M_1H_0 = (1010 \cdot 30,8) - (1010 \cdot 33,5) = 31137 - 33835 = -2698 \text{ sentner.}$$

Paxta yalpi hosili dinamikasining o'zgarishiga omillarning ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usuli yordamida quyidagicha aniqlash mumkin:

Yalpi hosilning o'zgarishiga ekin maydoni o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi ekin maydoni (M_1) bilan bazis yilidagi ekin maydoni (M_0) orasidagi farqi ($M_1 - M_0$) bazis yilidagi hosildorlik darajasiga (H_0) ko'paytiriladi:

$(M_1 - M_0) \cdot H_0 = (1010 - 1074) \cdot 33,5 = -64 \cdot 33,5 = -2162$ sentner, demak, ekin maydonining bazis davriga nisbatan 64 gektarga kamayishi natijasida paxta yalpi hosili hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2162 sentner ga kamaygan.

Yalpi hosilning o'zgarishiga hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi hosildorlik (H_1) bilan bazis yilidagi hosildorlik (H_0) orasidagi ($H_1 - H_0$) farqni hisobot yilidagi ekin maydoni (M_1) ga ko'paytiriladi:

$$(H_1 - H_0) \cdot M_1 = (30,8 - 33,5) \cdot 1010 = -2,7 \cdot 1010 = -2698 \text{ sentner.}$$

Demak, paxta hosildorligining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,7 sentner ga kamayishi natijasida paxta yalpi hosili hisobot yilida 2698 sentner ga kamaygan.

Xullas, ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan, natijada paxta yalpi hosili hisobot yilida 4860 sentner kamaygan. Demak, xo'jalik mavjud imkoniyatlaridan foydalanilmagan.

7.3. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilish tahlili

Chorvachilik qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biridir. Aholining turmush darajasining o'sishi bilan chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talab ham oshib boradi. Shuning uchun ham uni ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilishni samarali uyushtirish lozim.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasining tahlili solishtirish orqali uning o'zgarishini aniqlab olishdan boshlanadi. Bunda qishloq xo'jalik korxonalarida chorvachilik mahsulotlarining ishlab chiqarilgan hajmini hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoridan rejalashtirilgan yoki o'tgan yilda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini chegirib, mahsulotning ko'paygan yoki kamaygan miqdori aniqlanadi.

So'ngra ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanadi.

Rejadagi mahsulot miqdorining o'zgarishiga nisbatan omillar ta'sirini aniqlash tartibi (usuli) o'tgan yilda yetishtirilgan mahsulot miqdorining o'zgarishiga nisbatan omillarning ta'sirini aniqlash tartibi (usuli)dan farq qilmaydi.

Hisobot yilida haqiqiy ishlab chiqilgan mahsulot miqdorini reja bo'yicha ko'zda tutilgan mahsulot miqdoriga solishtirib, umumiy o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = \pm \Delta_{sp}.$$

Bunda: S_1 — hisobot yilida mavjud bo'lgan chorva mollarining haqiqiy o'rtacha soni;

S_0 – hisobot yilida rejalashtirilgan chorva mollarining o‘rtacha soni;

P_1 – chorva mollarining haqiqiy mahsuldorligi darajasi;

P_0 – reja bo‘yicha ko‘zda tutilgan chorva mollari mahsuldorligi darajasi.

Chorva mollarining sonini ularning mahsuldorligiga (ya’ni 1 bosh hisobiga yetishtirilgan mahsulot miqdoriga) ko‘paytirish orqali ishlab chiqarilgan jami natura mahsuloti miqdori aniqlanadi:

$S_1 P_1$ = haqiqiy yetishtirilgan jami mahsulot miqdori;

$S_0 P_0$ = reja bo‘yicha yetishtirish ko‘zda tutilgan mahsulot miqdori.

Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotning tahlilini quyidagi misolda ko‘rib chiqish mumkin.

Hisobot yilida yetishtirilgan haqiqiy yalpi sut miqdoridan rejalashtirilgan yalpi sut miqdorini ayirish orqali uning umumiy o‘zgarishi aniqlanadi:

$$S_1 P_1 - S_0 P_0 = \pm \Delta_{sp}.$$

Ushbu o‘zgarish ikki omil hisobiga sodir bo‘ladi:

- sigirlarning o‘rtacha sonining o‘zgarishi hisobiga;
- sut mahsuldorligining o‘zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning yalpi sut miqdorining o‘zgarishiga ta’siri «zanjirli bog‘lanish» usuli orqali aniqlanadi va tahlil qilinadi.

Omillar ta’sirini aniqlashda avval «shartli sut miqdori» aniqlanib olinadi. Bu ko‘rsatkich hisobot yilidagi haqiqiy sigirlarning o‘rtacha yillik sonini (S_1) rejalashtirilgan sut mahsuldorligi (P_0) ga ko‘paytirish orqali aniqlanadi: $S_1 P_0$.

Yalpi sut miqdorining o‘zgarishiga sigirlarning o‘rtacha soni o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun shartli sut miqdoridan reja bo‘yicha ko‘zda tutilgan sut miqdori chegirib tashlanadi:

$$S_1 P_0 - S_0 P_0 = \pm \Delta_s.$$

Yalpi sut miqdorining o‘zgarishiga sut mahsuldorligi o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy yalpi sut miqdoridan shartli sut miqdori chegirib tashlanadi:

$$S_1 P_1 - S_1 P_0 = \pm \Delta_p.$$

Yuqoridagi ikki omil ta’sirining yig‘indisi yalpi sutning umumiy o‘zgarishini ko‘rsatadi:

$$\Delta_s \pm \Delta_r = \Delta_{sp}.$$

Yuqorida keltirilgan usul yordamida yetishtirilgan yalpi sut rejasi bajarilishining tahlili 17-jadvaldagi ma'lumotlar asosida keltirilgan.

17-jadval

Ishlab chiqarilgan yalpi sut rejasi bajarilishining tahlili

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy sigirlar soni va rejadagi mahsuldorligi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)	Sh.j. o'zgarishi	
					Sigirlar soni hisobiga	Sut mahsuldorligi hisobiga
1.Sigirlarning o'rtacha soni, bosh	120	110	110	-10	X	X
2.Sut mahsuldorligi, s/bosh	19,0	19,0	25,0	+6	X	X
3.Yalpi sut, s	2280,0	2090,0	2750,0	+470	- 190,0	+660

17-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sog'ib olingan sutning haqiqiy miqdori 2750 sentnerni tashkil qilib, u reja nisbatan 470 sentnerga oshgan:

$$S_1P_1 - S_0P_0 = (110 \cdot 25,0) - (120 \cdot 19) = 2750 - 2280 = +470 \text{ sentner.}$$

Ushbu o'zgarish miqdoriy omilning salbiy, sifatii omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga keladi.

Sigirlarning haqiqiy o'rtacha yillik soni rejadagiga nisbatan 10 boshga kamaygan, natijada shu omil hisobiga yalpi sut miqdori 190 sentner kamaygan:

$$S_1P_0 - S_0P_0 = (110 \cdot 19) - (120 \cdot 19) = 2090 - 2280 = -190 \text{ sentner.}$$

Sut mahsuldorligining oshishi yalpi sut miqdorining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilib, uning oshishiga sababchi bo'lgan. Sut mahsuldorligi darajasi hisobot yilida 25 sentnerni tashkil qilib, rejaga nisbatan 6 sentnerga oshgan, natijada shu omil hisobiga yalpi sut miqdori 660 sentnerga ko'paygan:

$$S_1P_1 - S_0P_0 = (110 \cdot 25) - (110 \cdot 19) = 2750 - 2090 = +660 \text{ sentner.}$$

Demak, yalpi sut miqdorining o'zgarishi bir omilning salbiy, ikkinchi omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Agar sigirlar

soni o'zgarmasdan rejada ko'zda tutilgan soni darajasida qolganda yoki ko'payganda edi, yalpi sut miqdori yanada oshgan bo'lar edi.

8-MAVZU. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI TANNARXINING TAHLILI

8.1. Ishlab chiqarish xarajatalari umumiy hajmining tahlili

Tayyor mahsulotlarning jami ishlab chiqarish tannarxi (xarajati)ni tahlil etish uchun tahlilning solishtirish, ko'rsatkichlar farqi, zanjirli almashtirish kabi usullaridan foydalanish mumkin.

Tahlil hisobot yilidagi xarajatlari summasini bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan xarajatlari summasiga solishtirib, umumiy o'zgarishni aniqlashdan boshlanadi. Demak, hisobot yilidagi ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis yilidagi yoki rejadagi tannarxiga solishtirib, uning ko'payganligi yoki kamayganligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning jami xarajatlari hajmini ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda aniqlash zarur, ya'ni ularni miqdoriy va sifatiy omillarning ko'paytmalarining yig'indisi tariqasida aniqlash maqsadli bo'ladi, chunki ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rinib turadi.

Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\Sigma q_1 z_1 - \Sigma q_0 z_0 = \pm \Delta qz.$$

Bunda, q_0 , q_1 — mos holda bazis va hisobot yillarida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar miqdori (s. hisobiga);

z_0 , z_1 — 1 sentner mahsulotning bazis va hisobot yillaridagi ishlab chiqarish tannarxi (so'm hisobida).

Demak, q_0 , z_0 — bazis yilida yetishtirilgan mahsulot ishlab chiqarish xarajatining jami hajmini ko'rsatadi, ya'ni bazis yilida yetishtirilgan mahsulot miqdorini (q_0) 1 sentner mahsulot tannarxiga ko'paytirib, ularning umumiy hajmi aniqlanadi.

q_1 , z_1 — hisobot yilidagi yetishtirilgan mahsulot ishlab chiqarish xarajatining jami hajmini ko'rsatadi. Demak, hisobot

yilidagi mahsulot miqdorini (q_1) 1 birlik mahsulot tannarxiga (z_1) ko'paytirib, ishlab chiqarish xarajatining summasi aniqlangan.

Ushbu yo'l bilan bazis va hisobot yillari uchun hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlarining jami summasi 9-ASK va 13-ASK shakli bo'yicha tuzilgan hisobotlardagi xarajatlarning jami summasiga teng kelishi kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot jami xarajat hajmining o'zgarishi yuqoridagi formuladan ko'rinib turibdiki, ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

- ishlab chiqarilgan mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi ($q_1 - q_0$) hisobiga;
- mahsulot birligi tannarxi (1 sentner tannarxi)ning o'zgarishi ($z_1 - z_0$) hisobiga.

Ushbu omillarning xarajatlar hajmining umumiy o'zgarishiga ta'sirini «ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib, aniqlash yo'larini ko'rsatamiz.

Ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishiga birinchi omilning, ya'ni mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi mahsulot miqdori (q_1) bilan bazis yilidagi mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni bazis yilidagi 1 sentner mahsulotning tannarxi (z_0) summasiga ko'paytiriladi:

$$(q_1 - q_0) \cdot z_0 = \pm \Delta_q$$

Xarajatlar umumiy hajmining o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni 1 sentner mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi 1 sentner mahsulot tannarxi (z_1) bilan bazis yilidagi 1 sentner mahsulot tannarxi (z_0) orasidagi farqni hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga (q_1) ko'paytiriladi:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_z$$

Yuqoridagi ikki omil ta'sirining yig'indisi ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak.

Quyida fermer xo'jaligida yetishtirilgan paxta misolida ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini ko'rib chiqamiz:

Keltirilgan hisobot materiallaridan ko'rinib turibdiki, paxtaga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 217331 ming so'mga oshgan.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi, (+,-)
1. Ekin maydoni, ga	1074	1010	-64
2. Yalpi hosil, s	3599	31137	-4860
3. Hosildorlik, s/ga	33,5	30,8	-2,7
4.1 s donning ishlab chiqarish tannarxi, so'm	8362	16647	+8285
5. Jami xarajat, m/s	300997	518328	+217331
6. 1 ga xarajati, m/s	280,3	513,2	+232,9

$$(q_1 z_1 - q_0 z_0) = (31137 \cdot 16647) - (35997 \cdot 8362) = 518328 - 300997 = +217331 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri tufayli paydo bo'lgan. Birinchi omil mahsulot fizik miqdorining o'zgarishi hisoblanadi. Yalpi hosil hisobot yilida 31137 sentnerni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 4860 sentnerga kamaygan, natijada shu omil hisobiga ishlab chiqarish xarajati hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 40639 ming so'mga kamaygan.

$$(q_1 - q_0) \cdot z_0 = (31137 - 35997) \cdot 8362 = -4860 \cdot 8362 = -40639 \text{ ming so'm.}$$

Ikkinchi omil 1 sentner paxta tannarxi darajasining o'zgarishi hisoblanadi. 1 sentner paxta tannarxi hisobot yiliga bazis yiliga nisbatan 8285 so'mga oshgan (qimmatlashgan), natijada jami xarajat hajmi shu omil hisobiga yiliga 257970 ming so'mga oshgan:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = (16647 - 8362) \cdot 31137 = +8285 \cdot 31137 = +257970 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xarajatlarning hajmining o'zgarishi bir omilning ijobiy, ikkinchi omilning salbiy ta'siri ostida yuzaga keladi. Asosiy sabab, mahsulot birligi tannarxining keskin qimmatlashib ketganligidir. Shuning uchun mahsulot birligi tannarxining tarkibini va unga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini o'rganish zarur.

8.2. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxining tahlili

Mahsulot yetishtirish uchun sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlarining pul shaklida ifodalanishi tannarx deb ataladi. Tannarx o'z navbatida jami mahsulot tannarxi, mahsulot birligi tannarxi va 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar ko'rsatkichlariga bo'linadi. Ushbu ko'rsatkichlardan birinchisini tahlil etish tartibi yuqorida bayon qilindi. Bu bo'limda 1 birlik mahsulot tannarxini tahlil qilish tartibi yoritiladi.

Mahsulot birligining tannarxi tahlilini amalga oshirishda solishtirish va zanjirli bog'lanish usullari keng qo'llaniladi. Bu «zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib amalga oshiriladi.

Hisobot davridagi 1 birlik mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini bazis davridagi (yoki rejalashtirilgan) mahsulotning tannarxiga solishtirib, mutlaq va nisbiy o'zgarishlar aniqlanadi. So'ngra «zanjirli bog'lanish» usuli orqali omilli tahlil etilib, omillarning ijobiy va salbiy ta'sirlarining miqdorlari aniqlanib, uni pasaytirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

1 sentner mahsulot tannarxining o'zgarishi bevosita ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Bu omillar quyidagilardir:

– 1 gektar ekin maydoni (yoki 1 bosh chorva moli) hisobiga sarf bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari hajmining o'zgarishi;

– 1 gektar ekin maydonidan olingan hosil (yoki 1 bosh moldan olingan mahsulot) miqdorining o'zgarishi (hosildorlik yoki mahsuldorlik o'zgarishi).

Tannarx tahlilini dehqonchilik mahsulotlari misolida ko'rib chiqamiz. Tannarxning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlanganga qadar 1 sentner mahsulotning shartli tannarxini aniqlab olish zarur. Shartli tannarxni (Z_{sh}) aniqlash uchun hisobot davridagi (yilidagi) 1 gektar ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajatlar hajmini (IX_1) bazis davridagi (yilidagi) hosildorlik darajasiga (H_0) bo'lish kerak:

$$Z_{sh} = \frac{IX_1}{H_0}.$$

1 gektar ekin maydoni hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar summasini aniqlash uchun u yoki bu ekin turi uchun qilingan jami xarajatlar hajmini (Σqz) shu ekin maydoniga (M) bo'lish kerak:

$$\frac{\Sigma qz}{\Sigma M}.$$

Shartli tannarx aniqlangandan keyin mahsulot birligi tannarxini tahlil qilish mumkin. Birinchi navbatda 1 sentner mahsulot tannarxining o'zgarishi aniqlanadi. Buning uchun hisobot yilidagi 1 sentner mahsulot tannarxidan bazis yilidagi (yoki rejadagi) 1 sentner mahsulot tannarxi chegirib tashalanadi.

$$\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{280300}{33,5} - \frac{513200}{30,8} = 8362 - 16647 = +8285 \text{ so'm.}$$

Demak, 1 sentner paxta tannarxi hisobot yilida o'tgan yildagi tannarxga nisbatan 8285 so'mmaga oshgan.

Endi esa ushbu o'zgarishlarga omillarning ta'siri aniqlanadi.

1 sentner mahsulot tannarxining o'zgarishiga ekstensiv omilning, ya'ni 1 ga ekin maydoni hisobiga sarf bo'lgan xarajat summasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 sentner mahsulotning shartli tannarxidan uning bazis davridagi tannarxini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{IX_1}{H_0} - \frac{IX_0}{H_0} = \frac{543200}{33,5} - \frac{280300}{33,5} = 15319 - 8362 = +6957 \text{ so'm.}$$

Demak, 1 gektar hisobiga sarf bo'lgan xarajat hajmining bazis yiliga nisbatan 2329 ming so'mga oshishi 1 sentner paxta tannarxining 6957 so'mga oshishiga olib keladi.

1 sentner mahsulot tannarxining o'zgarishiga intensiv omilning, ya'ni hosildorlik darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun 1 sentner mahsulotning hisobot yilidagi tannarxidan shartli tannarxni chegirib tashlash kerak:

$$\frac{IX_1}{H_1} - \frac{IX_1}{H_0} = \frac{513200}{30,8} - \frac{513200}{33,5} = 16647 - 15319 = +1328 \text{ so'm.}$$

Demak, 1s ekin maydonidan olingan hosil miqdorining (ya'ni hosildorlik darajasining) hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2,7 sentnerga (30,8–33,5 = –2,7 sentnerga) kamayishi 1 sentner paxta tannarxining 1328 so'mga oshishi (qimmatlashishi)ga olib kelgan. Ushbu hisob-kitob ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1 sentner paxta tannarxining o'zgarishiga ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan, natijada xarajatning keskin oshib ketishiga sababchi bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblarni ma'lumotlariga asoslanib, mahsulot tannarxining omilli tahlili natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Tahlil usullarini yaxshi o'zlashtirib olgan iqtisodchi (talaba va mutaxassis) yuqorida keltirilgan hisob-kitoblarni tuzmasdan turib ham, (ularga ko'p vaqt sarflamasdan turib ham) tahliliy jadval asosida tannarxni omilli tahlil qilib, xulosalar chiqarishi mumkin.

19-jadval

1 sentner paxta tannarxining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi 1 ga xarajati va bazis yilidagi hosildorlik bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi (+,–)	Sh.j. o'zgarishi	
					1 gektar xarajati hisobiga	Hosildorlik hisobiga
1. 1 gektar ekin maydoni hisobiga qilingan xarajat, ming so'm	280,3	513,2	513,2	+232,9	X	X
2. 1 ga ekin maydonidan olingan hosil (hosildorlik), s/ga	33,5	33,5	30,8	–2,7	X	X
3. 1 sentner paxta tannarxi, so'm	8362	15319	16647	+8285	+6957	+1328

19-jadvaldagi hisob ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1 sentner paxta tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 8285 so'mga qimmatlashgan. Bu o'zgarish ikki omilning ham salbiy ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, 1 gektarga qilingan

xarajatning oshishi natijasida 6957 soʻmga, hosildorlikning pasayishi natijasida 1328 soʻmga tannarx qimmatlashgan.

Tannarxni pasaytirishning asosiy imkoniyatlari 1 gektar qilindigan xarajatlar hajmini keskin kamaytirish va hosildorlikni oshirish hisoblanadi. Tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini koʻrsatish uchun uning tarkibini xarajat moddalari boʻyicha ham oʻrganish kerak.

Chorvachilik mahsuloti tannarxining tahlili tartibi dehqonchilik mahsuloti tannarxining tahlilidan farq qilmaydi, faqat ekin maydoni oʻrniga chorva mollari sonini (S), hosildorlik oʻrniga mahsuldorlik koʻrsatkichini olib, ularga tegishli koʻrsatkichlarni hisoblab, tahlil qilinsa, maqsadga erishiladi. Shuning uchun bu yerda unga alohida toʻxtalmadik.

8.3. Tannarx tarkibidagi xarajat moddalari oʻzgarishining omilli tahlili

1 sentner mahsulot tannarxining tahlili bilan bir qatorda, uning tarkibini xarajat moddalari boʻyicha ham tahlil etish zarur, yaʼni tannarx tarkibidagi har bir modda boʻyicha oʻzgarishini tahlil qilish orqali ham uni arzonlashtirish imkoniyatlarini koʻrsatish mumkin. Tannarx tarkibidagi har bir moddada oʻz aksini topgan xarajatlar hajmining oʻzgarishi ham ekstensiv va intensiv omillar hisobiga sodir boʻladi. Bu omillarni miqdoriy va sifatiy (qiymat) omillar deb ham atash mumkin. Shu ikki omil koʻpaytmasining yigʻindisi har bir moddadagi xarajatlar hajmi (summasi)ga teng boʻladi, demak, omillar taʼsirining yigʻindisi ham har bir moddadagi xarajatlar hajmining umumiy oʻzgarishiga teng boʻlishi shart. Masalan, ish haqi va unga tenglashtirilgan sarflar moddasini olaylik. Shu modda boʻyicha koʻrsatilgan hisobot yilidagi harajatlar summasini bazis yilidagi xarajatlar summasiga solishtirib, uning oʻzgarishi aniqlanadi.

Ushbu oʻzgarish quyidagi ikki omil hisobiga yuzaga keladi:

- sarflangan kishi-soatlar miqdorining oʻzgarishi hisobiga (KS1-KS0);
- 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi darajasining oʻzgarishi hisobiga ($1KH_1 - 1KH_0$).

Shu omillarning «mehnat haqi» moddasidagi xarajatlar hajmining oʻzgarishiga taʼsirini aniqlash uchun «Zanjirli bogʻlanish» usulidan foydalanmoq kerak. Yoki «Yem-xashak sarfi» moddasidagi xarajatlar hajmi oʻzgarishiga omillar taʼsiri tahlilini aniqlash uchun olaylik, ushbu oʻzgarishga ham yuqorida koʻrsatganimizdek, ikki omil taʼsir qiladi:

1) sarf boʻlgan yem-xashak miqdorining oʻzgarishi (oziqa birligi hisobiga),

2) 1 sentner yem-xashak qiymati (tannarxi)ning oʻzgarishi.

Ushbu omillarning shu moddalardagi xarajatlar summasining oʻzgarishiga taʼsirini koʻrsatkichlar farqi yoki zanjirli bogʻlanish usullari orqali aniqlash mumkin. Boshqa moddalardagi xarajatlar hajmi oʻzgarishini shu xil tartibda amalga oshirish tavsiya etiladi.

Endi, xarajat moddalari boʻyicha tannarxning tahlilini 20-jadvaldan koʻrish mumkin:

20-jadval

1 sentner paxta tannarxining xarajat moddalari boʻyicha tahlili

Xarajat moddalari	2016-yil		2017-yil		Oʻzgarishi (+, -)	
	Summasi, soʻm	Salmogʻi, %	Summasi, soʻm	Salmogʻi, %	Summasi boʻyicha	Salmogʻi boʻyicha
1. Mehnat haqi ajratmalari bilan	3344	40,0	5711	34,3	+2367	-5,7
2. Oʻgʻitlar	830	9,9	1460	8,8	+630	-1,1
3. Urugʻlik	223	2,7	851	5,1	+628	+2,4
4. Amortizatsiya	—	—	—	—	—	—
5. Ish-xizmatlar	1929	23,1	4552	27,3	+2623	+4,2
6. Yoqilgʻi-moylash materiallari	541	6,5	1310	7,9	+769	+1,4
7. Sugʻurta	36	0,4	61	0,4	+25	—
8. Umumishlab chiqarish xarajatlari	110	1,3	149	0,9	+39	0,4
9. Boshqa toʻgʻri xarajatlilar	1349	16,1	2553	15,3	+1209	0,8
1 sentner paxta tannarxi (jami)	8362	100,0	16647	100,0	+8285	—

20-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 1 sentner paxta tannarxi 8285 so‘mga qimmatlashgan. Bu barcha xarajat moddolari hajmining oshishi hisobiga sodir bo‘lgan. Tannarx tarkibida asosiy ulushni mehnat haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari, urug‘, o‘g‘it va boshqa to‘g‘ri xarajatlarni tashkil qiladi. Shuning uchun ham ushbu xarajatlarning oshib ketish sabablarini omilli tahlil qilish, mavjud imkoniyatlarni aniq ko‘rsatadi.

Ushbu xarajat moddolari bo‘yicha sodir bo‘lgan o‘zgarishning sababini «zanjirli bog‘lanish» usulidan foydalanib aniqladik. Masalan, «Mehnat haqi» xarajat (MH) moddasi bo‘yicha o‘zgarish ikki omil hisobiga sodir bo‘lgan. Ushbu omillar ta’siri mehnat haqi xarajatining o‘zgarishiga quyidagicha hisoblanib, aniqlanadi:

Bazis yilida mehnat haqi xarajati:

$$MH_0 = KS_0 \cdot 1KH_0.$$

Shartli mehnat haqi xarajati:

$$MH_{SH} = KS_1 \cdot 1KH_0.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajati:

$$MH_1 = KS_1 \cdot 1KH_1.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajati chegirish orqali, uning umumiy o‘zgarishi aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot 1KH_1) \cdot (KS_0 \cdot 1KH_0) = \pm \Delta_{KS, 1KH}.$$

Shartli mehnat haqi xarajatidan bazis yilidagi mehnat haqi xarajatini chegirib tashlash orqali uning o‘zgarishiga sarflangan kishi-soat (KS) miqdori o‘zgarishining ta’siri aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot 1KH_0) \cdot (KS_0 \cdot 1KH_0) = \pm \Delta_{KS}.$$

Hisobot yilidagi mehnat haqi xarajatidan shartli mehnat haqi xarajatini chegirib tashlash orqali uning o‘zgarishi 1 kishi-soatga hisoblangan mehnat haqi darajasi (1KH) o‘zgarishining ta’siri aniqlanadi:

$$(KS_1 \cdot 1KH_1) \cdot (KS_1 \cdot 1KH_0) = \pm \Delta_{1KH}.$$

Ikki omil ta’sirining yig‘indisi «Mehnat haqi xarajati»ning umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak.

Endi mehnat haqi xarajati o‘zgarishining omilli tahlilini ko‘rib chiqamiz.

21-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mehnat haqi uchun bo‘lgan xarajatning oshib ketishining asosiy sababi bo‘lib, paxta yetish-

Mehnat haqi xarajati dinamikasining omilli tahlili

Ko'rsat- kichlar	Bazis yili	Hisobot yildagi kishi soat va bazis yildagi 1 ki- shi soat haqi bo'yicha	Hisobot yili	O'zga- rishi, (+, -)	Sh.j.o'zgarishi	
					1 sentner ga bo'lgan kishi-soat hisobiga	1 kishi soatga hisoblan- gan haq hisobiga
1.1 s paxtaga sarf bo'lgan kishi soat(KS)	28,9	52,7	52,7	+23,8	X	X
2.1 kishi soatga hisob- langan mehnat haqi, so'm (1KH)	115,74	115,74	108,36	-7,38	X	X
3.1 sentner paxta tannarxi tarkibidagi mehnat haqi xarajati, so'm (MH)	3344	6099	5711	+2367	+2755	-388

tirishga sarf bo'lgan vaqtning tahlilini 2 baravarga oshib ketganligi hisoblanadi. Bazis yilida 1 sentner paxta uchun 28,9 kishi-soat sarflangan bo'lsa, hisobot yiliga kelib, u 52,7 kishi-soatni tashkil qilgan, ya'ni 23,8 kishi-soat oshiqcha sarf bo'lgan. Natijada, shu omil hisobiga xarajat hajmi 2755 so'mga oshgan.

Demak, tannarxni arzonlashtirishning asosiy rezervlaridan biri mehnat sarfini keskin kamaytirish hisoblanadi.

Agar 1 sentner paxtaga bo'lgan mehnat sarfi hisobot yilida bazis yilidagi 28,9 kishi-soat hajmida saqlanib qolganda edi, hisobot yilda mehnat haqi uchun sarf bo'lgan xarajat 5711 so'm o'rniga 3132 so'm ni tashkil qilgan bo'lib, u 2579 so'mga tejalgan bo'lar edi, natijada 1 sentner tannarxi shu summaga kamaygan bo'lar edi.

$$28,9 \cdot 108,36 = 3132 \text{ so'm}$$

$$5711 - 3132 = 2579 \text{ so'm}$$

Mehnat haqi xarajat bilan bir qatorda tannarx tarkibida, urug‘, o‘g‘it va yoqilg‘i moylash materiallar xarajati ham salmoqli o‘rinni egallagan xarajatlardan hisoblanadi, ularning kamayishi tannarx kamayishiga ijobiy ta‘sir qiladi. Ushbu xarajatlar tahlili ham mehnat haqi xarajatlarning tahlilidan farq qilmaydi. Ushbu xarajatlar modalari bo‘yicha o‘zgarishi yuqorida qayd qilinganidek, ikki omil hisobiga sodir bo‘ladi:

1. sarflangan xarajatlar miqdorining o‘zgarishi hisobiga;
2. o‘rtacha sotish bahosi (yoki tannarxining) o‘zgarishi hisobiga.

Ushbu xarajatlar o‘zgarishi va ularning o‘zgarishiga omillarning ta‘sirini «Zanjirli bog‘lanish» usuli orqali, quyidagi formulalardan foydalanib aniqlash mumkin. O‘g‘it xarajati dinamikasi tahlili:

$$O'M \cdot O'B = O'X.$$

Bunda: $O'M$ – 1 sentner mahsulot uchun sarf bo‘lgan o‘g‘it miqdori;

$O'B$ – 1 sentner o‘g‘itning o‘rtacha bahosi;

$O'X$ – 1 sentner mahsulot uchun sarf bo‘lgan o‘g‘itning jami xarajati.

1 sentner mahsulot uchun sarf bo‘lgan o‘g‘it xarajatining tahlili quyidagi formulalar orqali amalga oshiriladi:

O‘g‘it xarajatining umumiy o‘zgarishi:

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm \Delta_{O'M, O'B}.$$

O‘g‘it xarajatining o‘zgarishiga omillarning ta‘siri quyidagicha aniqlanadi:

1. Sarflangan o‘g‘it miqdori o‘zgarishining tasiri:

$$(O'M_1 \cdot O'B_0) - (O'M_0 \cdot O'B_0) = \pm \Delta_{O'M}.$$

2. Sarf bo‘lgan o‘g‘it bahosining ta‘siri:

$$(O'M_1 \cdot O'B_1) - (O'M_1 \cdot O'B_0) = \pm \Delta_{O'B}.$$

Urug‘ xarajati dinamikasining tahlili:

1 sentner tannarx tarkibidagi «Urug‘ xarajati» summasining o‘zgarishi:

$$(UM_1 \cdot UB_0) - (UM_0 \cdot UB_0) = \pm \Delta_{UM, UB}.$$

Bunda, UM_1 , UB_1 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan urug‘lik miqdori.

UM_0 , UB_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan urug‘ning narxi.

$(UM_1 \cdot UB_1)$ – hisobot yilidagi 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan urug‘ xarajati.

$(UM_0 - UB_0)$ – bazis yilida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan urug‘ xarajati.

Urug‘ xarajati summasining o‘zgarishiga omillarning ta’siri quyidagicha aniqlanadi:

1-omil, ya’ni sarf bo‘lgan urug‘ miqdori o‘zgarishining ta’siri:

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_0 - UB_0) = \pm \Delta_{UM}$$

2-omil, ya’ni urug‘ning o‘rtacha narxi o‘zgarishining ta’siri:

$$(UM_1 \cdot UB_1) - (UM_1 - UB_0) = \pm \Delta_{UB}$$

Shu ikki omil ta’sirlarining yig‘indisi urug‘ xarajati summasining o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{UM} \pm \Delta_{UB} = \Delta_{UM,UB}$$

Yoqilg‘i-moylash materiallari xarajati dinamikasining tahlili xarajatining umumiy o‘zgarishlari:

$$(YOMM_1 \cdot YOMB_1) - (YOMM_0 \cdot YOMB_0) = \pm \Delta_{YOMM, YOMB}$$

Xarajatlarning o‘zgarishiga omillarning ta’siri:

1) yoqilg‘i-moylash materiallari miqdori o‘zgarishining ta’siri:

$$(YOMM_1 \cdot YOMB_0) - (YOMM_0 \cdot YOMB_0) = \pm \Delta_{YOMM}$$

2) yoqilg‘i-moylash materiallari bahosining ta’siri:

$$(YOMM_1 \cdot YOMB_1) - (YOMM_1 \cdot YOMB_0) = \pm \Delta_{YOMB}$$

Ikki omil ta’sirining yig‘indisi «yoqilg‘i-moylash materiallari» xarajatlar moddasi summasining o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{YOMM} \pm \Delta_{YOMB} = \Delta_{YOMM, YOMB}$$

Bu yerda, $YOMM_1$, $YOMM_0$ – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan yoqilg‘i-moylash materiallari miqdori.

$YOMB_1$, $YOMB_0$ – mos holda hisobot va bazis yillarida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan yoqilg‘i-moylash materiallarining o‘rtacha narxi.

Quyida 1 sentner paxta uchun sarf bo‘lgan moddiy xarajatlar hajmining omilli tahlilini yuqorida bayon qilingan usul qoidalari asosida ko‘rib chiqamiz:

22-jadvaldagi ma’lumotlardan ma’lumki, 1 sentner paxta yetishtirish uchun sarf bo‘lgan xarajatning oshib ketishi, asosan, o‘g‘itni sotib olish narxining keskin oshib ketishi natijasida yuzaga

1 sentner paxta tan narxi tarkibidagi asosiy moddiy xarajatlar dinamikasining tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilida sarf bo'lgan materiallar miqdori va bazis yilida materiallar narxi bo'yicha	Hisobot yili	O'zgarishi, (+, -)	Sh.j. o'zgarishi	
					Saraf bo'lgan material miqdori hisobiga	Materiallar narxi hisobiga
O'g'it sarfi bo'yicha: 1 sentner paxtaga sarf bo'lgan o'g'it, kg	25,8	6,4	6,4	-19,4	X	X
Sarflangan 1 kg o'g'itning narxi, so'm	32,18	32,18	229,65	+197,47	X	X
1 sentner paxtaga sarf bo'lgan o'g'it xarajati, so'm	830 206	1460	+630	-624	+1254	X
Urug' sarfi bo'yicha: 1 sentner paxtaga sarf bo'lgan urug', kg	1,97	3,02	3,02	+1,05	X	X
Sarf bo'lgan 1 kg urug'ning narxi, so'm	113,07	113,07	281,77	+168,70	X	X
1 sentner paxtaga sarf bo'lgan urug' xarajati, so'm	223	341	851	+628	+118	+310
Yoqilg'i-moylash materiallari bo'yicha: 1 sentner paxtaga sarf bo'lgan YOMM, kg	3,2	7,9	7,9	+4,7	X	X
Sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallarining narxi, so'm	169,48	169,48	165,14	-4,34	X	X
1 sentner paxtaga sarf bo'lgan xarajatlar summasi, so'm	541	1339	1310	+769	+798	-29

kelgan. 1 kg o'g'it narxi tahlil qilinayotgan davrda 7,1 martadan ziyotroq oshgan ($229,65:32,18 = 7,1$ marta). Sarf bo'lgan o'g'it miqdori 19,4 kg yoki 4 martaga kamaygan, natijada shu omil hisobiga o'g'it xarajati hajmi 624 so'mga kamaygan.

1 sentner paxta uchun sarf bo'lgan urug' xarajatiga ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan. 1 sentner paxta uchun sarf bo'lgan urug' miqdori 1,05 kg oshgan, natijada shu omil hisobiga urug' xarajati oshib, tannarx 118 so'mga qimmatlashgan. Urug'ni sotib olish narxi 168,7 so'mga yoki 2,5 marta oshgan, natijada urug' xarajati shu omil hisobiga 510 so'mga oshgan, bu esa o'z navbatida paxta tannarxining shu summaga oshishiga olib kelgan.

1 sentner paxtaga sarf bo'lgan yoqilg'i-moylash materiallari xarajatining oshib ketishining asosiy sababi bo'lib, sarf bo'lgan miqdori asossiz oshib ketishi hisoblanadi. Bazis yilida 3,2 kg sarflangan bo'lsa, hisobot yiliga kelib 7,9 kg ga yetgan, ya'ni 4,7 kg ga yoki 2,5 martaga oshgan, natijada xarajatlar hajmi keskin oshib, 1 sentner paxta tannarxining 798 so'mga oshishiga sabachi bo'lgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lumki, xo'jalikda paxta tannarxini pasaytirish imkoniyatlari mavjud, ammo ulardan yetarli darajada foydalanilmagan. Shular jumlasiga quyidagilar kiradi.

Paxta mahsuldorligini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Buning uchun o'g'it bilan yetarli darajada ta'minlash kerak. O'g'itlash darajasi hisobot yilida 4 marta kamaygan, natijada hosildorlik pasaygan.

Mehnat sarfi hajmini keskin kamaytirish zarur. Mehnat sarfi (kishi-soat) miqdori hisobot yilida 82,4 foizga oshib ketgan, natijada tannarx 2755 so'mga qimmatlashgan.

Urug' miqdori bo'yicha ortiqcha xarajatga yo'l qo'ymaslik kerak. Hisobot yilida 1 sentner paxtaga sarflangan urug' miqdori 1,05 kg yoki 53% ga oshgan, natijada 1 sentner paxta tannarxi 118 so'mga qimmatlashgan. Sarflangan yoqilg'i-moylash materiallari miqdori ham keskin oshgan 1 sentner paxta uchun sarf bo'lgan miqdori 3,2 kg dan 7,9 kg ga yetgan, ya'ni 4,7 kg ga yoki 2,5 marta ortiqcha xarajat bo'lgan. Natijada, tannarx 798 so'mga qimmatlashgan. Ish, xizmatlar va boshqa xarajatlarni ham kamaytirish choralarini ko'rish zarur.

9-MAVZU. QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINING YALPI PUL DAROMADI VA FOYDASI REJASINING BAJARILISHI VA DINAMIKASINI TAHLIL QILISH

9.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi rejasining bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot chetga chiqariladigan va xo'jalikning o'zida iste'mol qilinadigan mahsulot turlariga bo'linadi. Yalpi mahsulotning asosiy qismi chetga sotiladi, boshqacha aytganda, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga iste'mol uchun tushadi. Demak, har bir qishloq xo'jalik korxonasi o'zi ishlab chiqargan yalpi mahsulotning asosiy qismini chetga sotadi, undan tushadigan pul daromadi uning moliyaviy ahvolini belgilaydi, boshqacha aytganda, uning iqtisodiyotining taraqqiyoti mahsulotlarni sotishdan tushadigan jami pul daromadining hajmiga bog'liq bo'ladi. Pul daromadi hajmining ko'payishi sotiladigan mahsulotlar miqdorining ko'payishi va sifatining oshishi ta'siri ostida yuzaga keladi. Shuning uchun ham mahsulotlarni sotish jarayonida mavjud imkoniyatlarni izlab topish uchun tahlilni uzluksiz tashkil qilish katta ahamiyatga egadir. Jami pul daromadi (pul tushumi)ning hajmi o'zgarishini tahlil etish uchun solishtirish, ko'rsatkichlar farqi va zanjirli bog'lanish usullaridan foydalanish mumkin. Pul tushumining tahlili taqqoslashdan boshlanadi, ya'ni hisobot yilida mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi hajmini bazis yilidagi pul tushumi hajmiga yoki rejadagi pul tushumi hajmiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o'zgarishi aniqlanadi. Mutlaq o'zgarishni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$q_1 r_1 - q_0 p_0 = \pm \Delta_{qp}.$$

Bunda: q_1 , q_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar miqdori (yoki q_0 – rejadagi mahsulot miqdori);

p_1 , p_0 – mos holda hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar birligi (1 sentner)ning o'rtacha sotish bahosi (yoki p_0 – rejadagi o'rtacha sotish bahosi).

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, pul tushumining hajmi (qp) miqdoriy (q) va sifatiy (p) omillarning ko‘paytmasi tariqasida aniqlangan. Bu tahlil nuqtayi nazaridan samarali usuldir, chunki har bir omil o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun imkoniyat yaratiladi. Yuqorida keltirilgan formuladan ko‘rinib turibdiki, mahsulotlarni sotishdan olingan pul tushumi hajmining o‘zgarishi bevosita quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo‘ladi:

- sotilgan mahsulotlar fizik miqdorlarining o‘zgarishi hisobiga;
- o‘rtacha sotish baholarining o‘zgarishi hisobiga.

Ushbu omillarning pul tushumining o‘zgarishiga ta‘sirini «Ko‘rsatkichlar farqi» usuli orqali tahlil qilish tartibi yoritildi.

Pul tushumi hajmining o‘zgarishiga miqdoriy omilning, ya‘ni sotilgan mahsulotlar fizik miqdori o‘zgarishining ta‘sirini aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdori (q_1) bilan bazis yilida sotilgan (yoki reja bo‘yicha sotilishi ko‘zda tutilgan) mahsulot miqdori (q_0) orasidagi farqni ($q_1 - q_0$), bazis yilidagi (yoki rejadagi) 1 sentner mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi (p_0)ga ko‘paytirish kerak:

$$(q_1 - q_0) \cdot p_0 = \pm \Delta_q.$$

Bunda: $\pm \Delta_q$ – pul tushumining mahsulot miqdorining o‘zgarishi hisobiga oshgan yoki kamayganligini bildiruvchi miqdor.

Sof pul tushumi hajmining o‘zgarishiga sifatiy omilning, ya‘ni 1 sentner mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi o‘zgarishining ta‘siri hisobot yilida sotilgan mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi (p_1) bilan bazis yilida (yoki reja bo‘yicha) sotilgan mahsulotning o‘rtacha sotish bahosi (r_0) orasidagi farqni ($r_1 - r_0$) hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdoriga (q_1) ko‘paytirish orqali aniqlanadi:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \pm \Delta_p.$$

Bunda: $\pm \Delta_p$ – o‘rtacha bahoning o‘zgarishi hisobiga pul tushumining ko‘paygan yoki kamayganligini ko‘rsatuvchi miqdor. Ushbu ikki omil ta‘sirining yig‘indisi pul tushumining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{qp} = \Delta_q \pm \Delta_p.$$

Quyida fermer xo‘jaligi ma‘lumotlaridan foydalanib, bug‘doyni sotishdan olingan pul tushumi hajmi o‘zgarishining tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Pul daromadining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarish (+, -)
1. Sotilgan bug'doy, sentner	14008	17242	+3234
2. 1 sentner bug'doyning o'rtacha sotish bahosi, so'm.	5530	6727	+1197
3. Pul tushumi, ming so'm.	77460	115983	+38523

23-jadval ma'lumotlari asosida hisobot yilida bazis yiliga nisbatan bug'doyni sotishdan olingan pul tushumining umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$(q_1 p_1 - q_0 p_0) = (17242 \cdot 6727) - (14008 \cdot 5530) = 115983 - 77460 = +38523 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu o'zgarish ikki omilning ta'siri ostida yuzaga kelgan. Shu jumladan, birinchi navbatda, miqdoriy omilning, ya'ni sotilgan bug'doy miqdori o'zgarishining ta'siri aniqlanadi:

$$(q_1 - q_0) \cdot p_0 = (17242 - 14008) \cdot 5530 = 3234 \cdot 5530 = +17884 \text{ ming so'm.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdorining hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 3234 sentnerga ko'payishi tufayli bug'doyni sotishdan olingan pul tushumi 17884 ming so'mga oshgan. Endi, ikkinchi omilning, o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining pul tushumiga ta'sirini aniqlaymiz:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = (6727 - 5530) \cdot 17242 = +1197 \cdot 17242 = +20639 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 sentner bug'doyning o'rtacha sotish bahosi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 1197 so'mga oshgan bo'lib, u pul tushumining hajmiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada 20639 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

Xulosa: pul tushumi hajmining o'zgarishiga ikki omil ham ijobiy ta'sir qilib, uni 38523 ming so'mga oshishiga olib kelgan, agar sotilgan mahsulot miqdori hisobot yilida bazis yilidagi miqdor darajasida o'zgarimasdan qolganda, pul tushumi keskin ko'paygan bo'lar edi.

Demak, pul tushumining ko'payishiga olib keluvchi asosiy imkoniyat sotiladigan mahsulot miqdorining ko'payishi va sifatining oshishi hisoblanadi. Mahsulot sifatining oshishi o'rtacha sotish bahosining oshishiga sababchi bo'ladi. O'rtacha baho oshgan sayin pul tushumi hajmi ko'payadi.

Pul tushumi hajmining o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlaganga qadar «Shartli pul tushumi» ko'rsatkichi aniqlab olinadi.

«Shartli pul tushumi»ni aniqlash uchun hisobot yilida sotilgan mahsulot miqdorini (q_1) bazis yilidagi 1 sentner mahsulotning (mahsulot birligining) o'rtacha sotish bahosiga (r_0) ko'paytiriladi. Bu ko'rsatkichni mahsulot turlari va barcha mahsulotlar bo'yicha, ya'ni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

- mahsulotlarning har bir turi bo'yicha: $q_1 p_0$;
- jami mahsulotlar bo'yicha: $\Sigma q_1 p_0$.

«Shartli pul tushumi» aniqlangandan keyin bazis va hisobot yillaridagi «pul tushumi» ko'rsatkichlarini «shartli pul tushumi» ko'rsatkichi bilan solishtirish (biridan ikkinchisini ayirish) orqali omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usulining qoidasiga ko'ra aniqlanadi. Pul tushumining o'zgarishiga, yuqorida keltirilgandek, ikki omil ta'sir qiladi.

Pul tushumi hajmining o'zgarishiga sotilgan mahsulot fizik miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «Shartli pul tushumi» hajmidan ($q_1 p_0$) bazis yilida mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi hajmini ($q_0 p_0$) chegirib tashlash kerak:

$$q_1 p_0 - q_0 p_0 = (17242 \cdot 5530) - (14008 \cdot 5530) = 95344 - 77460 = -17884 \text{ ming so'm.}$$

Demak, sotilgan bug'doy miqdorining 3234 sentnerga kamayishi tufayli pul tushumi 17884 ming so'mga kamaygan.

Mahsulotni sotishdan olingan pul tushumi hajmining o'zgarishiga 1 sentner mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi pul tushumi hajmidan shartli pul tushumi hajmini ayirib tashlash kerak.

$$q_1 p_1 - q_1 p_0 = (17242 \cdot 6727) - (17242 \cdot 5530) = 115983 - 95344 = +20639 \text{ ming so'm.}$$

Demak, 1 sentner mahsulotning o'rtacha sotish bahosining 1197 so'mga oshishi natijasida bug'doyni sotishdan olingan pul

daromadi bazis yiliga nisbatan 20639 ming soʻmga koʻpaygan. Yuqoridagi tahlil etish yoʻllarini oʻzlashtirib olgan iqtisodchi tahlilchi pul tushumining tahlilini «Zanjirli bogʻlanish» usuli yordamida quyidagi tahliliy jadval asosida bemaolol tahlil qilib, xulosalar chiqarishi mumkin (24-jadval).

24-jadval

**Bugʻdoyni sotishdan olingan pul tushumi
dynamikasining omilli tahlili**

Koʻrsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi sotilgan mahsulot miqdori va bazis yilidagi 1 sentner mahsulot bahosi boʻyicha	Hiso-bot yili	Oʻzgarish (+,-)	Sh.j. oʻzgarishi	
					Mahsulot miqdori hisobiga	Baho hisobiga
1. Sotilgan bugʻ-doy, sentner	14008	17242	17242	+3234	X	X
2. 1 sentnerning oʻrtacha sotish bahosi, soʻm.	5530	5530	6727	1197	X	X
3. Sof pul tushumi, ming soʻm.	77460	95344	115983	+38523	+17884	+20639

24-jadvaldan koʻrinib turibdiki, bugʻdoyni sotishdan olingan pul tushumi tahlil etilayotgan davrda 38523 ming soʻmga oshgan. Shu jumladan, sotilgan bugʻdoy miqdorining 3234 sentnerga oshishi tufayli pul tushumi hajmi 17884 ming soʻmga oshgan. Oʻrtacha sotish bahosining 1197 soʻmga oshishi natijasida 20639 ming soʻmga oshgan.

Xulosa: ikki omil ham pul tushumi oʻzgarishiga ijobiy taʼsir qilgan, natijada bugʻdoyni sotishdan olingan pul tushumi hajmi 38523 ming soʻmga koʻpaygan. Demak, mahsulot miqdorini koʻpaytirish va uning sifatini oshirish pul tushumini yanada oshirish imkoniyatlari hisoblanadi. Biz pul tushumining tahlilini bugʻdoyni sotishdan olingan pul daromadi misolida koʻrib chiqdik. Boshqa mahsulotlarni (paxta, sut va h.k.) sotishdan olingan pul daromadining tahlili ham bugʻdoyning tahlilidan farq qilmaydi. Shuning uchun bu yerda ularga toʻxtalmadik.


9.2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili

Foyda ishlab chiqarish jarayonida tashkil topadi, ammo u tovarlar sotilgandan keyin aniq namoyon bo‘ladi, yuzaga keladi.

Sotilgan mahsulotlarning har bir turi bo‘yicha yalpi foydani aniqlash uchun sotishdan tushgan sof tushumdan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirib tashlash kerak.

Hisobot yilidagi yalpi foyda hajmini biznes-reja bo‘yicha ko‘zda tutilgan foyda summasiga yoki bazis yilidagi foyda summasiga solishtirib, uning mutlaq va nisbiy o‘zgarishi aniqlanadi. Boshqacha aytganda, hisobot yilidagi foydadan bazis yilidagi yoki rejalashtirilgan foyda summasini ayirib, uning o‘zgarishi (ko‘payganligi yoki kamayganligi) aniqlanadi.

Hisobot yilida mahsulot sotishdan olingan yalpi foydaning bazis yiliga yoki rejaga nisbatan o‘zgarishini (ko‘payishini yoki kamayishini) quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(q_1 p_1 - q_1 z_1) - (q_0 p_0 - q_0 z_0) = \pm \Delta_{q p z}$$


Hisobot yilidagi foyda	Bazis yilidagi foyda	Foyda o‘zgarishi
------------------------	----------------------	------------------

Ushbu formuladan ko‘rinib turibdiki, mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning o‘zgarishi bevosita quyidagi uch omil ta’siri ostida yuzaga keladi:

1. sotilgan mahsulot miqdorining o‘zgarishi;
2. 1 sentner mahsulotning o‘rtacha sotish bahosining o‘zgarishi;
3. 1 sentner mahsulotning o‘rtacha ishlab chiqarish tannarxining o‘zgarishi.

Yalpi foydaning o‘zgarishiga omillarning ta’sirini «Ko‘rsatkichlar farqi» va «Zanjirli bog‘lanish» usullari yordamida aniqladik. Biz quyida keltirilgan yalpi foydaning o‘zgarishiga ushbu omillar-

ning ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi» va «Zanjirli bog'lanish» usullari yordamida aniqlanadi.

Hisobot yilida mahsulotni sotishdan olingan haqiqiy yalpi foydaning bazis yilidagi yalpi foydaga nisbatan o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash tartibi (usuli) hisobot yilidagi haqiqiy yalpi foydaning rejalashtirilgan yalpi foydaga nisbatan o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqlash tartibi (usuli)dan farq qilmaydi. Unisida ham, bunisida ham tavsiya qilingan formulalardan foydalanib tahlil qilinadi.

Shuning uchun bu yerda yalpi foyda dinamikasining omilli tahlili bayon qilindi. Tahlilda «Ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanildi.

Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 25-jadvalda keltirildi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xo'jalik bug'doyni sotishdan hisobot yilida 3757 ming so'm foyda olgan, u o'tgan bazis yilida esa 22413 ming so'm olgan. Demak, hisobot yilidagi foyda 18656 ming so'mga kamaygan.

Ushbu o'zgarish yuqoridagi uch omil hisobiga sodir bo'lgan. Bu omillar ta'sirini «Ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanib aniqlash kerak.

Yalpi foydaning o'zgarishiga sotilgan mahsulot miqdori o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillarida sotilgan mahsulotlar miqdorlari orasidagi farqni bazis yilida 1 sentner mahsulotni sotishdan olingan foyda summasiga ko'paytiriladi, ya'ni quyidagi formuladan foydalanib, aniqlash mumkin:

$$(q_1 - q_0) \cdot (p_0 - z_0) = \pm \Delta_q = (17242 - 14008) \cdot (5530 - 3930) = +3234 \cdot 1600 = +5174 \text{ ming so'm.}$$

Demak, hisobot yilida bazis yiliga nisbatan sotilgan don miqdorining 3234 sentnerga ko'payishi natijasida bug'doyni sotishdan olingan yalpi foyda summasi bazis yiliga nisbatan 5174 ming so'mga ko'paygan. Sotilgan bug'doy miqdorining oshishi foyda o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi. Sotilgan don miqdori bilan olingan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Demak, sotilgan mahsulot miqdori oshsa, olinadigan foyda ham oshadi, kamaysa

**Bug'doyni sotishdan olingan yalpi foydaning
tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar**

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+, -)
1. Sotilgan bug'doy, sentner	14008	17242	+3234
2.1 sentner bug'doy bahosi, so'm	5530	6727	+1197
3.1 sentner bug'doy tannarxi, so'm	3930	6509	+2579
4.1 sentnerni sotishdan olingan foyda, so'm	1600	218	-1382
5. Yalpi foyda, ming so'm	22413	3757	-18656

kamayadi. Bizning misolda sotilgan bug'doy miqdorining oshishi foyda summasini 5174 ming so'mga ko'paytirgan.

Foydaning o'zgarishiga ikkinchi omilning, ya'ni $1 \pm \Delta$ mahsulotning o'rtacha sotish bahosi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun hisobot va bazis yillaridagi o'rtacha sotish baholari orasidagi farqni hisobot yilida sotilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni uni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(p_1 - p_0) \cdot q_1 = \Delta_p$$

Bizning misol bo'yicha: $(6727 - 5530) \cdot 17242 = +1197 \cdot 17242 = +20639$ ming so'm.

Demak, hisobot yilidagi 1 sentner donning o'rtacha sotish bahosining bazis yiliga nisbatan 1197 so'mga oshishi yalpi foyda summasini 20639 ming so'mga ko'paytirgan. O'rtacha sotish bahosining oshishi yalpi foydaning o'zgarishiga har doim ijobiy ta'sir qiladi. Demak, o'rtacha baho bilan foyda hajmi orasida bevosita bog'liqlik mavjud. Bahoning oshishi har doim foydaning oshishiga olib keladi, kamayishi esa kamayishiga sababchi bo'ladi.

Foydaning o'zgarishiga 1 sentner mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun, hisobot va bazis yillaridagi 1 sentner mahsulot tannarxlari orasidagi farqni hisobot yilida

**Bug'doy sotishdan olingan yalpi foyda dinamikasi
o'zgarishining omilli tahlili**

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili	O'zgarishi (+,-)
1.Sotilgan bug'doy	14008	17242	+3234
2.1 sentner bahosi, so'm	5530	6727	+1197
3.1 sentner tannarxi, so'm	3930	6509	+2579
4.1 sentner foydasi, so'm	1600	218	-1382
5. Sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	22413	3757	-18656
5.1. Sotilgan bug'doy miqdorining o'zgarishi hisobiga $(q_1 - q_0) \cdot (p_0 - z_0)$	X	X	+5174
5.2. 1 sentner sotish bahosining o'zgarishi hisobiga $(p_1 - p_0) \cdot q_1$	X	X	+20639
5.3.1 sentner tannarxining o'zgarishi hisobiga $(z_1 - z_0) \cdot q_1$	X	X	-44469

sotilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga ko'paytiriladi, ya'ni uni quyidagi formuladan foydalanib aniqlash mumkin:

$$(z_1 - z_0) \cdot q_1 = \Delta_z$$

Bizning misolda: $(z_1 - z_0) \cdot q_1 = (6509 - 3930) - 17242 = +2579 \cdot 17242 = -44469$ ming so'm.

Demak, 1 sentner bug'doy tannarxi hisobot yilida bazis yiliga nisbatan 2579 so'mga oshgan. Bu esa o'z navbatida yalpi foydaga salbiy ta'sir etib, uni 44469 ming so'mga kamaytirgan.

Sotilgan mahsulot tannarxi bilan foyda o'rtasida bilvosita bog'liqlik mavjud. Tannarx qimmatlashsa foyda kamayadi, aksincha, tannarx arzonlashsa foyda ko'payadi. Bizning misolda 1 sentner bug'doy tannarxining qimmatlashishi (oshishi) umumiy xarajatni oshirib, yalpi foydaning shu summaga kamayishiga sababchi bo'ladi.

Keltirilgan omillar ta'sirining yig'indisi yalpi foydaning umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak. Buni quyida keltirilgan analitik jadvaldan ko'rish mumkin. Ushbu ma'lumotlardan ma'lumki, yalpi foydani ko'paytirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini izlab topish zarur.

9.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahlili

Qishloq xo'jalik iqtisodiy samaradorligining asosiy ko'rsatgichlaridan biri rentabellik hisoblanadi. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa, xarajatlardan va resurslardan foydalanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Rentabellik darajasi qancha yuqori bo'lsa, xo'jalik moliyaviy jihatdan shuncha mustahkam bo'ladi.

Rentabellik hozirgi davrda bir necha turga bo'linib hisobga olinadi va o'rganiladi. Rentabellik turlari to'g'risidagi ma'lumotlar 5-mavzuda to'liq keltirilgan, shuning uchun bu yerda faqat sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahliliga to'xtaldik. Ushbu rentabellik ko'rsatkichi qishloq xo'jalik korxonalarida sarf bo'lgan xarajatlar samaradorligini ifodalaydi, boshqacha aytganda, sotilgan mahsulotlar bo'yicha foydalilik darajasini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahlili taqqoslash orqali darajasi bo'yicha o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini rejadagi yoki o'tgan yildagi rentabellik darajasiga solishtirib o'zgarishi aniqlanadi, so'ngra o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanadi va baho berilib, xulosa qilinadi.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligini (R_m) aniqlash uchun sotishdan olingan yalpi foyda summasini sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga (TN) bo'lish kerak:

$$R_m = \frac{YAF}{TN}.$$

Bu koeffitsiyent 1 so'mlik xarajat hisobiga olingan foyda summasini ifodalaydi.

Hisobot yilidagi rentabellik darajasini bazis yilidagi yoki rejadagi rentabellik ko'rsatkichiga solishtirib, uning o'zgarishi aniqlanadi:

$$\frac{YAF_1}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_0} = \pm \Delta_{TN, YAF}.$$

Rentabellikning ushbu o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

1. sotilgan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi;
2. sotilgan mahsulotlar bo'yicha olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi.

Omillar ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali hisoblanadi. Omillar ta'sirini aniqlashdan oldin «shartli rentabellik koeffitsiyenti» aniqlab olinadi. Buni hisoblash uchun bazis yilidagi yalpi foyda (YAF_0) summasini hisobot yilidagi mahsulot tannarxiga (TN_1) bo'lish kerak:

$$R_{\min} = \frac{YAF_0}{TN_1}.$$

Shundan so'ng rentabellikning o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagi tartib bo'yicha aniqlanadi.

1-omilning, ya'ni «ishlab chiqarish tannarxi» o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli rentabellik koeffitsiyenti»dan rejadagi rentabellik koeffitsiyentini (yoki bazis davridagi rentabellik koeffitsiyentini) chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YAF_1}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_0} = \pm \Delta_{TN}.$$

2-omilning, ya'ni «Yalpi foyda summasi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi rentabellik darajasidan shartli rentabellik darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{YAF_1}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_0} = \pm \Delta_{YAF}.$$

Shu ikki omil ta'sirining yig'indisi sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{TN} \pm \Delta_{YAF} = \Delta_{TN, YAF}.$$

Shundan keyin rentabellik o'zgarishiga baho beriladi va xulosa qilinadi. Endi, xo'jalikning hisobot ma'lumotlari asosida, sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahlilini sotilgan bug'doy misolida ko'rib chiqamiz.

Sotilgan bug'doy rentabelligining tahlili

Ko'rsat- kichlar	Bazis yili	Hisobot yilidagi tannarx va bazis yilidagi yalpi foyda bo'yicha	Hiso- bot yili	O'zga- rishi (+, -)	Sh.j.o'zgarishi	
					Tannarx hisobiga	Foyda hisobiga
1. Sotilgan bug'- doyning ishlab chiqarish tan- narxi, ming so'm	55047	112226	112226	+57179	X	X
2. Sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	22413	22413	3757	-18656	X	X
3. Rentabellik, %	40,7	20,0	3,3	-37,4	-20,7	-16,7

27-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, sotilgan bug'doy bo'yicha rentabellik darajasi hisobot yilida 3,3% ni tashkil qilgan bo'lib, bazis yilidagi rentabellik darajasiga nisbatan u 37,4% ga kamaygan:

$$\frac{YAF_1}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_0} = (3757:112226) - (22413:55047) = 0,033 - 0,407 = -0,374 \text{ yoki } -37,4\%.$$

Ushbu o'zgarishga ikki omil ham salbiy ta'sir qilgan.

Sotilgan bug'doyning ishlab chiqarish tannarxi hajmi hisobot yilida 112226 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, bazis yiliga nisbatan uning summasi 57179 ming so'mga yoki 103,9% ga oshgan (boshqacha aytganda, 2 barobardan ziyodga oshgan), natijada shu omil hisobiga rentabellik darajasi 20,7% ga pasaygan:

$$\frac{YAF_0}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_0} = (22413:112226) - (22413:55047) = 0,200 - 0,407 = -0,207 \text{ yoki } -20,7\%.$$

Bug'doyni sotishdan olingan yalpi foyda summasi hisobot yilida 3757 ming so'mga teng bo'lgan. Bu bazis yilidagi foyda summasiga nisbatan 18656 ming so'mga kamaygan, ya'ni uning hajmi 6 mar-

taga kamaygan, natijada shu omil hisobiga bug‘doy rentabelligi darajasi hisobot yilida 16,7% ga pasaygan:

$$\frac{YAF_1}{TN_1} - \frac{YAF_0}{TN_1} = (3757:112226) - (22413:112226) = 0,033 - 0,020 = 0,013 \text{ yoki } 1,3\%.$$

Ushbu tahliliy hisoblardan ko‘rinib turibdiki, bug‘doy rentabelligining o‘zgarishiga ikki omil ham salbiy ta’sir qilib, rentabellik darajasi 37,4% ga pasayishiga sababchi bo‘lgan.

Demak, rentabellikni oshirish uchun tannarxni kamaytirish va yalpi foydani oshirish imkoniyatlarini aniqlash zarur. Shu nuqtayi nazardan mahsulot bahosining tarkib topishini sifati bilan bog‘lab, ishlab chiqarish tannarxini esa uning tarkibidagi har bir xarajat moddasining o‘zgarishi bilan bog‘lab tahlilini amalga oshirish kerak.

10-MAVZU. SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OBOROTI REJASINING BAJARILISHI VA UNING O‘ZGARISHIGA OMILLAR TA’SIRINING TAHLILI

10.1. Savdo korxonasida tovar oboroti va muomala xarajatlarning tahlili

Savdo korxonalari xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichi tovar oboroti hisoblanadi.

Tovar oboroti deganda nima tushuniladi?

Tovar oboroti deganda hisobot davri davomida sotilgan jami tovarlarning hajmi (qiymati) tushuniladi. Tovar oboroti joriy va taqqoslama baholarda hisoblanadi, ta’riflanadi. Bu ko‘rsatkich savdo korxonasi faoliyatining hajmi to‘grisida umumiy tushunchani beradi.

Savdo korxonasi faoliyatining barcha asosiy ko‘rsatkichlari savdo oboroti hajmi bilan bevosita bog‘liqdir. Savdo oborotining hajmiga bog‘liq bo‘lgan asosiy ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: muomala xarajatlari hajmi va darajasi, yalpi daromad hajmi va darajasi, foyda hajmi, rentabellik darajasi, hamda moliya ahvolini

ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlar darajasi va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar. Tovar oboroti sotish turlari bo'yicha uchga bo'linadi: ulgurji savdo, mayda ulgurji savdo va chakana savdo. Biz chakana savdo faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga to'xtaldik. Ushbu bo'limda chakana tovar oboroti rejasining bajarilishini tahlil qilish yo'llarini keltirdik.

Tahlil chakana tovar oborotining haqiqiy hajmini rejadagi hajmiga qiyoslash orqali o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

Hisobot davridagi tovar oborotining haqiqiy hajmidan reja bo'yicha ko'zda tutilgan hajmini chegirish orqali uning o'zgarishi (ko'paygan yoki kamayganligi) aniqlanadi. Tovar oboroti rejasini bajarilishining tahlilini 28-jadvaldan ko'rish mumkin.

28-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot davrida tovar oborotining haqiqiy hajmi rejadagi hajmiga nisbatan 2200 ming so'mga yoki 0,9 foizga oshgan. Shu jumladan, naqd pulga sotilgan tovarlar oboroti hajmi 2150 ming so'mga yoki 0,9 foizga, kreditga berilgan tovarlar qiymati bo'yicha tovar oboroti 250 ming so'mga yoki 9,1 foizga oshgan, faqat mayda ulgurji savdo bo'yicha sotilgan tovarlar hajmi 200 ming so'mga yoki 10 foizga kamaygan.

Shundan keyin tovar oborotining o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlanib, unga baho beriladi.

Tovar oboroti hajmining o'zgarishi bir necha omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Shunday omillar bo'lib tovar balansi ko'rsat-

28-jadval

Chakana savdo tovar oboroti rejasini bajarilishining taqqoslama tahlili

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejaga nisbatan o'zgarishi (+, -)	
	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Mutlaq summada	Foizda
Jami tovar oboroti, ming so'm	253200	255400	+2200	+0,9
Shu jumladan:				
– naqd pulga sotilgan	248450	250600	+2150	+0,9
– kreditga berilgan tovarlar	2750	3000	+250	+9,1
– mayda ulgurji sotilgan tovarlar	2000	1800	–200	–10,0

kichlari hisoblanadi. Demak, tovar balansi ko'rsatkichlarining o'zgarishi tovar oborotiga bevosita ta'sir qiluvchi omillardir. Bu yerda tovar balansi bilan tovar oboroti bog'likligining tahlilini ko'rib chiqamiz.

Tovar balansi shakli quyidagicha ifodalanadi:

$$T1 + TK = TO + TCH + T2.$$

Bu yerda: T1 – yil boshidagi zaxira tovarlar qoldig'i;

T2 – yil oxiridagi zaxira tovarlar qoldig'i;

TK – tovarlar kirimi;

TO – sotilgan tovarlar (tovar oboroti);

TCH – tovarlarning har xil chiqimi.

Bunda tovar oboroti teng bo'ladi:

$$TS = T1 + TK - TCH - T2.$$

Demak, tovar oboroti hajmining o'zgarishiga 4 ta omil ta'sir qiladi:

1) yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi ($T1_1 - T1_0$);

2) tovar kiriminin o'zgarishi ($TK_1 - TK_0$);

3) har xil tovar chiqim hajmining o'zgarishi ($TCH_1 - TCH_0$);

4) yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldig'ining o'zgarishi ($T2_1 - T2_0$).

Bu yerda: 1-haqiqiy ko'rsatkich;

0 – rejadagi ko'rsatkich.

Ushbu omillarning tovar oboroti hajmining o'zgarishiga ta'siri solishtirish yoki zanjirli bog'lanish usuli yordamida aniqlanadi.

Birinchi navbatda solishtirish usuli orqali aniqladik. Buning uchun har bir omilning haqiqiy ko'rsatkichini rejadagi ko'rsatkichiga solishtirib, ta'sirini aniqladik.

Endi, 29-jadval ma'lumotlari asosida tovar oborotining omilli tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usuli orqali ko'rib chiqamiz. Tovar oborotining rejaga nisbatan umumiy o'zgarishi:

$$(T1_1 + TK_1 - TCH_1 - T2_1) - (T1_0 + TK_0 - TCH_0 - T2_0) = (40100 + 256600 - 2700 - 38600) - (45600 + 255800 - 2000 - 46200) = 255400 - 253200 = +2200 \text{ ming so'm.}$$

Shu jumladan omillar ta'siri:

**Tovar oboroti rejasining bajarilishini tovar
balansi asosida tahlil qilish**

Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi, (+,-)	Tovar oborotiga omillarning ta'siri	
				So'm hisobida	Foiz hisobida
Yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'i	45600	40100	-5500	-5500	-2,2
Hisobot davridagi tovarlar kirimi	255800	256600	+800	+800	+0,3
Har xil tovar chiqimi	2000	2700	+700	-700	-0,3
Yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldig'i	46200	38600	-7600	+7600	+3,0
Sotilgan tovarlar qiymati (oboroti)	253200	255400	+2200	+2200	+0,8

1-omil, yil boshidagi tovar zaxiralari qoldig'ining rejaga nisbatan o'zgarishining ta'siri:

$$(T1_1 + TK_0 - TCH_0 - T2_0) - (T1_0 + TK_0 - TCH_0 - T2_0) = \\ = (40100 + 255800 - 2000 - 46200) - (45600 + 255800 - 2000 - 46200) = 247700 - 253200 = -5500 \text{ ming so'm.}$$

Demak, yil boshidagi tovar zaxiralari haqiqiy qoldig'i rejaga nisbatan 5500 ming so'mga kam bo'lganligi uchun tovar oboroti summasiga salbiy ta'sir qilib, uning hajmini shu summaga (ya'ni 5500 ming so'mga) kamaytirgan.

2-omil tovarlar kirimi hajmining rejaga nisbatan o'zgarishining ta'siri:

$$(T1_1 + TK_1 - TCH_0 - T2_0) - (T1_1 + TK_0 - TCH_0 - T2_0) = (40100 + \\ + 256600 - 2000 - 46200) - (40100 + 255800 - 2000 - 46200) = \\ = 248500 - 247700 = +800 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovarlarning kirimi bo'yicha hajmi rejaga nisbatan 800 ming so'mga oshganligi tovar oboroti hajmiga ijobiy ta'sir qilib, uning hajmining 800 ming so'mga oshishiga olib kelgan.

3-omil har xil tovar chiqimlari hajmining o'zgarishining ta'siri:

$$(T1_1 + TK_1 - TCH_1 - T2_0) - (T1_1 + TK_1 - TCH_0 - T2_0) = (40100 + \\ + 256600 - 2700 - 46200) - (40100 + 255600 - 2000 - 46200) = \\ = 247800 - 248500 = -700 \text{ ming so'm.}$$

Demak, har xil tovar chiqimlarining rejaga nisbatan 700 ming soʻmga oshishi, tovar oborotiga salbiy taʼsir qilgan, natijada shu omil hisobiga tovar oboroti hajmi 700 ming soʻmga kamaygan.

4-omil. Yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldigʻi oʻzgarishining taʼsiri:

$$(T_{1_1} + TK_{1_1} - TCH_{1_1} - T2_{1_1}) - (T_{1_1} + TK_{1_1} - TCH_{1_1} - T2_{0_1}) = (40100 + 256600 - 2700 - 38600) - (40100 + 256600 - 2700 - 46200) = 255400 - 247800 = + 7600 \text{ ming soʻm.}$$

Demak, yil oxiridagi tovar zaxiralari qoldigʻining rejaga nisbatan 7600 ming soʻmga kamayishi tovarlarning ortiqcha sotilganligini bildiradi. Shuning uchun uning kamayishi tovar oborotiga ijobiy taʼsir qilgan, natijada shu omil hisobiga uning hajmi 7600 ming soʻmga oshgan. Xullas, tovar oboroti rejasining bajarilishiga ikki omil ijobiy, ikki omil salbiy taʼsir qilgan, natijada uning hajmi 2200 ming soʻmga yoki 0,9 foizga oshgan.

10.2. Tovar oborot hajmining oʻzgarishiga taʼsir koʻrsatuvchi mehnat omillari taʼsirining tahlili

Mehnat resurslari bilan yetarli darajada taʼminlanish va ulardan samarali foydalanish tovar oborot hajmining oʻsishiga ijobiy taʼsir qiladi. Tovar oborot hajmining oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi mehnat omillari quyidagilar hisoblanadi:

- savdo xodimlarining oʻrtacha yillik sonining oʻzgarishi; oʻrtacha bir savdo xodimi tomonidan bir yilda ishlagan kunlari sonining oʻzgarishi;
- oʻrtacha ish kuni davomiyligining oʻzgarishi;
- bir xodimning oʻrtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasining oʻzgarishi (xodimning oʻrtacha bir soatiga toʻgʻri keladigan tovar oboroti hajmining oʻzgarishi).

Ushbu omillarning taʼsiri koʻrsatkichlar farqi va zanjirli bogʻlanish usullarini qoʻllash orqali aniqlanadi. Biz «Zanjirli bogʻlanish» usulidan foydalanib, tahlilni amalga oshirdik. Yuqoridagi omillar koʻpaytmalarining yigʻindisi har doim tovar oboroti hajmiga teng boʻlishi kerak:

$$TO = T \cdot K \cdot D \cdot M.$$

Bu yerda: T – xodimlarning oʻrtacha yillik soni;
 K – oʻrtacha 1 savdo xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni;

D – ish kunining oʻrtacha davomiyligi (soat hisobida);

M – oʻrtacha 1 xodimning 1 soatlik mehnat unumdorligi.

Tovar oborotining oʻzgarishiga omillarning taʼsirini hisoblashdan oldin quyidagi bogʻlanish koʻrsatkichlarini aniqlab olish kerak:

I $TO_0 = T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0$ – bazis yilidagi yoki rejadagi tovar oboroti;

II $TO_{sh1} = T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0$ – 1-shartli tovar oboroti;

III $TO_{sh2} = T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0$ – 2-shartli tovar oboroti;

IV $TO_{sh3} = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0$ – 3-shartli tovar oboroti;

V $TO_1 = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1$ – hisobot yilidagi haqiqiy tovar oboroti.

Ushbu koʻrsatkichlarni oʻzaro ketma-ketlikda qiyoslash orqali tovar oboroti oʻzgarishi va unga taʼsir qiluvchi omillarning taʼsir doirasi aniqlanadi.

Tovar oboroti hajmining oʻzgarishi:

$$V - I = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1 - T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta_{TKDM}.$$

Tovar oboroti oʻzgarishiga omillar taʼsirini aniqlash:

1-omil. «Xodimlar oʻrtacha yillik soni oʻzgarishi»ning taʼsiri:

$$II - I = T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 - T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta_T.$$

2-omil. «Oʻrtacha bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni oʻzgarishi»ning taʼsiri:

$$III - II = T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0 - T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta_K.$$

3-omil. «Oʻrtacha ish kuni davomiyligining oʻzgarishi»ning taʼsiri:

$$IV - III = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0 - T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0 = \pm \Delta_D.$$

4-omil. «Bir xodimning oʻrtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasi» oʻzgarishining taʼsiri:

$$V - IV = T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1 - T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0 = \pm \Delta_M.$$

Toʻrt omil taʼsirlarining yigʻindisi tovar oboroti hajmining oʻzgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_T = \Delta K + \Delta D + \Delta M = \Delta_{TKDM}.$$

Quyidagi jadvalda keltirilgan maʼlumotlardan foydalanib, tovar oborotning oʻzgarishiga mehnat omillari taʼsirining tahlilini koʻrib chiqamiz.

Tovar oborotining tahlili uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	O'zgarishi (+, -)
1. Tovar oboroti hajmi, ming so'm	253200	255400	+2200
2. Savdo xodimlarining o'rtacha soni, kishi	500	490	-10
3. Savdo xodimlarining ishlagan jami kishi kunlari, ming k/k hisobida	160	151,9	-8,1
4. O'rtacha bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni	320	310	-10
5. Savdo xodimlarining ishlagan jami kishi-soatlari, ming k/s hisobida	1760	1822,8	+62,8
6. O'rtacha ish kunining davomiyligi, soat hisobida	11,0	12,0	+1,0
7. Bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi (so'm)	143,9	140,1	-3,8

Hisobot yilida tovar oborot hajmi rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan, bu uch omilning salbiy va 1 omilning ijobiy ta'siri ostida yuzaga kelgan.

Savdo xodimlari soni rejaga nisbatan 10 kishiga kamaygan, natijada shu omil hisobiga tovar oboroti 5002 ming so'mga kamaygan:

$$(T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) - (T_0 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) - (500 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 248198 - 253200 = -5002 \text{ ming so'm.}$$

Bir xodimning bir yilda ishlagan kunlari soni rejaga nisbatan 10 kunga qisqargan, natijada shu omil hisobiga tovar oboroti 7756 ming so'mga kamaygan.

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0) - (T_1 \cdot K_0 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) - (490 \cdot 320 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 240442 - 248198 = -7756 \text{ ming so'm.}$$

O'rtacha ish kunining davomiyligi hisobot yilida rejaga nisbatan 1 soatga cho'zilgan (oshgan), natijada shu omil hisobiga tovar oboroti 21858 ming so'mga ko'paygan.

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0) - (T_1 \cdot K_1 \cdot D_0 \cdot M_0) = (490 \cdot 310 \cdot 12 \cdot 0,1439) - (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 262300 - 240442 = +21858 \text{ ming so'm.}$$

Bir xodimning o'rtacha soatlik mehnat unumdorligi darajasi (1 soatdagi savdo oborotining hajmi) hisobot yilida rejaga nisbatan pasaygan, ya'ni bir soatda sotgan tovarlar hajmi 3,8 so'mga kamaygan, natijada shu omil hisobiga tovar oborot hajmi 6900 ming so'mga kamaygan.

$$(T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_1) - (T_1 \cdot K_1 \cdot D_1 \cdot M_0) = (490 \cdot 310 \cdot 12 \cdot 0,1401) - (490 \cdot 310 \cdot 11 \cdot 0,1439) = 255400 - 262300 = -6900 \text{ ming so'm.}$$

Ushbu tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tovar oborotining o'zgarishiga 3 omil salbiy, bir omil ijobiy ta'sir qilgan. Ijobiy ta'sir qilgan omilning ta'sir doirasi hajmi qolgan uch omil ta'sirining yig'indisiga nisbatan ko'p bo'lganligi uchun ham tovar oboroti rejaga nisbatan 2200 ming so'mga oshgan.

Omillar ta'sirini quyidagi umumlashgan holatdan ko'rish mumkin:

- savdo xodimlari soni o'zgarishining ta'siri (salbiy) – 5002 ming so'm;
- ishlagan kunlar soni o'zgarishining ta'siri (salbiy) – 7756;
- o'rtacha ish kuni davomiyligi o'zgarishining ta'siri (ijobiy) +21854;
- soatlik mehnat unumdorligi o'zgarishining ta'siri (salbiy)– 6900 tovar oborotining o'zgarishi +2200.

Ushbu ko'rsatkichlardan ma'lumki, tovar oborot hajmini oshirish imkoniyatlaridan korxona yetarli foydalanmagan. Tovar oborot hajmini oshirish uchun rejalashtirilgan ish kunlari sonining kamayishi va mehnat unumdorligining pasayishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish, mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarur.

10.3. Muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishini tahlil qilish

Muomala xarajatlarining tahlili hisobot davridagi haqiqiy ko'rsatkichlarini rejadagi yoki bazis davridagi ko'rsatkichlariga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Tahlilda, avvalo, muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishi, so'ngra xarajat moddolari bo'yicha o'zgarish o'rganiladi.

Tahlil jarayonida hisobot yilidagi muomala xarajatlarining haqiqiy hajmini (MX_1) rejadagi hajmiga yoki o'tgan yildagi hajmiga (MX_0) solishtirib, umumiy o'zgarishi aniqlanadi:

$$MX_1 - MX_0 = \pm\Delta. \quad (1)$$

So'ngra ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, baho beriladi. Muomala xarajatlari summasining o'zgarishiga ko'p omillar ta'sir qiladi, lekin ular tahlil nuqtayi nazaridan umumlashtirib quyidagi ikki omilda ifoda etiladi:

- 1) tovar oboroti hajmining o'zgarishi;
- 2) muomala xarajatlari o'rtacha darajasining o'zgarishi.

Ushbu ikki omil ko'paytmalarining yig'indisi muomala xarajatlari hajmiga teng bo'ladi:

$$TO \cdot MXD = MX. \quad (2)$$

Bunda: TO – tovar oboroti hajmi;

MXD – muomala xarajatlar darajasi.

Muomala xarajatlari darajasi (MXD) ushbu formulada koeffitsiyent tariqasida ifodalandi. Ushbu yondashish muomala xarajatlari hajmini aniqlashda ham, uning o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlashda ham qulaylik tug'diradi. O'zgarishga baho berishda, xulosa qilishda foiz orqali tavsiflanadi.

Omillarning muomala xarajatlari hajmi (summasi)ning o'zgarishiga ta'siri «Ko'rsatkichlar farqi» usulidani foydalanib aniqlanadi. Ushbu formuladan (2) foydalanib, muomala xarajatlari hajmining o'zgarishini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu yerda uning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar aniq ko'rinib turadi. Birinchi formula ($MX_1 - MX_0 = \pm\Delta$)da omillar ko'rinmaydi. Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$(TO_1 \cdot MXD_1) - (TO_0 \cdot MXD_0) = \pm\Delta_{TO, MXD}.$$

Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishiga omillarning ta'siri quyidagi tartibda aniqlanadi:

1-omil. «Tovar oboroti hajmi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy tovar oboroti hajmi (TO_1) bilan rejadagi yoki o'tgan yildagi tovar oboroti hajmi (TO_0) orasidagi farqni ($TO_1 - TO_0$) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) muomala xarajatlarining o'rtacha darajasi (MXD_0)ga ko'paytirish kerak:

$$(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0 = \pm\Delta_{to}.$$

2-omil. «Muomala xarajatlari oʻrtacha darajasi» oʻzgarishining taʼsirini aniqlash uchun hisobot yilidagi haqiqiy muomala xarajatlari darajasi (MXD_1) bilan rejadagi yoki oʻtgan yildagi muomala xarajatlari darajasi (MXD_0) orasidagi farq ($MXD_1 - MXD_0$)ni hisobot yilidagi haqiqiy tovar oboroti summasiga (TO_1) koʻpaytirish kerak:

$$(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1 = \pm \Delta_{MXD}$$

Shu ikki omil taʼsirining yigʻindisi muomala xarajatlari summasining umumiy oʻzgarishiga teng kelishi kerak.

$$\Delta_{TO} \pm \Delta_{MXD} = \Delta_{TO, MXD}$$

Endi, yuqoridagi usul asosida muomala xarajatlari hajmining rejaga nisbatan oʻzgarishining tahlilini 31-jadval maʼlumotlaridan foydalanib, amalga oshiramiz.

31-jadval

Muomala xarajatlari umumiy hajmi rejasining bajarilishini tahlil

Koʻrsatkichlar	Reja boʻyicha	Haqiqatda	Oʻzgarishi (+, -)
1. Tovar oboroti, ming soʻm	253200	255400	+2200
2. Muomala xarajatlari darajasi, koeffitsiyent hisobida	0,185	0,189	+0,004
3. Muomala xarajatlari summasi, mln soʻm. Shu jumladan oʻzgarishga omillarning taʼsiri:	46844	48271	+1427
1. tovar oboroti hajmi oʻzgarishining taʼsiri ($(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0$)	X	X	+407
2. muomala xarajatlari darajasi oʻzgarishining taʼsiri ($(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1$)	X	X	+1020

31-jadvaldan maʼlumki, muomala xarajatlarining haqiqiy summasi rejalashtirilgan summasiga nisbatan 1427 ming soʻmga oshgan:

$$(TO_1 \cdot MXD_1) - (TO_0 \cdot MXD_0) = (255400 \cdot 0,189) - (253200 / 0,185) = 48271 - 46844 = +1427 \text{ ming soʻm.}$$

Muomala xarajatlari hajmining oshishiga ikki omil ham sababchi boʻlgan. Tovar oboroti hajmining rejaga nisbatan 2200 ming soʻmga oshishi muomala xarajatlari summasining 407 ming soʻmga koʻpayishiga sababchi boʻlgan:

$$(TO_1 - TO_0) \cdot MXD_0 = (255400 - 253200) \cdot 0,185 = +2200 / 0,185 = +407 \text{ ming so'm.}$$

Haqiqiy muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 0,4 foizga (yoki 0,004 koeffitsiyentga) oshgan, natijada muomala xarajatlari hajmiga salbiy ta'sir qilib, ularning hajmi 1020 ming so'mga oshishiga sababchi bo'lgan:

$$(MXD_1 - MXD_0) \cdot TO_1 = (0,189 - 0,185) \cdot 255400 = +0,004 \cdot 255400 = +1020 \text{ ming so'm.}$$

Ikki omil ta'sirlarining yig'indisi muomala xarajatlari hajmining o'zgarishiga teng keladi:

1) tovar oboroti hajmining o'zgarishini ta'siri +407 ming so'm;

2) muomala xarajatlari darajasining o'zgarishini ta'siri +1020 ming so'm.

Muomala xarajatlari hajmining o'zgarishi +1427 ming so'm.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, muomala xarajatlari summasini kamaytirishning asosiy rezervi ularning darajasini kamaytirish hisoblanadi. Shuning uchun muomala xarajatlari tarkibini xarajat moddalari bo'yicha tahlil qilish zarur.

Muomala xarajatlari darajasining tahlilini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlil quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi.

Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishini aniqlash:

$$\frac{MX_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta TO, MX.$$

Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishiga tovarlar oboroti hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun «shartli muomala xarajatlari darajasidan rejadagi muomala xarajatlari darajasi»ni chegirib tashlash.

$$\frac{MX_0 \cdot 100}{TO_1} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm TO.$$

Muomala xarajatlari darajasining o'zgarishiga muomala xarajatlari hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun haqiqiy muomala xarajatlari darajasidan shartli muomala xarajatlari darajasini chegirib tashlash kerak:

$$\frac{MX_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{MX_0 \cdot 100}{TO_1} = \pm MX.$$

Ikki omil ta'sirlarining yig'indisi muomala xarajatlari darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_{TO} \pm \Delta_{MX} = \Delta_{TO, MX}.$$

Shundan keyin omillar ta'sirlariga baho berib, xulosa qilinadi.

Muomala xarajatlarning umumiy hajmi va darajasining tahlilidan keyin ularning xarajat moddalarining tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

11-MAVZU. SAVDO KORXONASINING MOLIVAVIY HOLATINING TAHLILI

11.1. Savdo korxonasi yalpi daromadi rejasining bajarilishini tahlil qilish

Tovarlarni sotish natijasida olingan savdo chegirmalarining yig'indisi savdo korxonasining yalpi daromadi hisoblanadi. Yalpi daromad mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi.

Yalpi daromadning nisbiy ko'rsatkichi uning darajasini koeffitsiyentda yoki foizda ifodalaydi. Yalpi daromad tovar oborotiga nisbatan hisoblanadi.

Yalpi daromad hajmining tahlili uning mutlaq o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi yalpi daromadning haqiqiy summasini (YAD) rejadagi (yoki o'tgan yildagi) summasiga (YAD) solishtirib mutlaq o'zgarishi (ko'paygan yoki kamaygan summasi aniqlanadi).

Buni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$YAD_1 - YAD_0 = \pm \Delta; \quad (1)$$

$$\frac{TO_1 \cdot YADD_1}{100} - \frac{TO_0 \cdot YADD_0}{100} = \pm \Delta_{TO, YADD}. \quad (2)$$

Bu yerda: TO_1 , TO_0 – mos holda hisobot va bazis yilidagi (yoki haqiqiy va rejadagi) tovar oboroti;

$YADD_1$, $YADD_0$ – mos holda hisobot va bazis yilidagi (yoki haqiqiy va rejadagi) yalpi daromad darajasi.

Yalpi daromad hajmining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi
Bular quyidagilar:

- 1) tovar oboroti hajmining o'zgarishi;
- 2) yalpi daromad darajasining o'zgarishi.

Ushbu omillarning ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulini qo'llash orqali aniqlash qulayroq bo'ladi. Biz bu bo'limda yalpi daromad rejasining bajarilishining omilli tahliliga to'xtadik.

Omillar ta'sirini aniqlaganga qadar uchta bog'lanishning ko'rsatkichi aniqlanadi.

$$1. YAD_0 = \frac{TO_0 \cdot YADD_0}{100} - \text{rejadagi yalpi daromad summasi.}$$

$$2. YAD_{SH} = \frac{TO_1 \cdot YADD_0}{100} - \text{shartli yalpi daromad summasi.}$$

$$3. YAD_1 = \frac{TO_1 \cdot YADD_1}{100} - \text{hisobot yilidagi yalpi daromad summasi.}$$

Shundan keyin omillarning yalpi daromad summasini o'zgarishiga ta'siri aniqlanadi.

1. Omil. «Tovar oboroti hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlash uchun shartli yalpi daromad summasi» (2-bog'lanish)dan rejadagi yalpi daromad summasi (1-bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$YADD_{SH} - YAD_0 = \frac{TO_1 \cdot YADD_0}{100} - \frac{TO_0 \cdot YADD_0}{100} = \pm \Delta_{TO}.$$

Tovar oboroti hajmi rejaga nisbatan oshsa, yalpi daromad hajmiga ijobiy ta'sir qiladi, natijada uning hajmini oshiradi.

2-omil. «Yalpi daromad darajasi o'zgarishi»ning ta'sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi yalpi daromadning haqiqiy hajmi (3-bog'lanish)dan shartli yalpi daromad hajmi (2-bog'lanish)ni chegirib tashlash kerak:

$$YAD_1 - YAD_{SH} = \frac{TO_1 \cdot YADD_1}{100} - \frac{TO_1 \cdot YADD_0}{100} = \pm_{YADD.}$$

Ushbu ikki omil ta'sirlarining yig'indisi yalpi daromad hajmi-ning umumiy o'zgarishiga teng kelishi shart: $\Delta_{TO} \Delta_{YADD} = \Delta_{TO, YADD}$.

Endi, yalpi daromad hajmi o'zgarishining omilli tahlilini yuqoridagi «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib ko'rib chiqamiz.

32-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yalpi daromad hajmi rejadagi hajmiga nisbatan 4315 ming so'mga yoki 7,7% ga oshgan:

$$\frac{TO_1 \cdot YADD_1}{100} - \frac{TO_0 \cdot YADD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 23,5}{100} - \frac{253200 \cdot 22,0}{100} =$$

$$= 60019 - 55704 = +4315 \text{ ming so'm.}$$

Demak, tovar oboroti hajmining oshishi va yalpi daromad darajasining yuqori bo'lishi natijasida yalpi daromad summasi rejaga nisbatan 4315 ming ko'paygan. Ikki omil ham ushbu o'zgarishga ijobiy ta'sir qilgan. Tovar oboroti hajmi rejaga nisbatan

32-jadval

**Savdo korxonasining yalpi daromadi hajmining
qiyoslama tahlili**

Ko'rsat- kichlar nomi	Reja bo'yicha	Haqiqiy tovar oboroti va rejadagi yalpi daromad darajasi	Haqi- qatda	O'zga- rishi (+, -)	Shu jumladan o'zgarishi	
					Tovar oboroti- ning o'zgarishi hisobiga	Yalpi daromad daraja- sining o'zgarishi hisobiga
Tovar oboroti, ming so'm	253200	255400	2554- 00	+2200	x	x
O'rtachayalpi daromad dara- jasi, %	22,0	22,0	23,5	+1,5	x	x
Yalpi daromad hajmi, ming so'm	55704	56188	60019	+4315	+484	+3831

2200 ming soʻmga oshgan, natijada tovarlarni sotishdan olingan yalpi daromad summasi shu omil hisobiga 484 ming soʻmga koʻpaygan:

$$\frac{TO_1 \cdot YADD_0}{100} - \frac{TO_0 \cdot YADD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 22,0}{100} - \frac{253200 \cdot 22,0}{100} =$$

56188 – 55704 = +484 ming soʻm yalpi daromad darajasi rejaga nisbatan 1,5% yuqori boʻlgan natijada shu omil hisobiga yalpi daromad summasi 3831 ming soʻmga koʻpaygan:

$$\frac{TO_1 \cdot YADD_1}{100} - \frac{TO_1 \cdot YADD_0}{100} = \frac{255400 \cdot 23,5}{100} - \frac{255400 \cdot 22,0}{100} =$$

$$= 60019 - 56188 = +3831 \text{ ming soʻm.}$$

Ushbu omillar taʼsirining yigʻindisi yalpi daromad hajmining oʻzgarishiga teng kelishi kerak:

1. Tovar oboroti hajmi oʻzgarishining taʼsiri (ijobiy) +484 ming soʻm.

2. Yalpi daromad oʻrtacha darajasi oʻzgarishining taʼsiri (ijobiy) 3831 ming soʻm.

Yalpi daromad hajmining oshishi tovarlarni sotishdan olingan foydaning koʻpayishiga sababchi boʻluvchi asosiy omillardan biridir. Demak, yalpi daromad hajmining oshishi xoʻjalik moliyaviy faoliyatining mustahkamlanishida maʼlum darajada ijobiy rol oʻynaydi.

11.2. Savdo korxonasi foydasi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish

Savdo korxonasining foydasi yalpi daromad summasi bilan muomala xarajatlari summasi orasidagi farqqa teng boʻladi. Yalpi daromad summasini (YAD) aniqlash uchun tovar oboroti hajmini (TO) yalpi daromadning oʻrtacha darajasiga (YADD) koʻpaytirish kerak: $YAD = TO \cdot YADD$.

Muomala xarajatdan summasini (MX) aniqlash uchun tovar oboroti hajmini (TO) muomala xarajatlari darajasiga (MXD) koʻpaytirish kerak:

$$MX=TO \cdot MXD. \quad (1)$$

Savdo faoliyati foydasi hajmi teng bo'ladi:

$$F=YAD-MX(1); F=(TO \cdot YADD)-(TO \cdot MXD); \quad (2)$$

$$F=TO \cdot (YADD-MXD). \quad (3)$$

Tahlil nuqtayi nazaridan 3-formuladan foydalanish maqsadga muvofiq, chunki bu yerda foydaga ta'sir qiluvchi omillar aniq ko'rinib turadi.

Demak, foydaga quyidagi uch omil ta'sir qiladi:

- tovar oborot hajmining o'zgarishi;
- yalpi daromad o'rtacha darajasining o'zgarishi;
- muomala xarajati o'rtacha darajasining o'zgarishi.

Foyda summasining o'zgarishiga omillar ta'siri «Ko'rsatkichlar farqi» usulidan foydalanish orqali hisoblanadi.

Haqiqiy foyda summasining rejadagi summasiga nisbatan o'zgarishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{TO_1 \cdot (YADD_1 - MXD_1)}{100} - \frac{TO_0 (YADD_0 - MXD_0)}{100} = \pm, TO, YADD, MHD.$$

Bu yerda: TO_1 , TO_0 – mos holda haqiqiy va rejadagi tovar oboroti hajmi.

$YADD_1$, $YADD_0$ – mos holda haqiqiy va rejadagi yalpi daromad, foizda MHD_1 , MHD_0 – mos holda haqiqiy va rejadagi muomala xarajatlari darajasi, foizda. Shundan so'ng muomala xarajatlari o'zgarishiga omillar ta'siri aniqlanadi.

Tovar oboroti hajmi o'zgarishining foyda hajmining o'zgarishiga ta'sirini hisoblash uchun haqiqiy tovar oboroti bilan rejadagi (o'tgan yildagi tovar oboroti (TO_0) orasidagi farq ($TO_1 - TO_0$))ni rejadagi foyda (rentabellik) darajasiga ko'paytirib, 100% ga bo'lishi kerak:

$$\frac{(TO_1 - TO_0) \cdot (YADD_0 - MXD_0)}{100\%} = \pm \Delta \text{ to}$$

tovar oboroti hajmi oshsa, foyda summasi ham oshadi, kamaysa foyda ham kamayadi.

Yalpi daromad o'rtacha darajasi ($YADD$) o'zgarishining foyda hajmining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun yalpi daromadning haqiqiy o'rtacha darajasi ($YADD_1$) bilan rejadagi o'rtacha darajasi

(YADD₀) orasidagi farq (YADD₁–YADD₀)ni hisobot yilidagi haqiqiy tovar oboroti hajmi (TO₁)ga ko‘paytirib, 100% ga bo‘lish kerak:

$$\frac{(YADD_1 - YADD_0) \cdot TO_1}{100\%} = \pm \Delta YADD.$$

Yalpi daromadning haqiqiy darajasi rejadagi darajasiga nisbatan oshsa, foyda hajmining o‘zgarishiga ijobiy ta’sir qiladi, natijada uning ko‘payishiga sababchi bo‘ladi. Muomala xarajatlari o‘rtacha darajasi (MHD) o‘zgarishining foyda hajmi o‘zgarishiga ta’sirini hisoblash uchun hisobot yilidagi haqiqiy muomala xarajatlarining o‘rtacha darajasi (MHD₁) bilan rejadagi o‘rtacha darajasi (MHD₀) orasidagi farq (MHD₁–MHD₀)ni hisobot yilidagi tovar oborotining haqiqiy hajmi (TO₁)ga ko‘paytirib, 100% ga bo‘lish kerak:

$$\frac{(MHD_1 - MHD_0) \cdot TO_1}{100\%} = \pm \Delta MXD.$$

Muomala xarajatlari darajasi rejaga nisbatan yuqori bo‘lsa, foyda summasining o‘zgarishiga salbiy ta’sir qiladi, natijada uning kamayishiga sababchi bo‘ladi, aksincha bo‘lsa, foyda summasi oshib, xo‘jalik moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi. Ushbu omillar ta’sirining yig‘indisi savdo faoliyati foydasining umumiy o‘zgari-shiga teng kelishi shart:

$$\Delta TO \pm \Delta YADD \pm \Delta MHD = \Delta TO, YADD, MXD.$$

Endi yuqorida qayd qilingan qoidalar asosida savdo foydasi rejasining bajarilishi tahlilini quyidagi 33-jadval ma’lumotlaridan foydalanib amalga oshirish mumkin.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tovarlarni sotishdan olingan foyda rejada ko‘zda tutilgan foydaga nisbatan 2888 ming so‘mga yoki 32,6% ga ko‘paygan:

$$\begin{aligned} & \frac{TO_1(YADD_1 - MHD_1)}{100\%} - \frac{TO_0 \cdot (YADD_0 - MHD_0)}{100\%} = \frac{255400 \cdot (23,5 - 18,9)}{100\%} - \\ & - \frac{253200 \cdot (22,0 - 18,5)}{100\%} = \frac{255400 \cdot 4,6}{100\%} - \frac{253200 \cdot 3,5}{100\%} = 1178 - 8860 = +2888 \text{ ming so‘m.} \end{aligned}$$

Bu o‘zgarish ikki omilning ijobiy, bir omilning salbiy ta’siri ostida yuzaga kelgan. Tovar oboroti hajmi rejaga nisbatan 2200

Foyda va unga ta'sir qiluvchi omillarning qiyoslama tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqi- qatda	Farqi (-, +)	Rejaning bajarilishi %
1.	Tovar oboroti hajmi, ming so'm	253200	255400	+2200	100,9
2.	Yalpi daromad, ming so'm	55704	60019	+4315	107,7
3.	Muomala xarajatlari, ming so'm	46844	48271	+1427	103,0
4.	Foyda ming so'm	8860	11748	+2888	132,6
5.	O'rtacha yalpi daromad darajasi %	22,0	23,5	+1,5	106,8
6.	O'rtacha muomalaxarajatlari darajasi % ga	18,5	18,9	+0,4	102,2
7.	O'rtacha foyda darajasi % ga	3,5	4,6	+1,1	131,4

ming so'mga oshgan, natijada shu omil hisobiga foyda summasi 77 ming so'mga kamaygan.

$$\frac{(TO - TO_0) \cdot (YADD - MHD)}{100\%} = \frac{(255400 - 253200) \cdot (22,0 - 18,5)}{100\%} =$$

$$= \frac{+2200 \cdot 3,5}{100} = +77 \text{ ming so'm.}$$

Yalpi daromadni o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 1,5% ga oshgan. Bu esa o'z navbatida foyda hajmining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qilgan, natijada foyda summasi 3831 ming so'mga ko'paygan:

$$\frac{(YADD_1 - YADD_0) \cdot TO_1}{100\%} = \frac{(23,5 - 22,0) \cdot 255400}{100\%} = \frac{+1,5 \cdot 255400}{100\%} =$$

$$= \frac{383100}{100} = +3831 \text{ ming so'm.}$$

Muomala xarajatlarning o'rtacha darajasi rejaga nisbatan 0,4% ga oshgan. Bu esa foyda hajmining o'zgarishiga salbiy ta'sir qilgan, natijada foyda summasi shu omil hisobiga 1020 ming so'mga kamaygan:

$$\frac{(MHD_1 - MHD_0) \cdot TO_1}{100\%} = \frac{(18,9 - 18,5) \cdot 255400}{100\%} = \frac{+0,4 \cdot 255400}{100\%} =$$

$$= -1020,0 \text{ ming so'm.}$$

Demak, xarajatlar 1020,0 ming soʻmga oshgan, natijada shu summaga foyda hajmi kamaygan, shuning uchun natija minus alomati bilan ifodalangan. Ushbu omillar taʼsirining yigʻindisi foydaning umumiy oʻzgarishiga teng kelishi kerak:

1) tovar oboroti hajmi oʻzgarishining taʼsiri (ijobiy) +77 ming soʻm;

2) yalpi daromad darajasi oʻzgarishini taʼsiri +3831 ming soʻm;

3) muomala xarajatlar darajasi oʻzgarishining taʼsiri -1020 ming soʻm.

Foyda summasining oʻzgarishi 2888 ming soʻm.

Ushbu maʼlumotlar shuni koʻrsatib turibdiki, savdo faoliyati foydasini oshirish uchun muomala xarajatlar darajasining keskin pasaytirish va tovar oboroti hajmini oshirish imkoniyatlaridan foydalanish choralari koʻrish zarur.

11.3. Sotilgan tovar rentabelligini tahlil qilish

Rentabellik — savdo korxonasi faoliyatining samaradorligini ifodolovchi asosiy koʻrsatkichdir. Rentabellik resurslardan foydalanish darajasini ifodolovchi koʻrsatkich hisoblanadi.

Rentabellik darajasi qancha yuqori boʻlsa, korxona moliyaviy jihatdan shuncha mustahkam boʻladi, xodimlarning moddiy manfaatdorligi oshadi, oqibatda xoʻjalik faoliyati mustahkamlanadi. Shuning uchun rentabellik ahvolini oʻrganish va uni oshirish imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyatga ega.

Sotilgan mahsulotlar rentabelligi darajasi tovarlarni sotishdan olingan foydani (F) 100% ga koʻpaytirib, natijasini tovar oboroti hajmiga boʻlish orqali aniqlandi:

$$Kp = \frac{F \cdot 100\%}{TO}.$$

Ushbu koʻrsatkich 1 soʻmlik tovar oboroti hajmiga toʻgʻri keladigan foyda summasini ifodalaydi. Buning oshishi foydaning oshganligini koʻrsatadi.

Rentabellik darajasining tahlili hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik darajasini rejadagi rentabellik darajasiga yoki oʻtgan yildagi

rentabellik darajasiga solishtirib, o'zgarishini aniqlashdan boshlanadi.

$$KR_1 - KP_0 = \frac{F_1 \cdot 100}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100}{TO_0} = \pm \Delta to_1.$$

Ushbu formuladan ko'rinib turibdiki, sotilgan mahsulot rentabelligi darajasining o'zgarishiga ikki omil ta'sir qiladi:

- 1) tovar oboroti hajmining (sotilgan tovar qiymatining) o'zgarishi;
- 2) tovarni sotishdan olingan foyda summasining o'zgarishi.

Ushbu omillar ta'sirini «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanish orqali aniqlanadi va tahlil qilinadi. Omillar ta'sirini hisoblashdan oldin «Shartli rentabellik darajasi» hisoblab olinadi. Buni hisoblash uchun bazis davridagi (yoki rejadagi) foyda summasi yuz foizga ko'paytirib natijasini hisobot davridagi tovar oborotining haqiqiy hajmiga bo'linadi:

$$Kp = \frac{F \cdot 100\%}{TO_1}.$$

Shundan keyin rentabellik darajasining o'zgarishiga omillar ta'siri quyidagicha hisoblanadi:

1-omil. «Tovar oboroti hajmi» o'zgarishining rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Shartli rentabellik darajasidan» rejadagi (yoki bazis davridagi) rentabellik darajasini chегirib tashlanadi:

$$KR_{sh} - KP_0 = \frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_0} = \pm \Delta to.$$

Tovar oboroti hajmi oshsa, rentabellik darajasining pasayishiga sababchi bo'ladi.

2-omil. Tovarni sotishdan olingan foyda summasi o'zgarishining rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun hisobot davridagi haqiqiy rentabellik darajasidan rejadagi (yoki o'tgan yildagi) rentabellik darajasi chiqarib tashlanadi:

$$Kp1 - KP_{sh} = \frac{F_1 \cdot 100\%}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_1} = \pm \Delta f.$$

Ushbu ikki omil ta'sirining yig'indisi rentabellik darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak

$$\Delta TO \pm \Delta_F = \Delta TO, F.$$

Endi, yuqorida qayd qilingan «Zanjirli bog'lanish» usuliga amal qilib, savdo korxonasi ma'lumotlari asosida rentabellikning amaliy tahlilini ko'rib chiqamiz. Buning uchun 34-jadval ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

34-jadval

Sotilgan tovarlar rentabelligining tahlili

T/r	Ko'rsatkichlar	Reja bo'yicha	Haqiqiy tovar oboroti va rejadagi foyda summasi bo'yicha	Haqiqatda	O'zgarishi (-, +)	O'zgarishi	
						Tovar oboroti-ning o'zgarishiga hisobiga	Foydaning o'zgarishi hisobiga
1.	Tovar oborotining hajmi, ming so'm.	253200	255400	255400	+2200	x	x
2.	Tovarni sotishdan olingan foyda, ming so'm.	8860	8860	11748	+2888	x	x

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, hisobot yilidagi haqiqiy rentabellik darajasi rejadagiga nisbatan 1,1% oshgan:

$$\frac{F_1 \cdot 100\%}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_0} = \frac{11748 \cdot 100\%}{255400} - \frac{8860 \cdot 100\%}{253200} = 4,60 - 3,50 = +1,1\%$$

Ushbu o'zgarish ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan, shu jumladan, tovar oboroti hajmi o'zgarishi salbiy, foyda hajmining o'zgarishi ijobiy ta'sir qilgan.

Tovar oboroti hajmining 2200 ming so'mga yoki 0,9% ga oshishi hisobiga rentabellik darajasi 0,03% ga pasaygan:

$$\frac{F \cdot 100\%}{TO} - \frac{F \cdot 100\%}{TO} = \frac{8860 \cdot 100\%}{255400} - \frac{8860 \cdot 100\%}{253200} = 3,47 - 3,50 = -0,03\%$$

Sotishdan olingan foyda hajmi 2288 ming so'mga yoki 25,8% ga oshishi rentabellik darajasining 1,13% ga oshishga sababchi bo'lgan:

$$\frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{TO_0} = \frac{11748 \cdot 100\%}{255400} - \frac{8860 \cdot 100\%}{253200} = 4,60 - 3,47 = +1,13\%$$

Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, rentabellik darajasining oshishiga asosiy sabab — bu yalpi daromad darajasining muomala xarajatlari darajasiga nisbatan yuqori bo'lishligidir.

Demak, rentabellikni oshirish uchun tovarlar uchun beriladigan chegirma darajasini oshirish va muomala xarajatlari darajasini kamaytirish hisoblanadi.

Rentabellik darajasi o'zgarishining tahlilini muomala xarajatlariga nisbatan ham hisoblab amalga oshirish mumkin. Bu muomala xarajatlar rentabelligi hisoblanadi. Buni aniqlash uchun tovarlarni sotishdan olingan foydani (F) 100% ga ko'paytirib, natijasini muomala xarajatlari hajmiga (MH) bo'lish kerak:

$$Kp = \frac{F \cdot 100\%}{MH}$$

Tahlilni «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib, quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirish zarur:

Muomala xarajatlari rentabelligining umumiy o'zgarishi:

$$\frac{F_1 \cdot 100\%}{MH_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{MH_0} = \pm \Delta MH, F.$$

Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil hisobiga sodir bo'ladi:

- 1) muomala xarajatlarining hajmini o'zgarishi;
- 2) foyda hajmining o'zgarishi.

Muomala xarajatlari o'zgarishining rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash:

$$\frac{F_0 \cdot 100\%}{MH_1} - \frac{F_0 \cdot 100\%}{MH_0} = \pm \Delta MX.$$

Muomala xarajatlarning hajmi nisbatan oshsa, rentabellik darajasining o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi, aksincha xarajatlar hajmi pasaysa, ijobiy ta'sir qiladi.

Foyda hajmining o'zgarishining rentabellik darajasining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash:

$$\frac{F \cdot 100\%}{MH} - \frac{F \cdot 100\%}{MH} = \pm \Delta F.$$

Foyda hajmining oshishi rentabellik darajasining o'zgarishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Shu ikki omil ta'sirining yig'indisi muomala xarajatlari rentabelligi darajasining umumiy o'zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta MX \pm \Delta F = \Delta MXF.$$

Shundan keyin omillar ta'siriga baho berilib, rentabellik bo'yicha umumiy xulosa qilinishi kerak.

12-MAVZU. AUDITNING PREDMETI VA USLUBLARI

12.1. Auditning predmeti va obyektlari

Auditning o'ziga xos predmeti va obyektlari mavjud. Audit maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning predmeti xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularning faoliyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, korxonalar o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Korxonalarning aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi.

Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir korxona o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida korxona faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarining korxona moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi.

Auditning predmeti taftishdan o'laroq, korxonaning faqat bir faoliyat turi yoki birgina ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Misol uchun savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatli qog'ozlar, valyuta operatsiyalari

va boshqalar. Auditning predmetiga korxona moliyaviy hisobotining to'g'riligi, hisob siyosatiga, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki obykti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning faoliyati kengayib, har tomonlama rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohatlarning hozirgi bosqichida auditning asosiy obyektlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

- mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar;
- moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlar (xarajatlar, daromadlar, foyda, zararlar);
- valyuta operatsiyalari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan, xorijiy sarmoyalar;
- hisob-kitob operatsiyalari (debitorlik, kreditorlik qarzlari);
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar.

Shunday qilib auditning predmeti va obyektlari quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari va majburiyatlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida jarayonlari (operatsiyalari).

Auditning asosiy predmeti bo'lgan korxonalarning faoliyatlari quyidagilarga bo'linadi:

- ishlab chiqarish faoliyati;
- savdo faoliyati;
- xizmat ko'rsatish faoliyati.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari o'z navbatida quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- ta'minot jarayoni;
- ishlab chiqarish jarayoni;
- realizatsiya jarayoni.

Jarayonlar xo'jalik operatsiyalari orqali sodir bo'ladi.

Xo'jalik jarayonlarning auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlarni ikkiga bo'lish mumkin:

- miqdor ko'rsatkichlari;
- sifat ko'rsatkichlari.

Miqdor ko'rsatkichlar — ishlab chiqarilan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat.

Sifat ko'rsatkichlar — faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdorligini ifodalaydi.

Korxonalarining alohida jarayonlari va ko'rsatkichlari auditning obyektlari hisoblanadi.

Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi subyektlarga dolzarb masalalarda konsalting xizmatlarini ko'rsatish ham kiradi. Auditorlar va auditorlik tashkilotlari korxonalarga o'zaro tuzilgan shart-nomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradilar.

12.2. Auditning uslubi

Auditning o'ziga xos usullari va uslubiylati mavjud. Bu usullar auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi. Korxonada audit o'tkazish mutaxassis auditoridan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor sharoitida turli mulkka asoslangan korxona va firmalarning faoliyatlari bir-biridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalarga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditoridan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqdir. Ushbu usullarning turi ham ko'p.

Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Korxonalar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida korxona samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida, qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi. Noqonuniy operatsiyalar mijozlarga faqat zarar keltiradi, xolos.

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);

- gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha «Yashirin iqtisodiyot» natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);

- tahlil va sintez usuli (audit obyekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);

- taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);

- inventarizatsiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);

- kalkulyatsiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish korxonalarida esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);

- ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);

- buxgalteriya schotlari va ikki yoqlama yozuv usuli (korxona aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schotlari orqali tekshiriladi);

- balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylashtirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Auditor tekshirish jarayonida me'yorlashtirish, baholash, guruhlash usullaridan ham foydalanadi. Audit usullari har bir hodisaning kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari, xo'jalik jarayonlarining qonun-qoidalarga (mezonlarga) muvofiqligini aniqlashga yordam berishi kerak. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi

tufayli uning uslubi, unda qo'llaniladigan usullar ham takomillashib boraveradi. Keyingi paytlarda maxsus adabiyotlarda auditning quyidagi usullariga katta e'tibor berilmoqda: xodimlar (yoki uchinchi shaxslar) bilan og'zaki so'rovlar o'tkazish, tekshirilayotgan korxona bo'yicha muqobil (alternativ) balans tuzish, audit obyektlari bo'yicha testlar, anketalar o'tkazish, kompyuter axborotlari texnologiyalaridan keng foydalanish kabi usullar. Shuni ham qayd qilish kerakki, auditorlar (auditorlik tashkilotlari) audit jarayonida qabul qilingan umumiy (an'anaviy) usullardan foydalanish bilan bir qatorda, ular o'zlariga ma'qul bo'lgan yoki boshqalar uchun «tijorat siri» hisoblangan noan'anaviy (lokal) usullardan ham foydalanishlari mumkin. Audit o'tkazishda milliy va xalqaro audit standartlariga asoslanadi. Shunday qilib, auditda qo'llaniladigan usullar uning turi, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi.

13-MAVZU. AUDITNING MOHIYATI, AHAMIYATI VA UNI TARTIBGA SOLISH

13.1. Auditning turlari, xillari va shakllari. Audit va taftish

Auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar va maxsus adabiyotlar tahlili auditni quyidagi turlarga bo'lish mumkinligini keltirib chiqaradi: operatsion audit, muvofiqlilik (moslik) auditi va moliyaviy hisobot auditi.

Operatsion audit — korxona xo'jalik mexanizmining alohida bo'limlari faoliyatini, ularning samaradorligi, ishonchliligi va boshqaruv uchun foydaliligini baholash maqsadida amalga oshiriladigan tekshiruvdir. Operatsion audit — iqtisodiy samaradorlik va uning mezonini bo'lgan to'la mehnat unumdorligiga baho berish maqsadida xo'jalik tizimi bo'g'inlari faoliyatini tekshirishni o'z ichiga oladi. Audit tugatilgandan so'ng boshqaruvchiga aksariyat hollarda xo'jalik muomalalarini takomillashtirish borasida yo'l-yo'riqlar ko'rsatiladi.

Operatsion auditga boshqaruv tashkiliy tizimining hajmi, buxgalteriya hisobining tashkiliy uslubi va texnikasi, kompyuter tizimlari, marketing uslublari va boshqa sohalar kiritilishi mumkin.

Boshqaruv samaradorligi xo‘jalik tizimining turlicha bo‘lishiga bog‘liqligi sababli aniq operatsion auditni ifodalash mushkul. Masalan, biron-bir tashkilotda qimmatli qog‘ozlarni sotib olgandan ko‘ra ko‘chmas mulk xarid qilish samaraliroqligi aniqlanib, tegishli maslahatlar berilsa, boshqa korxonada umumiy mehnat unumdorligiga ta‘sir qiluvchi omillar o‘rganilib, ishlatilmayotgan xaziralardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatiladi.

«Operatsion audit — boshqaruv masalalari bo‘yicha korxonaning turli tarkibiy bo‘linmalariga maslahat berish kabi faoliyat (masalan, marketing ishlarini baholash, korxona tarkibiy tuzilmasini baholash va sh.k.)»¹.

Operatsion auditda tekshirish faqatgina buxgalteriya hisobi bilan chegaralanmaydi, balki boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish, kompyuter muomalalari algoritmini takomillashtirish, marketing va umuman, auditorning mutaxassisligidan kelib chiqib, turlicha sohalarini qamrab olishi mumkin.

Operatsion auditning mushkulligi shundaki, uning ma‘lumotlarini obyektiv baholash qiyin. Masalan, moliyaviy hisobot auditida hisobotni belgilangan buxgalteriya standartlariga mos ravishda tuzilganligini aniqlab baho berishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ko‘rsatish bir muncha yengildir. Shuning uchun operatsion audit mohiyati jihatidan ko‘proq ma‘muriyat uchun maslahatlar berish, ya‘ni konsaltingdan iborat, desa ham bo‘ladi. Oxirgi yillar ichida bu audit turi rivojlangan mamlakatlarda ko‘payib bormoqda.

Muvofiqlilik (moslik) auditi — bu korxona xo‘jalik tizimida amaldagi qonunchilikka oid hujjatlar va yo‘riqnomalar bilan belgilangan me‘yorlarga hamda ma‘muriyat xodimlari uchun ishlab chiqilgan muolaja va qoidalarga qanday rioya etilayotganligining tekshiruvidir. Shuningdek, muvofiqlilik auditi korxona mulkdorlari va aksiyadorlari buyurtmasiga asosan tavsiya qilingan boshqaruvga oid me‘yorlar (muolajalar)ga korxona Nizomiga muvofiq qay darajada ma‘muriyat (rahbariyat) tomonidan rioya etilayotganligini tekshirish maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin. Muvofiqlilik

¹ Do‘smuratov R. Audit asoslari. Darslik. — T.: 2003., 41-b.

(moslik) auditi — yuqori boshqaruv (ma'muriyat) tomonidan belgilangan ko'rsatma va qoidalarni xo'jalik tizimida bajarilishi darajasi ustidan o'tkaziladigan nazorat moslik auditning maqsadini tashkil qiladi. Masalan, boshqaruvchilar tomonidan o'rnatilgan, bajarilishi shart bo'lgan muolajalarga buxgalteriya xodimlari tomonidan amal qilinishi, moddiy boyliklarning saqlanishining ta'minlanishi va ularning sarflanishni belgilangan chegaralardan chiqmasligiga rioya qilish darajasi yoki kreditorlar va banklar bilan tuzilgan bitimlarga korxona tomonidan amal qilinishini nazorat qilish va boshqalar.

«Muvofiqlik auditi — ushbu korxona bo'linmalari faoliyati, uning ma'muriyati va zarur bo'lganda yuqori organlar tomonidan belgilangan yoki qonun hujjatlarida ko'rsatilgan qoidalarga muvofiqligini tekshirishdan iborat. Masalan, tuzilgan shartnomalarni yuridik talablar nuqtai nazaridan tekshirish va baholash, tavakkalchilik (risk)larni kamaytirish va h.k.»¹.

Budjet tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar tekshirilganda ham, asosan, muvofiqlik auditi o'tkaziladi, chunki bunday tashkilotlarda bajarilishi lozim bo'lgan qoidalar aniq ko'rsatiladi.

Muvofiqlik auditining natijalari auditning belgilagan bo'g'ini uchungina ma'lum qilinadi, negaki bu audit natijalari hisobotdan keng foydalanuvchilarga taalluqli bo'lmaydi. Ayrim hollarda bir tashkilot o'ziga bo'ysunishi kerak bo'lgan tashkilotni nazorat qilish uchun ham muvofiqlik auditni belgilashi mumkin. Masalan, hukumat tomonidan soliq to'lovchilarning deklaratsiyasini tekshirish uchun auditorlarni jalb qilish mumkin.

Moliyaviy hisobot auditi — hisob va hisobotda qayd etilgan ma'lumot belgilangan mezonlarga muvofiqligini tekshirish uchun amalga oshiriladi. Odatda, buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan tamoyillari va qoidalari majmuyi mezonlar hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot auditi — bu auditning asosiy turi bo'lib, moliyaviy hisobot belgilangan mezonlar asosida tayyorlanganligini aniqlaydi. Belgilangan mezonlar — bu, asosan, umumiy qabul qilingan buxgalteriya prinsiplaridir. Moliyaviy hisobot tarkibiga:

¹ O'sha manba, 42-b.

1-shakl «Buxgalteriya balansi», 2-shakl «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot», 3-shakl «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot», 4-shakl «Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot», 5-shakl «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot», 2-a shakl «Debitor va kreditor qarzdorlik haqida ma'lumotnoma» va shu hisobotlarga taalluqli bo'lgan tushuntirishlar kiradi.

Moliyaviy hisobot auditi natijalaridan har xil guruhlar, turli maqsadlar uchun foydalanadi. Albatta, har bir foydalanuvchi o'zi audit o'tkazganidan ko'ra iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan bitta auditor hamma uchun xulosa tayyorlab berganligi ma'qul. Agar foydalanuvchini umumiy audit natijalari qoniqtirmasa, u qo'shimcha ma'lumotlar olishi mumkin. Masalan, korxonaga ssuda berish-bermaslik masalasini hal qilish uchun bankka umumiy audit natijalari yetarli bo'lsa, ikkita korxonaning qo'shilishi masalasini hal qilish uchun kengroq ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday hollarda xo'jalik subyektlari qo'shimcha audit o'tkazish uchun tashqi auditorlar xizmatidan foydalanishlari mumkin.

Prof. H. Musayevning fikricha, «Moliyaviy audit xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini tekshirishga qaratilgan. Bunday audit ko'pgina hollarda ta'sischi, investorlar va boshqa tashqi manfaatdorlarning buyurtmalari asosida o'tkaziladi. Moliyaviy auditning asosiy maqsadi moliyaviy natijalarning haqqoniy, asosli ekanligi, moliyaviy hisobotning to'g'ri tuzilganligiga baho berishdan iborat»¹.

Hamdamov B.Q. o'zining «Audit iqtisodi» monografiyasida auditorlarni quyidagi guruhlarga ajratadi: «Rivojlangan mamlakatlarda auditorlar, asosan, to'rtta guruhga ajratiladi. Masalan, AQSHda bularga bosh hisob xizmati auditorlari, soliq inspektorlari, ichki xo'jalik auditorlari va xolis buxgalterlar kiradi.

Bosh hisob xizmati auditorlari — federal hukumat xizmatlari tarmog'iga kiradi va faqat kongress oldida hisobot berib, kongressning auditorlik vazifalarini bajaradi, mohiyati jihatidan to'la moslik auditi funksiyalari asosida ish yuritadi. Bundan tashqari, federal hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan turli rejalarning unumdorligi va samaradorligini baholaydi.

¹ Musayev Q. Audit. Darslik. — T.: 2003. 29-b.

Soliq inspektorlari – federal soliq qonunlarining bajarilishini nazorat qiladi. Audit qilinadigan soliq tushumlari oddiy, ya'ni jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlardan tortib, murakkab, ya'ni yuridik shaxslarning, jumladan yirik kompaniyalarning foydalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday auditorlarga soliq qonunchiligini mukammal bilish talab qilinadi.

Ichki xo'jalik auditorlari – ichki audit korxona, birlashma yoki tashkilotning boshqaruv tizimiga kirib, menejerlar uchun nazorat funksiyalarini bajarishda yordam beradi. Ichki xo'jalik auditorlarining malaka darajasi shu korxonaning boshqaruv tizimi talablariga binoan belgilanib, mustaqilligi chegaralangan.

Bu toifadagi audit korxona ma'muriyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlab, buxgalteriya xizmati va boshqa funksional tizimlar bilan hamkorlikda ish yuritadi.

Xolis buxgalterlar – auditorlik firmalarning asosiy vazifasi bu ochiq chop etiladigan moliyaviy hisobotlarni tekshirish va to'g'riligini tasdiqlashdir. Bunday hisobotlardan yuqorida ta'kidlanganidek, har xil toifadagi guruhlar foydalanadi. Shu sababli hozirgi kunda iqtisodiyotda «Auditdan o'tgan moliyaviy hisobot» degan jumla keng ishlatilmoqda. Bu, o'z navbatida, «Xolis auditor» degan iboraning ishlatilishini taqozo etdi.

Xolis buxgalterlarni tayyorlash va bu nomga sazovor bo'lish yo'llari turli mamlakatlarda turlicha, lekin har birida ham «Buxgalteriya hisobi» bo'yicha maxsus diplom, buxgalteriya sohasida ma'lum ish staji va maxsus imtihonlarni topshirish talab qilinadi. Ayrim davlatlarda, masalan, xolis auditor bo'lish uchun xolis buxgalterlar qayta tayyorlanib, audit faoliyati bilan shug'ullanish uchun ruxsatnoma beriladi.

Audit faoliyatini olib borish uchun ruxsatnomalar berish ham turlicha amalga oshiriladi. Ayrim davlatlarda bu faoliyat davlat tomonidan amalga oshirilsa, boshqalarida kasbiy uyushmalar ruxsatnoma beradi»¹.

Shunisi qiziqki, «Ispaniyada bizning tushunchamizdagi buxgalter kasbi yo'q. Kompaniyalarda ishlovchi moliyachilar bizning buxgalterlarimiz har kuni bajaradigan ishning bir qisminigina

¹ *Hamdamov B.* Audit iqtisodi. Monografiya. – T.: 2005. 19-b.

bajarishadi. Masalan, har bir firmada birlamchi hujjatlarni to'p-laydigan, kundalik buxgalteriya ishlarini bajaradigan va ish haqini beradigan ma'muriy xodim bor. Hisob ishlarini yuritish bilan esa auditorlar shug'ullanadilar. Buxgalterlarning soliqlarni hisoblash bo'yicha barcha ishlari haftada bir marta tegishli hujjatlarni auditorlik idorasiga keltirib berishdan iborat bo'ladi.

Amaldorlar kompaniyalarda moliyaviy vazifalarni taqsimlab, xazinaga to'lov kabi mas'uliyatli ishda ko'proq xolislikka erishishni xohlagan edilar. Zero, Ispaniya qonunlariga muvofiq soliq bilan bog'liq nayranglar uchun birinchi navbatda auditor javob beradi.

Biror tashkilotning hisob ishlarini yuritayotgan auditorlik kompaniyasi qo'lida litsenziya bo'lishi shart, darvoqe, litsenziya olish juda murakkab ish. Iqtisod fanlari doktori darajasini olgan auditorlarga litsenziya olishga da'vogar bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, ular juda murakkab bo'lgan imtihondan muvaffaqiyatli o'tishlari lozim. Zero, qonunlarni bilish uchun yaxshi bilimlarga ega bo'lish kerak»¹.

«Auditorlik faoliyati (professional xizmatlar bundan mustasno) maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya maxsus vakolatli davlat organi tomonidan beriladi. Bu organ:

- auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarini, shu jumladan, auditorlik faoliyatining milliy standartlarini o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

- auditorlik tashkiloti litsenziya shartnomasida nazarda tutilgan litsenziya talablariga va shartlariga rioya etishini nazorat qiladi;

- auditor malaka sertifikatini olish uchun da'vogarlariga malaka talablarini belgilaydi;

- auditorlarning respublika jamoat birlashmasi bilan kelishgan holda auditor malaka sertifikati olish uchun o'quv darsturlarini va malaka imtihonlarini topshirish tartibini tasdiqlaydi;

- auditorlarning respublika jamoat birlashmasi ishtirokida auditor malaka sertifikatini olish huquqiga doir malaka imtihonini o'tkazadi;

¹ Ispaniyada buxgalter bormi? Soliq va bojxona xabarlar. // 2006-yil 28-noyabr, 48-son.

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyalarning amal qilishini to‘xtatib turadi, tugatadi va bekor qiladi, shuningdek, ushbu ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e’lon qiladi;

– auditorlar malaka sertifikatini beradi, amal qilishini tugatadi va bekor qiladi;

malaka sertifikatiga ega bo‘lgan auditorlar reyestrining hamda auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlarning hisobini yuritadi.

Auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirishga doir litsenziyalarni berish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Auditorlik faoliyatini litsenziyasiz amalga oshirganlik qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka olib keladi»¹.

Audit xillari bo‘yicha ichki va tashqi auditga ajratiladi.

Ichki audit boshqaruv nazoratining ajralmas va muhim elementi hisoblanadi. Yirik korxonalarda rahbariyatning yuqori bo‘g‘ini tashkilot faoliyati va quyi rahbariyat tizimi yuzasidan kundalik nazorat bilan shug‘ullanmasligi oqibatida ichki auditga ehtiyoj vujudga keladi. Ichki audit aynan ushbu faoliyat to‘g‘risida ma’lumot beradi va menedjerlar hisobotlarining ishonchliligini tasdiqlaydi. Ichki auditning kerakliligi, asosan, zaxiralar kamo-madining oldini olish va korxona ichida kerakli bo‘lgan o‘zgarish-larni amalga oshirishdan kelib chiqadi.

Yirik korxonalarda ichki auditorlarning ma’lum vazifalarini bosh buxgalter yoki moliyaviy direktorga bo‘ysungan buxgalteriya qoshidagi taftish guruhlariga bajaradilar, lekin ichki auditorlarning vazifa doiralari kengroq. Ular quyidagilardan iborat:

– aktivlar holati yuzasidan nazorat qilish: rahbariyat tomonidan qarorlar qabul qilinishida foydalanadigan ma’lumot aniq ekanligini tasdiqlash;

– ichki tizimga oid nazorat muolajalari bajarilishini tasdiqlash;

– ichki nazorat tizimi samaradorligini tahlil qilish va ma’lumot ustidan ishlash;

¹ O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun. – T.: 2000. 21-modda.

– boshqaruv ma'lumot tizimi tomonidan taqdim etiladigan ma'lumot sifatiga baho berish.

Musayev H.N.ning fikriga ko'ra, «Ichki audit – bu korxonalar faoliyatini manfaatdorlarning buyurtmasiga asosan daxlsiz auditorlar tomonidan tekshirish va asosli xulosalar berishdir.

Ichki auditning maqsadi korxonada to'liq foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash, korxona xodimlarining o'z vazifalarini to'liq bajarilishiga yaqindan yordam berishdan iborat»¹.

Bu borada yuqoridagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi, chunki ichki audit korxona boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, korxonaning shtatdagi ichki auditorlar tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi auditorlar ko'p jihatdan ichki audit natijalariga tayanadi. Umuman olganda, «Ichki auditorlar o'zlari ishlaydigan korxonalar faoliyatini tekshiradi. Ammo, ular qoidaga ko'ra, korxona ma'muriyati (direktorlar kengashi) tarkibiga kiradilar. Bunday nazorat (o'z-o'zini nazorat qilish) shakli AQSHda XX asrning 30-yillarida yuzaga kelib, keyinchalik G'arbiy Yevropa va Yaponiyada tarqalgan.

Hozirgi vaqtga kelib ko'p hollarda ichki auditorlarning funksiyalari, hatto o'z kompaniyasi tarkibiy bo'linmalari buxgalteriya hisobotlarini tekshirish doirasidan ham chetga chiqadi. Ichki auditorlar korxonaning iqtisodiy siyosati va boshqaruv masalalarida ko'proq ishtirok etmoqdalar. Ichki auditorlar yuqori malakali mutaxassislar bo'lib, o'z maqomiga ko'ra katta vakolatlarga ega»².

Tashqi audit korxonalar buyurtmalar (shartnomalar)iga asosan mustaqil auditorlar, auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, tashqi auditning xususiyatlaridan biri tekshiruvni amalga oshirayotgan auditorlar tekshiruv olib borilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda hech qanday manfaatga ega emasligidir, ya'ni: ta'sischi, mulk egasi, aksiyador, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektning buxgalteriya (moliyaviy) hisobotiga qo'yiladigan talablariga rioya qilinishi uchun mas'ul rahbar va boshqa mansabdor shaxslar hamda korxona rahbariyati bilan qarindosh (otasi, onasi, rafiqasi, akasi, ukasi, opasi, singlisi, o'g'li, qizi) va ular bilan xizmat yuzasidan aloqador emas.

¹ Musayev H. Audit. Darslik. – T.: 2003. 31-b.

² R. Do'smurotov. Audit asoslari. Darslik. – T.: 2003. 41-b.

«Tashqi audit — bu tashqi manfaatdorlarning buyurtmalariga asosan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish va ekspertiza qilishdir.

Tashqi auditning asosiy buyurtmachilari davlat boshqaruvi organlari, ta‘sischilar, investorlar, kreditorlar, soliq idoralari, bank muassasalari va boshqa manfaatdorlar hisoblanadi»¹.

Qonunda belgilanishicha, «Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishini qo‘zg‘atuvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt, uning mulkdori, shuningdek, ustav kapitalida qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo‘lmagan miqdordagi ulushga ega qatnashchilar va aksiyadorlar, nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardir»².

Agar auditorlik tashkilotlari o‘zlarining ta‘sischilari, filiallari, vakolatlari bo‘lgan iqtisodiy subyektlarni hamda ushbu iqtisodiy subyektga buxgalteriya hisobini yuritish, tiklash va moliyaviy hisobotini tuzish xizmatlarini ko‘rsatsalar, ular tomonidan tashqi auditorlik tekshiruvini amalga oshirish mumkin emas. Yuqorida qayd etilgan jihatlarni yashirish auditorlik tekshiruvini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning bekor qilinishi uchun asos bo‘lishi mumkin.

Tashqi auditni o‘tkazishdan maqsad tekshirilayotgan iqtisodiy subyektning moliyaviy-xo‘jalik holatini aniqlash va yillik moliyaviy hisobotini tasdiqlashdir. Shuningdek, tashqi audit shartnomaga asosan buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yilganligini yaxshilash, moliya samaradorligini oshirish, soliqqa tortish bazasi yuzasidan, tekshirilayotgan subyekt va uning segmentlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha bir qator tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida ham amalga oshirilishi mumkin.

Auditorlar yoki auditorlik firmalari tomonidan amalga oshirilgan tashqi audit natijalari tekshirilgan korxonaning hisobi, ichki nazorati holatlari, yillik hisoboti ishonchliligi to‘g‘risida xulosa tuzish va taqdim etish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.

Qonunning 9-moddasiga ko‘ra, «Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riligi va qonun huj-

¹ Musayev H. Audit. Darslik. T.: 2003. 32-b.

² O‘zR «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonun. — T.: 2000. 13-modda.

jatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir. Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o‘tkaziladi».

Majburiy auditorlik tekshiruvi — amaldagi qonunchilikka muvofiq audit o‘tkazilishi majburiy deb belgilangan korxonalarning moliyaviy hisobotini har yillik auditorlik tekshiruvini amalga oshirish.

Auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunga muvofiq, quyidagilar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi kerak:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug‘urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jamlab turuvchi boshqa fondlar va ularning boshqaruv kompaniyalari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badal-laridan tashkil topgan xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag‘larining hosil bo‘lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning majburiy ajratmalaridan tashkil topgan budjetdan tashqari fondlar;

Ustav kapitalida davlatga tegishli ulush bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘ladi. Auditorlik tashkilotini tanlash xo‘jalik yurituvchi subyekt mulkdori, shuningdek, qatnashchilari (aksiya-dorlari)ning umumiy yig‘ilishi bilan kelishib olinadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishdan bosh tortish xo‘jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima undirishga, shuningdek, uning rahbarini qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi. Jarimaning to‘lanishi xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishdan ozod qilmaydi»¹.

«Xo‘jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bo‘yin tovlashi jarima solish uchun asos hisoblanadi.

¹ O‘zR «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun. — T.: 2000, 10-modda.

Quyidagilar:

- hisobot yilidan keyingi yilning 1 mayigacha yillik moliyaviy hisobot auditorlik tekshiruvidan o'tkazilmasligi;

- auditorlik xulosasi mavjud emasligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyekt oldingi yil uchun o'z yillik moliyaviy hisobotini hisobot yilining 1 mayigacha auditorlik tekshiruvidan o'tkazadi va auditorlik tekshiruvi tamom bo'lgandan keyin 15 kun mobaynida tegishli soliq organiga auditorlik xulosasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasini taqdim etadi.

Auditorlik xulosasi nusxasi soliq organiga belgilangan muddatda taqdim etilmagan taqdirda xo'jalik yurituvchi subyekt soliq organiga auditorlik xulosasi mavjud emasligining sababini aks ettiruvchi tushuntirishni yozma shaklda taqdim etishi kerak.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlash sababli auditorlik xulosasi mavjud bo'lmasa, soliq organi xo'jalik yurituvchi subyektga belgilangan tartibda jarima soladi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari ko'rsatib o'tilgan xatti-harakatlar uchun qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladi.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasi uchinchi xat boshiga asosan, «Qonun hujjatlariga muvofiq o'tkaziladigan majburiy auditorlik tekshiruvidan bosh tortish xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaganiga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish xo'jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining ellik barobaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima undirilishiga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning oxirgi hisobot sanasidagi joriy aktivlari summasining jami yigirma foizidan ortiq miqdorda jarima undirish unga undiriladigan summani undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran olti oy mobaynida oyma-oy bo'lib to'lash imkoni berilgan holda

amalga oshiriladi. Jarimaning to'lanishi xo'jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishdan ozod qilmaydi».

Xo'jalik yurituvchi subyekt jarima solish to'g'risidagi qaror ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

To'lanadigan jarimalar to'liq miqdorda respublika budjetiga o'tkaziladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazmagan xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan soliq organi tomonidan jazo jarimasi qo'llanilmaganligi boshqa nazorat qiluvchi organ tomonidan aniqlangan taqdirda tegishli soliq organining mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi — lozim bo'lgan holda, xo'jalik yurituvchi subyektning qarori bilan amalga oshirilishi mumkin.

«Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi»¹.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o'tkazishda xo'jalik yurituvchi subyekt o'z oldiga, asosan, quyidagilarni maqsad qilib qo'yishi mumkin:

- korxonada buxgalteriya hisobini tashkil etilishi va yuritilishi amaldagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash;

- buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash;

- soliq qonunchiligiga rioya qilinishi va soliqqa tortishga doir hisob-kitoblar ahvolini tekshirish va h.k.

Bulardan tashqari, qonunda nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish ham belgilab berilgan. Unga ko'ra, «Auditorlik

¹ O'zR «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun. — T.: 2000. 11-modda.

tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra auditorlik tashkiloti tomonidan ular o'rtasida tuzilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish yuzasidan tuzilgan shartnomaga asosan o'tkaziladi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvining o'tkazish uchun buyurtma bergan tashkilot hisobidan amalga oshiriladi.

Aynan bir xil asoslarga ko'ra aynan bir auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini tekshirishga takror jalb etilishiga yo'l qo'yilmaydi»¹ deyilgan.

O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xo'jalik yurituvchi subyektlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga topshiriq berishlari mumkin. Bunday topshiriq huquqni muhofaza qilish organlarida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lganida beriladi:

- qo'zg'atilgan (qayta ko'rilyotgan) jinoiy ishlar;
- fuqarolik ishlarini qabul qilish (qayta ko'rish);
- xo'jalik sudining idoraviy tasarrufidagi ishlar va h.k.

Auditorlik tekshiruvini tayinlagan organlar tekshiruv o'tkazish uchun barcha sharoitlarni yaratishlari, auditorlarni xavfsizligini ta'minlashlari lozim.

Audit — bu iqtisodiy jarayon bo'lib, unda yetarli bilimga ega bo'lgan va maxsus malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti va boshqa moliyaviy axboroti to'g'riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlab, o'z fikrini bildirishidir.

Agar g'arb mamlakatlarida audit 150 yildan buyon ma'lum bo'lsa, O'zbekistonda mustaqil faoliyat sohasi sifatida xo'jalik yuritishda davlat monopoliyasidan voz kechish va bozor iqtisodiga o'tish natijasida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan shakllana boshladi. Shuning uchun auditorlik faoliyati rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish zarurdir. Ta'kidlash joizki, oldin ham mamlakatimizdagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xo'jalik faoliyatini nazorat va taftish qilish amalga oshirilgan. Ammo,

¹ O'sha manba, 15-modda.

nazorat va taftish bilan audit tushunchalari bir-birlariga yaqin bo'lsa ham, ularni bitta narsa deb tushunish to'g'ri emas.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va mulk shaklining o'zgarishi taftish o'tkazish borasida juda katta o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Audit va taftish tushunchalari keng ma'noda xo'jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo'jalik faoliyati ustidan o'rnatiladigan iqtisodiy nazoratni tashkil etish usullari hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishni taftish qilishda ma'lum izohlar berilgan holda auditorlik faoliyati standartlari va normalari qo'llanilishi mumkin. Audit va taftishning bunday o'xshash jihatlari ko'p, ammo prinsipial farqlari ham mavjud. Shuning uchun ham iqtisodiy nazorat shakllari va usullarining rivojlanishi istiqbollarni tadqiq qilishda audit va taftish o'rtasidagi farqlarni ochib berish muhim ahamiyatga ega. Bunday farqlarni quyidagi belgilari bo'yicha turkumlash mumkin.

35-jadval

Audit va taftish o'rtasidagi farqlar

T/r	Farq qiladigan belgilar	Audit	Taftish
1	Maqsadlari	Moliyaviy hisobot ishonchiligi yuzasidan fikr bildirish, xizmatlar ko'rsatish, mijozga yordam berish va hamkorlik qilish	Bartaraf etish maqsadida kamchiliklarni aniqlash va aybdor shaxslarni jazolash
2.	Tavsifi	Ishbilarmonlik faoliyati	Ijroi faoliyat, farmoyishlarni bajarish
3.	O'zaro huquqiy munosabat asoslari	Fuqarolik huquqi, xo'jalik shartnomalarga asosan amalga oshirish	Ma'muriy huquq, majburiylik, yuqori tashkilot yoki davlat idoralari farmoyishlariga muvofiq amalga oshirish
4.	Boshqaruv aloqalari	Gorizontal (—) aloqalar, mijoz bilan munosabatlarda teng huquqlilik, uning oldida hisobot berish	Vertikal () aloqalar, yuqori bo'g'in tomonidan tayinlanish, ijrosi to'g'risida unga hisobot berish
5.	Xizmatlarga to'lov tamoyillari	To'lovni mijoz-korxona yoki auditorlik tekshiruvini buyurtmachisi shartnoma asosida amalga oshiradi	To'lovni yuqori bo'g'in yoki davlat idorasi amalga oshiradi

6.	Amaliy masalalar	Mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, passiv (investor, kreditor)lar jalb qilish, mijozga maslahatlar bilan yordam berish	Aktivlarni saqlash, suiiste'molchiliklarni bartaraf etish va oldini olish
7.	Natijalar	Auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish bilan yakunlanadi. Moliyaviy hisobotning ishonchliligini tasdiqlovchi auditorlik xulosasining yakuniy qismi chop etilishi mumkin	Dalolatnoma – bu barcha aniqlangan, hatto ahamiyatsiz bo'lgan kamchiliklar qayd etilgan ichki hujjat. Dalolatnoma yuqori tashkilotga yoki boshqa idoralarga taqdim etilishi mumkin.

Audit va taftish o'rtasidagi yuqoridagi farqlar umumiy tarzda ayrim adabiyotlarda keltirilgan. Hozirgi kunda ularni umum qabul qilingan qarashlar deb hisoblash mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikamizda iqtisodiyotning erkinlashtirilishi va mulk shaklining o'zgarishi natijasida taftishning o'rnini audit egallashi tezlashdi. Ammo, taftish butunlay yo'qolib ketmaydi va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustahkamlanishiga qarab saqlanib qoladi.

13.2. Auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalar

Malakali auditorning asosiy sifatlaridan biri – jamiyat oldida o'z mas'uliyatini his etishdir. Shuning uchun auditorlar barcha auditorlik xizmatlarini ko'rsatishda mijoz bilan o'zaro munosabatlarni belgilovchi quyidagi axloq qoidalari va mutaxassislik me'yorlarini ishlab chiqilishini va ularga rioya qilinishini zarur deb hisoblaydilar: auditorning mustaqilligi, halolligi va haqqoniyiligi.

Mustaqillik – auditorning tekshirilayotgan korxonada birorta ham moliyaviy yoki boshqa mulkiy manfaatdor bo'lmashligi; agar auditor korxona mulkdorlaridan biri hisoblansa yoki yuqori bo'g'in rahbariyati bilan qarindoshlik aloqasida bo'lsa, u bunday korxonani tekshirish huquqiga ega emas.

Xolislik — ushbu ishga taalluqli boʻlgan faqat shubhasiz dalillarni nazarda tutib fikr yuritish qobiliyati, bu, oʻz navbatida, intellektual halollikni kelib chiqaradi.

Maxfiylik (konfidensiallik) — tekshiruv yoki boshqa bir auditorlik xizmatlarini koʻrsatish vaqtida auditor tomonidan olingan maʼlumot maxfiy (konfedsial) hisoblanadi va uchinchi shaxslar foydalanishi yoki ularga taqdim etilishi faqatgina mijoz ruxsati (yozma ravishda berilgan) yoki sud qaroriga muvofiq, amalga oshirilishi mumkin.

Shak-shubhasiz, agar mijoz toʻgʻrisidagi maʼlumot ovoza qilinganda yoki tarqatilganda unga moddiy yoki boshqa zarar keltirmasa ham, maxfiylik (konfidensiallik) tamoyiliga rioya qilinishi shart.

Auditorning kasbiy yuqori malakaga egaligi, xabardorliligi va insofiligi. Auditor kerakli boʻlgan kasbiy malakaga ega boʻlishi, uni yuqori darajada ushlab turishi, oʻz faoliyatida meʼyoriy hujjatlar talablariga rioya qilishi zarur. Ishga boshqa auditorlarni yoki yordamchi xodimlarni jalb qilganda, auditor ularning kasbiy xabardorligiga ishonch hosil qilishi va ular bajarayotgan ishlarni nazorat qilib borishi lozim. Agar auditor maʼlum bir sohada yetarli darajada kasbiy malakaga ega boʻlmasa yoki oʻz tavsiyalari toʻgʻriligiga toʻliq ishonchi boʻlmasa, u birorta ham xizmat koʻrsatmasligi kerak.

Mijoz bilan ish olib borganda, auditor oʻzining barcha bilimlari va tajribasidan foydalanishi va buxgalteriya hisobi, soliqqa tortish va shunga taalluqli boshqa jabhalardagi yangiliklar va oʻzgarishlardan xabardor boʻlishi lozim.

Auditor amalga oshirilgan auditorlik tekshiruvi sifati uchun maʼlum bir masʼuliyatga ega. Moliyaviy hisobotlar yuzasidan masʼuliyatdan auditorlik xulosasi yuzasidan masʼuliyatni ajratish lozim. Auditor faqat tekshirilayotgan korxonaning moliyaviy hisobotlari toʻgʻrisidagi xulosa uchun masʼul. Moliyaviy hisobot mazmuni toʻgʻrisida masʼuliyat tekshirilayotgan korxona rahbari zimmasida boʻladi. Auditorga nisbatan uning axloqiy darajasini belgilovchi muayyan malakaviy talablar qoʻyiladi.

Auditor oʻzining kasbiy majburiyatlarini bajarayotganda quyidagi qoidalar va axloq talablariga amal qilishi lozim:

- odob-axloqning umumiy me'yorlariga;
- auditorlik standartlarining talablariga;
- qonunchilik bilan amalga kiritilgan talablarga;
- firmaning ichki auditorlik standartlari talablariga.

Auditor o'z hamkasblari bilan xayrixohlik ruhida aloqalar o'rnatishga intilishi lozim.

Auditorlik tashkiloti mijoz bilan o'zaro aloqa o'rnatganda, uning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yuzaga keladi.

Auditorlik tashkiloti quyidagi huquqlarga egadir:

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlari bilan oldindan tanishib chiqish;

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil belgilash (O'zR 13.12.2002 y. 447-II son Qonuni tahriridagi xat boshi);

- auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda olish, shuningdek, ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish;

- uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan axborotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olish;

- ishonchli auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan barcha axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etishga auditorlar va boshqa mutaxassislarni belgilangan tartibda jalb etish.

Auditorlik tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining majburiyatlari. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyati bilangina shug'ullanishi mumkin hamda u:

– auditorlik faoliyatini amalga oshiriyotganida ushbu Qonun hamda boshqa qonun hujjatlarining talablariga rioya etishi;

– auditorlik tekshiruvi o'tkazilishga doir shartnoma tuzishdan oldin buyurtmachining talabiga binoan auditorlik faoliyatini o'tkazish huquqini beruvchi tegishli litsenziyani, auditor (auditorlar)ning malaka sertifikatini taqdim etishi;

– xo'jalik yurituvchi subyektning so'roviga binoan auditorlik tekshiruvini o'tkazish bo'yicha qonun hujjatlarining talablari to'g'risidagi, auditorning e'tirozlari asoslanilgan qonun hujjatlarining me'yorlari to'g'risidagi axborotni taqdim etishi;

– auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;

– auditorlik hisobotida moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi buzilishi faktlarninn hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflarni aks ettirishi;

– xo'jalik yurituvchi subyektga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari zarar yetkazganligini aniq tasdiqlab turgan faktlarni aniqlagan taqdirda bu haqda xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyatiga (mulkdoriga) ma'lum qilishi hamda auditorlik hisobotiga tegishli qaydni kiritishi shart. Zarur hollarda auditorlik tekshiruvining natijalarini ma'lum qilish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qatnashchi (aksiyador)larning umumiy yig'ili-shi chaqirilishini talab qilishi shart.

Auditorlik tashkiloti zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi. Auditorlik tashkilotlari auditorlik tekshiruvi buyurtmachilari, xo'jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to'g'risida noto'g'ri yakundan iborat bo'lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi. Auditorlik tekshiruvini sifatsiz o'tkazganlik yoki lozim darajada o'tkazmaganlik oqibatida xo'jalik yurituvchi subyektga va (yoki) auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yetkazilgan zarar, shu jumladan, boy berilgan foyda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanishi shart.

O'z navbatida mijoz (xo'jalik yurituvchi subyekt)ning auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda huquq va majburiyatlari ham mavjud.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt quyidagi huquqlarga egadir:

- auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini olish;
- buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish tartibi to'g'risida hamda aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni to'g'rilash haqida auditorlardan maslahat va tavsiyalar olish.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt:

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorga kerakli sharoitlarni yaratib berishi, unga zarur hujjatlarni taqdim etishi;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobot tuzish qoidalari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish tartibi buzilishlarini bartaraf etishi shart.

Xo'jalik yurituvchi subyekt ushbu qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish yoki unga xalaqit berish maqsadlarida u yoki bu harakatlarni (harakatsizlikni) sodir etishga haqli emas.

Xo'jalik yurituvchi subyekt qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida o'zga majburiyatlar bo'lishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi. Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvi o'tkazilishini qo'zg'atuvchi xo'jalik yurituvchi subyekt, uning mulkdori, shuningdek ustav kapitalida qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo'lmagan miqdordagi ulushga ega qatnashchilar va aksiyadorlar, nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardir.

Auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir shartnomaga muvofiq auditorlik xizmatlarining haqini o'z vaqtida to'lashi shart.

13.3. Auditorlik faoliyatini tartibga solish

O'zbekistonda audit 1991-yilda tashkil topa boshladi. Ushbu davrda auditorlik faoliyatini huquqiy tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.

Asosiy me'yoriy hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1992-yil 9-dekabr, (yangi tahrir) 2000-yil 26-may.

2. «Yangi tahrirdagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini kuchga kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qarori. 2000-yil 26-may.

3. «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentabrdagi 365-sonli Qarori.

4. «Auditor malaka sertifikatini berish to'g'risida»gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 13-oktabrda 977-son bilan ro'yxatga olingan (Ushbu Nizomga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 19-apreldagi 977-1 sonli va 2005-yil 18-oktabrdagi 977-2-sonli buyruqlari bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

5. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining Milliy standartlari.

6. O'zbekiston auditorlarining kasbga oid axloq Kodeksi. O'zbekiston auditorlar Palatasining 2005-yil 25-iyun 3-son, O'zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy assosiasiyasining 2005-yil 4-son Qarorlari bilan tasdiqlangan.

Auditorlik tekshiruv natijalari ko'pchilik iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lganligi sababli barcha davlatlarda audit yetarli darajada qat'iy tartibga solinadi. Ularning ayrimlarida (masalan, Fransiyada) auditning me'yorlari, me'yoriy hujjatlarini belgilab, auditorlar va auditorlik firmalarini ro'yxatga olish va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish yo'li bilan davlat ushbu jarayonga aralashadi. Boshqa davlatlarda (AQSH, Angliya) ushbu jarayon kasbiy ijtimoiy auditorlik tashkilotlar tomonidan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda shakllangan va rivojlanayotgan auditorlik faoliyatini huquqiy-me'yoriy tartibga solish tizimini uchta pog'onaga bo'lish mumkin. Ushbu tizimning birinchi (yuqori) pog'onasida O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) turadi. Ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi qaroriga muvofiq qabul qilingan bo'lib, 29-moddadan iborat.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan hukumat qarorlarini ham ushbu tizimning birinchi pog'onasiga kiritish mumkin. Jumladan, 22-sentabr 2000-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 365-sonli «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga muvofiq, «Auditorlik xulosalarini soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risida»gi Nizom, «Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida»gi Nizom va «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish to'g'risida»gi Nizom tasdiqlangan.

Auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish tizimining ikkinchi pog'onasi – auditorlik faoliyatining milliy standartlarini (AFMS) va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik faoliyati milliy standartlari (AFMS) – bu barcha auditorlik tashkilotlari o'zlarining professional faoliyatlari jarayonida rioya qilishlari lozim bo'lgan yagona tartibga solib turuvchi me'yoriy hujjatlardir. Standartlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilib tasdiqlanadi va Adliya Vazirligida ro'yxatga olinadi. O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyati Milliy Standartlari (AFMS) Auditning Xalqaro Standartlari (AXS (International Standards of Auditing – ISAS)) negizida ishlab chiqiladi va asosan, auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish qoidalarini belgilaydi. Bu qoidalar moliya-xo'jalik faoliyatining barcha subyektlarida bir xil qo'llaniladi. Hozirgi kungacha 20 ta AFMS ishlab chiqilgan va Adliya vazirligida ro'yxatga olingan.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifatini va uning natijalari ishonchliligini kafolatlaydi.

Auditorlik faoliyati milliy standartlarini xalqaro standartlar talablari darajasiga yetkazish uchun shakl va mazmun jihatidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

Auditorlik standartlarining ahamiyati quyidagilardan iborat:

- ularga rioya qilinganda auditorlik tekshiruvlarining yuqori sifatli bo‘lishi ta’minlanadi;

- auditorlik amaliyotiga yangi ilmiy yutuqlarni joriy qilishga yordam beradi;

- muayyan vaziyatlarda auditorlar qanday ish tutishlarini belgilab beradi.

Shuningdek, 2002-yil 13-dekabrida «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasiga kiritilgan qo‘shimchaga muvofiq, «Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvining shakllari va usullarini mustaqil belgilaydi». Demak, auditorlik tashkiloti o‘zining ichki ish standartlarini shakllantirishi va buyruq bilan tasdiqlashi zarur. Ichki ish standartlarida tekshiriladigan xo‘jalik yurituvchi subyektning tarmoq, texnologik va boshqa xususiyatlari aks ettirilishi kerak. Ammo, ularning qoidalari xalqaro va milliy standartlar qoidalaridan chetga chiqmasligi lozim. Ichki ish standartlarini auditorlik faoliyati huquqiy-me‘yoriy tartibga solish tizimining uchinchi pog‘onasiga kiritish mumkin.

Demak, uchinchi pog‘ona — xalqaro va milliy standartlarni tatbiq qilish uchun zarur hujjatlar to‘plami, ya‘ni auditorlik tashkilotining ichki ish standartlaridan iborat. Bu hujjatlar standartlarni qo‘llash va ular asosida auditorlik faoliyatini tashkil etishga doir ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Auditorlik faoliyatini me‘yoriy tartibga solish tizimining shakllanishi va rivojlanishida professional jamoat tashkilotlari ham muhim o‘rin tutadi. Jumladan:

I. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy assosiatsiyasi (O‘zBAMA) — buxgalterlar, auditorlar, ilmiy va pedagogik xodimlar, soliqlar bo‘yicha maslahatchilarning respublika jamoat tashkiloti bo‘lib, o‘z a‘zolarini ular manfaatlari va maqsadlarining

umumiyligi, hududiy yoki professional tamoyillar bo'yicha birlashtiradi.

Assosiatsiya O'zbekiston Respublikasida buxgalterlar va auditorlar kasb malakasini rivojlantirish va ularni xalqaro standartlar talablariga moslashtirishni ta'minlaydi. Shuningdek, buxgalterlar va auditorlarni professional himoyalashda amaliy yordam ko'rsatadi.

Assosiatsiya buxgalteriya hisobi, auditorlik faoliyati, soliqqa tortish, xususiylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozori, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining tahlili va moliyaviy menejment bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. Shu bilan birga, yuqorida sanab o'tilgan masalalar bo'yicha maslahatlar beradi va «Hammasi buxgalterlar uchun» nomli oylik byulleten, o'quv, me'yoriy hamda uslubiy adabiyotlar nashr qiladi.

II. O'zbekiston Auditorlar Palatasi (AP) — malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkiloti. Auditorlar Palatasining asosiy maqsadi auditorlarning professionallik darajasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam ko'rsatish, o'z a'zolarining kasbga oid manfaatlarini davlat va jamoat organlarida himoya qilish hamda kasbga oid talablar bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risidagi va axborot ta'minoti bo'yicha aloqa o'rnatishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunini amalga oshirish, auditorlik tekshiruvlarning roli va maqomini oshirish, soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan auditorlik xulosalarini hisobga olishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida» 2000-yil 22-sentabrda 365-sonli Qarorni qabul qildi. Ushbu qarorni amalga tatbiq etish uchun «Auditorlik xulosalarini soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risida» Nizom (Qarorga 1-ilova) ishlab chiqildi.

Mazkur Nizom auditorlik xulosalarini moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvchi (taftish qiluvchi) soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibini belgilaydi.

Nizomga ko'ra, «Mavjud auditorlik xulosalarini umumlashtirish natijalari bo'yicha yig'ma axborot soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda xo'jalik yurituvchi subyektlarini nazorat organlari tomonidan tekshirishning kelgusidagi reja-jadvalini tuzish uchun nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika Kengashiga joriy yilning 1-oktabrigacha taqdim etiladi.

Salbiy auditorlik xulosasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt nazorat organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni tekshirish reja-jadvaliga belgilangan tartibda kiritilishi kerak.

Mazkur nizom qoidalarining buzilishi uchun soliq organlari va boshqa nazorat organlari qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Soliq organlari va boshqa nazorat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'tkazilgan tekshirishda auditorlik xulosasining xo'jalik yurituvchi subyekt moliya-xo'jalik faoliyatining natijalariga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, ushbu auditorlik xulosasi oldindan noto'g'ri deb hisoblanadi, auditorlik tashkiloti, shuningdek, bunda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladi. Bunda soliq organlari va tegishli auditorlik tashkilotlari tomondan amaldagi qonun hujjatlari qoidalarining buzilishi holatlari aniqlanganligi to'g'risida o'n kun muddatda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligini xabardor qilishlari shart.

Noto'g'ri auditorlik xulosasini tuzganlikda aybdor bo'lgan auditorlik tashkiloti va shaxslarning javobgarlikka tortilganligi xo'jalik yurituvchi subyektni soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashning belgilangan tartibini buzganlik uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan jarimalardan ozod etmaydi»¹ deb belgilangan.

Shuningdek, 365-son Qaror talablarini bajarish maqsadida «Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektlardan jarima undirish tartibi to'g'risida» Nizom (Qarorga 2-ilova) ishlab chiqilgan.

¹ O'z.R. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentabr, 365-son «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to'g'risida»gi Qaroriga 1-ilova. «Auditorlik xulosalarini soliq va boshqa nazorat organlari tomonidan hisobga olish tartibi to'g'risida»gi Nizom.

Mazkur Nizom «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazilishidan bo'yin tovlaganligi uchun xo'jalik yurituvchi subyektdan jarima undirishning yagona tartibini belgilab beradi. Ushbu Nizomda, «Mazkur Nizomning amal qilishi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkaziladigan xo'jalik yurituvchi subyektlariga tatbiq etiladi.

13.4. Auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmuni va ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslar (auditorlik tashkilotlar) auditorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Auditorlik tashkilotlari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati ko'rinishidan tashqari, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi va o'z faoliyatini quyidagi majburiy shartlarga rioya etgan holda amalga oshirishi mumkin.

Auditorlik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak. Adliya vazirligi auditorlik tashkilotlarining davlat reyestrini yuritadi. Auditorlik tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va auditorlik tashkilotlarining davlat reyestrini yuritish tartibi qonun hujjatalari bilan belgilanadi.

Auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini o'zining fuqarolik javobgarligi xususidagi sug'urta polisi mavjud bo'lgan taqdirda auditorlik xizmati ko'rsatish to'g'risidagi tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiradi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus litsenziyaga ega bo'lish talab etiladi. Auditorlik tashkilotlari tomonidan maxsus litsenziya olish tartibi «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilab berilgan. Unda, jumladan, quyidagilar belgilangan, «Mazkur Nizom «Auditorlik faoliyati to'g'risida» va «Faoliyatining ayrim turlarini litsensiyalash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi hududida auditorlik faoliyatini litsen-

ziyalash tartibini belgilab beradi. Auditorlik faoliyati auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi, auditorlik tashkilotlarining kasb xizmatlari ko'rsatishlari bundan mustasno.

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (keyingi o'rinlarda litsenziyalovchi organ deb ataladi) amalga oshiradi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, litsenziya berishni rad etish, uning amal qilish muddatini uzaytirish, to'xtatish, bekor qilish, to'xtatib turish yoki litsenziyaning amal qilishini tiklash to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Litsenziya olish uchun taqdim etiladigan hujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

- ta'sis hujjatlarining notarial tasdiqlangan nusxalari va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma;
- litsenziya turlaridan kelib chiqqan holda auditorning malaka sertifikatlarining tasdiqlangan nusxalari;
- arizani ko'rib chiqish uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi bankning to'lov hujjati.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar bir nusxada taqdim etiladi. Auditorlik tashkilotidan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Litsenziya olish uchun ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqiladi.

Auditorlik tashkiloti hujjatlarni ko'rib chiqish va litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish muddati litsenziya olish uchun ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab 15 kalendar kunni tashkil etadi.

Hujjatlar litsenziyalovchi organ tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun (to'lov kunidagi) eng kam ish haqining ikki barobari miqdorida yig'im to'lanadi.

Arizani ko‘rib chiqqanlik uchun yig‘im summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi.

Auditorlik tashkiloti hujjatlarni ko‘rib chiqish davrida bergan arizasini qaytarib olingan holda yig‘im qaytarib berilmaydi.

Litsenziyalovchi organ litsenziya berish yoki litsenziya berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligi haqida auditorlik tashkilotiga qaror qabul qilingandan so‘ng uch kun mobaynida bildirish xati yuborishi kerak.

Litsenziya berish to‘g‘risidagi bildirish xati litsenziya bitimi loyihasi ilova qilingan holda yozma shaklda auditorlik tashkilotiga yuboriladi (topshiriladi), unda davlat boji to‘lanadigan bank hisob raqami rekvizitlari va davlat bojini to‘lash muddati ko‘rsatib o‘tiladi.

Auditorlik tashkiloti tomonidan davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgan taqdirda va litsenziya bitimi imzolangandan so‘ng litsenziya beriladi.

Litsenziya berganlik uchun eng kam ish haqining to‘rt baravari miqdorida davlat boji undiriladi.

Davlat boji respublika budjetiga o‘tkaziladi.

Litsenziyaning asli auditorlik tashkilotiga beriladi, nusxasi belgilangan tartibda litsenziyalovchi organda saqlanadi.

Litsenziyalovchi organ auditorlik tashkiloti tomonidan zarur darajada rasmiylashtirilmagan hujjatlar taqdim etilganligi, hujjatlarda ishonchsiz yoki chalkash ma’lumotlar bo‘lganligi, shuningdek, auditorlik tashkiloti litsenziya talablari va shartlariga muvofiq emasligi sababli auditorlik tashkilotiga litsenziya berilishini rad etishga haqlidir.

Boshqa sabablarga ko‘ra, shu jumladan, maqsadga muvofiq emasligi tufayli litsenziya berishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror asoslangan bo‘lishi va auditorlik tashkilotiga yozma shaklda yuborilishi kerak, unda rad etish sabablari va auditorlik tashkiloti ko‘rsatib o‘tilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatni takroran ko‘rib chiqish uchun

¹ O‘z.R. Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentabr, 365-son «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida»gi Qaroriga 3-ilova. «Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkilotlariga litsenziya berish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom.

taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatib o'tiladi. Litsenziya berishni rad etishga asos bo'lgan sabablarni bartaraf etish uchun auditorlik tashkilotining barcha zarur hujjatlar bilan birga arizasi olingan kundan boshlab 10 kun mobaynida amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotining arizasi qayta ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Auditorlik tashkilotining litsenziya berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablarni bartaraf etish maqsadida berilgan muddat tugagandan so'ng berilgan litsenziya berish to'g'risidagi arizasi yangidan berilgan deb hisoblanadi»¹.

Shuningdek, Nizomda «Litsenziyalovchi organ auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlarining reyestrini yuritadi, unda quyidagilar ko'rsatib o'tilgan bo'lishi kerak:

- auditorlik tashkilotining nomi va uning joylashgan o'rni (pochta manzili);
- telefon (faks) raqami;
- hisob-kitob raqami;
- soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;
- ta'sischilarning ustav kapitalidagi ulushlari to'g'risidagi axborot;
- tashkilot rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda auditor malaka sertifikatining sanasi, uning tartib raqami, shuningdek, tashkilotda ishlovchi auditorlarning malaka sertifikatlarining tartib raqamlari va sanalari;
- litsenziya berilgan sana va uning tartib raqami, uning amal qilish muddati;
- litsenziyalarning amalda bo'lishini uzaytirish, to'xtatib turish, to'xtatish, tiklash va bekor qilish asoslari va sanalari;
- litsenziyalarni qayta rasmiylashtirish va dublikatlar berish asoslari va sanalari.

Reyestrda axborot manfaatdor shaxslarning u bilan tanishib chiqishlari uchun ochiq hisoblanadi va yozma holdagi so'rovga ko'ra reyestrda ko'chirma tariqasida beriladi.

Bir auditorlik tashkilotiga nisbatan reyestrda olingan axborotni berganlik uchun eng kam ish haqining (axborot taqdim etish

to'g'risida ariza berilgan sanadagi) yarmi miqdorida haq undiriladi. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga reyestrda olingan axborot bepul taqdim etiladi.

Reyestrda olingan axborotni taqdim etganlik uchun to'lov summasi litsenziyalovchi organning maxsus hisob raqamiga o'tkaziladi.

Reyestrda olingan axborotni taqdim etish muddati tegishli ariza berilgan sanadan boshlab (uni taqdim etganlik uchun haq to'langanligi to'g'risida hujjat taqdim etilgan taqdirda) uch kundan oshib ketishi mumkin emas» deb belgilangan.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishning majburiy shartlaridan biri — bu auditor malaka sertifikatiga ega bo'lishidir. Malaka sertifikatiga ega bo'lish talablari «Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida»¹gi Nizomda belgilangan. Mazkur Nizom «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va auditor malaka sertifikatini berish, amal qilishini uzaytirish, to'xtatish va bekor qilish tartibini belgilaydi. (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i tahriridagi band).

Nizomga muvofiq, «Auditor malaka sertifikati jismoniy shaxsga, bosharti u auditorlik tashkiloti shtatida bo'lsa yoki u bilan auditorlik tashkiloti fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, auditorlik tekshiruvini amalga oshirish huquqini beradi.

Malaka sertifikatiga ega bo'lgan har bir auditor malaka sertifikatini olgan yildan keyingi yildan e'tiboran har bir yil mobaynida respublika auditorlar jamoat birlashmasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan malaka oshirish dasturlari bo'yicha 60 soatdan kam bo'lmagan hajmda malaka oshirish kurslarini o'tishi shart. (O'zR AV 20.04.2004. 977-1-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i taxiridagi xatboshi).

¹ Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 13-oktabrda 977-son bilan ro'yxatga olingan. Nizomga O'zR Moliya Vazirligining 2004-yil 19-apreldagi 977-1-sonli va 2005-yil 18-oktabrdagi 977-2 sonli buyruqlari bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Auditor malaka sertifikatini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan, agar da'vogar malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan bo'lsa beriladi. Malaka imtihoni auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishga da'vogar bo'lgan shaxslar (matn davomida – da'vogar) bilimlarini tekshirish vositasi hisoblanadi.

Malaka imtihonini topshirishga mazkur Nizom bilan belgilanadigan malaka talablariga javob beradigan da'vogarlar qo'yiladi.

Malaka sertifikatini berganlik, amal qilishini uzaytirganlik, qayta rasmiylashtirganlik uchun, shuningdek, uning dublikatini berganlik uchun da'vogar (auditor) mazkur Nizomda belgilangan miqdorlarda yig'im to'laydi.

Ko'rsatilgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining maxsus schotga o'tkaziladi hamda malaka imtihonlarini o'tkazish va auditor malaka sertifikatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun ishlatiladi. (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i taxiridagi band).

Auditor malaka sertifikatini olishga da'vogar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga yoki xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga ekvivalent deb tan olingan oliy iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lish va oxirgi o'n yil ichida kamida uch yillik buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy yoki soliq nazorati sohasida yoxud shu sohalarda dars berish amaliy (shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha) ish stajiga ega bo'lish; (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi xatboshi) yoki O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida olingan iqtisodiy bo'lmagan oliy ma'lumot yoxud xorijiy davlatlarning ta'lim muassasalarida olingan hamda qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi ta'limga ekvivalent deb tan olingan iqtisodiy bo'lmagan oliy ma'lumot bilan oxirgi o'n yil ichida kamida 5 yil auditor, bosh buxgalter, taftishchi yoki soliq inspektori sifatida ish stajiga ega bo'lish, shu jumladan,

o'rindoshlik bo'yicha; (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang) yoxud O'zbekiston Respublikasida yoki xorijiy davlatlarda (qonun hujjatlariga muvofiq nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) o'tkazilganligi sharti bilan) olingan iqtisodiyot fanlari nomzodi (doktori) ilmiy darajaga ega bo'lish;

2) Respublika auditorlar jamoat birlashmasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ta'lim dasturi asosida auditorlarni tayyorlash markazlarida maxsus tayyorgarlikdan o'tilishi Sertifikatlangan buxgalter-amaliyotchi (SAR)» yoki «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)» sertifikatlash doirasida professional buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash dasturi bo'yicha «Moliyaviy hisob» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatning mavjud bo'lishi; (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV Buyrug'i tahriridagi xatboshi) «Sertifikatlangan buxgalter-amaliyotchi (SAR)» sertifikatiga yoki «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)» sertifikatiga hamda O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy sohalarda 5 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lgan da'vogarlariga auditorlarni tayyorlash markazlarida maxsus tayyorgarlikdan o'tmasdan malaka imtihonini topshirishga ruxsat beriladi (O'zR AV 18.10.2005. 977-2-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV buyrug'i tahriridagi xatboshi)»¹ deb e'tirof etiladi.

Auditorlik tashkilotlar auditorlik faoliyatidan tashqari qandaydir boshqa ishbilarmonlik va unga bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullana olmaydilar. Auditorlik tashkilotining asosiy xizmat turi majburiy auditni amalga oshirishdir. Aks holda u auditorlik tashkiloti deb hisoblanishi mumkin emas.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida, asosan, kichik auditorlik firmalar ko'pchilikni tashkil etadi.

¹ «Auditor malaka sertifikatini berish tartibi to'g'risida»gi Nizom. O'z.R. Adliya Vazirligi tomonidan 13.10.2000-y. 977-son bilan ro'yxatga olingan. (Ushbu Nizomga O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2004-yil 19-apreldagi № 977-1 va 2005-yil 18-oktabrdagi № 977-2 buyrug'i bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

Bizning mamlakatimizda audit instituti rivojlana borishi munosabati bilan auditorlik firmalar uyushma, ittifoq va boshqa birlashmalarga birlasha boshladilar. Bunday birlashishdan maqsad — auditorlik faoliyatini rivojlantirish, tajriba almashish, ta'sir doirasini ajratish. Mamlakatimizda auditorlar va buxgalterlarning ijtimoiy-kasbiy birlashmalari tashkil etilgan va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bu, birinchi navbatda, O'zbekiston buxgalterlar va auditorlari milliy Assosiatseyasi (O'zBAMA), Auditorlar Palatasi (AP).

O'zBAMA — buxgalterlar, auditorlar, ilmiy va pedagogik xodimlar, soliqlar bo'yicha maslahatchilarning respublika jamoat tashkiloti bo'lib, o'z a'zolarini ular manfaatlari va maqsadlarining umumiyliги, hududiy yoki professional himoyalashda amaliy yordam ko'rsatadi.

O'zBAMA buxgalteriya hisobi, auditorlik faoliyati, soliqqa tortish, xususiylashtirish, qimmatli qog'ozlar bozori, korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatining tahlili bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi. Shu bilan birga, buxgalteriya xodimlari va auditorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarini tashkil etadi.

Auditorlik palatasi — malaka sertifikatiga ega mustaqil auditorlarni ixtiyoriy tarzda birlashtiruvchi, mustaqil notijorat jamoat tashkilotidir. AP ning asosiy maqsadi auditorlarning professionallik darajasini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga yordam berish, o'z a'zolarining kasbga oid manfaatlarini davlat va jamoat organlarida himoya qilish hamda kasbga oid talablar bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risidagi va axborot ta'minoti bo'yicha aloqa o'rnatishdan iborat.

Auditorlik xizmati bozorida faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik tashkilotlarni quyidagicha tasavvur qilish mumkin: xorijiy auditorlik va konsalting tashkilotlari, o'rta va kichik tashkilotlar.

Eng taniqli xorijiy auditorlik firmalariga quyidagilarni kiritish mumkin: Ernst&Young, KPMG, Price Waterhouse Coopers, Deloitte&Tohatsu International. Bu tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan xizmatlar narxi mahalliy tashkilotlarning shunga o'xshash xizmatlar narxidan ancha qimmatroqdir, lekin

chet el investorlari aynan ushbu tashkilotlarning audit bo'yicha xulosalarini tan oladilar. Ko'pchilik mahalliy tashkilotlar audit bo'yicha ishlarni malakaliroq bajaradilar, xorijiy tashkilotlar esa auditning xalqaro standartlarini va ilg'or ish uslubini tarqatishga yordam qiladilar.

Auditorlik tashkilotining kasbiy xodimlari bajarayotgan vazifalari bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratilishi mumkin:

- auditorlik tekshiruvi rahbarlari;
- auditorlar (guruh rahbarlari);
- auditor yordamchilari;
- auditorlik tekshiruvlarining oddiy ishtirokchilari;
- boshqa mutaxassislar.

Auditorlik tashkilotining buxgalteriya hisobi buxgalteriya tomonidan yuritiladi. Yirik bo'lmagan auditorlik tashkilotlar soddalashtirilgan ikki darajali boshqaruv tizimiga ega bo'lishlari mumkin — auditorlik tashkilotning rahbari, odatda, tekshiruv rahbari ham hisoblanadi.

Tadbirkorlik sohasini kengaytirish, ko'pincha, auditor amaliy ish olib bormaydigan joylarda filiallar yoki sho'ba kompaniyalar tashkil etishga olib keladi. Bunday sharoitlarda mijoz (amaldagi auditor mijoz bilan kelishuvga muvofiq), topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan professional xizmatlar olish (ko'rsatish) uchun ushbu hududda faoliyat ko'rsatayotgan auditorga murojaat qilishi mumkin.

Auditorlik faoliyatining qandaydir turini berish maxsus xizmatlar yoki vazifalar sohasida vujudga kelishi mumkin. Auditorlar tomonidan taklif qilinadigan xizmatlar miqyosi kengayib boradi va ko'p hollarda jamiyatga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'ladigan chuqur maxsus bilimlarni talab etadi. Bitta auditor kasbning barcha sohasida hamma tajribaga ega bo'lishi yoki ekspert bo'la olish imkoni yo'qligi sababli ayrim auditorlar o'z firmalarida, talab qilinishi mumkin bo'lgan, maxsus xizmatlarni to'liq rivojlantirishni amalga oshirish samarasiz degan xulosaga keldilar.

Auditorlar faqat ularning professional kompetensiyasiga javob beradigan xizmat turlarini ko'rsatishlari mumkin. Shuning uchun kasb uchun butunligicha va mijozlar manfaati uchun auditorlar

kompetentli shaxslardan tegishli maslahatlarni olishlari uchun ochiq bo'lishlari muhimdir.

14-MAVZU. AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TAYYORLASH

14.1. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma. Dastlabki kelishuvlar

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma «mijoz-auditor» o'zaro munosabatlarini chegaralab beruvchi rasmiy hujjat hisoblanadi va umumiy jihatlari bilan tadbirkorlik faoliyatida qo'llaniladigan shartnomalardan farq qilmaydi. Bu hujjat, boshqa shartnomalar kabi, tomonlarning, ya'ni shartnoma ishtirokchilarining, bu yerda buyurtmachi-mijoz va ijrochi-auditor, o'zaro kelishilgan manfaatlarini huquqiy tomondan tartibga soladi.

Shuning bilan bir qatorda, auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma tadbirkorlikda qo'llaniladigan boshqa shartnomalardan muhim farqlari ham mavjud – bu, birinchi navbatda, shartnoma tuzish vaqtida oshkorasiz holda uchinchi tomon (moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilar) manfaatlarini hisobga olishdir. Zero, amalda, agar tekshiruv sifatsiz o'tkazilganligi natijasida zarar yetkazilsa, auditor nafaqat mijoz oldida, balki ushbu foydalanuvchilar oldida ham mas'uldir. Shartnoma imzolanishidan oldin, auditor o'zi uchun nafaqat imkoniyati boricha mijoz istaklarini aniqroq bilib olishi, balki unga o'z buyurtmasini to'g'ri shakllantirishda yordam berishi lozim. O'tkaziladigan auditorlik tekshiruvi sifati hamda auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ko'p jihatdan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnoma aniq tuzilganligiga bog'liqdir.

Ko'pchilik auditorlik tashkilotlar shartnoma tuzishning namunaviy shakllaridan foydalanadilar, lekin, shunga qaramasdan, shartnomada aniq bir korxonani audit qilish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir, zero mijozlar, ko'p hollarda, uning ma'nosi va mohiyatini yetarli darajada tushunmasliklari mumkin.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada auditor tomonidan auditorlik xulosasini taqdim etishdan voz kechish imkoniyatini aks yetish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tekshiruv o'tkazish uchun kerakli bo'lgan hujjatlarni mijoz tomonidan taqdim etish muddatlarini belgilash lozim, chunki ko'p holatlarda, buxgalteriya hisoboti hali tayyor bo'lmasdan turib mijozlar auditorni taklif qiladilar, bu, o'z navbatida, ishni juda ham murakkablashtiradi. Shartnomada mijoz tomonidan auditorlik tashkilotiga oldindan pul to'lashni ko'zda tutish maqsadga muvofiqdir, zero oldindan pul to'lanishi auditorning moliyaviy mustaqilligini ta'minlaydi, tekshiruv o'tkazish jarayonida mijoz tomonidan o'tkazilgan audit uchun tegishli haqini to'lamaslik yo'li bilan qo'rqitib «tazyiq» o'tkazishning oldini oladi. Odatda, auditorlik firmalari tomonidan oldindan pul o'tkazish miqdori to'g'risidagi talablar 50 foizdan 100 foizgachani tashkil etadi.

Shartnomada tekshiruv jarayonida mijoz tomonidan auditorga yordam ko'rsatishi lozimligi to'g'risida majbur ekanligini ko'zda tutilishi maqsadga muvofiqdir (inventarizatsiya o'tkazishda yordam berish uchun o'z xodimlarini jalb qilish, xizmat safariga chiqish zaruriyati bo'lganda auditorni transport vositasi bilan ta'minlash va boshqalar).

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomani tuzishda auditorlik xizmatlarining qiymatini baholash muhim o'rin tutadi. Xizmatlar qiymatini pasaytirmaslikka ham va ko'tarmaslikka ham intilish lozim, zero unisi ham, bunisi ham, ko'pchilik holatlarda, ayniqsa, u ushbu auditorlik firmasiga birinchi bor murojaat qilgan taqdirda mijozni «cho'chitib» yuboradi.

O'zbekistonda auditorlik xizmatlari bozori tobora shakllanib borishi natijasida auditorlik xizmatlariga oid narx-navolar tartibga solinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda auditorlik xizmatlari qiymatini baholash mavjud bo'lgan turlarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- akkord to'lovi;
- vaqtbay to'lovi;
- ishbay to'lovi.

«Haq to'lashning akkord tizimi ishning butun hajmi uchun ish haqi miqdorini belgilaydi va akkord topshiriqlarining qisqa muddatda bajarilganligi uchun mukofotlashni o'z ichiga oladi. Ishlarning umumiy qiymati bunda vaqt (bajarilgan ish) va narxlar me'yori asosida aniqlanadi. Brigadaga asosiy va yordamchi ishlarning barchasini nazarda tutuvchi akkord topshirig'i beriladi»¹.

Akkord to'lovida auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada to'lov summasi tekshiruv boshlanmasdan oldin belgilanadi va qayd etiladi. Ayrim auditorlik tashkilotlar ushbu summani mijozning moliyaviy imkoniyatlari yoki boshqa bir qancha mezonlardan kelib chiqib erkin belgilaydilar. Lekin, ko'pchilik auditorlik tashkilotlari shartnoma tuzishdan oldin mijoz faoliyati xususiyatlari bilan tanishish, taxminiy auditorlik tavakkalchiligini baholash va bajariladigan ishlarga sarflanadigan mehnat hajmini aniqlash maqsadida, auditorga muayyan haq to'lab, uni mijoz bilan tanishib chiqish uchun yuboradilar. Shundan keyin, auditorlik tashkiloti bajariladigan ishlarning umumiy qiymatini belgilaydi va mijoz bilan shartnoma tuzadi.

«Vaqtbay ish haqi, odatda, xodim mehnatini me'yorga solib bo'lmaydigan yoki bajarilayotgan ishlarni hisobga olib bo'lmagan hollarda qo'llanadi. Mehnatga vaqtbay haq to'lashda ishchi yoki xizmatchining ish haqi uning malakasi va ishlagan ish vaqtiga qarab belgilanadi»².

Vaqtbay to'lovi — barcha davlatlarda auditorlik xizmatlari bozorida eng ko'p tarqalgan to'lov turidir. Agar ko'zda tutilmagan vaziyatlar natijasida mehnat sarfi hajmi ko'paysa, ishlar qiymati ham mutanosib ravishda oshib boradi.

Vaqtbay to'lovi auditorning bir soat (kun) ish vaqtini baholashga asoslanadi va uning malakasiga ham bog'liqdir.

Ishbay to'lovi, odatda, buxgalteriya hisobini tiklashda qo'llaniladi. Hisob-kitob hisobdagi har bir operatsiya, har bir ko'rsatkich qiymatini aniqlashdan kelib chiqadi. «Mehnatga ishbay haq

¹ Xasanov N. va boshq. Korxonalarda ish haqi. SBX gazetasi kutubxonasi. — T.: 2004. 41-b.

² O'sha manba, 35-b.

to'lashda vaqt birligi uchun amaldagi baholar asosida haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot) uchun haq to'lanadi»¹.

Ayrim korxonalar, jumladan, auditorlik tashkilotlari darajasida ishga haq to'lash va ish beruvchi bilan xodim o'rtasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish unda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar-mehnat shartnomalari asosida amalga oshiriladi, ular korxona rahbariyati tomonidan mehnat jamoasi vakillari ishtirokida ishlab chiqiladi.

Auditor va mijoz kelishuv shartlari bo'yicha kelishib olishlari lozim. Kelishilgan shartlar audit bo'yicha xat-kelishuv yoki har qanday boshqa tegishli shaklda rasmiylashtirilishi lozim.

Audit bo'yicha dastlabki kelishuvlarda auditor quyidagilar yuzasidan yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarni olishi lozim:

- boshlang'ich qoldiqlarda joriy davrning moliyaviy hisobotiga muhim ta'sir ko'rsatadigan noto'g'riliklar mavjud emas;

- oldingi davrning yakuniy qoldiqlari joriy davrga to'g'ri o'tkazilgan yoki lozim bo'lganda tuzatilgan;

- tegishli hisob siyosati izchillik bilan qo'llaniladi yoki hisob siyosatidagi o'zgarishlar tegishli ravishda hisobga olingan va mos yoritilgan.

«Boshlang'ich qoldiqlar» – bu davr boshiga mavjud bo'lgan schotlar bo'yicha qoldiqlar. Boshlang'ich qoldiqlar oldingi davrning yakuniy qoldiqlariga asoslanadi va quyidagilar ta'sirini aks etadi:

- oldingi davr operatsiyalari;

- oldingi davrda qo'llanilgan hisob siyosati.

Audit bo'yicha dastlabki kelishuvda auditor bunday boshlang'ich qoldiqlarni tasdiqlovchi avval olingan auditorlik dalillarga ega bo'lmaydi.

Boshlang'ich qoldiq yuzasidan auditor olishi lozim bo'lgan auditorlik dalillarning yetarliligi va tegishliligi quyidagilarga bog'liq:

- subyekt rioya qilayotgan hisob siyosatiga;

- oldingi davrda moliyaviy hisobot yuzasidan audit o'tkazilganligiga;

- joriy davrning schotlar tavsifi va moliyaviy hisobot noto'g'ri aks etilishining tavakkalchiligiga;

¹ O'sha manba, 37-b.

– joriy davr moliyaviy hisoboti bo'yicha boshlang'ich qoldiqlarning muhimligiga.

Auditor boshlang'ich qoldiqlar hisob siyosati qo'llanishini aks etishligi va ushbu siyosat joriy yilning moliyaviy hisobotiga nisbatan to'g'ri qo'llanishini ko'rib chiqishi lozim. Hisob siyosatida va uni qo'llashda qandaydir o'zgarishlar sodir etilgan taqdirda, auditor ular tegishli ravishda va lozim bo'lganda hisobga olinganligi va mos yoritilganligini ko'rib chiqishi lozim.

Oldingi davrning moliyaviy hisoboti boshqa auditor tomonidan o'tkazilgan taqdirda, amalda harakat qilayotgan auditor oldingi auditorning ishchi hujjatlarini sharhlash yo'li bilan schotlarning boshlang'ich qoldig'i yuzasidan yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday vaziyatlarda amalda harakatda bo'lgan auditor, shuningdek, oldingi auditorning kasbiy xabardorligi va mustaqilligini ko'rib chiqishi lozim. Agar oldingi davr bo'yicha auditorlik hisoboti modifikatsiyalashtirilgan bo'lgan taqdirda, auditor joriy davrda modifikatsiyalashtirishga sabab bo'lgan masalaga o'z e'tiborini qaratishi kerak.

Joriy aktivlar va majburiyatlar yuzasidan ayrim auditorlik dalillar, odatda, joriy davr auditorlik muolajalarining bir qismi tariqasida olinishi mumkin. Masalan, joriy davr mobaynida davr boshiga taalluqli debitorlik qarzini (kreditorlik qarzini) qoplanishi (to'lanishi) davr boshiga ularning mavjudligi, huquqlar va majburiyatlar, to'liqlik va baholash bo'yicha ayrim auditorlik isbotlarni taqdim etadi. Biroq tovar-moddiy zaxiralar bilan bog'liq bo'lgan holatlarda auditorga tovar-moddiy zaxiralarning davr boshiga mavjudligini aniqlashda qiyinroq. Shuning uchun, odatda, tovar-moddiy zaxiralarning joriy inventarizatsiyani o'tkazish yuzasidan kuza-tish, davr boshiga tovar-moddiy zaxiralar birligiga berilgan bahoni testlash hamda yalpi daromad va davr bo'yicha taqsimotini testlash kabi qo'shimcha muolajalar lozim bo'ladi. Ushbu muolajalarning quramasi yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalillarni taqdim etishi mumkin.

Asosiy vositalar, investitsiyalar, uzoq muddatli qarzlar, uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlar uchun auditor, odatda, boshlang'ich qoldiqlar asosida hisob yozuvlarini tekshiradi. Muayyan

holatlarda auditor qoldiqlar bo'yicha, masalan, uzoq muddatli qarzlilar va investitsiyalar bo'yicha, tasdiqlarni uchinchi tomondan olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqa holatlarda esa auditorga qo'shimcha auditorlik muolajalarini amalga oshirish lozim bo'lishi mumkin.

14.2. Auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati

Mijoz va auditor o'rtasidagi o'zaro kelishuvini belgilovchi qo'shimcha hujjat bo'lib audit o'tkazishga rozilik berish to'g'risidagi va auditor tomonidan o'z mijoziga yo'llangan xati hisoblanadi (ushbu hujjatdan oldin mijozning tegishli rasmiy taklifi mavjud ekanligi nazarda tutiladi).

Auditor va mijoz o'rtasidagi bir marotaba bo'ladigan kelishuvlarda auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi rozilik xati tomonlar o'rtasida tuziladigan shartnoma o'rnini bosishi mumkin.

Bunda auditor tomonidan taklif etilgan tekshiruv shartlariga mijoz yozma ravishda rozilik bildirishi lozim.

Mijozga yo'llangan auditor (auditorlik firmasi)ning majburiyat-xati audit o'tkazishga roziligini yoki ayrim korxonalar va tashkilotlar (banklar, jamg'armalar, sug'urta kompaniyalari, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlar va boshqalar) uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan rasmiy auditorlarning taklif etilishini tan olganligini tasdiqlaydi.

Auditorlik tekshiruvi boshlanishdan oldin mijozga xat yo'llanishi mijozning ham auditorning ham manfaatlariga mos keladi, chunki bu auditorlik tekshiruvi yakunlangandan keyin ikki tarafning majburiyatlariga oid ko'plab anglashilmovchiliklarning oldini olish imkoniyatini yaratadi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi xatda quyidagilar ko'rsatiladi:

- audit o'tkazilishining zaruriyati;
- korxonada buxgalteriya hisobi ishonchliligi va nazorat samaradorligini aniqlash uchun test tekshiruvlarini o'tkazish hamda buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asoslanganligi, aniqliligi va ishonchliligi, qabul qilingan hisob tartibi amaldagi qonunchilikka

muvofigliligini aniqlash maqsadida ma'lum muolajalarni amalga oshirish zarurligi.

Xatning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- audit obyektlarini yoritish (buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot) va uning miqyoslarini aniqlash (tekshiruv mazmuni va muddatlari);

- taqdim etilgan ma'lumotlar uchun mijozning mas'ulligini belgilash;

- amaldagi me'yoriy hujjatlar, qonunchilik yoki malakali auditorlik birlashmalar tavsiyalari, auditor rioya qiladigan qoidalar doirasida audit chegaralarini belgilash;

- auditorlik faoliyati natijalari bo'yicha jamlovchi xulosa, hisobot yoki boshqa turlarini aniqlash;

- ichki nazorat tizimi nomukammalligi sababli muhim aniqsizliklar yoki xatoliklar aniqlanmay qolinishi tavakkalchiligini belgilash;

- audit paytida o'rganiladigan barcha muntazam va tahliliy hisob, hujjatlar va boshqa turdagi kerakli ma'lumotlardan bemalol foydalanish imkonini yaratish;

- tadbirkorlik bilan bog'liq bo'lgan sirni saqlash to'g'risida auditorning majburiyati.

Audit o'tkazish to'g'risida rozilik berilgan xatda auditor va mijoz javobgarligi belgilanadi. Auditor javobgarligi deb amaldagi qonunchilikka va tomonlar kelishuviga muvofiq auditorning ma'naviy va moddiy javobgarligi tushuniladi. Auditor moliyaviy hisobotga oid o'z xulosasi bo'yicha javobgardir.

Mijoz javobgarligi deb auditorlik tekshiruvi uchun moliyaviy hisobni tashkil etuvchi, amaldagi qonunchilikka va me'yoriy hujjatlarga muvofiq mavjud bo'lgan ma'lumotni to'liq taqdim etishi va auditorlik xulosasidan maqsadga muvofiq foydalanishi tushuniladi.

Ayrim mamlakatlarda auditning maqsadi va ko'lam, shuningdek, auditorning majburiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi. Biroq, bunday vaziyatlarda ham auditor audit bo'yicha xatlar-kelishuvlar mijoz uchun foydali ma'lumotga ega deb hisoblashi mumkin.

Auditor, o'z manfaati bilan bir qatorda, mijoz manfaatini ko'zlagan holda, xat-kelishuvni mijozga kelishuvni amalga oshirishdan oldin jo'natgani maqsadga muvofiqdir, bunda taqdim etiladigan xizmatlar yuzasidan tushunmovchiliklarning oldi olinadi. Xat-kelishuv auditor qabul qilingani, auditning maqsadi va ko'lami, auditorning mijoz oldidagi javobgarlik darajasi va taqdim etiladigan har qanday hisobot shaklini hujjatlashtiradi va tasdiqlaydi.

Audit bo'yicha xat-kelishuvlarning shakli va mazmuni har bir mijoz bo'yicha farqlanishi mumkin, lekin, asosan ular quyidagilarni aks ettirishi zarur:

- moliyaviy hisobot auditining maqsadi;
- subyekt rahbariyatining taqdim etilayotgan moliyaviy hisobot bo'yicha mas'uliyati;
- auditor o'z ish faoliyatida rioya qiladigan amaldagi qonunchilikka, me'yoriy hujjatlarga yoki kasbiy idoralarining maxsus hujjatlariga asoslangan auditning ko'lami;
- qandaydir hisobotlar shakli yoki auditor ish natijalarini taqdim etishning boshqa bir usuli;
- audit jarayoniga xos bo'lgan xolis cheklovlar, jumladan, ko'rsatkichlarni tanlab olib tekshirish tavsifga ega bo'lganligi, shuningdek, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining har qanday o'ziga xos bo'lgan cheklovlar oqibatida ayrim, jumladan, ahamiyatli yanglishlar ham aniqlanmay qolishlik tavakkalchiligining mavjudligi.

Audit o'tkazish munosabati bilan rasmiy talab etiladigan barcha hisob yozuvlari, hujjatlar va boshqa ma'lumotlar bilan cheklovsiz tanishish.

Shuningdek, auditor xatga quyidagilarni kiritishi mumkin:

- auditni rejalashtirish bo'yicha tadbirlar;
- audit o'tkazilishi munosabati bilan subyekt rahbariyati tomonidan qilingan taqdimotlar bo'yicha yozma tasdiqlashlar taqdim etilishini kutish;
- xat-kelishuv mijoz tomonidan olinganligi tan olinib, kelishuv shartlari tasdiqlanganligini so'rash;
- auditor mijozga taqdim etish uchun mo'ljallagan boshqa qandaydir xatlar yoki hisobotlarning yoritilishi.

Xizmat haqi hisoblanishining asoslari va schotlar taqdim etish bo'yicha har qanday kelishuvlar.

Lozim bo'lgan taqdirda, xatda quyidagi masalalar ham yoritilishi mumkin:

- auditning ayrim tomonlari bo'yicha boshqa auditorlar va ekspertlarni jalb qilish yuzasidan tadbirlar;

- mijozning ichki auditorlari va boshqa xodimlarini jalb qilish yuzasidan tadbirlar;

- auditor ushbu mijoz bilan birinchi marotaba ish olib bora-yotgan taqdirda, oldingi auditor bilan ish olib borish yuzasidan tadbirlar;

- imkoniyat bo'lgan taqdirda, auditor mas'uliyatini cheklash.

Auditor va mijoz o'rtasida kelgusidagi har qanday kelishuvlarni izohlash.

Bosh kompaniya auditori, shuningdek, uning sho'ba korxonalari, filiallari yoki bo'linmalari (tarkibiy qismlari)ning auditori bo'lib hisoblangan taqdirda, auditorning tarkibiy qismiga alohida xat-kelishuv jo'natish yoki jo'natmaslik to'g'risidagi qaroriga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- subyektning tarkibiy qismiga auditor kim tomondan tayinlanganligi;

- subyektning tarkibiy qismi bo'yicha alohida auditorlik hisoboti tayyorlanadimi yoki yo'qmi;

- huquqiy talablar;

- boshqa auditorlar tomonidan bajarilgan har qanday ish hajmi;

- bosh kompaniyaga tegishli bo'lgan mulkchilikning ulushi.

Tarkibiy qism rahbariyatining mustaqillik darajasi. Keyingi auditlarni o'tkazish holatlarida auditor vaziyat kelishuv shartlarini qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etishligi va mijozga amaldagi kelishuv shartlari to'g'risida eslatma berish lozimligi to'g'risida qaror qabul qiladi.

Audit yakunlangunga qadar auditordan ishonchlilikning pastroq darajasini ta'minlash maqsadida kelishuv shartlarini o'zgartirish to'g'risida iltimos qilingan taqdirda, auditor bunday o'zgartirishning o'rinnililigini ko'rib chiqishi lozim.

Mijoz auditoridan kelishuvga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi iltimosi ko'rsatilayotgan xizmatlarga ta'sir etuvchi vaziyatlar o'zgarishi, oldin so'ralgan audit tavsifi va kasbga doir xizmatlarga noto'g'ri tushunish, subyekt rahbariyati tomonidan yoki vaziyatdan kelib chiqib kelishuv ko'lamining cheklanishidan kelib chiqishi mumkin. Auditor bunday iltimos asosida yotgan sabablarni, ayniqsa, kelishuv ko'lamini cheklashdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni diqqat bilan o'rganib chiqishi kerak.

Subyekt talablariga ta'sir etuvchi vaziyatlarning o'zgarishi yoki dastavval so'rab talab etilgan xizmat tavsifini noto'g'ri tushunish, odatda, kelishuvdagi shartlar o'zgartirilishi uchun oqilona sabab deb ko'riladi. Va bunga zid holda, garchi o'zgartirishlar noaniq, to'liq bo'lmagan yoki boshqacha qoniqarsiz ma'lumot bilan bog'liq bo'lsa, bunday o'zgartirishlar oqilona deb hisoblanmaydi.

Kelishuv shartlarini o'zgartirish uchun oqilona asoslar bo'lmagan taqdirda, auditor bunday o'zgartirishlarga rozilik berishi kerak emas. Misol tariqasida auditor debitorlik qarzlar yuzasidan yetarli tegishli auditorlik dalillarni to'play olmaganligi oqibatida mijoz izohlar bilan auditorlik xulosasini olmaslik yoki fikr bildirishlikdan voz kechishning oldini olish uchun kelishuv shartlarini sharhlar berish bilan o'zgartirilishini iltimos qilishini ta'kidlash mumkin.

Auditor kelishuv shartlarini o'zgartirilishiga rozi bo'la olmagan va u ishni dastlabki shartlarga muvofiq davom ettirish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, auditor kelishuvni bekor qilishi va shartnomaviy yoki har qanday boshqa majburiyatlar mavjudligi to'g'risida savolni ko'rib chiqishi lozim. Auditor kelishuv bekor qilinishi sabablari to'g'risida boshqa tomonlarga, masalan, direktorlar yoki kuzatuv Kengashiga tegishli ma'lumot berishi kerak.

14.3. Subyekt to'g'risida umumiy ma'lumot olish

Ushbu bosqichda auditor mijoz bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiqligi masalasini hal etishi kerak. Mijoz qaysi sabablarga ko'ra auditor xizmatiga murojaat qilayotganligini aniqlashi, tekshiruv o'tkazish uchun xodimlar jadvalini shakllantirishi, mijoz bilan

shartnoma tuzishi lozim. Mijoz bilan oldindan tanishish jarayonida auditor quyidagilarni baholaydi:

- 1) mijozning moliyaviy barqarorligi;
- 2) iqtisodiy muhitda mijozning mavqeyi;
- 3) agar mijoz oldingi auditoridan ma'lumot olishga ruxsat bermasa yoki oldingi auditor ma'lumot berishdan bosh tortsa, mijozning bundan oldingi auditorlik firmasi bilan munosabatlari.

Auditor huquqshunoslar, boshqa auditorlik firmalar, tadbirkorlar va boshqalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotdan foydalanishi mumkin.

Shuningdek, mijoz bilan bir necha yillardan buyon hamkorlik qilayotgan firmalar kelajakda hamkorlikni davom ettirish ehtimolini baholashlari mumkin. Munozarali masalalar hamkorlikning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Kelishilmovchiliklar sud orqali ko'rilganda, mustaqilligi yo'qotilishi sababli, auditor mijoz bilan ishni davom ettirishi mumkin emas.

Korxona to'g'risida umumiy ma'lumot keyinchalik hisobot ishonchliligi to'g'risida asoslangan xulosa tayyorlash uchun kerak bo'ladi. Xususan, korxonaning tarmoq va faoliyatining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini, uning tashkiliy tuzilishini aniqlash, tashqi, moliyaviy va boshqa aloqalarini tekshirish, huquqiy majburiyatlari bilan tanishish lozim.

Korxona to'g'risida asosiy ma'lumot manbasi quyidagilardir:

- 1) boshqaruv xodimlari bilan muhokamalar o'tkazish, «birinchi qo'ldan» ma'lumot olish imkonini yaratish maqsadida hisob yuritish bilan bog'liq bo'lmagan yuqori bo'g'in rahbariyati va ijrochi xodimlar bilan uchrashish;

- 2) aktivlarning mavjudligi va but saqlanayotganligiga ishonch hosil qilish, ishlab chiqarish ishlari va jarayoni to'g'risida tasavvurga ega bo'lish maqsadida, asosiy bo'limlarda, ishlab chiqarish ustaxonalarida, omborlarda bo'lish va ularni ko'rib chiqish;

- 3) tashqi va ichki hisobotlar hamda chop etilgan hujjatlar. Ish bo'yicha nashrlar va gazetalar, tarmoq bo'yicha tahliliy hisobotlar, asosiy raqobatchilar va tarmoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirishlar, davlat va soliq idoralarining ushbu korxonaga taalluqli bo'lgan tegishli hujjatlari tashqi hujjatlar hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotlar, har oylik moliyaviy ma'lumot, direktorlar Kengashi, direksiya boshqaruvi, aksiyadorlar kengashlarining bayonnomalari, auditorlar va maslahatchilarning ichki hisobotlari, firma ichidagi muolajalar va hisob siyosatga oid yo'riqnomalar ichki hisobotlar va chop etilgan hujjatlar hisoblanadi;

– turli jabhalar bo'yicha korxonaning hisob siyosati to'g'risida ma'lumot olish, turli bo'g'in rahbarlarning javobgarligi va huquqlari darajasini bilib olish korxona siyosatini tushunish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini aniqlash juda muhim ahamiyatga ega. Mijoz-korxona faoliyati bilan tanishishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Umumiy iqtisodiy omillar.

Mijozning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir qiluvchi va auditor o'z e'tiborini qaratishi lozim bo'lgan umumiqtisodiy omillar sirasiga quyidagilar kiradi:

- qayta moliyalash stavkalari;
- muomaladagi pul miqdori;
- xorijiy valyutaning almashuv kursi;
- xalqaro kelishuvlar;
- qonun va me'yoriy hujjatlar;
- faoliyatning umumiy shartlari – vaqtinchalik qiyinchiliklar, ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya.

2. Iqtisodiyot tarmog'i.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini o'rganishi jarayonida auditor xo'jalik yurituvchi subyekt tarmog'ida yuzaga kelayotgan, shu jumladan, quyidagi sharoitlar haqida xabardor etilishi lozim:

- tarmoqning o'sishi va moliyaviy natijalari to'g'risida;
- tarmoq mahsulotlari va uning raqobatbardoshligiga oid bozor talabi to'g'risida;
- yuqori texnologiyalar, yangi rusumlarning o'zgartirilishi ta'siriga oid biznes tavakkalchiligi to'g'risida;
- tarmoqdagi ishlab chiqarish va uning tashqi omillarga bog'liqliligining siklli va mavsumiy xarakteri to'g'risida;
- tarmoqning iqtisodiy holati, sermehnatligi, kapital hajmi haqida;

- tarmoqdagi mehnat shart-sharoitlari haqida;
- tarmoqning rentabelligi, tarmoqdagi narxlar tarkibi va iste'molchilarning narxlarning o'zgarishiga bo'lgan munosabatlari, tarmoqdagi texnologiyalar holati to'g'risida;
- tarmoq mahsulotlariga bo'lgan talabning tushib ketishi, kutilayotganlarining o'zgarib ketishi, narxlardagi raqobat haqida;
- tarmoqning moliyaviy va statistika ko'rsatkichlari va hokazolar to'g'risida.

Qo'shimcha ravishda auditor tarmoq, bosh jamiyat rahbariyati haqida ma'lumotlar e'lon qilinishi, shuningdek, ommaviy axborot vositalaridan tarmoqdagi ishlarning holati to'g'risida axborot olishi mumkin.

3. Xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati.

3.1. Muhim tavsiflar – boshqaruv, mulk:

- mulk turi – xususiy, davlat mulki;
- mulk egalari yoki ularga aloqador shaxslar manfaatlari;
- kapital tarkibi, shu jumladan, rejadagi o'zgarishlar;
- tashkiliy tarkib;
- strategik rejalashtirish, rahbariyat kutayotgan natijalar;
- moliyalash resurslari va usullari.

Umumiy rahbarlik:

- ishbilarmonlik obro'-nufuzi va ish tajribasi;
- tashqi nazorat qiluvchi organlardan mustaqillik;
- yig'ilishlarning o'tkazilishi muddatlari;
- jamoada ishlash tajribasi;
- kasb maslahatchilarini o'zgartirish.

Joriy rahbarlik:

- ish tajribasi va obro'-nufuz;
- moslashuvchanlik;
- eng muhim moliya xodimlari va ularning boshqarishdagi maqomi;
- buxgalteriya departamenti xodimlari;
- xodimlarni taqdirlashlarning usullari va turlari;
- rejalar va budjetdan foydalanish;
- rahbariyatning axborot tizimi.

Ichki audit funksiyalari:

– ichki nazorat tizimining holati.

3.2. Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati – mahsulot, bozor, mol yetkazib beruvchilar, xarajatlar, operatsiyalar:

– faoliyat turi;

– joylashish o‘rni;

– xodimlar bilan ishlash siyosati, talab, haq to‘lash darajasi, kontraktlar, majburiyatlar;

– chiqarilayotgan mahsulot yoki ko‘rsatilayotgan xizmatlar turi:

– ishlab chiqarish siklini o‘rganish va buyurtmaning bajarilishi boshlanishini, materiallar; ishlab chiqarish dinamikasi, ishlab chiqarishni nihoyasiga yetkazish, tayyor mahsulotni saqlashni tashkil qilishga, mahsulotni iste‘molchiga jo‘natishga oid buyurtmanomaning tuzilishini belgilash;

– tovarlar va xizmatlarning ishonchli yetkazib beruvchilarini o‘rganish;

– tadqiqotlar va rivojlantirish;

– aktivlar va majburiyatlar holati;

– yuridik va me‘yoriy hujjatlarga rioya qilishning holati;

– rahbarlik qilishning joriy va rejali axborot tizimi.

4. Moliyaviy holat – xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holatiga ta‘sir qiluvchi omillar:

– hisobning holati;

– moliyaviy va statistika ko‘rsatkichlari;

– rivojlanish tamoyili.

5. Hisobotga oid talablar – moliyaviy hisobotlarning tayyorlanishi chog‘ida ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan tashqi omillar.

6. Qonunchilik:

– muntazam rusum-qoidalar va zarur talablar;

– audit talabi;

– soliqqa tortishlar;

– moliyaviy hisobotdan foydalanish.

Yuqorida sanab o‘tilgan axborotni olish uchun auditor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

7. Avvalgi auditor bilan aloqa bog‘lash;

7.1. O‘tgan yilning yil oxiriga bo‘lgan moliyaviy hisobotini va joriy yilning oraliq moliyaviy hisobotini o‘rganish;

7.2. Boshqa instansiyalarga yuborilgan xo'jalik yurituvchi subyekt hisobotlarini o'rganish;

7.3. Xo'jalik yurituvchi subyektning ma'muriy idorasiga borish, bu jarayonda auditor quyidagi rusum-qoidalarni amalga oshirishi lozim:

a) rahbar tarkib xodimlari bilan moliya masalalari bo'yicha uchrashish va ulardan ma'lumotlar olish yoki o'zi quyidagilarni aniqlashi;

– audit uchun javob beruvchi har bir rahbar, ma'muriyat a'zosining lavozim majburiyatlari;

– tashkiliy tuzilma chizmasi;

– barcha bo'limlar, tovar omborlari va korxonalarning joylashgan joyi va nisbiy muhimligi;

b) xo'jalik yurituvchi subyekt mahsulotning xarakteri va turlari to'g'risidagi, ishlab chiqarish usullari va uning joylashtirilishi, ichki boshqarish tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ichki farmoyishlar yoki bayonnomani olish;

c) schotlar rejasi, xo'jalik yurituvchi subyektning operatsiyalarini moliyalash usullari, uzoq muddatli qarzlar reyestri, xizmat ko'rsatuvchi banklarning nomlari bilan, bank bilan mijoz o'rtasida ma'lum bir summaga oid qarzlarning berilishi, boshqa bank xizmatlari to'g'risidagi kelishuvlar bilan tanishib chiqish;

d) aksiyadorlik kompaniyalariga nisbatan olganda auditor quyidagi ma'lumotlar: ism-sharifi, manzili, sertifikatlari soni, olingan aksiyalari soni, aksiyadorning kompaniyadagi funksiyasi yoritilgan aksiyalar egalarining ro'yxatini olishi lozim;

e) quyidagilar haqida axborot olishi:

– xarid qilish sharoitlari haqida (to'lovlar shartlari, chet eldan xarid qilishlar uchun akkreditiv xatlaridan foydalaniladimi-yo'qmi);

– sotish sharoitlari haqida (to'lov shartlari, chet elga sotishlar uchun akkreditiv xatlaridan foydalaniladimi-yo'qmi);

– amaliy munosabatlarda bo'lgan qatnashchilar o'rtasidagi operatsiyalar haqida;

– sotib olish va sotish, ssudalar, tannarxdan past bo'lgan (ishlab chiqarishni tashkil qilish sohasida, yuridik va ma'muriy xizmatlar) xizmatlardan foydalanish yoki ularni ko'rsatish;

f) mijoz iqtisodiy tomondan bog‘liq bo‘lgan barcha mijozlar va yetkazib beruvchilar, filiallari va sho‘ba korxonalar reyestrini olish;

g) oldindan tuzilgan buxgalteriya balansi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish;

h) buxgalteriya schotlari «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun talablariga muvofiq yuritilayotgani yoki yo‘qligini aniqlagan holda boshlang‘ich buxgalteriya yozuvlarini ro‘yxatga olish jurnal-lari va bosh daftar bilan tanishib chiqish;

i) mijozning oldindan tayyorlanadigan buxgalteriya balansi, reyestrlar, yozuvlarning to‘g‘rilanishi va qo‘shimcha yozuvlar, inventarizatsiya bo‘yicha yo‘riqnomalar, moliyaviy hisobotlarning tayyorligi uchun javobgarlik darajasini aniqlash;

j) auditni o‘tkazishning navbatdagi jadvalini taqdim etish, mavjud moddiy boyliklarni inventarizatsiya, naqd pullarni va qimmatli qogozlarni hisob-kitob qilish muddatlari to‘g‘risida kelishib olish;

k) mijozning quyidagi belgilangan shakllar namunalari va hujjatlarini etkazib berishlarga oid talabnomalar, sotishga oid buyurtmalar, sotilgan materiallarga oid schot-fakturalar, ishlab chiqarishga oid buyurtmalar, tilxatlar, cheklar, to‘lov qaydnomalari, sotishlar va sotib olishlar hamda kreditlar to‘g‘risida hisobotlar;

e) auditor ishlaydigan ish joyini o‘rganib chiqish.

7.4. Auditor bosh korxonaga borishi va bu vaqtda:

a) rahbar bilan amaliy uchrashuv o‘tkazishi;

b) ishlab chiqarish siklini o‘rganishi va buyurtmani bajarishning boshlanishi, materiallarga oid buyurtmanomalarining tuzilishi, ishlab chiqarish dinamikasi, ishlab chiqarishning tugallanganligi, tayyor mahsulotni saqlashni tashkil qilish, mahsulotning iste’molchiga jo‘natilishini belgilab olishi;

c) mahsulot harakatining hujjatlar asosidagi tasdiqnomasini olishi;

d) korxona va uskunalarining holatiga e’tiborni qaratishi;

e) material omborlariga borishi va inventar qaydnomasi holatini, tovar-moddiy boyliklar va kelib tushayotgan materiallar hisobini, inventarizatsiya dalolatnomalarini tekshirib ko‘rishi lozim.

8. Xo'jalik yurituvchi subyekt muhim bo'lib hisoblangan hollarda:

– uning iqtisodiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni quyidagilardan olish mumkin:

a) xo'jalik yurituvchi subyektning doimiy hujjatlaridan;
b) oldingi yilga oid ishchi hujjatlardan;
c) oldingi yilda auditorlik tekshirishini o'tkazgan auditorlar guruhi ma'lumotlaridan;

d) joriy yil uchun xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy smetalaridan;

e) joriy yil uchun xo'jalik yurituvchi subyektning oraliq moliyaviy hisobotlari;

f) bir yil mobaynida xo'jalik yurituvchi subyektga nisbatan kasbga oid majburiyatlarini bajarib kelgan auditorlik guruhining axborotidan olinishi mumkin. Bunday majburiyatlarga oraliq moliyaviy hisobotlarni tekshirish, soliqqa tortishni rejalashtirish, boshqarishni oqilona yo'lga qo'yish bo'yicha xizmatlar, xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan suhbatlashishlar kiradi.

14.4. Auditning umumiy rejasi va dasturini tayyorlash

Auditor auditning taxmin qilinayotgan ko'lami va o'tkazish tartibini bayon etgan holda, auditning umumiy rejasini ishlab chiqishi va rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturini ishlab chiqishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi uchun audit umumiy rejasining hujjatli aks ettirilishi yetarli darajada batafsil bo'lishi kerak, bunda uning aniq shakli va mazmuni subyekt kattaligi, auditning murakabligi hamda auditor qo'llayotgan aniq uslubiyat va texnologiyaga bog'liq. Auditor auditning umumiy rejasini ishlab chiqishda ko'rib chiqishi talab qilinadigan masalalar quyidagilar:

Biznesni bilishlik:

– subyekt biznesiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy iqtisodiy omillar va tarmoq xususiyati;

– subyektning, uni biznesining, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va hisoboti natijalarining, jumladan oldingi audit o'tkazilgan paytdan sodir etilgan o'zgarishlarning muhim tavsiflari;

– subyekt rahbariyati kasbiy xabardorligining umumiy darajasi.

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarini tushunish:

– subyekt tomonidan qabul qilingan hisob siyosati va ushbu hisob siyosatidagi o'zgartirishlar;

– buxgalteriya hisobi va audit standartlarining ta'siri;

– auditor tomonidan buxgalteriya hisobi va audit tizimlariga oid bilimlar to'plami hamda nazorat test so'rovlari va mohiyati bo'yicha muolajalarga talab qilinadigan tegishli e'tibor qaratish.

Tavakkalchilik va muhimlik:

– ajratib bo'lmaydigan tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiligining kutilayotgan baho berish hamda auditning muhim bo'limlarini solishtirish;

– audit maqsadlari uchun muhimlik darajalarini belgilash;

– muhim noto'g'ri aks ettirishlar mavjudligining ehtimoli, oldingi davrlar tajribasi yoki tovlamachilik shular jumlasidan;

– buxgalteriya hisobining murakkab jabhalarini solishtirish.

Muolajalar tavsifi, muddati va hajmi:

– auditning aniq bir bo'limlariga urg'u berish ehtimoli;

– axborot texnologiyasining auditga ta'siri;

– ichki audit xizmatining ishi va tashqi audit muolajalariga uning taxmin qilinayotgan ta'siri.

Ishni muvofiqlashtirish yo'naltirish, unga rahbarlik qilish va sharhlash:

– subyektning tarkibiy qismlari, masalan sho'ba korxonalari, filiallari va bo'linmalarini audit qilishga boshqa auditorlarni jalb qilish;

– ekspertlarni jalb qilish;

– ish obyektlarining miqdori;

– xodimlarga bo'lgan ehtiyojlar.

Boshqa jabhalar:

– subyekt uzluksiz faoliyat ko'rsatishi mumkin degan taxminning ehtimoli muammo bo'lishligi;

– alohida e'tiborni talab qiladigan vaziyatlar, masalan, o'zaro bog'liq tomonlarning mavjudligi;

– kelishuvlar sharti va qonunchilik bilan belgilangan har qanday majburiyatlar;

– hisobotlarni tayyorlash tavsifi va muddatlari yoki subyekt bilan kelishuv doirasida birgalashib harakat qilishning kutilayotgan shakllari.

Auditor auditning umumiy rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan, rejalashtirilgan auditorlik muolajalarining tavsifi, muddati va hajmini belgilovchi audit dasturini ishlab chiqishi va hujjatli rasmiylashtirishi lozim. Audit dasturi auditda ishtirok etayotgan auditor yordamchilari uchun yo'riqnomalar to'plami hamda ishni tegishli ravishda bajarilishi va aks ettirilishi yuzasidan nazorat qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, audit dasturi auditning har bir bo'limi bo'yicha belgilangan vazifalar va auditning turli jabhalari yoki muolajalariga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatilgan vaqt budjetidan iborat bo'lishi mumkin.

Audit dasturini tayyorlash jarayonida, auditor ajralmas tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiliklari aniq baholanganligini hamda mohiyati bo'yicha muolajalar bilan ta'minlanadigan kerakli bo'lgan ishonchlilik darajasini ko'rib chiqishi lozim.

Auditning dasturi audit rejasining rivojlanishi hisoblanib, tekshiruvning har bir aniq bo'limi uchun kerakli bo'lgan auditorlik muolajalar ro'yxatidan iboratdir. Auditorlik dasturlar quyidagi ikki turda bo'ladi:

1) korxona ichki nazorat tizimi to'g'risida ma'lumot to'plash uchun muolajalardan tarkib topgan nazorat testlari dasturi;

2) bevosita schotlardagi qoldiqlar to'g'risida ma'lumot to'plash uchun muolajalardan tarkib topgan schotlardagi qoldiqlarni tekshirish dasturi.

Auditorlik dasturi quyidagi omillardan tarkib topgan:

1) auditorlarning ishlash jadvali.

Jadval auditorlik xulosasini tayyorlash uchun tekshiruv davrida to'plangan materiallar va boshqa hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish chegaralangan muddatlarini belgilaydi. Jadvalni tuzish paytida, foyda olishni ta'minlash maqsadida, olishga mo'ljallangan haqni hisobga olgan holda va uning doirasida, tekshiruvning alohida turlari va bo'limlarini tekshirish uchun saflanadigan vaqt masalasi hal etiladi;

2) batafsil muolajalar.

Audit dasturi yozma ravishda tayyorlanadi. Dasturlar auditorlik tekshiruvni rejasini amalga oshirish uchun kerakli bo'lgan barcha muolajalar hamda tekshiruvning har bir bo'limi bo'yicha maqsad va vazifalar mufassal yoritiladi;

3) audit bo'yicha ishni nazorat qilish.

Dasturda tekshiruvga yuborilgan auditorlik guruhining barcha a'zolari ular zimmasiga qo'yilgan talablarni bilishligi nazarda tutiladi. U bir vaqtning o'zida auditorlik guruhdagi kichik auditorlar va assitsentlar topshiriqlarni qay darajada bajarayotganligini nazorat qiluvchi asosiy hujjat hisoblanadi;

4) xodimlar.

Dasturda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun kerakli bo'lgan xodimlar soni, ular ishining hajmi va mazmuni belgilanadi.

Odatda, auditni asosiy auditor, auditor yordamchilari va assitsentlaridan iborat guruh amalga oshiradi.

Moliyaviy hisobot moddalarini to'g'riligini tasdiqlash maqsadida miqdoriy xatolar va kamchiliklarni tekshirish uchun operatsiyalar testlari ishlab chiqiladi.

Ushbu testlarni o'tkazishda quyidagilar aniqlanadi:

— operatsiyalarni amalga oshirish uchun tegishli ruxsatnoma mavjudligi;

— jurnallar va tahliliy hisob daftarlarida o'tkazmalar to'g'ri berilganligi va natijalar to'g'ri jamlanganligi.

Bosh kitobga ma'lumot to'g'ri chiqarilganligi.

Auditning umumiy rejasini dasturini ishlab chiqishga kirisharkan, auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyekt to'g'risidagi dastlabki bilimlarga, shuningdek, o'tkazilgan tahliliy rusum-qoidalarining natijalariga asoslanishi kerak.

Tahliliy rusum-qoidalarini o'tkazish yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli bo'lgan sohalarni aniqlashi kerak.

Tahliliy rusum-qoidalarining murakkabligi, hajmi va o'tkazish muddatlarini auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyekt moliya hisoboti ma'lumotlarining hajmi va murakkabligiga qarab o'zgartirishi kerak bo'ladi.

Audit umumiy rejasini dasturini tayyorlash jarayonida auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektda amal qilayotgan ichki

nazorat tizimining samaradorligini baholaydi va ichki nazorat tizimi tavakkalchiligini (nazorat riskini) baholashni amalga oshiradi. Agar ichki nazorat tizimi noto'g'ri axborot paydo bo'lgani to'g'risida o'z vaqtida ogohlantirsa, shuningdek, noto'g'ri axborotni aniqlasa, uni samarador deb hisoblash mumkin. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholarkan, auditorlik tashkiloti auditorlik isbotdalillarining yetarli miqdorini to'plashi shart. Agar auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotning ishonchliligi xususida yetarli darajada ishonch hosil qilish uchun ichki nazorat tizimiga va buxgalteriya hisobi tizimiga asoslanishga qaror qilsa, u bo'lg'usi audit hajmini tegishli tarzda tuzatishi kerak bo'ladi.

Audit umumiy rejasi va dasturini tayyorlash paytida auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotni ishonchli deb hisoblash imkonini beradigan jiddiylik va auditorlik tavakkalchiligi uchun maqbul darajasini belgilashi kerak.

Auditorlik tavakkalchiligini rejalashtirarkan, auditorlik tashkiloti, xo'jalik yurituvchi subyekt auditidan qat'iy nazar, ushbu hisobotga xos bo'lgan moliyaviy hisobotning ajralmas tavakkalchiligi va nazorat tavakkalchiligini belgilaydi. Belgilangan tavakkalchiliklar va jiddiylik darajasi yordamida auditorlik tashkiloti audit uchun ahamiyatli sohalarni aniqlaydi va zarur auditorlik rusum-qoidalarini rejalashtiradi. Audit jarayonida rejalashtirish paytida belgilangan auditorlik tavakkalchiligi va jiddiylik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Auditning umumiy rejasi va dasturini tuzarkan, auditorlik tashkiloti hisob axborotiga ishlov berish darajasini inobatga olishi kerak, bu ham auditorlik tashkilotiga auditorlik rusum-qoidalarining hajmi va tusini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Auditorlik tashkiloti, agar buni maqsadga muvofiq deb hisoblasa, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan audit umumiy rejasi va dasturining ayrim qoidalarini kelishib olishi mumkin. Bunda auditorlik tashkiloti umumiy reja va dasturda aks ettirilgan usullarni tanlashda mustaqil hisoblanadi, lekin o'z ishining natijalari uchun mazkur umumiy reja va mazkur dasturga muvofiq to'liq mas'uliyat his etadi. Auditorlik tashkiloti bajarayotgan rusum-qoidalarining natijalarini umumiy reja va dasturni

tayyorlash paytida batafsil hujjatlashtirish kerak, chunki mazkur natijalar auditni rejalashtirish uchun asos hisoblanadi va butun audit jarayoni davomida ishlatilishi mumkin.

Auditning umumiy rejasini tuzish. Umumiy reja audit dasturini amalga oshirishda qo'llanma bo'lib xizmat qilishi kerak.

Audit jarayonida auditorlik tashkilotida umumiy rejaning ayrim qoidalarini qayta ko'rish uchun asoslar paydo bo'lishi mumkin. Rejaga kiritilayotgan o'zgartishlarni, shuningdek, o'zgartishlar sabablarini auditor batafsil hujjatlashtirishi kerak.

Umumiy rejada auditorlik tashkiloti auditni o'tkazish muddatlarini nazarda tutishi va auditni o'tkazish muddatlarini, hisobot (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzishni nazarda tutishi shart. Vaqt sarfini rejalashtirish jarayonida auditor quyidagilarni hisobga olishi kerak:

- haqiqiy xarajatlar;
- bundan oldingi davrda (takroriy audit o'tkazilgan taqdirda) vaqt sarfi hisob-kitobi va uning joriy hisob-kitob bilan aloqasi;
- jiddiylik darajasi;
- auditorlik tavakkalchiligining amalga oshirilgan baholari.

Umumiy rejada auditorlik tashkiloti dastlabki tahlil natijalari asosida auditni o'tkazish usulini belgilaydi, ichki nazorat tizimining ishonchligini, audit tavakkalchiligini baholaydi. Tanlab audit o'tkazishga qaror qilingan taqdirda auditor auditorlik tanlamasini «Auditorlik tanlamasi» audit standartiga muvofiq shakllantiradi.

Boshqaruvni va bajarilayotgan audit sifatini nazorat qilishni rejalashtirishga doir qoidalar umumiy rejaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy rejada quyidagilarni nazarda tutish tavsiya qilinadi:

Auditorlik guruhini, auditni o'tkazishga jalb etiladigan auditorlar miqdori va malakasini shakllantirish;

Ularning kasbiy xislatlari va mansab darajalariga muvofiq auditorlarni aniq audit uchastkalari bo'ylab taqsimlash;

Komandaning barcha a'zolariga ularning vazifalari xususida yo'l-yo'riq berish, ularni xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati, shuningdek, audit umumiy rejasi qoidalari bilan tanishtirish;

Rahbarning reja bajarilishi va auditor assistentlari ishining sifati, ular tomonidan ish hujjatlari yuritilishi va audit natijalari tegishlicha rasmiylashtirilishini nazorat qilishi;

Auditorlik guruhi rahbarining auditorlik rusum-qoidalarini amalda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq uslubiy masalalarini tushuntirishi;

Muayyan faktni baholashda auditorlik guruhi rahbari bilan uning oddiy a'zosi o'rtasida ixtiloflar paydo bo'lganda auditorlik guruhi a'zosi (ijrochi)ning alohida fikrini hujjatli rasmiylashtirish.

Auditorlik tashkiloti umumiy rejada ichki audit rolini, shuningdek, audit o'tkazish jarayoniga ekspertlarni jalb etish zaruratini belgilaydi. Audit umumiy rejasining namunaviy mazmuni 36-jadvalda keltirilgan.

MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINING REJASI

Tekshirilayotgan tashkilot: «Oq yor» OAJ XK

Audit davri 1.03 – 25.03. 2017-y.

Kishi-soatlar soni: 3

Auditorlik guruhi rahbari: Maxmudov S.Q.

Auditorlik guruhi tarkibi: Yuldashev R., O'rishev Q.

Rejalashtirilayotgan auditorlik xatari – 2%

Rejalashtirilayotgan jiddiylilik darajasi – 5%

36-jadval

T/r	Rejalashtirilayotgan ish turlari	O'tkazish davri	Bajaruvchi	Izohlar
1.	Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi registrlar ko'rsatkichlari bir-biriga muvofiqligini tekshirish	10.03-11.03	Yuldashev R.	
2.	Buxgalteriya balansi to'g'ri tuzilganligini tekshirish	10.03-11.03	Yuldashev R.	
3.	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot to'g'ri tuzilganligini tekshirish	10.03-11.03	Yuldashev R.	
4.	Boshqa shakldagi hisobotlar to'g'ri tuzilganligini tekshirish	10.03-11.03	Yuldashev R.	

Imzolar: _____ Auditorlik tashkiloti rahbari

_____ Auditorlik guruhi rahbari

Auditning dasturini tuzish. Audit dasturi audit umumiy rejasini rivojlantirish hisoblanadi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik rusum-qoidolari mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Dastur auditor assistentlari uchun batafsil yo'riqnoma sifatida xizmat qiladi va bir vaqtning o'zida auditorlik tashkiloti va auditorlik guruhining rahbarlari uchun ish sifatini nazorat qilish vositasi hisoblanadi.

Auditor audit dasturini hujjatli rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik rusum-qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi kerak, toki auditor ish jarayonida o'zining ish hujjatlarida ularga havola qilish imkoniyatiga ega bo'lsin.

Auditorlik dasturini nazorat vositalari testlari dasturi ko'rinishida va mohiyatiga ko'ra auditorlik rusum-qoidolari dasturi ko'rinishida tuzish kerak.

Nazorat vositalari testlari dasturi ichki nazorat va hisob tizimining faoliyati to'g'risidagi axborotni yig'ish uchun mo'ljallangan harakatlar majmuyining ro'yxatidan iborat. Nazorat vositalari testlarining maqsadi shundan iboratki, ular xo'jalik yurituvchi subyekt nazorat vositalarining jiddiy kamchiliklarini aniqlashda yordam beradi.

Mohiyatiga ko'ra, auditorlik rusum-qoidolari o'z ichiga buxgalteriya hisobida schotlar bo'yicha oborotlar va qoldiq to'g'ri aks ettirilganligini batafsil tekshirishni oladi. Mohiyatiga ko'ra, auditorlik rusum-qoidolari dasturi ana shunday aniq batafsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra, rusum-qoidalar uchun auditor buxgalteriya hisobining ayni qanday bo'limlarini tekshirishini belgilashi va buxgalteriya hisobining har bir bo'limi bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

Auditni o'tkazish shartlari va auditorlik rusum-qoidolari natijalarining o'zgarishiga bog'liq holda audit dasturi qayta ko'rib chiqilishi mumkin. O'zgarishlarning sabablari va natijalari hujjatlashtirilishi kerak.

Auditorlik dasturining har bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjatlarida rasman aks ettirilgan xulosalari auditorlik hisoboti (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va audi-

torlik xulosasini tuzish uchun fakt materiali, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti to‘g‘risida auditorning xolis fikrini shakllantirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Audit dasturining namunaviy mazmuni 37-jadvalda keltirilgan.

37-jadval

T/r	Audit bo‘limlari bo‘yicha auditorlik tadbirlari ro‘yxati	O‘tkazish davri	Bajaruvchi	Auditorning ish hujjatlari	Izohlar
1.	Moliyaviy hisobot va buxgalteriya hisobi registrlar ko‘rsatkichlari bir-biriga muvofiqligini tekshirish	10.03-11.03	Yuldashev R		
1.1.	Moliyaviy hisobot ishon-chliligini ta‘minlovchi omil sifatida buxgalteriya hisobi schotlaridagi yozuvlar asoslanganligini tekshirish				
1.2.	Hisob registrlari to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish				
1.3.	Korxona moliyaviy hisobotini o‘rganish va u belgilangan muddatlarda taqdim etilishini tekshirish				
1.4.	Tahliliy hisob ko‘rsatkichlarini Bosh kitob va balans moddalaridagi ko‘rsatkichlar bilan solishtirish				
2.	Buxgalteriya balansi to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish				
2.1.	Balansdagi ko‘rsatkichlar to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish				
2.2.	Balansda uzoq muddatli aktivlar qoldiqlari to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish				
2.3.	Balansda joriy aktivlar qoldiqlari to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish				
2.4.	Balansda o‘z mablag‘lari man-balari to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish				
2.5.	Balansda majburiyatlar to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish				

Imzolar: _____ Auditorlik tashkiloti rahbari
 _____ Auditorlik guruhi rahbari

Auditni rejalashtirish jarayoni tugaganidan so‘ng audit umumiy rejasi va dasturi hujjatni rasmiylashtirilishi va ularga belgilangan tartibda viza qo‘yilishi kerak.

Auditning umumiy rejasi va auditning dasturi audit o‘tkazish vaqtida lozim bo‘lishiga qarab qaytadadan ko‘rib chiqilishi lozim. Vaziyatlardagi o‘zgarishlar yoki auditorlik muolajalarni bajarish paytida olingan ko‘zda tutilmagan natijalarni hisobga olish uchun xizmat ko‘rsatishning butun muddatida rejalashtirish uzluksiz amalga oshirib boriladi. Ahamiyatli o‘zgartirishlarning natijalari hujjatli rasmiylashtirilishi lozim.

14.5. Auditda jiddiylikni aniqlash

Audit o‘tkazish jarayonida auditor jiddiylik va uning auditorlik tavakkalchiligi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqishi lozim.

Jiddiylik (muhimlik) – ahamiyatsiz hisoblangan, ya’ni foydalanuvchilarni xato fikrda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydigan, moliyaviy schotlarda qayd etilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri summaning eng ko‘p miqdoridir.

Auditda jiddiylikni aniqlash 9-son «Jiddiylik va auditorlik riski» nomli Auditorlik faoliyatining milliy standartida belgilab berilgan. Unga ko‘ra, «Auditda xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining ishonchliligiga kattagina hajmda ta’sir ko‘rsatadigan holatlar jiddiy holatlar deb e’tirof etiladi.

Barcha jiddiy munosabatlarda moliyaviy hisobotning ishonchliligi deganda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari aniqligining shunday darajasi tushuniladiki, bunda ushbu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to‘g‘ri xulosalar chiqarish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga qodir bo‘ladi. Axborotning jiddiyligi uning xususiyati bo‘lib, uni ana shunday axborotdan oqilona foydalanuvchining qarorlariga ta’sir ko‘rsatishga qodir qiladi»¹.

Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarning qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim

¹ O‘zR 9-son «Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi» nomli Auditorlik faoliyatning milliy standarti.

etishning konseptual asosi»da «muhimlik»ka quyidagicha talqin berilgan:

«Agar ma'lumot aks ettirilmasligi yoki noto'g'ri aks ettirilishi foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot asosida qabul qilgan iqtisodiy qarorlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, bunday ma'lumot muhim hisoblanadi. Muhimlik ma'lum vaziyatlarda modda yoki xato miqdoridan kelib chiqib, ularni aks ettirmaslik yoki noto'g'ri aks ettirish yuzasidan fikr qabul qilinishiga bog'liq. Bino-barin, muhimlik ma'lumot foydali bo'lishi uchun lozim bo'lgan boshlang'ich sifat tavsifi emas, balki ko'proq boshlang'ich yoki hisob boshlash nuqtasini ko'rsatadi».

Auditorlik rejasini ishlab chiqishda auditor, muhim noto'g'riliklarni miqdoriy ifodada aniqlash maqsadida, muhimlikning maqbul bo'lgan darajasini belgilaydi. Lekin, muhimlikning kattaligi (miqdori) bilan bir qatorda, uning tavsifi (sifati)ga ham e'tibor qaratish lozim. Sifat noto'g'ri aks etishning misol tariqasida moliyaviy foydalanuvchini chalg'itishga olib kelish ehtimoli mavjud bo'lgan hisob siyosatini mos bo'lmagan holda yoki noto'g'ri bayon etishni hamda tartibga soluvchi idoralar tomonidan keyingi cheklavlarni qo'llashga olib kelishi mumkin bo'lgan va buning oqibatida, subyekt o'z faoliyatini muhim darajada amalga oshirish qobiliyatini pasayishiga olib keluvchi qonunchilikka oid kamchiliklarni yoritmaslikni keltirish mumkin.

Jiddiylik tushunchasi auditga oid manbaalarda turlicha ta'riflangan. Masalan, prof. M.M. Tulaxodjayevaning ta'rifi ko'ra, «Hisobotdagi foydalanuvchilarni qarorlar qabul qilishda chalg'itishi mumkin bo'lgan, oqibatda, befoyda moliyaviy sarf-xarajatlar, nobudgarchilikka va zararlarga olib keladigan xato va tushirib qoldirishlar jiddiy, muhim (moddiy) hisoblanadi»¹.

Umumiy auditorlik amaliyotida jiddiylik chegaralarini quyidagicha belgilash qabul qilingan:

$$0 < J < 1 \text{ yoki (foiz hisobida } 0 < J\% < 100).$$

Ushbu chegara oralig'idagi ehtimollik xo'jalik subyektlari hisobotlarining ishonchliligiga ta'sir ko'rsatadigan xatolar mavjudligini

¹ *Tulaxodjayeva M.M.* Korxona moliyaviy holati auditi. O'quv qo'llanma. – T.: 1996., 107 b.

aniqlash, tegishli auditorlik qarorlarini qabul qilish uchun ushbu holatlarni baholash mumkinligi yoki mumkin emasligini ifodalaydi. Bu jiddiylikni sifat jihatdan tavsiflaydigan tarkibiy qismdir. Jiddiylikning miqdoriy jihatini tavsiflaydigan tarkibiy qismi esa uning ma'lum darajalari orqali ifodalanadi.

«Muhimlik tushunchasi deganda moliyaviy hisobotni buzishning eng yuqori qiymati tushuniladi, undan boshlab ana shu hisobotning malakali foydalanuvchisi uning asosida to'g'ri xulosalar chiqarish va to'g'ri qarorlar qabul qilishga qodir bo'lmay qoladi.

Muhimlik darajasining mutlaq qiymatini aniqlashda auditor xo'jalik yurituvchi subyektning audit qilinadigan, bundan keyin moliyaviy hisobotning bazaviy ko'rsatkichlari deb nomlanadigan hisoboti ishonchliligini tavsiflaydigan eng muhim ko'rsatkichlarni asos sifatida qabul qilishi kerak.

Auditor:

– auditorlik rusum-qoidalarining tabiati, vaqti va teranligini belgilash;

– buzilishlar ta'sirini baholash paytida muhimlikni ko'rib chiqishi kerak»¹.

Muhimlik (moddiylik)ni baholash auditorning tajribasi va malakasiga bog'liqdir va korxona faoliyatining hajmi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning o'zi tomonidan har bir mijoz uchun belgilanadi. Shuning uchun turli auditorlar va auditorlik firmalar ushbu muammoga mutlaqo boshqacha yondoshadilar.

Moliyaviy hisobotning ayrim ko'rsatkichlari yetarli darajada aniq bo'lmasligi mumkin. Lekin, buning asosida hisobot umuman ishonchsiz yoki u haqiqiy holatni aniq aks etmaydi degan xulosa chiqarish mumkin emas. Noaniqliklar hisob-kitoblarda yo'l qo'yilgan xatolardan (masalan, eskirish summalarini hisoblashda) yoki baholashdan (masalan, asosiy vositalarning eskirish muddatlari, ishonchsiz debitorlik qarzlari) kelib chiqishi mumkin. Ammo, auditor tomonidan bunday noaniqliklar topilganda, hisobotga tegishli tuzatishlar kiritilishi lozim. Lekin, mijoz tomonidan har

¹ O'zR 9-son «Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi» nomli Auditorlik faoliyatning milliy standarti.

doim darhol tuzatishlar kiritilmaydi, tuzatishlar umuman kiritilmaslik hollari ham uchrab turadi.

Ko'pchilik hollarda auditorlar buxgalteriya hisobotidagi noaniqliklarni o'tkazib yuboradilar, masalan:

- ular arziyas bo'lib, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar qarorlariga ta'sir qilmasa va, binobarin, muhim hisoblanmasa;
- arziyas xatolarni aniqlash va ularni to'g'rilash uchun sarflanadigan xarajatlar yuqori bo'lsa;
- bunga sarflangan vaqt buxgalteriya hisobotini chop etilishi muddatini uzaytirib yuborsa.

Shunday qilib, auditor(lar) hisob ko'rsatkichlari mutlaq aniq va buxgalteriya hisobi aniq emas deb faraz qiladilar.

Eng muhim ko'rsatkichlar sifatida quyidagilarni olish va ularga nisbatan qo'llaniladigan foizlarni tavsiya sifatida belgilash mumkin (38-jadval).

38-jadval

**Moliyaviy hisobotning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha
jiddiylilik darajasini hisoblash**

Asosiy ko'rsatkichlar	Asosiy ko'r-satkich qiymati (m.s.)	%	Jiddiylilik darajasining summasi, (m.s)
Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan tushum (2-shakl, 010-satr)	723491,0	5	36175,0
Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) larning ishlab chiqarish tannarxi (2-shakl, 020-satr)	177826,0	3	5335,0
Jami davr xarajatlari (2-shakl, 040-satr)	32833,0	3	985,0
Korxonaning xususiy kapitali 1-shakl, 460-satr)	241567,0	10	4831,0
Balansning umumiy summasi (1-shakl aktividagi 380-satr yoki passividagi 700-satr)	135945,0	5	13595,0
Tugallanmagan ishlab chiqarish 1-shakl, 150-satr)	322762,0	3	6455,0
Taqsimlanmagan foyda	23819,0	2	476,0

Muhimlik (moddiylik)ni baholashda ikki asosiy yondoshish qoʻllaniladi — induktiv va deduktiv.

Induktiv yondoshish — har bir modda uchun alohida baho berishni taxmin qiladi, undan keyin baholarni bir-biriga qoʻshish yoʻli bilan umumiy moddiylik aniqlanadi. Lekin, bunday yondoshishni oʻta ehtiyotkorlik bilan qoʻllash lozim, zero hisobotning qaysidir bir bandi boʻyicha xato muhim boʻlmasligi, lekin boshqa bir bandi boʻyicha — muhim (moddiy) boʻlishi mumkin.

Deduktiv yondoshish — moliyaviy hisobotning umumiy moddiylikni aniqlanishini taxmin qiladi va undan keyin, har bir schot boʻyicha ish hajmini aniqlash uchun hisobotning alohida modalari boʻyicha berilgan baho taqsimlanib chiqiladi. Deduktiv yondoshishni qoʻllash yoʻli bilan alohida bandlar boʻyicha moddiylikni baholash summasi, moliyaviy natijalar hisoboti, balans yoki pul mablagʻlarining oqimlari uchun yoʻl qoʻyilishi mumkin boʻlgan miqdordan yuqoriroq boʻlishi holatini bartaraf etish imkonini beradi.

Auditorlik rejasini ishlab chiqishda auditor, muhim notoʻgʻriliklarni miqdoriy ifodada aniqlash maqsadida, muhimlikning maqbul boʻlgan darajasini belgilaydi. Lekin, muhimlikning kattaligi (miqdori) bilan bir qatorda, uning tavsifi (sifati)ga ham eʼtibor qaratish lozim.

Sifat notoʻgʻri aks etishning misol tariqasida moliyaviy foydalanuvchini chalgʻitishga olib kelish ehtimoli mavjud boʻlgan hisob siyosatini mos boʻlmagan holda yoki notoʻgʻri bayon etishni hamda tartibga soluvchi idoralar tomonidan keyingi cheklovlarini qoʻllashga olib kelishi mumkin boʻlgan va buning oqibatida, subyekt oʻz faoliyatini muhim darajada amalga oshirish qobiliyatini pasayishiga olib keluvchi qonunchilikka oid kamchiliklarni yoritmaslikni keltirish mumkin.

Auditor, jamlangan holda moliyaviy hisobotga muhim taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan, notoʻgʻri aks etishlar nisbatan katta boʻlmagan summalarda boʻlishi ehtimolini koʻrib chiqishi lozim. Masalan, muolaja oʻtkazishda oy oxirida yoʻl qoʻyilgan xato, agar bunday xato har oyda takrorlansa, kelajakdagi muhim notoʻgʻrilikka olib kelishi mumkin.

Auditni rejalashtirishda auditor nimalar moliyaviy hisobot muhim noto'g'ri aks etishga olib kelishi mumkinligini ko'rib chiqadi. Schotlarning aniq qoldig'i va operatsiyalar turkumi bilan bog'liq muhimlikning auditorlik bahosi auditor tomonidan, masalan, qanday moddalarni tekshirish hamda tahliliy muolajalarda tanlab olishdan foydalanish lozimligi masalalar yuzasidan qaror qabul qilishga yordam beradi. Bu auditorga bir-biri bilan birgalikda auditorlik tavakkalchiligini qabul qilishga mumkin qadar past darajacha kamaytiradigan auditorlik muolajalarini tanlab olish imkonini beradi.

Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi orasida teskari o'zaro bog'liqlik mavjud, ya'ni muhimlikning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, auditorlik tavakkalchiligi shunchalik past bo'ladi va uning teskarisi. Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi o'rtasidagi teskari o'zaro bog'liqlik auditor tomonidan auditorlik muolajalarining tavsifi, muddati va hajmini belgilashda inobatga olinadi. Masalan, agar auditor aniq auditorlik muolajalarini rejalashtirishni yakunlagandan keyin maqbul muhimlik darajasi belgilangandan past bo'lsa, auditorlik tavakkalchiligi oshadi. Auditor vujudga kelgan vaziyatni quyidagi usullardan biri bilan qoplashi lozim:

a) mumkin bo'lgan joylarda baholangan nazorat tavakkalchiligini pasaytirish va pasaytirilgan darajani kengaytirilgan yoki qo'shimcha nazorat test sinovlarini o'tkazish yo'li bilan tasdiqlash, yoki:

b) mohiyati bo'yicha rejalashtirilgan muolajalarning tavsifi, muddati va hajmini o'zgartirish yo'li bilan aniqlab bo'lmalik tavakkalchiligini pasaytirish.

Kelishuvning dastlabki rejalashtirish vaqtidagi muhimlikka berilgan auditorlik baho auditorlik muolajalar natijalarining baholash vaqtida ularga berilgan bahodan farqlanishi mumkin. Bu vaziyatlarda vujudga kelgan yoki audit o'tkazish natijasida auditorning subyekt faoliyati yuzasidan bilimlaridagi o'zgarishlardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, agar audit hisobot davrining yakunlanishiga qadar rejalashtirilsa, auditor moliyaviy-xo'jalik faoliyat va moliyaviy holat natijalarini rejalashtiradi. Garchi, amaldagi faoliyat va moliyaviy holat natijalari istiqbollilardan ahamiyatli

darajada farqlansa, muhimlik va auditorlik tavakkalchiliklarga berilgan baho o'zgarishi mumkin. Bundan tashqari, auditni rejalashtirishda auditor maqbul bo'lgan muhimlik darajasini audit natijalariga baho berish uchun ko'zda tutilgandan ataylab pastroq darajada belgilashi mumkin. Bu aniqlanmagan noaniqliklar ehtimolini kamaytirish hamda audit paytida noaniqliklar ta'siriga baho berishda auditorni xavfsizlik darajasi bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilishi mumkin.

14.6. Auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash

Auditor auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida auditorlik tekshiruvini samarali o'tkazishi uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi to'g'risida fikrga ega bo'lishi lozim. Tavakkalchilikni maqbul bo'lgan past darajagacha kamaytirish uchun kerakli bo'lgan auditor tavakkalchiligiga baho berish va auditorlik muolajalarini ishlab chiqish maqsadida auditor malakaviy mulohazani qo'llashi lozim.

Auditorlik tavakkalchiligi — bu auditorlik tekshiruvining, mijozning ichki nazorat tizimining samarasizligi, auditorlar tomonidan mijoz xatolarini aniqlay olmasligi tavakkalchiligini baholashdir.

Auditorlik tavakkalchiligi tushunchasi 9-son AFMSda quyidagicha ifodalangan, Unga ko'ra, «Auditorlik tavakkalchiligi — auditor tomonidan subyektiv ravishda belgilanadigan, auditorlik tekshiruvi yakunlari bo'yicha moliyaviy hisobot uning ishonchligi tasdiqlanganidan keyin aniqlanmagan jiddiy buzilishlarni o'z ichiga olishi mumkinligini e'tirof etish yoki aslida bunday buzilishlar moliyaviy hisobotda bo'lmasa-da, unda jiddiy buzilishlar mavjudligini e'tirof etish ehtimolidir»¹.

Faraz qilaylik, agar auditor salbiy xulosa bersa yoki xulosa berishdan voz kechsa, o'zini xavf-xatarga qo'ymasligi mumkin. Ammo, bu noto'g'ri fikr, chunonchi, auditor uchun bu holda

¹ O'zR 9-son «Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi» nomli Auditorlik faoliyatning milliy standarti.

mijozlarni yo‘qotish xavfi vujudga keladi. Bundan tashqari, auditor har qanday, hatto, mijoz-korxona moliyaviy hisobotini to‘liq tasdiqlaydigan xulosa berganida ham, u shartnoma majburiyatlari bilan bog‘liq xavf-xatarni o‘z zimmasiga oladi. Auditorlik faoliyatida uchraydigan bunday xavf-xatarlar yig‘indisini keyinchalaik auditorlik risklarning maqbul to‘plami deyish mumkin.

Ma’lumki, har qanday malakali va puxta o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvi ham auditorlik riskini to‘liq bartaraf eta olmaydi. Shuning uchun auditorlik amaliyotida uning maqbul chegarasi 5% deb qabul qilingan. Ya’ni, auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan yuzta auditorlik xulosasidan beshtasi munozarali masalalar bo‘yicha noto‘g‘ri xulosalar bo‘lishi mumkin. Bunday risk ya’ni, 5% miqdorida noto‘g‘ri xulosa berish ehtimoli auditorlik tashkiloti uchun jiddiy hisoblanmaydi va uning raqobatbardoshligini pasaytirmaydi. Aksincha, bu ko‘rsatkich (5%)ni yanada pasaytirishga urinish behuda kuch va mablag‘ sarflashga olib keladi hamda raqobatbardoshlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Miqdoriy usul auditorlik tavakkalchiligining ko‘p sonli modelarini miqdoriy hisoblashni faraz qiladi. Bular ichidan eng oddiysi:

$$At = St \times Nt \times Mt,$$

bunda:

At – auditorlik tekshiruvi o‘tkazilgandan keyin moliyaviy hisobotda aniqlanmay qolgan moddiy xatolarni mavjud bo‘lishligini qabul qilish taxmini to‘g‘risida auditorning fikrini aks etuvchi auditorlik tekshiruvi samarasizligi tavakkalchiligi (auditorlik tavakkalchiligi);

St – kompaniya xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik (sof tavakkalchilik), ya’ni: ichki nazorat tizimi samaradorligini ko‘rib chiqishdan oldin, hisobotda belgilangan miqdordan yuqori bo‘lgan xatolar mavjud bo‘lishligi taxmini;

Nt – mijozning ichki (ichki xo‘jalik) nazorat tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik;

Mt – testlar o‘tkazish muolajalari samarasizligi bilan bog‘liq bo‘lgan tavakkalchilik (muolaja tavakkalchiligi) – testlar o‘tkazish jarayonida, auditor uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lgan miqdordan yuqori xatolarning aniqlanmay qolinishi taxmini.

Umumiy auditorlik amaliyotida auditorlik tavakkalchilgining maqbul to'plamiga quyidagicha yondashuv ishlab chiqilgan va ular ingliz tilidagi bosh harflari bo'yicha quyidagi formula ko'rinishida ifodalangan:

$$\text{DAR} = \text{IR} \times \text{CR} \times \text{DR}$$

DAR (Desired audit risk) – auditorlik tavakkalchilgining maqbul to'plami;

IR (Internal risk) – ichki xo'jalik tavakkalchiligi;

CR (Control risk) – nazorat tavakkalchiligi;

DR (Direction risk) – aniqlanmaslik tavakkalchiligi.

Xalqaro amaliyotda «Auditorlik tavakkalchiligi» deganda moliyaviy hisobot ahamiyatli noto'g'ri aks etilganda auditor tegishli bo'lmagan auditorlik xulosa taqdim etilishi tushuniladi. Auditorlik tavakkalchiligi uch tarkibiy qismdan iborat: ya'ni, ajralmas tavakkalchiligi, nazorat tavakkalchiligi va aniqlab bo'lmazlik tavakkalchiligi.

«Ajralmas tavakkalchiligi» – bu tegishli ichki nazorat mavjud emas deb taxmin qilinganda, schotlar qoldig'i yoki operatsiyalar turkumi alohida yoki boshqa schotlar qoldig'i yoki operatsiyalar turkumidagi noto'g'ri aks etishlar bilan jamlanganda ahamiyatli bo'lgan noto'g'ri aks etishlikka moyilligi.

«Nazorat tavakkalchiligi» – bu schotlar qoldig'i yoki operatsiyalar turkumida mavjud bo'lishi mumkin noto'g'ri aks etish (u alohida yoki boshqa schotlar qoldig'i yoki operatsiyalar turkumidagi noto'g'ri aks etishlar bilan jamlanganda ahamiyatli bo'lishi mumkin) buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlari tomonidan o'z vaqtida oldi olinmaganligi yoki aniqlanmaganligi va tuzatilmaganligi.

«Aniqlab bo'lmazlik tavakkalchiligi» shundan iboratki, bunda auditorlik muolajalar mohiyati bo'yicha schot qoldig'i yoki schotlar turkumidagi alohida yoki boshqa schotlar qoldig'i yoki operatsiyalar turkumidagi noto'g'ri aks etishlar bilan jamlanganda ahamiyatli bo'lgan noto'g'ri aks etishni aniqlay olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jiddiylilik va tavakkalchilik darajasini baholash auditorlik tekshiruvining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Uning malakali amalga oshirilishi nafaqat sifatli auditorlik hisoboti va xulosasi tuzish, balki auditorlik tashkiloti

kabi mijoz-tashkilotning ham barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Korxonada ichki nazorat tizimini (INT) baholash maqsadlari – korxonaning joriy xo‘jalik ishlarini tartibga solish va samaradorlik bilan amalga oshirish: rahbariyatning moliyaviy-xo‘jalik siyosati talablarini bajarish, korxona aktivlarini saqlash, hujjatlar, ya’ni ma’lumotlar to‘liq va aniq darajada bo‘lishligini ta’minlashdir.

Ichki xo‘jalik nazorat ishonchlilikini baholash, nazorat muolajalari xo‘jalik operatsiyalarini hisobga olish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar va kamchiliklarning oldini olish, aniqlash va to‘g‘rilashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Baholash muolajalarini yetti xil yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirish tavsiya etiladi: haqiqiylik, to‘liqlik, ruxsat berilishi, aniqlilik, tabaqalashtirish, hisob, davrlashtirish.

Nazoratning muayyan obyektlarini audit qilish jarayonida ichki nazorat va hisob tizimini bevosita baholashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Xo‘jalik operatsiyalarning haqiqiyligi qayd qilingan operatsiyalar haqiqatan ham hujjatlardagi ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlanganligini bildiradi.

To‘liqlilik – barcha amalga oshirilgan xo‘jalik operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks etilgan, birortasi ham qolib ketmaganligini ifodalaydi.

Ruxsat berilishi – iqtisodiy subyektning hisob siyosati bo‘yicha hisobga olinishdan oldin barcha operatsiyalar tegishli ruxsatnomaga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Aniqlilik – buxgalteriya hisobi hujjatlari va registrlaridagi barcha ko‘rsatilgan summalar tegishli ravishda hisoblanganligini ko‘rsatadi.

Tabaqalashtirish – barcha operatsiyalar tegishli schotlarda to‘g‘ri aks etilganligini ifodalaydi.

Hisob – tegishli operatsiyalar bo‘yicha hisob jarayoni tugallanganligi va hisob umumiy qabul qilingan standartlarga javob berishligini anglatadi.

Davrlashtirish – barcha operatsiyalar ular sodir etilgan davrda rasmiylashtirilganligi hamda buxgalteriya hisobining tegishli davrida aks etilganligini ko‘rsatadi.

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimiga tekshiruvning tegishli yoʻnalishlari boʻyicha barcha tizim yoki nazoratning alohida vositalari ishonchliligiga baho berish yoki auditorlik ekspertizasini rejalashtirishga taʼsir koʻrsatuvchi qarorlarni qabul qilish, tegishli dalillarga asoslanganligini koʻrsatgan holda auditorlik tashkiloti tomonidan hujjatlashtirilishi lozim.

Xalqaro amaliyotda «Buxgalteriya hisobining tizimi» deganda operatsiyalarga, moliyaviy yozuvlar yuritish sifatida, subyektning masalalar turkumi va hisob yozuvlari orqali ishlov berish tushuniladi.

Bunday tizimlar operatsiyalar va boshqa hodisalar boʻyicha hisobotni solishtirish, yigʻish, tahlil qilish, hisoblash, turkumlash, roʻyxatga olish, umumlashtirish va taqdim etish maqsadida qoʻllaniladi.

«Ichki nazorat tizimi» — bu tartibli va samaradorli faoliyat yuritish, jumladan, subyekt siyosatiga rioya qilish, aktivlar butligini taʼminlash, tovlamachilik va xatolarning oldini olish va aniqlash, buxgalteriya yozuvlarining aniq va toʻliq boʻlishi hamda oʻz vaqtida ishonchli moliyaviy hisobot tayyorlashga yoʻnaltirilgan, amalda mumkin boʻlgan koʻlamda, subyekt rahbariyatining maqsadga erishish uchun yordam beradigan, subyekt rahbariyati tomonidan qabul qilingan barcha muolajalar va siyosat (ichki nazorat). Ichki nazorat tizimi buxgalteriya hisobi tizimi vazifalariga bevosita taalluqli boʻlgan masalalar doirasidan chetga chiqadi va quyidagilardan iborat:

a) «nazorat muhiti» — bu ichki nazorat tizimi va uning subyekt uchun muhimligiga nisbatan subyekt direktorlari va rahbariyatining umumiy nuqtayi nafari, xabardorligi va harakati. Nazorat muhiti nazoratning aniq muolajalar samaradorligiga taʼsir koʻrsatadi. Masalan, kuchaytirilgan budjet nazorati va ichki auditning samaradorlik vazifalari boʻlgan ichki nazorat muhiti nazoratning aniq muolajalarini ahamiyatli toʻldirishi mumkin. Shunga qaramasdan, qattiq nazorat muhiti oʻz-oʻzidan ichki nazorat tizimining samaradorligini taʼminlamaydi. Nazorat muhitida aks etilgan omillar quyidagilardan iborat:

— direktorlar kengashi va qoʻmitalarining vazifalari;

- subyekt rahbariyatining falsafasi va vazifani bajarish uslubi;
- subyektning tashkiliy tizimi hamda vakolatlar va mas’uliyatlar berish uslubi;

- subyekt rahbariyati tomonidan nazorat tizimi, jumladan, ichki audit vazifalari, xodimlar bo’yicha siyosat va muolajalar hamda xizmat majburiyatlarini taqsimlash;

b) «nazorat muolajalari» — bu nazorat muhitiga qo’shimcha ravishda subyektning aniq belgilangan masalalarini hal etish uchun subyekt rahbariyati tomonidan belgilangan muolajalar va siyosat. Nazorat muolajalari quyidagilardan iborat:

- hisobotni taqdim etish, solishtirish va tasdiqlash bo’yicha muolajalarni solishtirish;

- yozuvlarning arifmetik to’g’riligini tekshirish;

- amaliy dasturlar va kompyuter-axboriy tizimlar yuzasidan nazoratni amalga oshirish, masalan, quyidagilar yuzasidan nazorat o’rnatish yo’li bilan:

- kompyuter dasturlari o’zgarishi;

- ma’lumotlar fayllariga kirib borish;

- nazoratli schotlar va sinov balanslarni yuritish va tekshirish;

- hujjatlarni tasdiqlash va ular yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

- ichki manbalardan olingan ko’rsatkichlarni ma’lumotning tashqi manbalari bilan solishtirish;

- pul mablag’lari, qimmatli qog’ozlar va tovar-moddiy zaxiralar hisob-kitobini buxgalteriya yozuvlari bilan taqqoslash;

- aktivlar va yozuvlardan to’g’ridan-to’g’ri jismoniy foydalanish imkonini cheklash;

- moliyaviy natijalar bo’yicha tahlil va natijalarni budjetda ko’zda tutilgan summalar bilan taqqoslash.

Moliyaviy hisobotning auditini o’tkazishda auditor faqat buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlaridagi moliyaviy hisobotga taalluqli siyosat va muolajalarga o’z e’tiborini qaratadi. Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlariga taalluqli jabhalarni tushunish, ajralmas tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiligiga baho berish hamda boshqa jabhalarni ko’rib chiqish bilan birgalikda auditorga quyidagilarga imkon yaratadi:

a) moliyaviy hisobotda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muhim bo'lajak noto'g'riliklar turini solishtirish;

b) muhim noto'g'riliklar tavakkalchiligiga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish;

c) tegishli auditorlik muolajalarini ishlab chiqish.

Audit o'tkazish bo'yicha yo'nalishni ishlab chiqishda, moliyaviy hisobot tasdiqlari yuzasidan tegishli aniqlab bo'lmalik tavakkalchiligini belgilash hamda bunday tasdiqlarni tekshirishga yo'naltirilgan mohiyati bo'yicha muolajalarning tavsifi, muddati va hajmini aniqlash uchun, auditor nazorat tavakkalchiligiga (ajralmas tavakkalchiligi bilan bir qatorda) berilgan dastlabki bahoni ko'rib chiqadi.

15-MAVZU. AUDITORLIK TEKSHIRUVINING YAKUNLANISHI. AUDITORLIK XULOSASI

15.1. Audit natijalarini umumlashtirish

Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Audit natijalarini umumlashtirish ishlari, asosan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ishchi hujjatlarni sharhlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash;

- aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash;

- auditorlik dalillarning yetarliligini baholash;

faoliyat ko'rsatayotgan korxona printsipi bilan bog'liq omillarni baholash;

- buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish;

- hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash;

- tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-korxona rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish;

- auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish.

Auditorlik tekshiruv o'tkazish chog'ida, asosan, tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydilar.

Ta'kidlash joizki, tekshiruv natijalari va xo'jalyk yurituvchi subyekt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi hollardagi kabi katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi zarur:

- xo'jalyk yurituvchi subyekt xodimlariga ma'lum bo'lgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari;
- tekshiruv uchun zarur bo'lgan, auditorga o'z vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki ma'lumotlarga doir xo'jalyk muomalalari;
- mutaxassislarning hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar;
- inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash qaydnomalari bilan rasmiylashtirilgan, lekin yetarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar;
- katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor so'rovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi;
- tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi ko'rsatmalar taqdim qilinmagan xo'jalik muomalalari.

Auditor to'plangan dalillar yetarliligini baholashda ushbu holatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit o'tkazish) hisobga olishi kerak. Shuningdek, katta xatolar xatarini dastlabki baholash va batafsil tekshirish rejalari ham e'tiborga olinishi lozim.

Agar bunday holatlar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan bo'lsa, unda auditor to'plangan dalillarning yetarliligiga va rejalashtirilgan hamda qo'shimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baho berishi zarur. 580-sonli «Subyekt rahbariyatining taqdimotlari» nomli AXS ga asosan, oxirgi auditorlik dalillari sifatida xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatining taqdimoti auditor tomonidan olinadi va ishchi hujjatlar tarkibiga kiritiladi.

Auditor subyekt rahbariyati Moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha moliyaviy hisobot haqiqiy taqdim etilishi yuzasidan o'z mas'uliyatini tan olganligi va moliyaviy hisobot subyekt rahbariyati tomonidan tasdiqlanganligi bo'yicha dalil olishi lozim. Auditor rahbariyat bunday mas'uliyatni tan olish va moliyaviy hisobotni tasdiqlash yuzasidan dalilni direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idora majlisining tegishli bayonnomalaridan yoki subyekt rahbariyatining yozma taqdimotnomalaridan yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasidan olishi mumkin.

Oqilonalik nuqtayi nazaridan boshqa yetarli bo'lgan tegishli dalillar mavjudligi kutilmayotgan holda auditor subyekt rahbariyatidan moliyaviy hisobot uchun muhim bo'lgan masalalar bo'yicha yozma taqdimotlar olishi lozim. Og'zaki taqdimotlar subyekt rahbariyati tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan taqdirda, rahbariyat bilan auditor o'rtasida tushunmovchiliklar vujudga kelish ehtimoli kamayadi.

Rahbariyatdan so'rab olinadigan yozma taqdimotlar, majmuyi yoki alohida ko'rinishda, moliyaviy hisobot uchun muhim masalalar doirasi bilan cheklanishi mumkin. Muayyan moddalar yuzasidan auditor ular muhimligini tushunganligi to'g'risida subyekt rahbariyatiga xabar berish ehtiyoji paydo bo'lishi mumkin.

Audit o'tkazish paytida rahbariyat o'z tashabbusi bilan yoki aniq belgilangan so'rovnomalar bo'yicha auditorga juda ko'p taqdimotlar taqdim etadi. Bunday taqdimotlar moliyaviy hisobot uchun muhim masalalarga tegishli bo'lgan taqdirda, auditor quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

a) subyekt ichidagi yoki uning tashqarisidagi manbaalardan tasdiqlovchi auditorlik dalillarni izlashi;

b) subyekt rahbariyatining taqdimotlari oqilonaligi va ular olingan boshqa auditorlik dalillarga, jumladan, boshqa taqdimotlarga izchilligiga baho berish;

c) subyekt taqdimotlarini tayyorlovchi shaxslar alohida masalalar bo'yicha qanchalik yaxshi xabardor ekanligini ko'rib chiqish.

Subyekt rahbariyatining taqdimotlari auditor asosli holda olishni kutayotgan boshqa auditorlik dalillar o'rnini bosa olmaydi. Masalan, aktivlar tannarxi yuzasidan subyekt rahbariyatining taq-

dimotlari, auditor ushbu tannarx bo'yicha, odatda, olishni ko'zlagan auditorlik dalil o'rnini bosa olmaydi. Agar auditor moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan masala bo'yicha yetarli bo'lgan tegishli auditorlik dalilini olmagan va bunday dalilni olish oson deb taxmin qilgan taqdirda, ushbu masala bo'yicha subyekt rahbariyatining taqdimoti olinganda ham, bu audit qo'lamini cheklash deb hisoblanadi.

Muayyan holatlarda, subyekt rahbariyatining taqdimotlari, natijalarni oqilona kutish bo'yicha mavjud bo'lgan yagona auditorlik dalil bo'lib hisoblanadi. Masalan, auditorning subyekt rahbariyatining muayyan investitsiyalarni ular qiymati uzoq muddatda oshgunga qadar ushlab turish maqsadlarini tasdiqlash uchun boshqa auditorlik dalillarini kutishga ehtiyoji yo'q.

Agar subyekt rahbariyatining taqdimotlari boshqa auditorlik dalilga zid bo'lsa, auditor vaziyatlarni o'rganib chiqishi va lozim bo'lsa, subyekt rahbariyati tomonidan qilingan boshqa taqdimotlarni qaytadan ko'rib chiqishi lozim.

Auditor, odatda, subyekt rahbariyatining taqdimotlari olinganligi holatini tasdiqlovchi dalillarni rahbariyat bilan qilingan suhbatlarni qisqa bayon qilish shaklida yoki subyekt rahbariyatining yozma taqdimotlari ko'rinishida ishchi hujjatlarga kiritadi.

Subyekt rahbariyatining yozma ravishdagi taqdimotlari og'zaki tarzdagilardan yaxshiroq dalil hisoblanadi va quyidagi ko'rinishda rasmiylashtirilishi mumkin:

a) subyekt rahbariyatidan yo'llangan xat-taqdimot ko'rinishida;
b) tegishli ravishda subyekt rahbariyati tomonidan tan olingan va tasdiqlangan subyektning taqdimotlari auditor tomonidan tushunganligini bayon qiluvchi auditorning xati yoki:

c) direktorlar kengashi yoki shunga o'xshash idoraning tegishli bayonnomalari yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi.

Subyekt rahbariyati xat-taqdimotining asosiy elementlari:

a) subyekt rahbariyatidan xat-taqdimotni so'rab, auditor ushbu xat uning nomiga yo'llanishi, aniq belgilangan ma'lumotga ega bo'lishi va tegishli ravishda sana qo'yilishi va imzolanishini so'raydi.

b) xat-taqdimotga, odatda, auditorlik hisoboti imzolangan sana qo'yiladi.

c) subyektning xat-taqdimoti, odatda, asosan subyekt faoliyatiga javob beradigan, yaxshi bilim va ishonchga asoslangan holda, uning a'zolari tomonidan imzolanadi (odatda, bu katta ijroiya direktor va katta moliyaviy direktor).

Agar subyekt rahbariyati auditor kerakli deb hisoblagan taqdimotlarni taqdim etishdan bosh tortsa, bu audit ko'lamini cheklash deb hisoblanadi va auditor o'z fikrini sharhlar bilan bildirishi yoki fikr bildirishdan voz kechishi lozim. Bunday vaziyatlarda auditor, odatda, audit paytida subyekt rahbariyati tomonidan qilingan boshqa barcha taqdimotlarning ishonchlilik darajasiga baho beradi va auditorlik hisobotiga rad etishning har qanday boshqa natijalarining ta'sirini ko'rib chiqadi.

Subyekt rahbariyati xat-taqdimotining namunasi:

Quyida keltirilgan xat standartlashgan shakl hisoblanmaydi. Subyekt rahbariyatining taqdimotlari bir subyektdan ikkinchisiga, bir davrdan ikkinchisiga qarab o'zgarishi mumkin.

Subyekt rahbariyatidan turli jabhalar bo'yicha taqdimotlar olishga intilish rahbariyat diqqatini ushbu jabhalarga jalb qilish uchun xizmat qilganligi bilan va shunday qilib, ma'lumot taqdim etish bo'yicha so'rovnoma mavjud bo'lmagan holatga nisbatan, subyekt rahbariyati tomonidan aynan ushbu jabhalar bo'yicha yanada ham batafsilroq ishlashga da'vat qilganligi bilan, auditor ushbu AXSga muvofiq auditorlik dalillar sifatida foydalaniladigan subyekt rahbariyati taqdimotlarining cheklovlari to'g'risida xabardor bo'lishi lozim.

(Korxonaning firmali blankasiga yoziladi)

(Auditorga)

(Sana)

Ushbu xat Siz tomondan ABC Kompaniyasining 20__-yil 31-dekabrda yakunlangan yili bo'yicha ushbu sana holatiga ko'ra, (tegishli Moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha konseptual asoslar ko'rsatilsin) muvofiq, ABC Kompaniyasining moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holati va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini hamda ushbu sanada yakunlangan yil bo'yicha pul oqimlarini haqiqiy va ishonchli aks etishini (yoki «barcha muhim jabhalar bo'yicha haqiqiy taqdim etilgan») aniqlash maqsadida

moliyaviy hisobot auditini o'tkazish munosabati bilan taqdim etiladi.

Biz moliyaviy hisobot (tegishli Moliyaviy hisobotni taqdim etish bo'yicha konseptual asoslar ko'rsatilsin)ga muvofiq taqdim etilganligi yuzasidan o'z mas'uliyatimizni tan olamiz.

Biz eng yaxshi bilimlar va ishonchga asoslanib, quyidagi taqdimotlarni tasdiqlaymiz:

Quyida subyektga taalluqli bo'lgan taqdimotlar keltirilishi lozim. Bunday taqdimotlar quyidagi jabhalardan iborat bo'lishi mumkin:

Rahbariyat va buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimlarida ahamiyatli o'rin tutgan xodimlar tomonidan hech qanday qoida-buzarlik yoki moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatadigan holatlar sodir etilmagan.

Biz Sizga mavjud bo'lgan barcha buxgalteriya kitoblari va tasdiqlovchi hujjatlarni, aksiyadorlar va direktorlar kengashi majlislarining bayonnomalarini (aynan 20__yil 15-martdan 20__ yil 30-sentabrgacha o'tkazilganlari bo'yicha) taqdim etmoqdamiz.

Biz bog'liq tomonlar solishtirilishi yuzasidan taqdim etilgan ma'lumot to'liqligini tasdiqlaymiz. Moliyaviy hisobotda, jumladan, tashlab ketilgan joylarida ham, muhim noto'g'riliklar mavjud emas.

Kompaniya, agar harakatlar ushbu jabhalarga muvofiq bo'lmagan holatda, moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan shartnomaviy majburiyatlarning barcha jabhalariga muvofiq harakat qilgan. Kompaniya agar harakatlar ushbu talablarga muvofiq bo'lmaganda moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hukumatning tartibga soluvchi idoralarining talablariga muvofiq harakat qilgan:

Quyida keltirilgan ma'lumot moliyaviy hisobotda tegishli ravishda aks etilgan va mos yoritilgan:

a) bog'liq tomonlar hamda schotlar qoldiqlari va bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar solishtirilgan:

b) sotib olish-sotish bo'yicha majburiyatlar tuzilishi natijasidagi zararlar;

c) oldin sotilgan aktivlarni qaytadan sotib olish bo'yicha keli-shuvlar va opsiyonlar;

d) ta'minlash sifatida garovga qo'yilgan aktivlar.

Bizda moliyaviy hisobotda aks etilgan aktivlar va majburiyatlarning balans qiymati yoki turkumlanishini muhim o'zgartirishi mumkin bo'lgan hech qanday reja va niyatlarimiz mavjud emas;

Biz qandaydir mahsulot ishlab chiqarilishini to'xtatishni rejalashtirmaganmiz va bizda tovar-moddiy zaxiralarning qandaydir ortiqchaligiga yoki eskirishiga olib keluvchi boshqa reja yoki niyatlarimiz mavjud emas; hisobda aks etilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati sotuvning sof qiymatidan yuqori emas;

Kompaniya barcha aktivlarga egalik qilish uchun yetarli huquqqa ega, moliyaviy hisobotning x-ilovasida qayd etilganidan tashqari, kompaniya aktivlari yuzasidan mulkiy yoki garov talablari mavjud emas;

Biz barcha majburiyatlarni, jumladan, amaldagilarni ham, shartlilarini ham hisobga oldik yoki tegishli ravishda yoritdik.

Bundan tashqari, moliyaviy hisobotning X ilovasida biz uchinchi tomonga taqdim etgan barcha kafolatlarni yoritdik;

Moliyaviy hisobotning x ilovasida keltirilgan dan tashqari, hisobot sanasidan keyin moliyaviy hisobotda yoki ushbu moliyaviy hisobotning ilovasida tuzatish yoki yoritishni talab qiladigan hech qanday hodisalar mavjud emas;

Xyz kompaniyasining hisoblanishi moliyaviy hisobotda tegishli ravishda aks etilgan da'vosi xxx summada qoplangan. Boshqa hech qanday sud da'volari mavjud emas va ko'zda tutilmagan;

Bizning qandaydir pul yoki investision schotlarimiz bo'yicha qoplash qoldig'i yuzasidan hech qanday rasmiy yoki norasmiy shartnomalar mavjud emas. Moliyaviy hisobotning x ilovasida yoritilgandan tashqari, bizda kreditlash bo'yicha hech qanday kelishuvlar mavjud emas;

Biz moliyaviy hisobotda aksiyadorlik kapitalini sotib olish bo'yicha opsion va shartnomalarni hamda opsion o'tkazish, varrantlar berish konversiyani amalga oshirish va boshqa talablarni bajarish uchun aksiyadorlik kapitalini tegishli ravishda hisobga oldik yoki yoritdik.

Bosh ijroiya direktor _____ Bosh moliyaviy direktor _____

Audit natijalarini umumlashtirish bilan birgalikda auditor, auditorlik tekshiruvini yakunlash jarayonida audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirishi lozim.

15.2. Audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirish

Auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlarini o'tkazish natijalari audit o'tkazishdan qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasini baholagan holda auditorning ishchi hujjatlarida qayd qilinishi lozim. Masalan, audit o'tkazish dasturining «Debitor va kreditor qarzlarni tekshirish» bo'limi bo'yicha o'tkazilgan audit natijalarini baholashda quyidagi auditorlik amallarini tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir;

– keyingi pul kirimlari va tegishli schotlar qoldiqlaridan to'langan to'lovlarga doir dastlabki hujjatlarni tekshirish. Auditorlar, odatda, buxgalteriya balansi tuzilgandan keyingi to audit o'tkazilgan oxirgi kunga qadar amalga oshirilgan to'lovlarni ham tekshiradi. – Bu tekshiruv natijalari hisob ma'lumotlarining ishonchliligini joriy majburiyatlarni balansda aks ettirishning to'liqligi va haqqoniyligi nuqtayi nazaridan baholashga imkon beradi. Ushbu amallarni bajarish natijasida joriy majburiyatlar to'liq va haqqoniy aks ettirilganligi to'g'risida olingan dalillar, buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng to'langan qarzlarga nisbatan yetarli darajada deb baholanishi mumkin. Shundan so'ng auditor to'lovi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan qarzlarning summalarining katta – kichikligini baholaydi;

– schotlarni buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng tayyorlangan moddiy javobgar shaxslar hisobotlari bilan, hisob ma'lumotlari bo'yicha qoldiqlar bilan solishtirish. Buxgalteriya hisoboti tuzilgan kundan oldin olingan barcha schotlar (yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun) joriy davrdagi hisobda va shu davr uchun tuzilgan hisobotda aks ettirishi kerak. Shuning uchun buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan so'ng tayyorlangan materiallar harakati to'g'risidagi hisobotlar va schotlardagi sanalar, mulklar va majburiyatlarning balansda to'g'ri

aks ettirilganligini tekshirish maqsadida taqqoslanishi maqsadga muvofiq;

— mavjud qoldiqlarni schot-fakturalar ma'lumotlari, moddiy javobgar shaxslar hisobotlari va to'lov hujjatlari bilan solishtirish. Agar debitor va kreditor qarzlarning miqdori xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy ahvoli uchun sezilarli darajada bo'lsa, auditorlar hisobga olishning to'g'riligi va aniqligini tekshirishi, shuningdek, hisob ma'lumotlari bo'yicha majburiyatlarning oshirib ko'rsatilmaganligini aniqlashlari lozim. Bu holda dastlabki hujjatlar ma'lumotlari analitik hisob registrlari (jurnallar, oborot yoki saldo qaydnomalari)da aks ettirilgan axborotlar bilan, oldin eng katta qoldiqlilaridan boshlab (chunki ular bo'yicha oshirib ko'rsatish ehtimoli ko'proq) solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha hisob yozuvlarida (masalan, bitta schotni hisob registrida ikki marta aks ettirish va shunga o'xshash) majburiyatlar (debitor va kreditor qarzar) oshirib ko'rsatilish holatlarining katta-kichikligini baholash zarur;

— mol yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlar bilan hisob-kitoblarni tasdiqlash. Audit o'tkazish chog'ida bunday tasdiqni olish majburiy emas. Lekin, ushbu amal ko'pchilik hollarda katta naf keltirishi mumkin. Masalan, mol yetkazib beruvchilardan olingan javoblar quyidagilarni tasdiqlash uchun ishlatilishi mumkin:

— mol yetkazib beruvchilar bo'yicha debitor qarzar ularning asosli da'vosi hisoblanadi;

— buxgalteriya hisobi ma'lumotlari mol yetkazib beruvchilarga barcha mavjud qarzlarni o'zida aks ettiradi;

— sotib olingan moddiy resurslar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar tegishli hisobot davrida aks ettirilgan. Bunda audit o'tkazish chog'ida kontragentlardan tasdig'ini olish zarurligi to'g'risida guvohlik beradigan omillarni belgilab qo'yish kerak: xaridlarni ichki nazorat qilish tuzulmasining bo'shligi; moliyaviy muam-molar; tovar-moddiy boyliklar bo'yicha qoldiqlar chiqarishda yoki qarzdorlarni tekshirishda yo'l qo'yilgan xatolar to'g'risidagi faktlar; bir necha mol yetkazib beruvchilardan qilingan katta xaridlar; xaridlar to'g'risidagi hisobot buxgalteriya balansini tuzish sanasiga tayyorlanmagan. Tasdiqlash ishlarining natijalarini umumlashtirib,

eng avvalo, ularning ishonchliligini baholash zarur. Bunda qarzlarning yozma va ogʻzaki shaklda tasdiqlangan miqdori va ahamiyatliligi baholanadi. Yozma shaklda olingan dalil-isbotlarni eng ishonchli deb tan olish qabul qilingan. Yozma tasdiqlarning ishonchliligi ularning toʻgʻri rasmiylashtirilishiga bogʻliq.

Tasdiqlar ishonchliligining tahlilidan kelib chiqib, tasdiqlangan va tasdiqlanmagan summalarining katta-kichikligi, shuningdek, majburiyatlarning ishonchliligi toʻgʻrisida auditor fikrini shakllantirish uchun olingan dalillar yetarliligi baholanadi;

– debitor va kreditor qarzlari analitik hisobi maʼlumotlarining tengligini tekshirish. Dastlabki hujjatlarni tekshirib chiqish yoki debitor va kreditor qarzlari tasdiqlanishini olish munosabati bilan auditorlar hisob-kitoblarni hisobga oladigan analitik hisob registrlarini tekshirib chiqishi hamda ularni bosh daftar maʼlumotlari bilan taqqoslashi lozim. Hisob-kitob muomalalari hisobga olinadigan schotlarni tahlil qilishda quyidagilar aniqlanishi mumkin:

– mol yetkazib beruvchilar schotlari boʻyicha debet qoldiqlar;
– mansabdor shaxslar, direktorlar, raislar, shoʻba va qaram korxonalarga va boshqa oʻzaro bogʻliq tomonlardan qarzlari summalar;

– mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarga doir haddan tashqari katta tuzatishlar;

– daʼvo muddati oʻtib ketgan yoki oʻtayotgan toʻlanmay qolgan schot-fakturalar.

Barcha belgi qoʻyilgan summalar yakuniy ishchi hujjatlarini tayyorlashda tahlil qilinishi va hisobga olinishi lozim. Ushbu ishlarining natijalarini boshqa olingan dalillar bilan taqqoslash maqsadga muvofiq. Masalan, daʼvo muddati oʻtib ketayotgan toʻlanmay qolgan schotlar va mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar boʻyicha debet qoldiqlarning aniqlangan summalariga maʼlumotlar muvofiqligi toʻgʻrisida tasdiq olinishi mumkin. Bu holda auditor analitik hisob maʼlumotlarining ishonchliligi haqida yetarli dalillarga ega boʻladi.

Agarda olingan tasdiqlar natijalariga koʻra kontragentda bunday qarzdorlikning yoʻqligi aniqlansa, u holda auditor analitik hisob maʼlumotlarini ishonchsiz deb baholashi mumkin.

Analitik hisob registrlari ma'lumotlarini bosh daftar bilan taqqoslash mijoz tomonidan vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan nazorat tadbiri hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, auditorlar qilingan taqqoslashlarni, aniqlangan g'ayrioddiy summalarni tahlil qiladi, jami summalarni qayta jamlab chiqadi.

15.3. Assistentlar tomonidan bajarilgan muolajalar sifatini tekshirish

Auditorlik firma barcha auditlar AFMS (AXS)ga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan milliy (xalqaro) standartlarga tegishli siyosat va sifat nazorati muolajalarini bajarishi lozim. Auditorlik firma muolajalar va sifat nazorati siyosatining tavsifi, muddati va hajmi bir qator omillar, jumladan, uning miqdori va faoliyat tavsifi, uning jo'g'rofiy tarqalganligi, tashkil etish darajasi va tegishli ravishda xarajatlar va naf ko'rishga bog'liq.

Auditorlik firma tomonidan qabul qilingan sifat nazorati siyosati masalalariga, odatda, quyidagilar kiradi:

a) malakaviy talablar:

Firma xodimlari mustaqillik, halollik, xolislik, sirni saqlash va kasbiy xulq-atvor tamoyillariga rioya qilishlari lozim.

b) Malaka va malakaviy kasbdan xabardorlik:

firma texnik standartlardan foydalana oladigan va ular talabiga rioya qiladigan, o'zining majburiyatlarini tegishli sinchkovlik bilan bajarish uchun imkoniyat yaratadigan o'z kasbi bo'yicha malakaviy ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlar bilan ta'minlanishi lozim;

c) vazifalarni topshirish:

auditorlik ishi ushbu vaziyatlarda talab qilinadigan tegishli texnikaviy tayyorgarlik darajasi va kasbiy bilimlarga ega bo'lgan xodimlarga topshirilishi kerak;

c) vakolatni yuklash:

bajarilgan ish tegishli sifat standartlari talablariga javob berishligi yuzasidan oqilona ishonchlilikni ta'minlash uchun kerakli darajada ishni yo'naltirish, uni boshqarishni amalga oshirish va barcha bosqichlarda sharhlash kerak;

d) maslahatlashish:

lozim bo'lsa, tegishli bilimlarga ega bo'lgan shaxslar bilan firmaning o'zida va uning tashqarisida maslahatlashishdan foydalanish lozim;

f) mijozlarni qabul qilish va saqlash:

doimiy ravishda bo'lg'usi mijozlarga baho berish va mavjud mijozlarni sharhlab borish lozim. Mijozni qabul qilish masalasi ko'rilganda yoki ubilan hamkorlikni davom ettirishda, firma mustaqil, tegishli ravishda xizmatlar taqdim etish qobiliyati va mijoz rahbariyatining halolligi degan mulohazadan kelib chiqish kerak;

e) monitoring:

sifat nazorati siyosati va muolajalarining mosligi va samaradorligi yuzasidan izchillik bilan monitoring o'tkazish lozim.

Auditorlik firmaning umumiy siyosati va sifat nazorati muolajalari oqilona ishonchlilik bilan ushbu siyosat va muolajalar tushunarli bo'lib, amaliyotda qo'llaniladigan tarzda firma xodimlarining ma'lumoti uchun yetkazilishi lozim.

Auditor firma siyosati va muolajalari kontekstida alohida audit uchun o'rinli bo'lgan sifat nazorati muolajalarini qo'llashi kerak.

Rahbarlik qilish vazifalariga ega bo'lgan auditor va auditorning yordamchilari, yordamchilar tomonidan topshirilgan ish bajarilayotganda, har bir alohida yordamchi ishi yo'nalish darajasini aniqlashda, rahbarlik qilish va sharhlashda ularning kasbga doir xabardorligini ko'rib chiqadilar.

Auditor yordamchilariga har qanday ish topshirilganda oqilona ishonchlilik bilan ushbu vaziyatlarda ish bajarayotgan shaxslar tomonidan ushbu ish tegishli sinchkovlik bilan bajarilishining ta'minlanishi lozim.

Ish topshirilgan yordamchilarni tegishli ravishda yo'naltirish lozim. Ish yo'naltirilishi yordamchilarni ularning majburiyatlari va ular tomonidan bajariladigan muolajalar vazifalari to'g'risida yetarli axborot berishdan iborat. Yordamchilarga axborot berish, shuningdek, subyekt faoliyatining tavsifi va ular jalb qilingan auditorlik muolajalarining muddati va hajmiga buxgalteriya hisobi va audit sohasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning ta'siri ham kiradi.

Audit dasturi audit yoʻnalishini auditor yordamchilarining maʼlumoti uchun yetkazishning muhim quroli hisoblanadi. Yoʻnalish berishda, shuningdek, auditor yordamchilarining maʼlumoti uchun auditning umumiy rejasi va vaqt budjetini yetkazish foydalidir.

Ishga rahbarlik qilish ishni yoʻnaltirish va uni sharhlash bilan yaqindan bogʻlikdir va oʻz ichiga ham u, ham bu elementlarni kiritishi mumkin.

Audit oʻtkazish vaqtida rahbarlik vazifalarini bajaruvchi xodimlarga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi: quyidagilarni aniqlash uchun audit oʻtkazish jarayoni dinamikasini monitoring qilish:

a) auditor yordamchilari oʻzlariga topshirilgan vazifalarni bajarish uchun kerakli boʻlgan malaka va kasbiy xabardorlikka egaligi;

b) auditor yordamchilari audit oʻtkazish yuzasidan berilgan koʻrsatmalarni tushunganligi;

c) ish auditning umumiy rejasi va dasturiga muvofiq bajarilayotganligi;

d) audit oʻtkazish vaqtida buxgalteriya hisobi va audit sohasi boʻyicha paydo boʻladigan muhim masalalar toʻgʻrisida maʼlumotga ega boʻlish va koʻrib chiqish hamda ularning muhimligiga baho berib, auditning umumiy rejasi va dasturiga tegishli oʻzgartirishlar kiritish;

e) xodimlar oʻrtasida har qanday kasbiy mulohazalardagi farqlarni hal etish va maslahatning tegishli darajasini aniqlash.

Quyidagilarni koʻrib chiqish uchun har bir auditor yordamchisi tomonidan bajarilayotgan ish eng kamida ular bilan bir darajada kasbdan xabardor boʻlgan xodimlar tomonidan tekshirilishi lozim:

a) ish audit dasturiga muvofiq bajarilayotganligi;

b) bajarilgan ishlar va olingan natijalar tegishli ravishda hujjatli rasmiylashtirilganligi;

c) auditning barcha ahamiyatli masalalari tartibga solinganligi yoki auditorlik xulosalarda aks ettirilganligi;

d) auditorlik muolajalar masalalari toʻliq bajarilganligi;

e) qilingan xulosalar bajarilgan ish natijalariga muvofiqligi va ular auditorlik xulosasini tasdiqlashligi.

Quyidagilar o'z vaqtida sharhlanishi lozim:

a) auditning umumiy rejasi va dasturi;

b) ajralmas tavakkalchilik va nazorat tavakkalchiligiga, shu jumladan, nazorat savolnomalar natijalariga va o'zgartirishlarga, agar ular mavjud bo'lib va baholash natijasida auditning umumiy rejasi va dasturiga kiritilgan holda baho berilganligi;

c) amalga oshirilgan muolajalar va ular asosida, jumladan, maslahatlar asosida ham qilingan natijalarga ko'ra auditorlik dalillar hujjatli aks ettirilganligi;

d) moliyaviy hisobot, taklif etilgan auditorlik tuzatishlar va rejalashtirilgan auditorlik hisoboti.

17. Yirik majmuaviy audit o'tkazilganda, auditorlik xulosasi tayyorlangunga qadar, auditning sharhlanishi tarkibiga, shuningdek, ushbu auditda ishtirok etmayotgan xodimlarga muayyan qo'shimcha muolajalar topshirilishi mumkin.

15.4. Hisobot berilgan vaqtgacha bo'lgan hamma voqealarga asoslangan dalillarni o'rganish va tekshirish

Auditor kelgusi hodisalar moliyaviy hisobotga va auditorlik hisobotga ta'sirini ko'rib chiqishi lozim.

16-sonli «Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo'jalik faoliyatning nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan xodisalar» Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) va 10-sonli «Shartli hodisalar va hisobot sanasidan keyin sodir etilgan hodisalar» Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) davr yakunlangandan keyin moliyaviy hisobotda aks etilgan ijobiy hodisalar bilan bir qatorda, salbiy hodisalarni ham ko'rib chiqadi va ushbu ikki turdagi hodisalarni solishtiradi:

a) davr oxiriga mavjud bo'lgan shartlar bo'yicha qo'shimcha dalillar taqdim etadiganlari;

b) davr yakunlangandan keyin vujudga kelgan vaziyatlarga qaratuvchilari.

Auditor moliyaviy hisobotda tuzatishlar yoki yoritishlar talab qilishi mumkin bo'lgan auditorning hisobot sanasigacha vujudga kelgan barcha hodisalar solishtirilishi yuzasidan yetarli bo'lgan

tegishli auditorlik dalillarini olish uchun muolajalarni amalga oshirishi lozim. Ushbu muolajalar, davr oxiriga schotlar qoldiqlari yuzasidan auditorlik dalillarni olish uchun davr yakunlangandan keyin vujudga kelgan aniq belgilangan operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladigan oddiy muolajalarga qo'shimcha ravishda bajariladi, masalan, tovar-moddiy zaxiralarni davr bo'yicha taqsimlash va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishni test sinovidan o'tkazish. Shunga qaramasdan, auditordan oldin qo'llanilgan muolajalar natijasida qoniqarli xulosalar ta'minlangan barcha jabhalar bo'yicha uzoq muddatli sharhlar o'tkazilishi talab qilinmaydi.

Moliyaviy hisobotda tuzatishlar va yoritishlarni talab qilishi mumkin bo'lgan hodisalarni solishtirish bo'yicha muolajalar iloji boricha auditorlik hisoboti sanasigacha bajarilishi lozim; odatda, ular quyidagilardan iborat:

- kelgusi hodisalar solishtirilishini ta'minlovchi subyekt rahbariyati tomonidan belgilangan muolajalarning sharhi;

- davr yakunlangandan keyin o'tkazilgan aksiyadorlar, direktorlar kengashi, auditorlik va ijroiya qo'mitalarining majlis bayonnomalari bilan tanishish va bayonnomalari hali tayyorlanmagan majlislarda muhokama qilingan masalalarni aniqlash;

- subyektning eng oxirgi mavjud bo'lgan oraliq moliyaviy hisoboti bilan tanishish va agar bu kerak va o'rinli bo'lsa, smeta, pul mablag'lari oqimining bashoratlari subyekt rahbariyatining boshqa hisobotga doir hujjatlari bilan tanishish;

- subyekt huquqshunosi bilan sud ishlari va da'volar yuzasidan so'rovnoma o'tkazish yoki oldingi yozma yoki og'zaki so'rovnomalarni davom etish;

- subyekt rahbariyati bilan moliyaviy hisobotga ta'sir etishi mumkin bo'lgan qandaydir kelgusi hodisalar sodir etilganligi yuzasidan so'rovnoma o'tkazish;

- dastlabki yoki yakuniy bo'lmagan ko'rsatkichlar asosida hisobga olingan moddalarning joriy ahvoli;

- yangi ehtimoliy majburiyatlar, qarzar yoki kafolatlar hisobga olinganligi;

- aktivlar sotilganligi yoki sotilishi rejalashtirilganligi;

– yangi aksiyalar va obligasiyalar chiqarilganligi yoki chiqarilishi rejalashtirilganligi, qo‘shilish yoki tugatilish to‘g‘risida kelishuvlar tuzilganligi;

– qandaydir aktivlar davlat tomonidan musodara qilinganligi yoki yo‘q bo‘lganligi, masalan, yong‘in yoki toshqin oqibatida;

– tavakkalchilik sohalari yoki shartli hodisalar yuzasidan qandaydir o‘zgarishlar sodir etilganligi;

– g‘ayriodatiy buxgalteriya tuzatishlari kiritilganligi yoki kiritilishi nazarda tutilganligi;

– moliyaviy hisobotda foydalanilgan hisob siyosati mosligini shubha ostiga oladigan qandaydir hodisalar vujudga kelganligi yoki vujudga kelish ehtimoli mavjudligi, masalan, agar bunday hodisalar uzluksiz faoliyat ko‘rsatish to‘g‘risidagi taxminni shubha ostiga qo‘ygan holatda nima bo‘lishi mumkinligi.

Tarkibiy qism, masalan, bo‘linma, filial yoki sho‘ba korxonasining auditi boshqa auditor tomonidan o‘tkazilgan taqdirda, auditor boshqa auditorning davr yakunlangandan keyingi hodisalar yuzasidan muolajalarini va auditorlik hisoboti tayyorlanishining rejalashtirilgan sanasi to‘g‘risida boshqa auditorga xabar berish kerakligini ko‘rib chiqishi lozim.

Auditorga muhim ta‘sir ko‘rsatadigan hodisalar to‘g‘risida ma‘lum bo‘lsa, auditor ushbu hodisalar tegishli ravishda hisobga olinganligi va moliyaviy hisobotda mos ravishda aks etilganligini ko‘rib chiqishi lozim. Auditor auditorlik hisoboti sanasidan keyingi moliyaviy hisobot yuzasidan bajarilgan muolajalar yoki amalga oshirilgan har qanday so‘rovnomalar bo‘yicha hech qanday mas‘uliyatga ega emas. Auditor hisoboti sanasidan to moliyaviy hisobot chop etilgunga qadar bo‘lgan davr mobaynida, moliyaviy hisobotga ta‘sir etishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risida auditorga xabar berish yuzasidan mas‘uliyat subyekt rahbariyati zimmasida bo‘ladi.

Auditorlik hisoboti sanasidan keyin, lekin moliyaviy hisobot chop etilgunga qadar auditorga moliyaviy hisobotga muhim ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan holat to‘g‘risida ma‘lum bo‘lsa, auditor moliyaviy hisobot tuzatish talab qilishini ko‘rib chiqishi hamda ushbu masalani subyekt rahbariyati bilan muhokama qilishi va ushbu vaziyatda o‘rinli bo‘lgan harakatni amalga oshirishi lozim.

Rahbariyat moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritgan taqdirda, auditor ushbu vaziyatlar talab qiladigan muolajalarni bajarishi va subyekt rahbariyatiga tuzatilgan moliyaviy hisobot bo'yicha yangi auditorlik hisobotini taqdim etishi lozim. Yangi auditorlik hisobotiga tuzatilgan moliyaviy hisobot imzolangan yoki tuzatilgan sanadan oldinroq bo'lgan sana qo'yilmaydi va muolajalarning ijro muddatini yangi auditorlik hisoboti sanasigacha uzaytirish lozim.

Agar auditor moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish kerak deb hisoblasa, subyekt rahbariyati esa moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritmasa va auditorlik hisoboti hali subyektga taqdim etilmagan taqdirda, auditor fikrini sharhlar bilan bildirishi yoki salbiy fikr bildirishi lozim.

Auditorlik hisoboti subyektga berilgan taqdirda, auditor subyektning umumiy boshqarish yuzasidan yakuniy mas'uliyatga ega bo'lgan shaxslarga ular moliyaviy hisobot va unga oid auditorlik hisobotini uchinchi shaxslarga taqdim etmasligi to'g'risida xabar berishi lozim. Agar keyinchalik auditorlik hisoboti berilsa, auditor auditorlik hisobotga nisbatan bo'lgan ishonchsizlikning oldini olish maqsadida chora-tadbirlarni ko'rishi lozim. Ko'rilgan chora-tadbirlar auditorning huquqiy vakolatlari va majburiyatlaridan hamda auditor huquqshunosining tavsiyalaridan kelib chiqadi.

Moliyaviy hisobot chop etilgandan keyin, auditor bunday moliyaviy hisobot yuzasidan amalga oshirilgan har qanday so'rov-nomalar bo'yicha hech qanday mas'uliyatga ega bo'lmaydi.

Moliyaviy hisobot chop etilgandan keyin, auditorga auditorlik hisoboti sanasiga mavjud bo'lgan holat to'g'risida ma'lum bo'lsa, va u o'sha sanada ma'lum bo'lgan taqdirda, auditor tomonidan o'z hisobotini modifikatsiyalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan taqdirda, auditor moliyaviy hisobot qayta ko'rib chiqishni talab qilishini ko'rib chiqishi, masalani subyekt rahbariyati bilan muhokama qilishi va ushbu vaziyatlarda o'rinli bo'lgan chora-tadbirlarni qo'llashi lozim.

Subyekt rahbariyati moliyaviy hisobotni qaytadan ko'rib chiqqan taqdirda, auditor ilgari chop etilgan moliyaviy hisobot va auditor hisobotini olgan barcha foydalanuvchilar vaziyat to'g'risida xabar olganliklariga ishonch hosil qilish uchun ushbu vaziyatda

kerakli bo'lgan auditorlik muolajalarini bajarishi, subyekt rahbariyati tomonidan qo'yilgan qadamlarni sharhlashi hamda qayta ko'rib chiqilgan moliyaviy hisobot bo'yicha yangi hisobot taqdim etishi lozim.

Yangi auditorlik hisoboti ilgari chop etilgan moliyaviy hisobot va ilgari taqdim etilgan auditorlik hisoboti qaytadan ko'rib chiqilishini kengroq yoritib beradigan izohlar bilan tushuntirish banddan iborat bo'lishi lozim. Yangi auditorlik hisobotiga qayta ko'rib chiqilgan moliyaviy hisobot tasdiqlangan sanadan oldinroq bo'lgan sana qo'yilishi mumkin emas va yuqorida ko'rsatilgan muolajalarning muddati, odatda, yangi auditorlik hisoboti sanasiga uzaytiriladi. Ayrim mamlakatlarning mahalliy me'yoriy hujjatlari, auditorga kelgusi hodisalar ta'sirida qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etgan va qaytadan ko'rib chiqilgan moliyaviy hisobotga tegishli auditorlik muolajalarni cheklashga ruxsat etadi. Bunday holatlarda yangi auditorlik hisobotida ushbu ta'sir tasdig'i ham bo'lishi lozim.

Subyekt rahbariyati ilgari auditorlik hisoboti bilan birgalikda moliyaviy hisobotni olgan barcha shaxslar vaziyat to'g'risida tegishli xabar olganligiga ishonch hosil qilish uchun tegishli choralarni amalga oshirmayotgan va auditor qaytadan ko'rib chiqilishi lozim deb hisoblagan moliyaviy hisobotni ko'rib chiqmayotgan bo'lsa, auditor subyektning umumiy boshqarish yuzasidan yakuniy mas'uliyatga ega bo'lgan shaxslarni auditor tomonidan auditorlik hisobotiga kelgusi ishonchni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar qo'llanishi to'g'risida xabardor qilishi lozim. Qo'llaniladigan chora-tadbirlar auditorning huquqiy vakolatlari va majburiyatlaridan hamda auditor huquqshunosining tavsiyalaridan kelib chiqadi.

Keyingi davr bo'yicha moliyaviy hisobotda tegishli ma'lumot yoritilib, bunday moliyaviy hisobotni chop etish muddati yaqinlashgan taqdirda, moliyaviy hisobotni qaytadan ko'rib chiqish va yangi auditorlik hisobotini chop etish talab qilinmasligi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar ommaviy taqdim etilgan holatlarda auditor qimmatli qog'ozlar taqdim etilgan holatlar mavjud bo'lgan yurisdiksiyalar bo'yicha auditorga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan barcha huquqiy va boshqa talablarni ko'rib chiqishi lozim.

Masalan, emissiya prospektining yakuniy sanasigacha qadar auditoridan qo'shimcha auditorlik muolajalarini o'tkazish talab qilinishi mumkin. Ushbu muolajalar, odatda, yuqorida ko'rsatilgan muolajalarni emissiya prospekti kuchga kirish sanasigacha yoki ushbu sanaga yaqinroq sanaga qadar bajarishdan hamda auditorida mavjud bo'lgan moliyaviy ma'lumot prospektidagi boshqa ma'lumotning izchilligiga baho berish uchun emissiya prospekti bilan tanishishdan iborat bo'ladi.

15.5. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi

Auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlash-tirilgan va baholangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

1) audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida hisobot; 2) buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

O'zbekistan Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunida belgilanishicha: *auditorlik hisoboti* auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat (18-modda).

70-son «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi» nomli AFMS ga muvofiq auditorlik hisobotining tarkibi quyidagicha: a) nomi («Auditorlik hisobot» yoki «Auditorlik tashkilotining hisoboti» degan har ikkala nom bir xil ma'noga ega); b) adresat nomi; c) kirish qismi; d) ta'kidlash qismi; e) yakuniy qism.

Auditorlik hisoboti moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan auditor(lar) tomonidan betma-bet imzolanishi lozim. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga,

buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan holda jo'natiladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, shu jumladan, auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar haqida ma'lumotlar, hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining umumiy tavsifi ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi auditorlik faoliyati milliy standartiga tayanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektda ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

- buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning ahvolini tekshirish natijalari;

- moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari;

- aktivlar (mablag'lar) saqlanishini tekshirish natijalari.

Korxonadagi ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ichki nazorat tizimi xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati tavsifi va miqyoslariga mos kelishini umumiy baholash;

- auditorlik tekshiruvi chog'ida aniqlangan, ichki nazorat tizimining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati tavsifi va miqyoslariga katta mos kelmaslik holatlarini bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining ahvolini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- buxgalteriya hisobining yuritilishi va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayonida aniqlangan katta qoidabuzarlik holatlarini bayon qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini

tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka mos kelishini baholash;

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayonida aniqlangan katta nomuvofiqliqlarni bayon qilish.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzilgan va tegishli organlarga taqdim qilingan hisob-kitoblarning to'g'riligini baholash;

- soliqdar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashning belgilangan tartibini buzish faktlarini, soliqqa tortiladigan bazani aniqlashdagi xatolarni bayon qilish.

Aktivlar saqdanishini tekshirish natijalari aktivlarni inventarizatsiya qilishga asoslanishi va ularning haqiqatda mavjudligi hamda butligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida aniqlangan xato-kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari hamda xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar va takliflari aks ettiriladi. 70-sonli «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi» nomli AFMSga muvofiq, auditorlik tashkiloti tuzilgan auditorlik hisoboti uchun qonunchilikka muvofiq javobgar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu AFMSning 16–17-bandlariga asosan, auditorlik hisobotidagi axborotlar maxfiy hisoblanadi va uni oshkor etish mumkin emas. Ushbu axborotlarga aloqador shaxslar axborotlarni oshkor qilganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladi.

Auditorlik tekshiruvining natijalari asosida tuzilgan hisobotda korxona moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalarining umumiy ahvoli, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning holati, tahlil ishlarining darajasi hamda korxonadagi hisob-tahlil xodimlarining tavsifi aks ettiriladi. Auditorlik hisoboti

ma'lumotlari korxona bozor sharoitlariga qanday moslashayotganligi va muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda foydasini ko'paytirishga qodirligini yoki aksinchaligini bildirishi lozim. Albatta, tekshirilayotgan korxonadagi ahvol bezab ko'rsatilmadan, auditorga taqdim qilingan axborot haqiqiy bo'lgandagina ehtiroslarga berilmagan va real auditorlik hisoboti hamda xulosa shakllanadi. Aks holda, auditorlik tekshiruvi befoйда va uni o'tkazish uchun sarflangan mablag' esa zoye ketadi.

Auditor hisobotda keltirilgan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf qilishga qaratilgan o'z takliflarini ham ko'rsatib o'tishi lozim. Lekin tekshirilayotgan korxona xodimlariga «yaxshilik» qilish maqsadida auditor shaxsan o'zi dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi xatolarni to'g'rilashi mutlaqo mumkin emas. Shu bilan birga, auditorlarga u yoki bu noxush faktlarni boshqacha qilib yoritishga yoki tekshiruvchilar uchun qulay xulosa tuzib berishga majburlash maqsadida ruhiy, jismoniy yoki boshqacha tazyiqlar o'tkazgan hollarda ular qat'iylik va printsipiallik bilan ish tutishlari lozim.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida korxona rahbariyatiga bildiradi va ularni tuzatish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Agar buxgalterlik (moliyaviy) hisobni yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish chog'ida buyurtmachi korxona tomonidan tuzatilmasa, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning ishonchliligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida auditorlik tekshiruvining xulosasida yoziladi.

15.6. Auditorlik xulosasi va uni tuzish tartibi

Auditorlik xulosasi buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchliligi axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik firmasiga ishonch bildiradilar. Ushbu ishonch, eng avvalo, auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida belgilanishicha, *auditorlik xulosasi* moliyaviy hisobotning to‘g‘riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to‘g‘risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo‘jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan hujjat. Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak (14-modda).

Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladigan auditorlik xulosasini tayyorlash ishlarida *auditorlik faoliyatining milliy standartlari* (AFMS) qoidalarining talablarini inobatga olish zarur. Auditorlik xulosasini tayyorlashda, asosan, №70 — «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to‘g‘risida auditorlik xulosasi» nomli auditorlik faoliyati milliy standartidan (AFMS) foydalaniladi.

Audit natijalari korxonadagi jarayonlar va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalarini tashkil etish va hisobga olishni xolisona aks ettirishi lozim. Boshqacha qilib aytanda, auditorlik tekshiruvni mumkin qadar obyektiv bo‘lib, uning xulosasi ma’lum ma’noda xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyati ustidan chiqarilgan «hukm» hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari topshirig‘iga binoan o‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O‘zbekiston Respublikasi prosessual qonunchiligiga muvofiq tayinlangan ekspertiza xulosasiga tenglashtiriladi. Auditorlik xulosasi uchta: kirish, ta’kidlovchi va yakunlovchi qismdan iborat bo‘lishi lozim.

1. Kirish qismida quyidagilar ko‘rsatiladi:

- auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlar;
- litsenziyasining tartib raqami;
- auditorlik tashkilotini davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risidagi guvohnomasining raqami;
- auditorlik tashkilotining hisob-kitob schoti;
- tekshiruvda ishtirok etgan barcha auditorlar hamda auditorlik tashkiloti rahbarining nasabi, ismi-sharifi.
- auditorlik tekshiruvni o‘tkazish uchun asos va xo‘jalik yurituvchi subyektning umumiy tavsifi;

– auditorlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun litsenziya bergan organ nomi va berilgan vaqti, shuningdek, litsenziyaning amal qilish muddati.

Shu bilan birga, auditorlik xulosasining kirish qismida tekshiruvdan oʻtkazilgan moliyaviy hisobotlar roʻyxati, sanasi va hisobot davri koʻrsatilgan holda aks ettirilishi lozim. Shuningdek, kirish qismida auditorlik tekshiruvdan oʻtkaziladigan hisobotning tayyorlanishi va ishonchliligi uchun maʼsuliyat xoʻjalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yuklatilishi, mazkur moliyaviy hisobot boʻyicha berilgan auditorlik xulosasi uchun esa auditorlik tashkiloti javobgar ekanligi koʻrsatilishi lozim.

2. Auditorlik xulosasining taʼkidlovchi qismida auditorlik xulosasi AFMSga muvofiq, oʻtkazilganligi taʼkidlanishi lozim.

Taʼkidlovchi qism moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axbotlarning ishonchligini va qonunchilikka hamda xoʻjalik yurituvchi subyekt moliya-xoʻjalik faoliyatining haqiqiy ahvoliga muvofiqligini baholanishi koʻrsatishi lozim. Shuningdek, taʼkidlovchi qismda oʻtkazilgan auditorlik tekshiruvi fikr bildirish uchun yetarli asos berishi toʻgʻrisida auditorlik tashkilotining tasdigʻi aks ettirilishi lozim.

3. Auditorlik xulosasining yakunlovchi qismida xoʻjalik yurituvchi subyektning buxgalterlik (moliyaviy) hisoboti ishonchliligi va qonunchilikka muvofiqligini tasdiqlash toʻgʻrisida yozuv yoziladi.

Auditorlik xulosasini auditorlik tashkilotining rahbari yoki auditorlik tashkilotining u vakolat bergan boshqa xodimi imzolaydi va auditorlik firmasi muhri bilan tasdiqlaydi.

Xoʻjalik yurituvchi subyekt faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining uchta turi mavjud: a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi; c) xulosa tuzishdan voz kechish.

Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobot koʻrsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga koʻra, ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xoʻjalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy

holati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi degan fikrga kelgan vaqtda tuzilishi lozim. Misol tariqasida ijobiy auditorlik xulosasining namunaviy shaklini keltiramiz. Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy ahvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalterlik hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan holda yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itish mumkin.

Salbiy auditorlik xulosasi tuzishiga quyidagi muayyan vaziyatlar sabab bo'lishi mumkin:

- auditor tomonidan aniqlangan buxgalteriya hisobotidagi xato-kamchiliklar jiddiy va salmoqli bo'lgan holatlar; ayrim mijoz-korxonalarda bunday holatlar ularning iqtisodiy nochorligi bilan birgalikda yuzaga, hatto amal qilayotgan korxona printsiplining buzilishiga etib boradi;

- moliyaviy hisobotni tasdiqash uchun zarur bo'lgan dastlabki hujjatlar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va hisob registrlari hamda boshqa hujjatlarning katta qismi korxona ma'muriyati tomonidan taqdim etilganda; bunda auditorlik tashkiloti vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda 70-son AFMS ga muvofiq auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechishi ham mumkin;

- ijobiy auditorlik xulosasi tuzishga to'sqinlik qiladigan boshqa obyektiv vaziyatlar ham, xususan, vaziyat taqozosi vujudga keladigan sohani cheklashlar;

- mijoz-korxona ma'muriyati moliyaviy hisobot ma'lumotlarini asosan to'g'ri deb, auditorlik xatolar va noaniqliklar to'g'risidagi asosiy xulosalari bilan rozi bo'lmasdan, tegishli hisob yozuvlarini tuzatishni batamom rad etish holatlari va hokazo.

Salbiy auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliyaviy va xo'jalik muomalalari moliyaviy hisobotda ishonarli aks ettirilgan, ammo qonunchilikka mos kelmaydigan hollarda ham tuziladi. Salbiy auditorlik xulosasini tuzishga, qoidaga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tashkiloti tomonidan aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida

moliyaviy hisobotga o'zgartishlar kiritish to'g'risida bildirilgan fikrga noroziligi sabab bo'ladi.

Auditorlik tekshiruv natijasida aniqlangan xato-kamchiliklar xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan tuzatilganda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Auditor buxgalterlik hisobi va hisobotining sifati to'g'risida ishonch bilan auditorlik xulosasi tuza olish uchun yetarli darajada ishonchli dalillar to'play olmagan vaqtda xulosa tuzmaydi. Bunday holat auditorlik tekshiruv hajmining cheklanganligi oqibatida moliyaviy hisobot to'g'risida fikr bildirish uchun auditorlik dalil-isbotlar yetarli bo'lmaganida yuzaga keladi.

O'zbekistan Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shartnoma tuzuvchi auditorlik tashkiloti va mijoz-korxona tadbirkorlik subyektlari sifatida teng huquqli bo'lsa ham, maqomi bo'yicha teng bo'la olmaydilar, chunki auditorlik tashkiloti tekshiriladigan xo'jalik tizimini nazorat qiladi. Bundan mijoz-korxona ma'muriyati auditorlik tashkilotining xulosa tuzishdan voz kechish ehtimoli oldindan aniqlanib qo'yilishiga rozi bo'lishi lozim degan xulosa kelib chiqishi mumkin. Bunday ehtimollik ham qonunchilikda belgilab qo'yilgan.

Auditorlik xulosasini tuzishdan voz kechish ayrim maxsus hollarda yuzaga keladi. Bular: auditor mustaqilligini yo'qotishi, balans tuzilgan sanadan keyingi sodir bo'lgan jiddiy hodisalar yoki vaziyatning noaniqligi, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan, yoki ayrim murakkab vaziyatlar tufayli audit o'tkazish sohasining cheklab qo'yilishi. Auditorning xulosa tuzishdan voz kechishi yozma ravishda, 70-son AFMSda ko'rsatilgan shakl bo'yicha rasmiylashtirilib, uning mazmuni juda ham puxta asoslangan bo'lishi lozim.

Auditorlik tekshiruv hajmining cheklanganligi — bu xo'jalik yurituvchi subyekt vakillari yoki uchinchi shaxslarning, boshlab qo'yilgan auditorlik tekshiruvini, auditor auditorlik xulosasini tayyorlash uchun yetarli deb hisoblaydigan hajmda o'tkazishga to'sqinlik qilishga qaratilgan ochiqdan-ochiq ko'rsatadigan xatti-harakatlari yoki harakatsizligidir.

Auditorlik xulosasini tuzishdan voz kechish ariza ko'rinishida bo'lib, «Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasini tuzishdan

«Erkin audit» auditorlik kompaniyasi	Litsenziya № «___» 20___	Andijon sh. O‘zbekiston ko‘cha, 1	Tel. (8-99-874) 223-67-57
Xulosaning qismlari	Auditorlik xulosasining matni		
Kirish qismi	Ijobiy auditorlik xulosasi Men (biz) _____ (auditorlik tashkilotining nomi va rekvizitlari) auditor (auditorlar) _____ _____ tomonidan (auditorlarning nasabi, ismi-sharifi) _____ ning (xo‘jalik yurituvchi subyekt nomi) 20__yil 1-yanvardan 31-dekabr gacha bo‘lgan davr uchun moliyaviy hisoboti tekshiruvdan o‘tkazildi. Auditorlik tekshiruvdan o‘tkaziladigan moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va ishonchliligi uchun mas’uliyat xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yuklatiladi. Auditorlik tashkiloti mazkur moliyaviy hisobot bo‘yicha berilgan xulosa uchun mas’ul hisoblanadi.		
Ta’kidlovchi qism	Biz auditorlik tekshiruvini AFMSlarga muvofiq o‘tkazdik. Ushbu standartlar bizga moliyaviy hisobot ma’lumotlaridan foydalanuvchilarda moliyaviy hisobotda unchalik ahamiyatli kamchiliklar yo‘qligi to‘g‘risida yetarli darajada ishonchni ta’minlash majburiyatini yuklaydi. Auditorlik tekshiruv moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchliligini va qonunchilikka hamda moliya-xo‘jalik faoliyatining haqiqiy ahvoriga muvofiqligini baholashdani borat. Biz o‘tkazgan auditorlik tekshiruvimiz fikr bildirishimiz uchun yetarli asosga ega deb hisoblaymiz.		
Yakunlovchi qism	Bizning fikrimizcha, _____ning (xo‘jalik yurituvchi subyekt nomi) moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini ishonarli aks ettiradi va mazkur xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliyaviy va xo‘jalik muomalalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq. Auditorlik tashkiloti rahbari _____ (imzo) Auditorlar _____ (imzolar) «___» _____ 20___-y. M.O‘		

voz kechish to'g'risidagi arizasi» deb nomlanadi va quyidagi shaklda bo'ladi.

Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasini tuzishdan voz kechish to'g'risidagi arizasi.

Men (biz) _____
(auditorlik tashkilotining nomi va rekvizitlari)
auditor (auditorlik tashkiloti) _____
(auditorlarning nasabi, ismi-sharifi)
tomonidan

_____ ning
(xo'jalik yurituvchi subyekt nomi)

20____ yil 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo'lgan davr uchun moliyaviy hisoboti tekshiruvdan o'tkazildi.

Xo'jalik yurituvchi subyekt _____
(xo'jalik yurituvchi subyekt nomi)

xorijiy mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarini to'liq taqdim qilmadi. Bu biz boshlagan auditorlik tekshiruvini, auditorlik xulosasi tayyorlash uchun zarur hajmda o'tkazishga imkon bermaydi deb hisoblaymiz.

Yuqorida keltirilgan auditorlik tekshiruvining hajmini cheklash faktiga asosan, auditorlik tashkiloti

(auditorlik tashkilotining nomi va rekvizitlari)
xo'jalik yurituvchi subyekt _____

(xo'jalik yurituvchi subyekt nomi)

moliyaviy hisoboti to'g'risida fikr bildirishdan voz kechadi.

Auditorlik tashkiloti

rahbari _____

(imzo)

Auditorlar _____

(imzolar)

«_____» _____ 20__-y. M. O'

Agar salbiy xulosa tuzilsa yoki xulosa tuzilmasa, auditor ta'kidlovchi qismda tekshiruv natijalarini, aniqlangan amaldagi qonunchilik buzilishi faktlarini va korxona faoliyatidagi boshqa kamchiliklarni batafsil bayon qiladi.

Auditorlik xulosasi kamida uch nusxada tuzilib, uning ikki nusxasi auditorlik tekshiruvni buyurtmachisi, ya'ni korxona rahbariyatiga taqdim qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar auditorlik tekshiruvni yakunlanganidan so'ng 15 kun ichida auditorlik xulosasining bir nusxasini o'zlari joylashgan hududdagi soliq organiga taqdim qiladilar.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun tushunarli bo'lib, unda auditorning ikkilanish va (yoki) noroziligidan kelib chiqqan cheklashlar aniq ko'rsatilishi lozim. Auditorlik xulosasi barcha moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar olish imkoniga ega bo'lgan ochiq axborot hisoblanadi. Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan chop ettirilishi mumkin.

Agar ko'rsatilgan kamchiliklar buxgalteriya hisobotining haqqoniyligiga ta'sir qilmaydigan bo'lsa, auditor xulosa tuzishga kirishadi. Aks holda auditor buxgalteriya hisobining yuritilishi va korxona tomonidan taqdim qilingan hisobotlar to'g'riligini tasdiqlashdan bosh tortishi lozim.

Faqat ko'rsatilgan kamchiliklar tugatilgandan so'nggina tekshiruvlarni yakunlashi va ularning natijalari bo'yicha xulosa tuzish mumkin. Buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishdagi kamchiliklarni tugatish uchun korxonaga berilgan vaqt, odatda, agar bunday ishlarning jiddiyligi va sermehnatligi real baholansa, ikki-uch oydan oshmasligi lozim.

Auditorga barcha zarur ma'lumotlar buzib ko'rsatilgan holda taqdim etilganligini u bilmagan bo'lsa, bunga auditor javobgar hisoblanmaydi. Bu hollarda barcha javobgarlik zarur ma'lumotlarni auditorga taqdim etishi lozim bo'lgan, tekshirilayotgan korxona ma'muriyati va uning ma'sul xodimlariga yuklatiladi.

Shu boisdan, korxona rahbari va moliya-hisob xizmati xodimlari oldindan, auditorlik xulosasini oxirgi tahrirda tuzgunga qadar tanishib chiqishlari, agarda ularda ayrim holatlarga nisbatan norozilik, mulohaza yoki qandaydir takliflari bo'lsa, ushbu bildirilgan fikrlar diqqat bilan eshitilib, korxona xodimlari ishtirokida muhokama qilinishi va asoslangan holda chiqarib tashlanishi yoki e'tiborga olinib, xulosaning oxirgi tahririda inobatga olinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni (2016-yil 13-aprel).
2. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahrir). — T.: 2000.
3. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami. — T.: 1998.
4. Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom. O'zRVMning 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
5. *Abdullayev Yo.* Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob. — T.: «Mehnat», 1998.
7. *Abdullayev Yo., Ibroximov A., Raximov M.* Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob. — T.: «Mehnat», 2016.
8. *Abdulkarimov I.T.* Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. — T.: 1998.
9. *Abryutina M.S., Grachev A.V.* Analiz finansova-ekonomicheskoy deyatelnosti predpriyatiya. — M.: 2016.
10. *Bakanov M.I., Shermet A.D.* Ekonomicheskij analiz. — M.: «Fikanel i statistika», 1999.
11. *Dexkonov S., Asrorov I.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Ma'ruza matnlari. — T.: 2000.
12. *Ergeshev E.* — Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Darslik — T.: «Moliya nashriyoti», 2000.
13. *Ibroximov A.T.* Moliyaviy tahlil. — T.: «Mehnat», 1995.
14. Korxonaning moliyaviy tahliliga doir uslubiy tavsiyanomalar. — Soliqlar va bojxona xabarlari, 1997.
15. Makroiqtisodiy statika. S.G'ulomov tahriri ostida. — T.: 2000.
16. *Pardayev M.K.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik — Samarqand, 2016.
17. *Raxmonov K.* Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini tahlil qilish. — T.: 1996.
18. *Савицков Г.В.* — анализ хозяйственной деятельности предприятий АПК. Учебник — Минск 000 «Новое знание», 2016.

19. *Tulaxo'jayeva M.* Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilish. — T.: 1996.
20. *Shoalimov A.X.* Sanoat korxonalari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish. — T.: 1992.
21. *Kudratov T.K.* O'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi statistik tahlili. Samarqand, 1990.
22. *Kudratov T.K., Dustmatov S.M.* Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatmalar va topshiriqlar to'plami. Samarqand, 1996.
23. *Qudratov T.K.* Korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili fanidan bajariladigan amaliy mashg'ulotlar to'plami va ular yechimi bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar qo'llanmasi. Samarqand, 2000.
24. *Qudratov T.K.* Qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik faoliyatining tahlili. Ma'ruzalar kursi. Samarqand, 2016.
25. *Qudratov T.K.* Iqtisodiy tahlil nazariyasi muammoli leksiyalar kursi. Samarqand, 2004.
26. *Qudratov T.K., Dehqonov S.D.* Qishloq xo'jalik statistikasi o'quv qo'llanma. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». — T.: 2004.
27. *Abdullayev A., Abduvahobov O., Qayumov I.* Audit asoslari. Darslik. — T.: 2003.
28. *Do'smurotov R.D.* Audit asoslari. Darslik. — T.: 2003.
29. *Musayev H.N.* Audit. Darslik. — T.: 2003.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

1-mavzu. Iqtisodiy tahlilning mazmuni va ahamiyati

1.1. Iqtisodiy tahlil to'g'risida tushuncha va uning ahamiyati.....	4
1.2. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti va uning usullari.....	4
1.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy tahlilning vazifalari.....	9

2-mavzu. Korxonalarining yillik hisobotlarining to'g'riligini tekshirish

2.1. Buxgalteriya balansi ko'rsatkichlarining o'zaro mosligini tekshirish..	10
2.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligini tekshirish.....	13
2.3. Mahsulotlarni sotish to'g'risidagi hisobot ko'rsatkichlarining to'g'riligini tekshirish.....	17

3-mavzu. Mahsuloti ishlab chiqarish va sotish rejasi hamda dinamikasining tahlili

3.1. Mahsulotlarning turi va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish ahvolining taqqoslama tahlili.....	19
3.2. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili.....	23
3.3. Yalpi mahsuloti hajmining omilli tahlili.....	25
3.4. Tovar mahsulotlarini sotish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili.....	26

4-mavzu. Mahsulot tannarxining tahlili

4.1. Mahsulot tannarxi umumiy hajmining tahlili.....	33
4.2. Tovar mahsuloti xarajatining omilli tahlili.....	36
4.3. Mahsulot tannarxi tarkibiy tuzilishining tahlili.....	41

5-mavzu. Korxonalarida foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining tahlili

5.1. Foyda va rentabellik ko'rsatkichlari hamda ularni hisoblash usullari..	43
5.2. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda hajmining omilli tahlili...	46
5.3. Sotilgan mahsulot rentabelligining omilli tahlili.....	49

6-mavzu. Korxonalar moliyaviy holatining tahlili

6.1. Buxgalteriya balansi asosida korxona umumiy moliyaviy ahvolini tahlil qilish.....	52
6.2. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining tahlili.....	55
6.3. Korxonaning to'lovga qodirlik ko'rsatkichining tahlili.....	58
6.4. Korxonaning o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish darajasining tahlili.....	60
6.5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili.....	63

7-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish rejasining bajarilishi va dinamikasining omilli tahlili

7.1. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligining tahlili....	69
7.2. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasining tahlili.....	73
7.3. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	76

8-mavzu. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxining omilli tahlili

8.1. Ishlab chiqarish xarajatlari umumiy hajmining tahlili.....	79
8.2. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari tannarxining tahlili.....	82
8.3. Tannarx tarkibidagi xarajat moddalari o'zgarishining omilli tahlili.....	85

9-mavzu. Qishloq xo'jalik korxonalarining yalpi pul daromadi va foydasi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish

9.1. Qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulotlarni sotishdan olingan pul daromadi rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qilish.....	93
9.2. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishdan olingan yalpi foydaning omilli tahlili.....	98
9.3. Qishloq xo'jalik mahsulotlari rentabelligining tahlili.....	102

10-mavzu. Savdo korxonalarida tovar oborot rejasining bajarilishi va uning o'zgarishiga omillar ta'sirining tahlili

10.1. Savdo korxonalarida tovar oboroti va muomala xarajatlarining tahlili.....	105
10.2. Tovar aylanish hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat omillari ta'sirining tahlili.....	109
10.3. Muomala xarajatlarining umumiy hajmi va darajasining o'zgarishini tahlil qilish.....	112

11-mavzu. Savdo korxonasining moliyaviy holatining tahlil

11.1. Savdo korxonasi yalpi daromadi rejasining bajarilishini tahlil qilish.....	116
11.2. Savdo korxonasi foydasi rejasining bajarilishini va dinamikasini tahlil qilish.....	119
11.3. Sotilgan tovar rentabelligining tahlili.....	123

12-mavzu: Auditning predmeti va uslublari

12.1. Auditning predmeti va obyektlari.....	127
12.2. Auditning uslublari	129

13-mavzu. Auditning mohiyati, ahamiyati va uni tartibga solish

13.1. Auditning turlari, xillari va shakllari. Audit va taftish	131
13.2. Auditor va mijoz o'rtasidagi o'zaro aloqalar.....	145
13.3. Auditorlik faoliyatini tartibga solish.....	150
13.4. Auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmuni va ahamiyati.....	155

14-mavzu. Auditorlik tekshiruvini tayyorlash

14.1. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida shartnoma. Dastlabki kelishuvlar.....	164
14.2. Auditorning mijoz oldidagi majburiyat xati.....	169
14.3. Subyekt to'g'risida umumiy ma'lumot olish.....	173
14.4. Auditning umumiy rejasi va dasturini tayyorlash.....	180
14.5. Auditda jiddiyligni aniqlash.....	189
14.6. Auditorlik tavakkalchiligi va ichki nazorat tizimini baholash....	195

15-mavzu Auditorlik tekshiruvining yakunlanishi. Auditorlik xulosasi

15.1. Audit natijalarini umumlashtirish.....	201
15.2. Audit dasturining barcha bandlari bajarilganligini tekshirish....	208
15.3. Assistentlar tomonidan bajarilgan muolajalar sifatini tekshirish....	211
15.4. Hisobot berilgan vaqtgacha bo'lgan hamma voqealarga asoslangan dalillarni o'rganish va tekshirish	214
15.5. Auditorlik hisoboti va uni tuzish tartibi.....	219
15.6. Auditorlik xulosasi va uni tuzish tartibi.....	222
Foydalanilgan adabiyotlar.....	231

**Abdurauf ABDULLAYEV,
Saidjamol Maxmudov KODIRJONOVICH,
Umidaxon Raximova ABDURAYIMOVNA,
Odiljon Maxmudov XOLMIRZAYEVICH,
Akramjon Mamajonov TURGUNOVICH**

IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT

*Muharrir **Dildora Abduraimova**
Badiiy muharrir **Maftuna Vaxxobova**
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**
Musahhih **Dildora Abduraimova**
Sahifalovchi **Gulchehra Azizova***

Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2018-yil 19-oktyabrda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₁₆. Ofset qog'oz. Tayms TAD garnituras. Shartli bosma tabog'i 13,71. Nashr tabog'i 15,0. Shartnoma № 101–2018. Adadi 300 nusxada. Buyurtma № 57.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tezkor matbaa bo'limida chop etildi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244–10–45. Faks: (371) 244–58–55